

Nizomiy Ganjaviy

XUSRAV va SHIRIN



821.512.162-1

G 20

NIZOMIY GANJAVIY

Xusrav va Shirin

Originaldan O'zbekiston xalq shoiri
Jamol Kamol tarjimasi

Maxsus nashr

نيزامی

Azərbaycan Respublikası Mədəniyyət Nazirliyi
Kitab Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına Azərbaycan Mədəniyyət
Mərkəzinin layihəsi çərçivəsində çap edilib

Ozərbaycan Respublikası Mədəniyyət Vəzirligi
Kitob Ozərbaycan Respublikasının O'zbekistondagi Heydər Əliyev
nomidagi Ozərbaycan Mədəniyyət Mərkəzi layihəsi əsasında chop etildi

Loyiha rəhbəri:

Samir ABBOSOV

O'zbekistondagi Heydər Əliyev nomidagi
Ozərbaycan Mədəniyyət Mərkəzi rəhbəri,
fəxriy mədəniyyət xodimi

Təqrizçi:

Baxtiyər NAZAROV

Akademik, O'zbekiston Fanlar Akademiyası
o'zbek tili, ədəbiyyoti və folklor instituti bo'limi boshlig'i

So'zboshi muallifi:

Teymur KARIMLI

Akademik, Ozərbaycan Milliy İmlar Akademiyası
Muhammad Fuzuliy nomidagi Qo'lyozmalar
Institutunun direktori

Müərrir və nəşrgə
təyörlovchi:

Gulbahor ASHUROVA

filologiya fanları nomzodi, dotsent

Nəşrgə masul:

Karimulla MAMMAD-ZADE

filologiya fanları bo'yicha falsafa doktori

Nizomiy Ganjavly. "Xusrav və Shirin". Boku: "Nusxa" Nəşriyyoti,
2021. – 576 b.

ISBN: 943-9943-4373-8-7

UO'K: 82-1.512.162.

© J.Kamol, 2021

© "Nusxa", 2021

© O'zbekistondagi Heydər Əliyev nomidagi Ozərbaycan Mədəniyyət Mərkəzi, 2021

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/32-2

*Azərbaycan Respublikasında 2021-ci ilin
"Nizami Gəncəvi ili" elan edilməsi haqqında
Azərbaycan Respublikası Prezidentinin*

Sərəncamı

Dünya ədəbiyyatının görkəmli nümayəndəsi, dahi Azərbaycan şairi və mütəfəkkiri Nizami Gəncəvi bəşəriyyətin bədii fikir salnaməsində yeni səhifə açmış nadir şəxsiyyətlərdəndir. Nəhəng sənətkarın xalqımızın mənəviyyatının ayrılmaz hissəsinə çevrilmiş parlaq irsi əsrlərdən bəri Şərqi misilsiz mədəni sərvətlər xəzinəsində özünəməxsus layiqli yerini qoruyub saxlamaqdadır.

Nizami Gəncəvi ömrü boyu dövrün mühüm mədəniyyət mərkəzlərindən olan qədim Azərbaycan şəhəri Gəncədə yaşayıb yaradaraq, Yaxın və Orta Şərq fəlsəfi-ictimai və bədii-estetik düşüncə tarixini zənginləşdirən ecəzkar söz sənəti incilərini də məhz burada ərsəyə gətirmişdir. Nizami Gəncəvinin geniş şöhrət tapmış "Xəmsə"si dünya poetik-fəlsəfi fikrinin zirvəsində dayanır. Mütəfəkkir şair çox sayda davamçılarından ibarət böyük bir ədəbi məktəbin bünövrəsini qoymuşdur. Nizaminin ən məşhur kitabxana və muzeyləri bəzəyən əsərləri Şərq miniatur sənətinin inkişafına da təkan vermişdir.

Nizami dühası hər zaman dünya şərqşünaslığının diqqət mərkəzində olmuşdur. Ölkəmizdə Nizami sənətinin öyrənilməsi və tanındılması sahəsində xeyli iş görülmüş, əsərlərinin nizamişünaslıqda yüksək qiymətləndirilən elmi-tənqidi mətni hazırlanmış, kitabları nəfis tərtibatda və kütləvi tirajla nəşr edilmişdir. Nizaminin ədəbiyyatda və incəsənətdə yaddaqalan obrazı yaradılmışdır. Mütəfəkkir şairin doğma şəhəri Gəncədə məqbərəsi, Bakıda, Sankt-Peterburqda və Romada heykəlləri ucaldılmışdır.

Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının Ədəbiyyat İnstitutu və Milli Azərbaycan Ədəbiyyatı Muzeyi Nizami Gəncəvinin adını daşıyır. Böyük Britaniyanın Oksford Universitetinin Nizami Gəncəvi Mərkəzi uğurla fəaliyyət göstərir.

Nizami Gəncəvinin yubileyləri ölkəmizdə hər zaman təntənə ilə keçirilmişdir. Dahi şairin 800 illik yubileyi onun irsinin tədqiqi və təbliğində əsaslı dönüş yaratmışdır. Azərbaycanın klassik ədəbi-mədəni irsinə həmişə milli təəssübkeşlik və vətənpərvərlik mövqeyindən yanaşan ümummilli lider Heydər Əliyev Nizami irsinə də xüsusi diqqət yetirmişdir. Heydər Əliyevin təşəbbüsü ilə 1979-cu ildə qəbul olunmuş "Azərbaycanın böyük şairi və mütəfəkkiri Nizami Gəncəvinin irsinin öyrənilməsini, nəşrini və təbliğini daha da yaxşılaşdırmaq tədbirləri haqqında" qərar Nizami yaradıcılığının tədqiqi və təbliği üçün yeni perspektivlər açmışdır. Olmaz sənətkarın 1981-ci ildə Ulu Öndərin bilavasitə təşəbbüsü və iştirakı ilə keçirilən 840 illik yubiley mərasimləri ölkənin mədəni həyatının əlamətdar hadisəsinə çevrilmişdir. 2011-ci ildə Nizami Gəncəvinin 870 illiyi dövlət səviyəsində silsilə tədbirlərlə geniş qeyd edilmişdir.

2021-ci ildə dahi şair və mütəfəkkir Nizami Gəncəvinin anadan olmasının 880 illiyi tamam olur. Azərbaycan Respublikası Konstitusiyasının 109-cu maddəsinin 32-ci bəndini rəhbər tutaraq, qüdrətli söz və fikir ustasının insanları daim əxlaqi kamilliyə çağıran və yüksək mənəvi keyfiyyətlər aşılayan zəngin yaradıcılığının bəşər mədəniyyətinin nailiyyəti kimi müstəsna əhəmiyyətini nəzərə alaraq qərara alıram:

1. 2021-ci il Azərbaycan Respublikasında "Nizami Gəncəvi İli" elan edilsin.

2. Azərbaycan Respublikasının Nazirlər Kabineti "Nizami Gəncəvi İli" ilə bağlı tədbirlər planı hazırlayıb həyata keçirsin.

İlham Əliyev
Azərbaycan Respublikasının Prezidenti
Bakı şəhəri, 5 yanvar 2021-ci il

*Ozarbayjon Respublikasida 2021 yilning
"Nizomiy Ganjaviy" yili deb e'lon qilinishi haqida
Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining*

Qarori

Dunyo adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy insoniyat badiiy tafakkur yilnomasida yangi sahifa ochgan nodir shaxslardan biridir. Xalqimiz ma'naviyatining ajralmas qismiga aylangan buyuk so'z san'atkorining yorqin merosi asrlar davomida Sharqning mislsiz madaniy boyliklari qatorida munosib o'rnini saqlab kelgan. Nizomiy Ganjaviy butun hayoti davomida o'sha davrning eng muhim madaniy markazlaridan biri bo'lgan Ganja shahrida yashab ijod qilgan va Yaqin Sharqning falsafiy-ijtimoiy va badiiy-estetik tafakkuri tarixini boyitib ajoyib so'z san'ati marvaridlarini yaratgan.

Nizomiy Ganjaviyning mashhur "Xamsa" asari jahon she'riy va falsafiy tafakkurining cho'qqisidir. Mutafakkir shoir ko'plab izdoshlaridan iborat katta adabiy maktabning poydevorini qo'ydi. Dunyoning eng mashhur kutubxona va muzeylarni bezab turgan Nizomiy asarlari Sharq miniatyura san'atining rivojlanishiga ham turtki berdi. Nizomiy dahosi doimo jahon sharqshunosligi diqqat markazida bo'lgan. Kitoblarini chop etish borasida juda ko'p ishlar qilindi. Asarlarining ilmiy-tanqidiy matni tayyorlandi, yuqori did va saviyadagi dizayn va ommaviy tirajda kitoblar nashr etildi.

Adabiyot va san'atda Nizomiyning unutilmas obrazi yaratildi. Mutafakkir shoirning maqbarasi uning tug'ilgan shahri Ganjada, haykallari Boku, Toshkent, Sankt-Peterburg va Rimda o'rnatilgan. Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Adabiyot instituti va

Ozarbayjon adabiyoti milliy muzeyi Nizomiy Ganjaviy nomi bilan atalgan. Buyuk Britaniyaning Oksford universitetining Nizomiy Ganjaviy nomidagi markazi muvaffaqiyatli ishlamoqda.

Mamlakatimizda Nizomiy Ganjaviyning yubileyi doimo nishonlanib kelgan. Buyuk shoirning 800 yilligi uning merosini o'rganish va targ'ib qilishda burilish nuqtasi bo'ldi. Ozarbayjon mumtoz adabiy va madaniy merosiga har doim milliy g'oya va vatanparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan umummilliy rahbar lider Haydar Aliev ham o'z davrida Nizomiy merosiga alohida e'tibor qaratgan.

1979 yilda Haydar Aliev tashabbusi bilan qabul qilingan "Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy merosini o'rganish, nashr etish va targ'ib qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Nizomiy ijodini o'rganish va targ'ib qilishning yangi istiqbollarini ochdi.

1981 yilda buyuk yo'lboshchining bevosita tashabbusi va ishtiroki bilan o'tkazilgan o'lmas so'z san'atkorining 840 yilligini nishonlash mamlakat madaniy hayotida muhim voqeaga aylandi.

2011 yilda Nizomiy Ganjaviy tavalludining 870 yilligi davlat miqyosida bir qator tadbirlar bilan keng nishonlandi. 2021 yilda buyuk shoir va mutafakkir Nizomiy Ganjaviy tavalludining 880 yilligi nishonlanadi. Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 32-bandiga binoan, milliy-ma'naviy fazilat, so'z va g'oyalarning qudratli ustozining faoliyati yuksak qadrlanib qaror qilinadi:

1. Ozarbayjon Respublikasida 2021 yil "Nizomiy Ganjaviy yili" deb e'lon qilinsin.

2. Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Nizomiy Ganjaviy yili" bilan bog'liq harakatlar rejasini ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

Ithom Aliev
Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti
Boku shahri, 2021 yil 5 yanvar.

Layihəyə dair

Türk dünyası dünyaya böyük alimlər, filosoflar, şairlər, yazıçılar bəxş edib. Belə istedadlardan biri də görkəmli Azərbaycan şairi, mütəfəkkiri və filosofu Nizami Gəncəvidir.

Azərbaycan Respublikasının Prezidenti İlham Əliyev tərəfindən 2021-ci ilin "Nizami Gəncəvi ili" elan edilməsi, dahi şairin 880 illik yubileyi münasibətilə Azərbaycanın böyük şairi, dünya şöhrətli söz ustası Nizami Gəncəvinin 5 əsərini özündə əks etdirən "Xəmsə"nin özbək dilində xüsusi nəşri həyata keçirilmişdir.

Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzinin layihəsi və sifarişinə ilə son 3 il ərzində dahi Nizami Gəncəvinin bütün əsərləri orijinaldan Özbəkistanın xalq şairi Camal Kamal tərəfindən özbək dilinə tərcümə edilmiş və sözügedən tərcümə əsasında tarixdə ilk dəfə olaraq Nizami Gəncəvinin "Xəmsə"si tam və mükəmməl şəkildə özbək dilində işıq üzü görmüşdür.

Azərbaycan, Şərq və dünya ədəbiyyatı xəzinəsinin incisi sayılan Nizami Gəncəvi "Xəmsə"si özbək dilinə tərcümə edilərək ictimaiyyətə, xüsusilə ədəbiyyatsevərlərə, tədqiqatçılara təqdim olunur.

Bununla da elm, mədəniyyət, irfan və poeziya yurdu hesab edilən Özbəkistanda da Nizami Gəncəvi irsinə əbədi abidə ucaldıldı.

Samir ABBASOV

*Özbəkistandakı Heydər Əliyev adına
Azərbaycan Mədəniyyət Mərkəzinin direktoru,
fəxri mədəniyyət xadimi*

Loyiha haqida

Turkiy dunyo jahonga buyuk allomalar, faylasuflar, shoirlar, yozuvchilar baxsh etgan. Ana shunday iste'dodlardan biri atoqli Ozarbayjon shoiri, mutafakkiri va faylasufi Nizomiy Ganjaviydir.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning 2021-yil "Nizomiy Ganjaviy yili" deb e'lon qilinishi, ulug'shoir tavalludining 880 yilligi munosabati bilan Ozarbayjonning buyuk shoiri, jahonga mashhur so'z ustasi Nizomiy Ganjaviyning besh asarini ozida aks ettirgan "Xamsa"ning o'zbek tilidagi maxsus nashri amalga oshirildi. O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazining loyihasi va buyurtmasiga ko'ra o'tgan uch yil mobaynida daho Nizomiy Ganjaviyning barcha asarlari O'zbekiston xalq shoiri Kamol Jamol tomonidan aslyatdan o'zbek tiliga tarjima qilindi va mazkur tarjima asosida tarixda ilk bora Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si o'zbek tilida dunyo yuzini ko'rdi.

Ozarbayjon, Sharq va jahon adabiyoti durdonasi hisoblangan Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"si o'zbek tiliga tarjima qilinib, jamoatchilikka, xususan, adabiyot ixlosmandlari va tadqiqotchilarga taqdim etilmoqda.

Shunday qilib, ilm-fan, madaniyat, irfon va she'riyat qasri bo'lgan O'zbekistonda Nizomiy Ganjaviyning abadiy haykali qad rosladi.

Samir ABBOSOV

*O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi
Ozarbayjon Madaniyat Markazi direktori,
faxriy madaniyat xodimi*

JAHON SHOIRI

1180-yilda buyuk Ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) mashhur "Xamsa" – "Beshlik"ning ikkinchi yirik asari bo'lgan "Xusrav va Shirin" dostonini yoza boshladi. O'sha davrning eng dohiy shoirlaridan biri sifatida Nizomiyning dovrug'i doston bo'lgan bo'lib, nomi eng uzoq Erzinjonda ham, boshqa o'lkalarda ham taniqli edi. Bu holatda Saljuqiylar imperiyasidan nisbatan mustaqil bo'lib chiqqan Ozarbayjon Otabeylar davlatining (1136-1225) poytaxt shaharlaridan biri hisoblangan Ganjada uning shoirlilik qudrati ko'zga tashlanmay iloji yo'q edi. Ona Vatanida doston yozish uchun ilk buyurtmani Sulton To'g'ruldan, Muhammad Jahon Pahlavondan, Qizil Arslondan oldi. To'g'ri, mavzu uning o'z istagi bilan emas, balki havasnoma janrida yozishni talab qilardi. Yuksak axloqi, namunaviy adab-arkoni bilan ajralib turuvchi shoir ochiqcha aytmasa ham, didaktikadan havasnomaga, ya'ni ishq-muhabbatdan hikoya qiluvchi asarga o'tganidan norozi bo'lardi:

*Mening xazinam bor – "Maxzanul-asror"
Havasnoma yozsam, ne ma'nosi bor?
Lekin odam bormi dunyoda bu kun?
Havasnomalardan uzoqda yursin.*

Faqat Nizomiyning dohiyligi shundaki, uning qalami janrning shakliy qoliplariga rioya qilmaydi, aksincha janrni qalam talablariga rioya qilishga majbur qiladi. Nizomiyning "Xusrav va Shirin"i ham havasnoma chegaralarini yorib chiqib, oliy, muqaddas, yaratuvchi, o'zgartiruvchi muhabbat haqida manzum badiiy traktat, hatto esse darajasigacha chiqa oldi. Shubhasiz, buni yuksak badiiylikka alohida urg'u bergan holda bajardi. Shuning uchun Nizomiyning katta mehr bilan yaratgan Shirin obrazi dun-

yo adabiyotida eng ideal ayol qahramonlardan biri sifatida baholanishi mumkin. O'zini qadimiy turk hukmdori Afrosiyob vorisi hisoblagan Ozarbayjon va Arman hokimi Mobinbonuning oqil maslahatlari, qonida azaliy olijanoblik, jangovarlik, adolat tuyg'ulari bo'lgan bu obraz xislatini yana-da orttirib, uni betakror darajaga olib chiqadi. Bu esa Nizomiyning Shirini dunyo adabiyoti tarixi davomida yaratilgan eng mukammal ayol obrazlaridan biri sifatida diqqatga sazovor qiladi. Doston nomi "Xusrav va Shirin" bo'lsa ham, ya'ni "Layli va Majnun"dan farqli o'laroq, erkak ismi avval kelsa-da asar davomida muallif simpatiyasi Shirin tomonida ekanligini sezishimiz mumkin.

Shirinni bu darajada mehr-muhabbat bilan tasvirlashining yana bir sababi dunyodan bevaqt ko'z yumgan suyuqli ayoli, aziz farzandi Muhammadning onasi Ofoq (Oppoq) - qipchoq go'zalining zohiriy va botiniy qiyofasi unda aks etishida edi. Shuning uchun Shirinning o'lini Nizomiy qattiq qayg'uga soladi, xuddi Ofoqning turklardek ko'chmanchiga o'xshab bu dunyoni tark etishidagi g'am-anduhini yana bir bor his qilgandek ko'z yoshlariga g'arq bo'ladi:

*O'qi bu dostonni qalbdanda anduhla,
Ul go'zal Shirin uchun tinmayin yig'la.
Chun erta turk etdi u bu olamni,
Yoshlikda so'ldi ol atirgul kabi.
Qipchoq sanamimdek o'q kabi suzdi,
Ofoq sevgilimning naq o'zi edi.
U Darband shohining tuhfasida edi,
Sof, oqil, dilbarim gul guncha edi.
Turklardek bo'lgandi ko'chmoqqa muhtoj,
Turklardek ayladi yurtimni taroj.
Ul turkim ketdi, oh, bir kun chodirdan,
Asra turkzodamni, sen, ey, Yaratgan!*

Faqat g'alati eshitilsa ham, bu dostonda yaratgan Shirin obrazini bilan Nizomiy o'z Ofoqiga o'lmas obida qo'yib ketdi.

Chunki Nizomiy san'ati, uning "Xusrav va Shirin" dostoni hayot ekan, har safar dostonning eng g'amli sahnasi bo'lgan Shirinning o'limi sahnasiga yetganda o'quvchi Shirin bilan birga Ofoqqa, uning baxtsiz taqdiriga ham ko'z yoshi to'kmasdan kitobni yopib qo'ya olmaydi. Bu esa Nizomiy san'atining mo'jizalaridan, inson tuyg'ulariga ta'sir kuchining shakllaridan biridir.

Keyingi dostonlarida ham ko'rganimizdek, Nizomiy tarixiy mavzuga murojaat qilsa ham, tarix yozmaydi va uni bir maqsad sifatida oldiga qo'ymaydi. Nizomiyning badiiy-poetik maqsadi butkul boshqa, bu maqsadiga esa buyuk ustalik bilan erisha oladi. Bu maqsad – Aristotelning ta'biri bilan aytganda, nimaning qanday bo'lganini emas, qanday bo'lishi kerakligini poetik so'zning umumiy lashtirish va fantaziya kuchi bilan ko'rsatilishidir.

"Xusrav va Shirin" dostonining ham qahramonlari bizga tarixiy xronikalardan, Firdavsiyning "Shohnoma"sidan tanish bo'lgan obrazlarni takrorlamaydi, aksincha Nizomiy ularni o'z yashagan davrlaridan olib, nafaqat o'zining davriga, balki o'zidan keyingi kelajakka qadar olib boradi. Va bu – Nizomiy utopiyasi emas, uzoqni ko'ra oluvchi tafakkurga molik bo'lgan gumanist shoir san'ati qudratidir.

"Xusrav va Shirin" dostoni asar bosh qahramoni Xusravning dunyoga kelishi bilan boshlanadi. Bu tasvirda kichik Xusrav tarixiy shahzodadan ko'ra ko'proq ertak qahramonlariga o'xshaydi, ulardek mukammal go'zallikka, xush fe'l-atvorga, mehribonlikka, hamma bilan samimiy munosabat qobiliyatiga ega bolakay sifatida tasvirlanadi. Lekin bu shunchaki ilk nazardir. Nizomiy novator ijodkor sifatida o'zidan avvalgi adabiyotda tasvirlangan, ijobiy qahramonlarning qotib qolgan, bir xil, qolipdagi taqdimini qabul qilmaydi, adabiy personajga bo'lgan munosabatda o'z yondashuvlari asosida qaraydi.

Dostonda Nizomiyning doimo o'ylantiruvchi va o'z davrining hukmdorlariga namuna sifatida yaratgan Hurmuz va Mohinbonu obrazlari ham qiziqish uyg'otadi. Xusravning otasi Hurmuz Xusrav guruhi tomonidan ov vaqtida zarar ko'rgan

qishloqlik uchun o'z o'g'liini jazolashdan ham toymaydi. Buyuk gumanist shoir Nizomiy bu epizodni yozadi va zavq bilan tasvir-
lab, o'z munosabatini bildiradi:

*Qani bu davrda bunday shoh, qani?
Berar o'z o'g'liga bunday jazoni?
Endi yuz yo'qsilning to'kilsa qoni,
Borib madad bo'lgan odamlar qani?*

Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonida muhabbat konsepsiyasining qo'yilishi va g'oyaviy-estetik yakuni ham qiziqish uyg'otadi, buyuk shoiming novator uslubining asosiy ko'rsa-
tuvchilaridan biriga aylanib, uning san'ati qudrati oldida o'quv-
chi hayratini yana-da oshiradi. "Koinotda hamma narsa jozibaga
bog'liq!" degan Nizomiy umumdunyo (hatto umumkoinot) tort-
tishish qonunini Nyutondan (1643-1727) 500 yil avval ilgari
surgan. Bu torttishishni "ishq" deb nomlagan Ozarbayjon shoiri
tabiat hodisalari bilan inson munosabatlari orasida uzilmas rishta
borligini tasdiqlaydi.

"Xusrav va Shirin" dostoni Nizomiy avtografik kotiblari
qo'liga yetib borgach uning ustida xattotlar (oltin suvi bilan
naqsh chizuvchilar) va miniaturachi rassomlar ham ishladi, asr-
lar davomida asarga bag'ishlab yuzlab go'zal miniaturalar chi-
zildi. Ozarbayjon va boshqa mamlakatlarning eng mashhur ras-
somlari tomonidan chizilgan ushbu miniaturalar bugungi kunda
ham rassomlarni ilhomlantiradi, zamonaviy davrda ularning ijod
an'analarni davom ettirilishiga sababchi bo'ladi.

Shu yerda juda muhim narsani qayd etib o'tish lozimki,
amalga oshirgan loyihalari bilan doim Ozarbayjon madaniyati,
san'ati, adabiyotini tanitish masalalarida o'zining mislsiz tuhfa-
larini bergan O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozar-
bayjon Madaniyat Markazi Ozarbayjon adabiyotining so'z sulto-
ni, bashariyatning dohiy siymolaridan biri bo'lgan Nizomiy
Ganjaviyning "Xamsa"sining to'liq variantda tarjima qilinib, ki-

tob ko‘rinishida chop etish loyibasini qo‘llab-quvvatlash orqali bu sohada yangi tarix sahifasini yozmoqda.

Qayd etish joizki, Nizomiy Ganjaviyning barcha asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish maqsadida 2015-yilda O‘zbekiston-dagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi direktori Samir Abbasov bilan O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol o‘rtasida imzolangan shartnoma natijasida Nizomiy Ganjaviyning “Sirlar xazinasi”, “Layli va Majnun”, Iskandarnoma asarining “Iqbolnoma”, “Sharafnoma” poemalari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, o‘zbek o‘quvchilariga taqdim etildi.

Nizomiy Ganjaviy yo‘lining durdonalari hisoblangan bu asarlar o‘zbek o‘smir va yoshlariga buyuk so‘z sultoni Nizomiy bilan yaqinroqdan tanishish va uning asarlarini o‘qish imkonini beradi, qardosh o‘lka tadqiqotchilari uchun mislsiz manba rolini o‘ynaydi.

Yozilgan davrdan beri dohiy Nizomiyning besh durdonasi-dan biri bo‘lgan “Xusrav va Shirin” dostoni bir qancha tazkiral-lar, tadqiqotlarga manba bo‘lgan, uning ta’rifiga bir qancha go‘zal so‘zlar aytilgan. Shu sababli ham biz dostonni har tomon-lama tahlil qilishdan voz kechib, faqatgina ba’zi fikrlarimizni o‘quvchilar bilan bo‘lishmoqchi bo‘ldik.

Muvaffaqiyat baxsh etuvchi Ulug‘ Tangridir – Nizomiy o‘z dostonining boshida aytganidek:

*Ko‘mak eshigingni och, ey, Yaratgan!
Ko‘rsat Nizomiyga to‘g‘ri yo‘l har on!
Seni tan olguvchi ko‘ngil ber unga!
Ta’rifini aytguvchi hir til ber unga!
Yo‘l qo‘yma, yomonlik qulbiga to‘lsin,
Qo‘lim yomonlikdan uzoqroq bo‘lsin.
Ko‘nglimning uyini nuringla bezat!
Sening ta’rifingga tilimni o‘rgat!
Dovuddek ko‘nglimni yangila har on,
Qalqsin Zaburinning shuhrati hamon.
Ta’himning kelini bokira, qutlug‘*

Kelsin yer yuziga yuzi-da yorug'.
Uni o'qiganda yurak shodlansin,
Anbar sepgan yeri Xallux atalsin.
Jamoli ko'zlarga doim nur hersin,
Ovozi yurakka ming surur bersin.
Desinlarki, shodlik kitobi budur,
Bu hilan mushkullar tez oson bo'lur.
U bilan ma'noga o'zing qudrat her!
Saodat mulkiga go'zal ziynat ber!
Lochin ko'zlarida uni et shirin,
Shirin haqidadir o'zi asarning.
Lutfing atir sochgan moh bo'lsin unga,
Fayzining qatراسi shoh bo'lsin unga!
Uzma karamingni ey Parvardigor,
Sen, ey, gavhar Koni, keltir nimang bor!

Tangri qudrati va dostonning o'zi haqida bundan yaxshi so'z aytish mumkin emas!

Teymur KARIMLI,
akademik



Aziz kitobxon!

“Xusrav va Shirin” Shayx Nizomiy “Xamsa”sining ikkinchi dostonidir. Kitob sizni qadim Sharqning olag’ovur dunyosiga boshlab kiradi, ajabki, o’sha zamonlarda ham yuraklarni yoritgan nur muhabbat mash’ali ekan. Asarda Xusravning Shiringa, Shirinning Xusravga sevgisi baland pardalarda tarannum etiladi. Shu boisdan bu buyuk manzuma go’zal ishq dostoni, muhabbatnoma deb ataladi.

Doston Xusrav va Shirinning fojeali o’limi bilan tugaydi. Otasini o’ldirgan Shero’ya ham omon qolmaydi, boshqa manbalardan ma’lum bo’lishicha u tezda halokatga yuz tutadi.

Padarkush toju taxtga loyiq ermas,
Zamoni olti oydan ortiq ermas, -

degan hikmat uning sha’niga aytilgan.

Ishqnomani o’qing, uni qariyb to’qqiz asr muqaddam qog’ozga tushirgan daho shoirning porloq ilhomi va kalomidan bahramand bo’ling.

Bismillohir Rahmonir Rahim

Debocha

Xudovando, tavfiq eshigin och,
Nizomiyga yo'ling ko'rsat, nuring soch.

Ko'ngil bergilki, ul boringni bilgay,
Zabon bergilki, ta'rifingni qilgay.

Yomonlik topmasin ko'nglim sari yo'l,
Tubanlik cho'zmasin jonim sari qo'l.

Yorit, ko'nglimga to'lsin nuru tal'at,
Tilimga surayi madhingni o'rgat.

5 Dovudiydin dilimni toza ayla,
Zaburimni baland ovoza ayla.

Yasatdim bir sanam, andoq chekib jon,
Muborak chehra qil olamda har on.

O'qib har kimsa farrux bo'lsin andin,
Etishgan joyi Xallux bo'lsin andin.¹

Chiroyi ko'zni ravshan aylasin bot,
Jarangidin ko'ngillar bo'lsin obod.

Mufarraqnoma deb bilsinlar oni,²
Muammoga kalit qilsinlar oni.

¹ Xallux – Turkistonda go'zallari bilan mashhur bo'lgan shahar.

² Mufarraqnoma – shodlik, farah bag'ishlovchi kitob.

Maoniyni aning-la sarbaland et,
Saodat mulkini andin chaman et.

Jamolin shohga shirin et, dilorom,
Uning foligadir Shirin degan nom.

Inoyatdin nasim yor ayla unga,
Shukuhing qatrasin bor ayla unga.

Magar yor aylading fayzi nisoring,
Ketur, ey koni ma'ni, har ne boring!..

Hazrati Boriyning tavhidi, tanholigi xususida

O'shalkim, topdi borliq nom andin,
Falak junbush, zamin orom andin.

Xudodir ul, Yaralmish barcha borliq,
Berarlar borlig'in aytib guvohliq.

Ta'olullohki, toq, bemislu monand,
Xudovandlar anga derlar Xudovand.

Falak barpo etib, portlatdi yulduz,
Aqlga ilmu hikmat berdi so'ngsiz.

Fikr gavharlarin bunyod etib sha'n,
Qorong'u kechalarni etdi ravshan.

G'amu shodlik yaratdi, vahmu ummid,
Tunu kun hosil etdi oyu xurshid.

Hama pastu balandga posbon Ul,
Hama borliq, uning, borliq jahan Ul.

Abdulla Qodiriy nomidagi

viroyat xatiga

INV № 2023/32 - 2

Vujudi jumla mavjud uzra qohir,
Nishoni bor ko'rar ko'zlarga zohir.

Berur anjunga farmon qudratidin,
Tabiatga chiroyi san'atidin.

Hama ahli nazarlarning murodi,
Hama xilvatnishinlar e'timodi.

Xudoyim deb chaqir sen, chorla chandon,
Vale yo'qdir uni ko'rmakka imkon.

25 Chu andin yaxshiroq bir podsho yo'q,
Sen unga banda bo'l, bunda xato yo'q.

Jahonda har ne ersa, al-asos ul,
Ki andin ayru fikr etsang, qiyos ul.

Uni izlab, chiqib to avji aflok,
Vahimlar ichra qolmish aqlu idrok.

Xirad hushyor turib axtardi rozin,
Bilolmay qoldi oxir chappu rostin.

Uni bilmoqlik ermas garchi dushvor,
Vale hayratlar ichra qolmog'ing bor.

30 Arodin ulki borliq-parda ketgay,
Uning naqshi nazarda jilva etgay.

Chu zudlik-sustlik ermas hukmiga mos,
Balandu pastlik ermas zotiga xos.

Qidirsang koinot asroridin sir,
Ular senda, sen ersang unda hozir.

O'zingni gul kabi yuz pora ayla,
Uning dog'ini sen siynangga joyla.

U joydin chiqdingu bu joyga etding,
Bu joydin kech, magar ul joyga etgung.

35 Hisob etguvchi gar ezidshunosdir,
Dalildir bilgani yoki qiyosdir.

Qiyos aylar aql ul joygacha to,
Yaratgandin dalil gar unda paydo.

Ki yo'q undan nari andishaga yo'l,
Bo'lur yo toqqa, yo chohga duchor ul.

Chu bilding ul Xudoying bordiru bas,
Uni axtarmog'ingga aylama qasd.

Kelarkan har sham'din ro'shno'lik,
Berar vahdoniyatdin ul guvohlik.

40 Gahi tuproqaro gullar taratgay,
Gahi suvdan tirik jonlar yaratgay.

Aql berdi tanishga jonu tandin,
Yana ko'z berdiki, qo'rqil o'shandin.

Falakdin to'qqiz harfin erga to'kdi,
Ruqumi handasiy tuproqqa chekdi.³

Jigardin berdi ul ruh bog'iga suv,
Aql sham'iga ham yog' berdi, yog'du.

³ Ruqumi handasiy – handasa raqamlari.

Yana berdi o'shal olti tarafni,
Zaminga to'rtta gavhardin sharafni.

45

Yaratmoqlikni etdi bo'yla og'oz,
Kishi bilmas nechuk erdi o'shal roz.

Saranjom ayladi ishni shu sur'at.
Ki ojizdir uni bilmoqqa fikrat.

O'zingdin izlama hargiz xudolik,
Xudolikka etolmas kadxudolik.

Hama borliqni Ul xor aylaguvchi,
Hama yo'qlikni ham bor aylaguvchi.

U baxsh aylar, o'zi baxshandayi jud,
Ki ilkin moyalarni etdi mavjud.

50

Nishona berdi ixlosdin maroqli,
Ki bo'lsin bir amalga ul yaroqli.

Biriga berdi, ehson aylasin deb,
Birini etdi mumsik, g'amlasin deb.

Na ehson aylaguvchi sirriga yor,
Na mumsigu xasis sirdin xabardor.

Na bilgay o'tki, ul aylaydi so'zon,
Na bilgay suvki, ul baxsh aylagay jon.

Xudovanddirki. kimsa sherik ermas,
Hama hammol erurlar amriga, bas.

55

O'sha hammollar ichra kimda bor had,
Ki etgay unga lof urmoqqa jur'at?

Berib dunyo, o'zi bir zarra olmos,
Berib daryo. o'zi bir qatra olmos.

Ajab qudratki, hayratlarga solmish,
Bu yanglig' tartibot aylab namoyish...

Yaratganni bilish xususida

Bilarsanmi, samo sayyohlari chun
Er uzra charx urarlar kun demay tun?

Ularna ne emishdir bunda ma'bud,
Kelib-ketmoqdin ul ne erdi maqsud?

60 Ne istarlar chunon mahmil tashishdin,
Ne izlarlar yana manzil oshishdin?

Nechun bu sobitu sayyoradir ul,
Kim unga "yur" debon, bunga demish "tur"?

Kiyib tun barcha guldek yuzni yuvmish,
Ibbat aylanmoqqa hozir ermish.

Manam hozir, tushib hayratga yuz bor,
Kirib butxonaga boylashga zunnor.

Vale bosganda hayratlar davomi,
Inoyat urdi bongin: ey Nizomiy!

65 Ko'zing och, bo'lma bu butlarga shaydo,
Sig'inmaslar ular o'zlarga tanho.

Hama sarson kezarlar misli pargor,
Ularni mavjud etganga talabgor.

Senga joiz emasmi, garchi mushkil,
Bekitsang bir yo'la buxonani ul?

Sen Ibrohim bobongga taqlid ayla,
O'shal butxonadin butlarni hayda.

Tikilsang butga, bas, suratparastsen,
Oyoq bos unga, sindirgil xalossen.

70 Baliqdin oygacha har neki paydo,
Ilohiy ganj uza tilsimdir, illo.

O'shal tilsimni ochsang gar chekib ranj,
Nasib etgusi senga gavhari ganj.

Tabiatga damo-dam mil tortib,
Xirad ko'zini ochgil nil tortib.

Dema gardunga ko'z tashlab, xayoldir,
Bu mushkul bandini echmak maholdir.

Qani bu yo'lda bizga rahnamo kas?
Tuzilmish bo'ylakim, behuda ermas.

75 Bilishga gar muvofiq ersa bu roz,
Naqshlardin biri bergaydi ovoz.

Bu aylanguvchi gumbazlarki purnur,
Yiroqdin ko'rganing bir aylanishdir.

Durust, gar aylanish ersa shiori,
Demak bir istagi bor, ixtiyori.

Boqib bilgay yana zukko ko'ruvchi,
Ki bordir ortida aylantiruvchi.

Qari kampir nechuk aylantirur charx?
Qiyos et, bo'ylakim aylanadur charx.

80 O'shal charx aylanarmu bo'ylakim hech,
Birovdin unga ta'sir etmasa kuch?

Muhimdir avvalin turtki bu ishda,
Davom etgay keyin ul aylanishda.

Chu gardun gardishi andin qiyosdir,
Bilar har kimsakim, gardunshunosdir.

Xudoyingdin etib lutfi xudolik,
Shudring topmasa to ro'shnolik.

Qalam yurmaydi yangi noma uzra,
Tikish tushmaydi yangi joma uzra.

85 So'ra andin, senga munchoq sochar nur,
U baxsh etmas esa, oy ham qarodur.

Hama suratda ko'rsatgay jamolin,
Olur yulduzlar andin naqshi folin.

Biri o'n arpani mehrob aylab,
Biri qo'sh toshni usturlab aylab,

O'shal charx aylanarkan kecha-kunduz,
Degaykim, bunga toshu arpa bois.

Dema, arkondin andoq keldi mardum,
Axir, arkonni keltirmishdi anjum.

90 Chunon gar sharhi qudrat aylagaysen,
Ki qudratni sababga boylagaysen.

Butun borliqqa ul bois esa, bas,
Nechukdir ul sabab, bir kimsa bilmas.

Agarchi suv, havo, otash va tuproq,
Kelib, jam bo'lsalar bir joyda mundoq.

Xudodin kelmasa to amru farmon,
O'shal paykarga hech kirgaymidi jon?

Kishi gar o'zni ko'rgay, xudparast ul.
Dema iymoni bor, ezidparast ul.

95 O'zingdin kechgilu Ezidga bur yuz,
Qachon bir joyda bo'lgay kecha, kunduz?

Azizim deb Xudo tanlaydi oni,
Kishikim o'znimas, ko'rgay Xudoni.

Nizomiy, jomi vaslin ichganing dam,
Unutgaysen o'zing Haq yodi birlan...

Munojot

Xudoyo, loyimiz qording, pishitding
Va bizga bir vasiqatnoma bitding.

Etarkan bizga, Rabbim, xizmatning arz,
Jazo bermoqligingni aylading farz.

100 Biz andoq bir zaiflik ichra har on,
Qilurniz xizmatning etguncha imkon.

Inoyatlar etarsen ertayu kech,
Zaiflarni zabun aylarmiding hech?

Karamlar aylading sen munchakim to,
Ular bizni umidvor etdi, gustoh.

Yo'q ersa, biz kabi tuproq-bandang,
Devoringdin tarashlaa erdimi rang?

Najot bergilki, etsin bizga tavfiq,
Bo'laylik xizimating etmoqqa loyiq.

105 Qayon bizga o'shal shoyista xizmat,
Ki etsak, xushlasa dargohi izzat?

Vale biz bandadirmiz, senga bir qul.
Magar qullar ishi xizmat erur ul.

Chizar bo'lsang qaromiz ustidan xat,
Bo'yin tovlashga andin kimda bor had?

Qulingdin rozi ersang zarra, yo Rab,
Ziyonmas senga, lekin bizgadir naf.

Mashaqqatlar aro qolsak mabodo,
Atoyi shafqatingni tutma ayro.

110 Egam, lutfi atoyingni nasib et,
Karomat qil, liqoyingni nasib et.

Tanim tuproq, vale durdona ko'nglim.
Visoling sham'iga parvona ko'nglim.

Meni chun boshda tuproqdin yaratding,
Keyin fazlim berib, farzona etding.

Yoritding yuzni, ko'z nurimni ham ber,
Beribsan ne'mating, shukrimni ham ber.

Sabr ber dog'u hasratli tunimda,
Unutmoqlikni berma xush kunimda.

115 Yaqin et jonga hikmat oftobin,
Ko'tar o'ngimdin ul g'aflat niqobin.

Hidoyat aylading, bas, kanda qilma,
Ul avval berganing oxirda olma.

Gunohlar ayladim, ne dardisarni,
Xijolat birla yuvgaymen ularni.

So'zimda ne xatolik uchrasa, kech,
Qalam chek ustiga, to qolmasin hech.

Mening qarshimda etmish ikki yo'l bor,
Biri gul ersa gar, etmish biri xor.

120 Aqidamni hamisha ul tomon elt,
Najotim yo'lini menga ravon et.

Seni izlarmen har ne naqsh ko'rsam,
O'qir ersam-da bir harf, maqsadimsan.

Ko'yingda bo'ylakim sarson kezarmen,
Va har yaxshi-yomonga qo'l cho'zarmen.

Etib ko'yingda mundoq azmi xizmat,
Agar yo'ldin adashsam, yo'lni ko'rsat.

Etishmoq Ka'baga ul niyatimdir,
Magar sahroda o'lsam, qismatimdir.

125 Magar yaxshi-yomon yuz bersa har na,
Karam sendan, bo'lak bori bahona.

Birin sindirib poyin, chaqirding,
Biriga bolu par berding-da, quvding.

Bilolmam men g'arib qadru maqomim,
Magar marhummi yo maqbulmi nomim?

Agar dindormanu gar putbarastmen,
Meni avf aylagil, bir xoru xasmen.

Mening fazlimga ul fazlingni et yor,
Vale fe'limga qiymat berma zinhor.

130

Zaifu notavondir, zo'r emas u,
Ki fazling birla bo'lgay hamtarozu.

Sening fazling mening fazlimdin ortiq,
Navozish aylasang, bo'lgay muvofiq.

Etay men xizmatimg xursand, unutm,
Birovlarga meni hojatmand etma.

G'amim yo'q boru yo'g'imdin hamisha,
Chu mendin rozi bo'lsang sen hamisha.

Jahonning tashvishidin forig' etgil,
O'zingga tushsa ish, dodimga etgil.

135

Men ortiqcha yuk ortma, avayla,
Yukimni quvvatimga loyiq ayl.

CHarog'imga berib nur, ro'shno qil,
Boshimni eshigingga oshno qil.

Dili mastimni hushyor et, Xudoyim,
Yotar g'aflatda, bedor et, Xudoyim!

Chunon uxlatki, ul etganda xobim,
To'kilsa gar gulim, qolsin gulobim.

Tilimga ber o'zing andoq shahodat,
Ki bo'lsin oqibat korim saodat.

140 Qanoatda tanimni zindadil et,
Mizojim toat ichra mo''tadil et.

Etarsen har nechuk hukmi qazoni,
Ko'rarsen mendin ud sidqi rizoni.

Dimog'i dardmandimga davo qil,
Davosin xoki poyi Mustafo qil.

Rasuli akram sallallohu alayhi vasallam vasfida

Muhammad paykari tuproq edi gar,
Uning pok joniga ming ofarinlar!

Hama ahli nazarga nuru tal'at,
Hama borliq jahonga husnu ziynat.

145 Vafo maydonining sardoridir ul,
Nabiylarning sipahsoloridir ul.

Panohidir hama ovoralarning,
Shafoatxohidir bechoralarning.

U Mahshar tongida rayhon etar baxsh,
Ilohiy ganjni ham ochgay u yakkash.

Etimlarga navozishdir nasimi,
O'shandin nomidir durrul yatimiy.

Aslda – kimiyoyi xoki odam,
Shaklda – to‘tiyoyi chashmi olam.

150 Chu boylab to‘rt devorin to‘rt hadga,
Shariat qasrini qurdi abadga.

Nubuvvat topdi andin husnu pardoz,
Xirad ergashdi unga, etdi parvoz.

Uning dini jahonda so‘nggi erdi,
Ki undan o‘zgasi mansuxdir endi.⁴

Jumardu mehribon, qahr aylasa, sher,
Tili gohi kalitdir, gohi shamshir.

Ayozi xosdir, el izzat etgan,
Ki ma‘sumlikdin ul Mahmudga etgan.

155 Qo‘liga berdi nusrat tig‘ini Haq
Gar ursa, tosh ushalgay erdi mutlaq.

Egib mo‘jiza birlan badgumonni,
Alamga qordi toshko‘ngil jahonni.

Suv uzra gul erurkim, do‘stlari shod,
Misoli sarvdir, olamdin ozod.

Falak ul sarv ila chun sabzpo‘shdir,
SHamol dastoridin anbarfurushtir.

Surib tulpor, o‘zi sulton savoriy,
Kelib to‘rt navbat ichra choryori.

⁴ Mansux – bekor, amal etmaydi.

160

Etib arsh taxti uzra na'lidin toj,
Vahiy kelmish anga ham sirri me'roj.

Olib Mahdiyni chohdin, eltdi osmon,
Dalili birla devni etdi inson.

Xalil chun navkari hamrohi erdi,
Muso bir xodimi dargohi erdi.

G'amu rohatda maskan tog' edi, g'or.
Ilon mahram edi, hamdam susmor.⁵

Tishi tosh zarbidin sinmishdi gohi,
Gahi toshdin yaro erdi dudog'i.

165

Urardi tish, dudohi toshga chun bosh,
Chiqarsin la'li gavhar deb o'shal tosh.

Etib ul tishni sindirganni giryon,
Tishi singanga eshik ochdi osmon.

Ko'zi uxloq, dili uyg'oq edi er,
Tili Mahshargacha to "ummatim" der.

Men ulki tashnalab g'amnokidirman,
U shonu shavkatim, men xokidirman.

Bo'libmen xizimatingda muncha qosir,
Ne tadbir, ey Nabiyulloh, ne tadbir?

170

So'rarmen bosh urib ul ravzayi pok,
Muruvvat ayla, deb meni zarrayi xok.

⁵ Susmor – kaltakesakning bir turi.

Chiqar to'ningni ul anvo to'ningdin,
Ijobatlar kelur har aytganingdin.

Nizomiyni duoyi xayr etgil,
Baloyi nafsidin zunnor echgil.

Dilini maxzani osoyish ayla,
Gunohu aybini baxshoyish ayla.

Agarchi ul gunohi tog'cha bordir,
Sening daryoyi lutfing bekanordir.

175 Ravon et ruhini, afv ayla, chunki
Xudodirsan o'zing, afv aylaguvchi!

Kitob nazmi xususida

Chu tole' surdi davlatlashkarin zud,
Saodat ochdi yuz olamga lushnud.

Sahar nuri ajab shohona, porloq,
Qarolikni jahonda ayladi oq.

Falak chodir edi sultonga loyiq,
Gar unda bo'lmasa sulton, ne loyiq?

Keyin qushlar bo'lib bori duhulsoz,⁶
Saharlab berdilar besh karra ovoz.

180 Tutib ilkida so'ngra jomi Jamshid,
O'tirdi taxtga sulton, nomi Xurshid.

⁶ Duhulsoz – nog'orachi.

Keyin amrini berdi etti Fag'fur,
Bitildi toza so'zlar birla manshur.⁷

Suxan shohi kirib maydonni tutdi,
Qalam podshosiga shamshir uzatdi.

Bu shamshir birla kimki ishladi kam,
Qalam tig' bo'ldi, ilkin kesdi ul dam.

O'shal tun uxlamay mast erdi holim,
Chu shamshirdek qalamni qo'lga oldim.

185 Der edim: qaysi eshikdin o'tay men?
Nechuk ganji guhar oshkor etay men?

Nechuk aytayki, sayratsin zabonni.
Nechuk aylayki, zabt etsin jahonni.

Eshikdin kirdi davlat, ne ajab hol,
Yuzidin bo'sa berdi necha xushhol.

Dedi ul: "Ish yurishdi, keldi omad,
Boshingga tushdi savdoyi alomat.

Buyurdi shohi olam, ey safo dil,
Jahondin yangi bir ishqnoma tuzgil.

190 Jabonda necha sohib holat erdi,
Damo-dam ketdilar, qaytmaslar endi.

Sen aylab ko'kda chun xanjarzabonlik,
Etarsen so'zda mundoq nuqtadonlik.

Utorudga qalam mix bo'ldi andin,
Tikan bo'ldi ipak Zuhroga sendin.

Isodek tanga ruh ber, gulshan ayla,
Musodek sham'i ishqing ravshan ayla.

Uzukka qosh qo'yishni eplasang chin,
Sulaymoniy saxovat – biz tarafdin.

195

Gar etsak senga lutfu haqshunoslik,
Sen etma noshukurlik, nosiposlik.

Va Firdavsiy kabi muztar etib, hay,
Seni xor aylasak haqqingni bermay,

O'shal zar uzra muz muhrini urgil,
Berib mayxonaga, sochgil, sovurgil.

Chu bir xushbaxt kabi davlatparastsen.
Tamahga bormasang, topding najot sen..."

Ko'ngil ko'rdiki, davlatdir hamovoz,
Sevindi, ayladi davlat sari noz.

200

Dedikim, keldi fursat, yorlik ayla,
Mashaqqat ichramen, dildorlik ayla.

Necha sohib kalomlar sendin avval
Chu davlat zo'ri birlan teshdilar la'l.

Qalamni etdilar davlatga hamroz,
Kerakdir la'lu dur teshmoqqa olmos.

Ularning so'zi etdi to Surayyo,
Ki asbobi maishat erdi paydo.

Manam bir go'shada tutdim makonni,
O'zimga ro'zi aylab arpa nonni.

205

Ilondek ganj uza posbonlik etdim.
Sahardin to sahar men ro'za tutdim.

Magar bolaridirman, xonasi tang,
Vale ul xonada halvosi yuz rang.

Kunim shoh soyasi ostida xushdir,
Karam tor ersa-da, rizqim kengishdir.

Teshikdin qush kirar istar esam to,
Baliq erni yorib, bo'lgusi paydo.

U davlatkim qirilsin dushmani ul,
So'rarmen himmatin, bas, bori gap shul.

210

Base ishlarki, oydek unda tal'at,
Bari shohdin edi ul xosi himmat.

Agar yo'q ersa qo'lda hech vaqoyim,
Qanoatdek saodatdir panohim...

Tug'ril Arslon madhi

U shohi navqiron, mardu javonbaxt,
Sharaf keltirsin unga toj ila taxt.

Maoniy iqlimi uzra charog'bon,
Tiriklik mulkiga berguvchi farmon.

Panohdir mamlakatga shoh Tug'ril,
Jahonga soyabon, sultoni odil.

O'zi sohib erur borliqqa yolg'iz,
Saxovat aylar ersa, misli dengiz.

Mudom payvast edi ul saltanatga,
Arslon o'miga o'ltirdi taxtga.

Men ushbu ganjina yuz ochsa derdim,
Imorat aylamoqqa mashg'ul erdim.

Muborak erdi tole' naqsh cheksam,
Muborakbod etar erdi falak ham.

O'shal tole'din ul naqshim chekib fol,
Meni ham aylagaydir shodu xushbol.

Va sulton toleidin ul topib baxt,
O'shal yanglig' jahongir bo'lsa shoyad.

U paykarga chunon oshiq edi dil,
Ko'p o'tmay ul murodim bo'ldi hosil.

Kechikdik yo'lga, chun mashg'ul edi shoh,
Qutilsin necha bir tashvishdin, illo.

Habash torini to Tamg'ochga tortsin
Va Shushtar ziynatin ul Chochga tortsin.

Va lochinde bo'lib anqoga ovchi,
Surayyoga etishsin boshda toji.

Shukuhi yuksalib, gurdunga etsin,
Samandi sakrasin, Jayhunga etsin.

Va boshlab etti yurt fath aylamakni,
Kiritsin amriga to'qqiz falakni.

Gahi hoqon yuborsin Chin xirojin.
Gahi Qaysardin olsin jizya-bojin.

Bihamdillohki, chun qadri ulug'vor,
Yomon ko'z tegmagay, chunki sipand bor.

Manam isriq yoqib chun shafqatona,
Tutunni subhidam etdim ravona.

230 Uforim zora shohga kelsa manzur,
Mening nomimni ham yod aylasa ul.

Ochib lafzi balandi gavharafshon,
Ki olam jonidir ham olami jon,

Atobekka desa o'ng: "Ey jahongir,
Nizomiya mashaqqat kam emasdir.

Emasmi fursati, aylab savolin,
Tuzatsak bir yo'la aftoda holin?

Etib lutf, ko'zidin qayg'u aritsak,
Etib shod, yuziga kulgu taratsak?

235 Sitoviy, Mahsitiy bitsa g'azallar,
Berarsan har safar oltin badallar.

Nizomiya dag'i ber necha aqcha,
Kamaynas ganjimiz andin tariqcha.

Shu mulkdin ayladik davlatni bunyod,
Ne bo'lgay, bir xarobni etsak obod?

Ijodkorning makoni go'sha tokay?
Qolur ul go'shada beto'sha tokay?⁸

Ki andin xonayi xurshid ma'mur,
Qorong'u olam ichra chashmayi nur.

240 Bulut andoq jahongir bo'ldi nedan?
Giyohlar sut emarlar barcha andin.

Kechar umri bu qushning chun sochib ganj
Va bizning shukri ne'matdin chekar ranj.

Simirmay bir qadah mayxonamizdin,
Shukur, der, charchamas shukronamizdin.

Magar Kayxusrav ersang, u g'uloming,
Saxovat aylagil, kam tutma joming".

Nizomiy, ne emish bu behayolik?
So'zing davlatga andoq iddaolik?

245 Ubir podsho erur, hoqonu Fag'fur
O'parlar eshigin har lahza ming qur.

Ne uzring aytasen, ey zarrayi xok,
Ki so'zlar so'ylading noxush, xatarnok?

Bir uzring ul erurkim podshodin.
Sifat etmish anga fayzi Xudodin.

U dargohda kishi pastdir, balanddir,
Yiqilsa, behayodir, beadabdir.

⁸ Beto'sha – oziq-ovqatsiz.

Chaqinni ko'rki, kuydirgay temirni,
Vale haxshida etgay shamga nurni.

- 250 Azim daryoki, andin yashnagay gul,
Tosharkan, bog'u bo'stonni yutar ul.
Sulaymondir bu yo'lda shohimiz to,
Baliq so'ylar anga, oy so'ylagay goh.
Dabirlar o't yoqib o'choqda gur-gur,⁹
Gahi oltin olurlar, gohida kul.

Xudoyo, to jahonda obu rangdir,
Falakka davru dunyoga darangdir.¹⁰

Jahonga shohimiz sohibqiron qil,
Panohin boshi uzra osmon qil.

- 255 Hamisha baxtini yosh, lolagun et,
Umr qo'sh umriga, bori uzun et.
Hamisha davlati qoshida bo'lgay,
Munavvar toj uning boshida bo'lgay.
Oshir iqbolini sahni jahondin,
Baland tut chodirin ul osmondin.
Berib joniga umri jovidonlik,
Haramin ayla dargohi omonlik...

⁹ Dabirlar – kotiblar, bu yerda shoirlar ma'nosida. O'choq – zargarlarningko'rasi ma'nosida.

¹⁰ Darang – sustlik.

**Atobeki a'zam Shamsiddin Abuja'far
Muhammad binni Eldegiz ta'rifi**

Tuyib ruhimda chun firuzmandlik,
Berardim so'zga davlatdin balandlik.

260 Ajab ta'rif sari undam qalamni,
Shahanshoh nomiga chekdim raqamni.

Ki shohlar shohidir ul, shohi ofoq,
C'hu boshda qosh kabi ham juftu ham toq.

Malik a'zam Atobek dovari davr,
U bois ketdi olam sabnidin javr.

Abuja'far Muhamunaddirki, mavjud,
Xurosongir bo'ldi misli Mahmud.

Jahongir oftobdir olamafruz.
Yoqar dushmanni, lek yovlarga munis.

265 Dalili ulki, mehri xosu omdir,
Ki SHamsiddini dunyo unga nomdir.

Quyoshdek nur tarashlik unga pasha,
Saodat baxsh etar bizga hamisha.

U baxshishdin umumga keldi rahmat,
Chu bo'ldi ikki zot nomi Muhammad.

Biri xatmi nubuvvat erdi zoti,
Biri xatmi mamolikdir hayoti.¹¹

¹¹ Biri so'nggi payg'ambar bo'ldi, biri jahongir.

Biri burji Arabda toabad moh,
Biri mulki Ajamda jovidon shoh.

270 Biri dinni zulmdin etdi ozod,
Biri adli ila dunyoni obod.

U nomdin ikki "mim"ni endi har dam
Quloqqa sirg'a aylar ikki olam.

Yonar rashk birla olam bag'ri, chunki
Gar unda bitta "mim"dir, bunda ikki.

Ne hojat ul qalam ahliga toroj,
Biri unga kamar bergay, biri toj.

U nuri tojbaxshi chun duraxshdir,¹²
Ki nomi ul sababdin tojbaxshdir.

275 Saxovat sori talpingay vujudi,
Bosar Judini ham to'foni judi.¹³

Falak qo'zg'ol deya amr etsa doim,
Yiqar qoimni, bo'lgay yakka qoim.

Saxosi oldida dengiz xijilmish,
Ki manglay teridek tuproqqa tushmish.

U dur ehson etar ummonga o'xshab,
Guhar baxsh ayslagaydir kongga o'xshab.

Tig' ursa, zarbasi tuproq etar, kul,
Kalitdir, etti iqlimni ochar ul.

¹² Duraxsh— ravshan, porloq.

¹³ Uning saxovat to'foni Judi tog'ini ham g'arq qiladi.

O'zi olti jihat boshida turgay,
Yana to'qqiz falak qoshida turgay.

Jahon bir onadek alqab zamonni,
Adolat nomiga tug'mish bu jonni.

Xabarlarkim, o'shal xorij jahondin,
Bo'lur ko'nglida zohir ul tomondin.

Nechuk irfonk, ul ko'ngliga yig'mas,
Nechuk iqbolki, unga hosil ermas.

Kurashda sher kabi sarpanjali er,
Chunon sher ag'darur, yo Rab, nechuk sher?

U sherlikdin birovga ranja yo'qdir,
Va sherlardin anga hampanja yo'qdir.

Otarkan, nayzasi qilni yorar qirq,
Nazar nozikligi inkondin ortiq.

Agar ul subhidam miqroza urgay,¹⁴
Aduvlar qoni yomg'irdek to'kilgay.

Chaqindek chaqnatib tig' sirmasa gar,
Shafaqdek qonga botgaydir g'animler.

Tusharkan yo'lga uchqur oti har on,
Falakni aylanur ul etti maydon.

Zamin ham amriga hozir, musallam,
Agarchi bosh egar ho'kizga har dam.

¹⁴ Miqroza – ikki shoxli nayza.

Kulohi ko'k uza, boshidadir moh,
Ajab shohi kulohdoru ajab shoh!

Etar dunyoga andoq podsholik,
Bale, shundoq bo'lur zilli xudolik.¹⁵

Hama oqu qarolar ehtiyojda,
Xudodin so'ng etarlar unga sajda.

Sovut kiyimishki, dengiz mavjidir, hay,
G'animlar boshiga o'qdek etishgay.

295 Tarafdori kam ermas, keksayu yosh,
Hasad qilguvchilarga yog'dirur tosh.

G'animi bo'g'zi hech bilmas sabrni.
Ki maqnotis kabi tortar temirni.

Ko'rar dushmani, ogohlik bu ermish,
Mudom uyg'oq, shahanshohlik bu ermimsh!

Atobek Eldigiz, shohi jahongir
O'qib etti ulusga etti takbir,

U yolg'iz jonni qo'sh olamga berdi,
Tirikdir joni, kim ham o'ldi derdi.

300 Jahonni asragan sohibqiron ul,
Gumon yo'q, shoh edi, joni jahon ul,

Qachon ko'rmish bu yanglig' jonni olam,
lloyo, boshidin tuk bo'lmasin kam.

¹⁵ Zilli xudolik – Xudoning soyasi bo'lishlik.

Bu yanglig' shoh qachon dunyoga kelmish,
Habashdin toki Chin amriga olmish?

Iroqda bodadin to'ldirsa ul jom,
Vahimdin titragaydi Rum ila SHom.

Salibiy zangi erdi Rum uza tek,
Zafar dandoni birla ezdi mumdek.

305 Sipohi Rumni haydab ul bahodir,
Keyin Hind mulki uzra chekdi shamshir.

Bo'lib maydoni so'ng Abxozu Darband.,
Shabexun urdi Xorazmu Samarqand.

Olib chun Ganjadin Xuzistonni,
Yana Ummondin to Isfahonni.

Bu oyning yuzidin nur ketmasin hech,
Kulohi boshini tark etmasin hech.

Va har nekim emasdir unga maqsud,
Kuyib kul bo'lsin ul gar ersa ham ud.

310 Kishikim unga farshi fitna aylar,
Otilsin suvga shakkar bo'lsa ham gar.

Kishikim, ko'nglida shohga g'ubordir,
Xazon bo'lsin agarchi navbahordir.

Va har shaxseki, unga etkazur ranj,
Ko'milsin erga ul gar bo'lsa ham ganj.

Er o'pib aytur...

Yasha, bor bo'l hamisha, shohi dongdor,
Seni shoh aylagan Alloh madadkor.

Panohi saltanat, pushti xilofat,¹⁶
Tig'ingdin to adam – qilcha masofat.

315 Faridunsen bugun, Jamshidi soniy,
Xato aytdim, yanglish bu maoniy.

Go'dak erdi Faridun, govparvard,¹⁷
Ki sen bodavlatu ham sheru ham mard.

Chu Zahhok mori Jamshiddin olur jon,
Falak ajdarlari senga berur jon.

Ularda ersa yolg'iz taxt ila toj,
Berarsen toju taxt sen, kimki muhtoj.

Agar har pahlavon Xusravnishonlik,
Chu senda shohlighu ham pahlavonlik.

320 Sulaymonda uzuk ul, sendadir din,
Sikandar ovinam der, senda ovin.

Ular ko'rmishmi sen ko'rganni bunda,
Sikandar ko'zguda, Jamshid jomda?

Na xushdir, bu vatan sen birla xurram,
Tiriklik negizi sen birla mahkam!

¹⁶ Pushti xilofat – xalifalik tayanchi.

¹⁷ Govparvard – sigir suti bikan boqilgan.

Agar fil ustida yuz taxt ersa,
Seningsiz ul bari behuda narsa.

Qilich sirnab magar olamni olding,
Va zarrin jom-la joyi Jamni olding.

325 Qilich birlan yig'ildi ko'p xazina,
Qilichga tin berib, xalqingni siyla.

Hadis dasturi birla qisqa, ko'toh,
Degaymen necha so'z, amr aylasa shoh.

Men ulki, tong-saharlab bong urarmen,
Hama horutni chun bedor etarmen.

Ki ilkim qush erurmen, maskanim bog',
O'zing ayt kimligim, bulbulmidir, zog'?

Kechikdim qullug'ingga er bo'lib men,
Bugun xizmatga keldim sher bo'lib men.

330 Na xush aytmish buni piri jahongard:
"Kechiksang-da, durust kel, ey javonmard"

Chu kechdi kunlarim andishada ko'p,
Etay shohimga men ne armug'on deb.

Qani ul tuhfayi Chippolu Fag'fur,
To'kib poyingga etsam o'zni masrur?

Xayolimni etib men fikratangez.
Bisoti bo'sani qildim shakarrez.

Chumoli bormi qurbonlikka loyiq?
Sulaymonga chigirtka bo'lmas oziq.

Vaqoyim yo'q o'shandin o'zga aslo,
Kerak bo'lsa, beray jonimni hatto.

Quyoshni zarra birlan dovlagay kim?
Va yo chumchuq-la burgut ovlagay kim?

Ne sud afsusdin ul, chun kadxudolik,
Faqat bir tola mo'ydir menga molik.

Kelur andisha goho fikratimg'a,
Mulozim bo'lmadim shoh hazratimga.

Magar pinhon emas shohimga rozim,
Duodin o'zga yo'qdir dilnavozim.

Nizomiy akdashe xilvatnishindir,
Ki yarmi sirka, yarmi angabindir.¹⁸

Ochib tab'imdin ul chashma, tiniqni,
Olib elkamga ham zuhdi quruqni,

Agarchi zuhdim og'zi qup-quruq, xushk,
So'zim obi hayotdir, zimnida mushk.

O'shal mushkimni uzlatdin yaratdim
Va tanholikni o'zga odat etdim.

Tikan bo'lgum nechuk gul bazmida men,
Duoda o'zga ish kelmas qo'limdin.

Shahanshoh xizmatin etmam agarda,
Xudoga sajdalar etgum saharda.

¹⁸ Akdash – omuxta. Angabin – asal.

Dimog'imda g'urur, chun qo'rqaman ko'p,
Tamah ko'nglimda, xom ish qilmasam deb.

G'urur to'nini echmoq istagimdir,
Tamahdin bori kechmoq istagimdir.

Menu ishqi diloro bo'lgum unda,
Qutulgaymen va tanho bo'lgum unda.

Borib, boshimni fitrokingga qo'ygum,
Va andin sen tarafga bosh ko'targum.

350 Yiroq tutsang, o'parmen er yiroqdin,
Yaqin olsang, xalos bo'lgum firoqdin.

To'lin oydek boqib etsang tabassum,
Yonar qurt singari men shu'la sochgum.

Berib har kimga davlat, ey shahanshoh.
Yozarsen boshiga yo "mir", yo "shoh".

Saboh yanglig' kulib har kimga boqding,
Olib zulmatni andin, o'tga yoqding.

Qayu kishvargakim borsang quyoshdek,
Eriga zar socharsen nurposhdek.

355 Hamisha zar sochishni ayla pasha,
Temirdan bo'lsin ul joning hamisha.

Jahonni taslim aylab hukmu roying,
Zamin bo'lsin hamisha xoki poying.

Boshingda tojingu taxting tayanching,
O'sib shahzodalar bo'lsin suyanching.

Qayon borsang ajab husnu chiroydek,
Munavvar ayla ul oftobu oydek.

Seni qay bir tarafga eltsa taqdir,
Rikobi davlating bo'lsin jahongir.

360 Jahon bo'lsin mudom amringga tolib,
Sipohing – g'olibu mag'lub – muxolif...

Shoh muzaffariddin qizil Arslon ta'rifi

Shitoh et, ey nasimi subh, borgil,
Etishdi fursati, bas, marhamat qil.

Salom ayt er o'pib, chun bazim etar shoh,
Tikib avji Surayyo uzra borgoh.

Jahonbaxsh oftobi etti kishvar,
Dinu davlat erur andin muzaffar.

Shahi mashriqki, mag'ribga panohdir,
Qizil shoh, toji ul moh uzra mohdir.

365 Chu Mahdiy, garchi Mag'ribdir makoni,
Kechib mashriqni o'tdi posboni.

Nigini naqshiga shohid esa mum,
Xirojin etkazur Chin, jiz'yani Rum.

Agarda istasa, aylar esa kiyn,
Chiqargay nahri Rusni Zanjibardin.

Borib, maydonda etsa jonfidolik,
Yuvar, Hind mulkida qolmas qarolik.

Solib dahshat, ado etmish jafoni,
Yo'qotmish fitnadek dardu baloni.

370 Bulut yanglig' saxovat aylab ortiq,
Jahonni ravshan etmish tig'i yanglig'.

Bulut ehson etar bo'lsa agarda,
Sochir yuz qatradin bir necha qatra.

Vale shoh bersa gavhar dengizin ham,
Ajabkim, yuqmagay tirmog'iga nam.

U ofto'bx taxti birlan bo'yla mashhur
Va oydek toji birlan bo'yla manzur.

Agarda ettimas, etmish esa er,
Uning tuprog'isiz bo'lgay edi el.

375 Zuhul qul bo'lmasaydi unga, g'amdin
Qariganda otardi o'zni tomdin.

Aras to'lqinlari sahroda toshqin,
Vale dengizga etgach, tinchu sokin.

Agar dushman ko'tarsa ko'kka ham bosh,
Bu dargohda o'par tuproqni yakkash.

Agar yuz tog'ni bunyod etsa ham u,
Bo'lolmas tosh zarga hamtarozu.

O'shal yo'qlikki, davron azmi birlan
Solibdir to'rta arkonga kamar, band.

380 Vale shoh to'nini baxt qo'lga olgach,
Etar ul etti yulduz boshiga toj.

Uning shamshiridin uchqun taralgay,
Temirdir garchi yov, otashda yongay.

Qocharlar tig' idin dushmanlar, illo,
Yiqilganlar keyin turmaslar aslo.

Bo'yinlarin etarkan tig'i abgor,
G'anim bo'ynini qashlar chor-nochor.

Ko'mir dushman dudidin yod bo'lgay,
Zanabdin Mirrixii ma'sud bo'lgay.¹⁹

385

Masih birla hayoti hamrikobdir,
Sabuhida hamisha no'shi nobdir.²⁰

Ne tong, olmos qilichi zarbi birlan
Nilufar kelsa elga Dajla, Nildan.

Kelur xalq, hojati bor unga elning,
Ochar darvozasin daryo kabi keng.

Ki qolmas fazlidin bir kimsa mahrum,
Hazar darvishdin to mun'imi Rum.²¹

Yaqindir qahridin mehri-gacha yo'l,
Cho'zibdir boshini osmongacha ul.

390

Chumoli kelsa eshigiga har on,
Yarashgay unga qul bo'lsa Sulaymon.

Va har pashsha ucharkan yo'lidin ul,
Na xush, Namrud boshin etsa manzil.

¹⁹ Zanab – Ajdahoyulduzlar turkumining dum tomoni.

²⁰ Sabuh – ko'za.

²¹ Mun'im – boy, davlatmand.

Ajabkim, podsho nomi tarar mushk,
Magar sunbul esa ohu, berar mushk.

Atorud tersa shoh idroki donin,
Boshog bo'lgay o'shal gar aytsa nomin.

Agar dengizga shoh tig' ursa, beshak,
Ho'kiz so'rgay baliqdin: "Kayfa holak?"²²

395 Hilol gar na'lidin andoza olgay,
Falak darvozasiga halqa solgay.

Mudom karvoni g'aybdir unda ko'ngil,
Tavono bo'lsa dono, aybmidir ul?

Bazmda bo'lmasa may birla soqiy,
Etar shulkim, magar ul ersa boqiy!

Uning boshida chun paymonu ahdi,
Ajabmas, ko'rsayu qo'zg'alsa Mahdiy.

Agar vahshat ila qo'zg'alsa to'fon,
Ne g'amdir, boshimiz uzra Sulaymon!

400 O'shal Zahhok iloni ursa gar nish,
Faridun bor qoshingda, chekma tashvish.

Magarkim har zamonda ahli ro'zgor
Ko'ribdir har qirondin bir sitamkor.

Bulut bossa qironni, ne vahimdir,
Ki Alloh dodgar, podsho nadimdir.

²² Kayfa holak? – Ahvoling nechuk?

Qironning adlu dodi o'zga foldin,
Shamoldir kelsa har ne gar shimoldin.

Jahon dargohida gunbaz erur ul,
Uning ustida osmon shisha, billur.

405 O'shal avjiga bizdin etsa bir gard.
Bulut borgay-da, sochgay obi rahmat.

Topolsang unda fursat, ey sabo, bot
Bu miskin bandani ham aylagil yod.

O'pib er, et ado rasmi g'ulomiy,
Degilkim, bo'yla aytur ul Nizomiy.

Ki xizmatdin yiroq ersam-da garchand,
Shahanshohdin yiroq ermas edim man.

Chu erdim bir kitob bitmoqqa mashg'ul,
Bitildi podshohim nomiga ul.

410 Bilarmen shoh erur Jamshidi soniy,
Xudoyim bersin umri jovidoniy.

Agar bu bog'da bir gul bo'lsa, yaproq.
Shahanshoh nomi-la har lahza yashnoq.

Meni baxt yo'lladi bu yo'lga mas'ud,
Ki shohim bo'lsa mendin zora xushnud.

Hikoyat

Eshitdim, bo'yla davlatpesha erdi,
Yusuf suratli, serandisha erdi.

Berib bir nozanin, dildorga ko'ngil,
Unutmish o'zni, tark etmishdi butkul.

415 Chunonam sevdi dildan dilraboni,
Tutashgandi magar joniga joni.

Agar yuz bog' berib, boz bersa shuncha,
Ko'rinmasdi anga bir bosh uzumcha.

Sevar yoriga bir gul bersalar, hay,
Sevinchdin yashnar erdi navbahorday.

O'shal yori anga jon erdi doim,
U shod ersa, bu shodmon erdi doim.

Murodi shohki maqsudi jahondir,
Og'osi birla raftori chunondir.²³

420 Omon bo'lsin abad bu durji davlat,
Ziloliy chashmaga hech qo'nmasin gard.

Mudom bo'lsin jamoli olamafruz,
Tuni me'roj bo'lib, kunduzi navro'z.

Sabo olsin hamisha zulfi mushkin,
Gahi Hind sori, goh Chin sori eltsin.

²³ Bu yerda Shoh Qizil arslonning o'z og'asi Atobek Muhammad jahonpahlavonga munosabati nazarda tutilmoqda.

Hama chiniy go'zallar taslim o'lgach,
Anga hech etmasin Chin ahlidin ranj.

Hasad etguvchi bo'lsin bandi zindon,
Magar do'st bo'lsa, sursin davru davron.

425 Quyib may, do'stu yori birla ichsun,
G'animning boshiga solsin qaro kun.

Anga bu tuhfadir, ma'nosi yuksak,
Yigit joniga bo'lsin ul muborak!

Kitobning asl ma'nosi bayonida

Mengakim hotifi dil erdi damsoz,
Chu himmat ko'kidin ul berdi ovoz.

Dedikim, ey Nizomiy, zud zamondir,
Falak badahlu olam becomondir.

Ketur pok chashmadin yangi bahoring,
So'zingdin tarqasin atru uforing.

430 Bu manzil ichra so'z soz aylagil, soz,
Bu parda uzra sen xush ayla ovoz.

To'sarlar yo'lda gar bevaqt yugursang,
Kesarlar bosh magar bevaqt chaqirsang.

So'z ochgil necha kun sen gulga monand,
Ki haddin oshdi, tilsiz qoldi savsan.

So'zingni toblagil, olmosi xos et,
Diramni ul diramlikdin xalos et.

Temirchi bo'lgini shamshir yaratgil,
Keyin sayqal berib, nurin taratgil.

435 Suxankim manbaya ma'no emas ul,
Yozib, takror etishga arzimas ul.

Qiyinmas so'z tizib, nazm aylamak, lek
Kerakdir so'zga ixlos, jonfidolik.

So'zingni cho'zma ortiq, muxtasar et,
Yuz etma bir so'zingni, yuzni bir et.

Kerakdir so'zga ham suv singari had,
Oshib-toshganda g'arq aylaydi albat.

Kishining tanda qoni ko'p esa gar,
Urilgaydir uning nabziga nashtar.

440 Ayo, kam so'zla, aylab xushadolik,
Magar ko'p so'zda ko'p bo'lgay xatolik.

Senga ko'p so'zlamak garchi solimdir,
"So'zingni cho'zma" – dashnomi azimdir.

Suxan jondir, magar darmoni jon ham,
Shu boisdin azizdir ul, mukarram.

Nazar sol necha bir ahli jahonga,
Sotarlal jonni ul bir burda nonga.

Suxan gavhar erur, aytguvchi g'avvos,
Mashaqqatdin kelur ul gavhari xos.

445 Cho'chib gavhar teshar ustoz qil,
Bilur chun duru gavhar qiymatin ul.

Qara, ustozni etmay ul amalni,
Berar shogirdga har noyob guharni.

Agar hushyor yo masti aroq bo'l,
Baloyi fitnadin doim yiroq bo'l.

Necha minglab hasadgo'y borki, har on
Hasad aylab chekarlar ohu afg'on.

Kechirma g'aflat ichra bir nafasni,
O'zingdin hexabar deb bilma kasni.

450 Nasihat so'yladi hotif, eshitdim,
Chu hotifdek makonim xilvat etdim.

Bu xilvat ichra dil monandi daryo,
Hama sarchashmalar qarshimda paydo.

Chu maskan ayladim afsonalarni,
Bihishtdek etdim otashxonalarni.

Men ul butxonani osoyish aylab,
Chekibimen naqshini oroyish aylab.

Agarchi so'z aro obi hayotdir,
O'shal joizki, har ne mumkinotdir.

455 Agar rost so'zga ersa azmu imkon,
Ne hojat senga ul uydirma, yolg'on?

Kishi yolg'onchi ersa, qadri kamdir,
Magar rost so'zlasa ul, muhtashamdir.

Chu subhi sodiq erdi rostguftar,²⁴
Jahonni etdi zardin muhtashamvor.

Chu sarv rostlikda chekdi tug'-alamni,
Xazonda ko'rmadi toroji g'amni.

Mening bor "Maxzanul asror" xazinam,
Havas deb o'zni xor aylarnidim inan?

460 Va lekin bu jahonda necha kas bor,
Havasnoma sari maylu havas bor.

Havas hozirladim hojatbarore,
Havas qilguvchilarga g'amgusore.

Havas naqshini chekdim bo'ylakim pok,
O'qib, aqlu xirad bo'lgay havasnok.

Men andoq bir butoqqa cho'zmadim qo'l,
Ki unda bargu xurmo bo'lmasin mo'l.

Hadimi Xusravu Shirin, gumon yo'q,
Jahonda bo'yla shirin doston yo'q.

465 Agarchi dilraboyu dilpisanddir,
Kelindek parda ichra, shahrbanddir.²⁵

Bayozi bo'lmamish mashhur afsus,
Ki qolmish Bardada bir nusxa yolg'iz.

O'shal yurt tarixin aytganda mardum,
Menga bu ganjnoma bo'ldi ma'lum.

²⁴ Rostguftar – rost so'zlovchi.

²⁵ Shahrband – mahbus.

Necha bir keksalar suhbat aro xo'p,
Meni bu ishga tashviq etdilar ko'p.

Qabul etmasmi kas ul so'zni, illo,
Dalolat etsa gar oqilu dono?

470 Na pinhon, balki butkul oshkordir,
Asarlarkim, ulardin yodgordir:

Asosi Besutunu shakli Shabdiz,
Madoinda Hamedun, qasri Parviz.

Ariqkim, sut oqar, Farhodi miskin
Qazib eltnishdi toki qasri Shirin.

Yana Shahrudki, suv unda shakarday,
Va Xusrav maskani, ov ovlagan joy.

Va Borbad qissasi, o'n torli sozi,
Va Shahrud uzra shoh bog'i safosi.

475 Hakimki ul hikoyat qilmishu sharh,²⁶
Va andin ishq hadisin aylamish tarh.

Chu oltmish yoshda ul etganda insho,
Alifdek qomati yoy erdi go'yo.

Ki oltmish yoshida ishqdin ochib so'z,
Bayoni bo'lmamishdi uncha dilso'z.

Ne aytmishdi xiradmand, aytmadim, bas.
Ki aytilganni aytmoq yaxshi ermas.

²⁶ Abulqosim Firdavsiy va uning "Shohnoma" asarida bayon etilgan Xusrav va Shirin qissasi nazarda tutilmoqda.

Bu daftar ichra tushdi ishq rozi,
So'z aytdim, niyatim ul mardi g'oziy!

Ishq bayonida necha bir so'z.

480 Mening ishqdin balandroq yo'q shiorim,
Tirikman, bo'lmagay bir boshqa korim.

Falakning eng ulug' mehrobidir ishq,
Jahonning yashnagay tuprog'idir ishq.

G'ulomi ishq bo'l, andishadir ul,
Hama sohib ko'ngilga peshadir ul.

Jahon – ishq, andin o'zga hiylasozlik,
O'yindir bori yoki ishqbozlik.

Agar ishqsiz bo'lurdi joni olam,
Tirik ko'rgaymidi davroni olam?

485 Kishikim ishq'i yo'q, sham'i so'nikdir,
Magar yuz joni bor, lekin o'likdir.

Agarchi ishqda yo'qdir sehru afsun,
Vale savdosi etgay jonni tutqun.

Eshakdek bo'lma em, uyquga banda,
Mushuk bor ersa, ko'ngling unga boyla,

Ne ma'no, sher bo'lib, yolg'iz esang gar,
Senga andin mushuk sevmog'ing afzal.

Agar ishq ekmasa, odam ko'karmas
Va ishq'i yo'q esa, mastona yurmas.

Jahonda dardi ishqdek bormi otash,
Usiz gul yashnamas, ko'k to'k magay yosh.

Gablarkim, olov-o't uzra pastlar,
Quyosh ishq i la otashparastlar.

Dema, ko'ngrimda chun sultoni jon ul,
Qadam ishq sori qo'ykim, jonga jon ul.

Ham aytur qibladin, ham ta'rifi Lot,
Hamon ul ganji Ka'ba, ham xarobot.

Agar tosh bag'riga ishq tushsa nogoh,
Cho'zar gavharga qo'lni mastu shaydo.

Ki mag'natusda yo'qsa ishq qaynoq,²⁷
Magar tortarmidi temimi andoq?

Qarang, chun qahrabo ham ishqqa payvand,
Somonni tortadir ul ishq birlan.

Base tosh bordiru gavhar hamoni,
Temimi tortmagay, tortmas somonni.

O'shal gavharki bordir, yoppasiga
Shitob etgay mudom o'z markaziga.

Olov er ostida gar topmasa yo'l,
Zaminni qoq yorib, gurlab chiqar ul.

Agar suv ham havoda ersa ko'proq,
Inib pastlikka ul izlaydi tuproq.

²⁷ Mag'notus – magnit, ohangrabo.

Tabiatda ne ersa, jazb aylar,
Hakimlar bu sifatni ishq degaylar.

Tafakkur birla boqsang, e'tiborliq,
Faqat ishq uzra qoyim mulki borliq.

Gar osmon bo'lsa erdi ishqdin ozod,
Zamin bo'lgaymididi hech bo'yla obod?

Men ishqsiz ko'rmadim jismimda jonni,
Ko'ngilni sotdimu oldim u jonni.

505 To'larkan dudi ishqim birla olam,
Xirad ko'zni xumor etdim damo-dam.

Saloyi ishq urib butkul jahonga,
Kirishdim ishq ila bu dostonga.

Ki andin bahramand bo'lmay xasislar,
Olishsin bahra xushxon, xushnavislar.

Ko'chirganda xatolik etsalar, bas,
Gunohi o'zlariga, menga ermas...

Kitob nazmi xususida uzrxohlik

O'shal muddatki xilvat aylamishdim,
So'zinni osmonga boylamishdim.

510 Gahi burji kavokibni kezardim,
Gahi chaq nab, maloikdin o'zardim.

Bor erdi bir yagona do'sti jonim,
Dilu jon birla unsu mehribonim.

Taassubdin kamarni boylamish sher,
Menga qalqon edi, dushmanga shamshir.

Bilimga o'zni jondin payvand aylab,
Va dunyodin ko'ngilni xursand aylab.

Bir oqshom ul yana men sori boqdi,
Kumushdek qo'l ila qopqamni qoqdi.

515 Menga qattiq nazarni tashladi ul,
Itob aylab, keyin so'z boshladi ul.

Ki "Tahsin, ey jahondori maoniy,
O'zing mulki suxan sohibqironi.

Chu ellik chilla tutding qirq yil ichra,
Sovurma umring andoq safha uzra.

Tutarsen ro'za, lek holing emas tang,
Shu murdor ustuxon-la ochma ro'zang.

Emasding orzuga band ertayu kech,
Va dunyoga emasding orzumand hech.

520 Qalam ilkingda olmos nayzadir chin,
Ochar ul necha bir ganjnoma qulfin.

Qo'sharsen misga zar, zoe emasmi?
Kumushga zarni qorsang, yaxshimasmi?

Nega ul ganji Qorundek nihonsen,
Axir, ustodsen, sohir bayonsen!

Chu tavhid aytibon, ovoza etgil,
O'shal rasmi mug'oniyni unutgil.

Suxandonlar dilingni murda derlar,
Agarchi zindxonlar zinda derlar”.

525 Uning bu soʻzlari gar erdi achchiq,
Men unga etmadim lafzimni qattiq.

Chu Shirinning shirin nozidin andak,
Qulogʻiga shivirlab aytdim ertak.

Va ul atlaski, aylarmen tirozin.²⁸
Anga koʻrsatdim ayni dilnavozin.

Koʻrib ul naqshi Arjang, qotdi hayron,
Va tildan ham magarki qoldi bir on.

Dedim unga: nega jimsan bu ishga,
Tiling yoʻqmi magar ahsant deyishga?

530 Egib bosh dedi ul: “Ey men gʻuloming,
Zabonim zikrida tasbihi noming.

Eshitdim chun Shirindin dostonni,
SHirinlik boisi yutdim zabonni.

Bilarsen sehru afsun yod etishni,
Sanamga kagbani bunyod etishni.

Oʻshal damki shirin etding dahonim,
Shakar boʻldi dahon ichra zabonim.

Agar yutdim tilimni men shakarvor,
Duoyim shul, tiling boʻlsin shakarbor!

²⁸ Tiroz – husn, chiroy, pardoz.

Ochibsen yo'lni chun, poyoniga et,
Imoratni ko'tarding, bas, tamom et.

Bu ishda baxtu davlat yoring o'lsin,
Azizlar hamdamu hamkoring o'lsin!

Yasharsen nega shu maskanda malul,
Iroqiy oltining kaftingdadir mo'li!

Rikobing Ganjadin sur, ayla sur'at,
Arslon qudrating bor, kuchni ko'rsat.

Otingga qamchi bos, maydon kengishdir,
O'zingdek davlating ham yashnamishdir.

Zamona ichra bir nozik bayon yo'q,
Magar bor ersa, sendek nuktadon yo'q.

Humodek soz chalib, yangrat chamanni,
Necha boyqushga berma bu vatanni.

Ular o'z uyida sham'i charog'dur,
Sacharlar ikki-uch parvonaga nur.

Chiqib bir-ikki manzil yursalar, bas,
So'nar ul nurlari, ortiq yoritmas.

Sen ersang, bir quyoshdirsen, ulug'vor,
Ki to mashriqu mag'rib shuhrating bor.

Qadam bos necha bir shahri chamanga,
Ko'rarsen, yo'l berar har kimsa senga.

Ham ofoq hunar topgay hisorin,
Ham iqlimi suxan ko'rgay savorin".

Jahl birlan dedim: ey baxtli banda,
Na men qo'yman, na sen qassob shu onda.

Dam urma, o'chmasin sham'im hamoni,
Dami Iso tiriltirmas Musoni.

Olovni qo'zg'ama behuda, chaqqon,
Charog'dirmen o'shalkim o'zni yoqqan.

550 Magar bir shishadirmen, ursalar tosh,
Jahon ahli xijolat aylagay fosh.

Ko'rarsen ulki, misga zar surilmish,
Chu murdordin gulobi nob yaralmish.

Xayoldir, orzudir har lahza menda,
Shamoldin o'zga yo'qdir mo'ylovimda.

Falak bermish vujud barvasta aylab,
Vale sher terisidin menga ne naf?

Na ul shermanki, dushmanga solar chang,
Etar ulkim, o'zim-la aylasam jang.

555 Sevinchim bor edi, tark ayladi ul,
G'ururi yoshligim ham ketdi butkul.

Magar ul g'o'rlik erdi, xudparastlik,
Gapirma, ul xayol erdiyu mastlik.

Umr o'ttizmidir yoki yigirma,
O'tirna ahli g'ofil birla, yurma.

Umrning zavqu shafqi qirqqacha to,
Keyin ul sendanu sen undan ayro.

560

O'tib ellik, yo'qolgay tandurustlik,
Ko'zing charchaydi so'ng, poyingda sustlik.

Kelib oltmish, o'tirmoq senga odat,
Etib etmish, amalsiz bo'lgay olat.

Etar saksonu so'ng to'qsonga yoshing,
Mashaqqatlarga qolgay kekxa boshing.

Yashab, yuz yoshga ham etsang agarda,
Bo'lursen ul tirik suratda murda.

Agar yuzdin nari ham eltsang o'zni,
Etarsen tark bu qasri dilfuruzni.

Bu afzaldirki, o'zni shod etsang,
Bo'lib shodon, Xudoni yod etsang.

565

O'shal shodlikda chun sham'i munavvar,
Labingda kulgu bo'lgay, ko'zda yoshlar.

Azizlarga yig'idin etdi orzu,
O'shal dam qo'ndi ul lablarga kulgu.

Yig'isiz kulgu hech bo'lgaymu joiz,
O'zingni tiyma ul kulgudin hargiz.

Senga men o'rgatay, andoq qilarsen,
Yig'isiz har zamon shodon kularsen.

O'zing yurganda xandon, chora uldir,
Saxovat birla yo'qsillami kuldir.

570

Quyoshkim ravshan aylar osmonni,
O'zi kulgay-da, kuldirgay jahonni...

Doston ibtidosi

Hikoyat aylamish ul piri ustod,
Etib davri qadim dostonlarin yod.

Chu Kisro oyiga etdi qarolik,
Keyin Hurmuzga o'tdi podsholik.

Jahonafroz Hurmuz ayladi dod,²⁹
Adolat birla shu olamni obod.

Padar rasmini ul har dam tutardi,
Berardi, dinni ham mahkam tutardi.

575

Jahonda nasliga payvand tilardi,
Xudodin yolvorib farzand tilardi.

Necha nazru niyoz etgach, Xudovand
Anga farzand ato etdi, ne farzand!

Ki erdi gavhari daryoyi shohiy,
Charog'i ravshani nuri ilohiy.

Muboraktole' ham etnishdi taqdir,
Ki tole' so'ng etib tojdor taxtgir.

Padar shohlikda ko'rmishdi payomin,
Qo'yib chun Xusravi Parviz nomin.

580

O'shandin nomidir shahzoda Parviz,
Bo'yinlarga osilgay erdi har kez.

²⁹ Dod – bu yerdainsof, adolat ma'nosida.

O'rab gul jismiga doya harimi,
Nihon etmishdi chun momiqqa durni.

Yuzi ravshan quyoshdek dilkash erdi,
Shakarrez xandasi jonga xush erdi.

Ko'rib ko'proq sutu shakkarga maylin,
Sutu shakkar berib o'stirdilar chun.

Gahi shoh bazmiga etganda tortiq,
O'tardi qo'lma-qo'l guldasta yanglig'.

585 Chiqib beshikdin ul maydonga kirdi,
Dema Parviz, jahonning joni erdi.

Yana bir yosh qo'sharkan yoshiga yil,
O'sib aqli, oshardi yangi manzil.

To'lib besh yoshga, har ne solsa hayrat,
Tamosho ayladi va oldi ibrat.

Etib oldi, etishdi sarvdek ul,
Bo'lib olti jihat sirriga mashg'ul.

Chunonam husni mashhur bo'ldi, ra'no,
Husn bobida Yusuf erdi go'yo.

590 Atosi dars uchun ustozga berdi,
Ki zoe etmagay fursatni endi.

O'qib dars, oldi ta'lim, tingladi pand,
Ki bo'ldi har hunar uzra hunarmand.

Maoniy sohibi bo'ldi, suxanvar,
Ki dengizdek sochardi durru gavhar.

Faschlarkim ravon so'zlardi unda,³⁰
Tiyardi til u birlan so'zlashuvda.

Teran ma'noni nozik anglar erdi,
Yana sharhini nozik aylar erdi.

595 Chu to'qqiz yoshda chek qo'ydi o'yinga,
Kirishdi sheru ajdar birla jangga.

Yotib o'n yoshga andoq kechdi ahvol,
Chu o'ttiz yoshlilarni ayladi lol.

Magarki sher bo'lib, sherpanja erdi,
Sutunlarni qilich birlan chopardi.

Echardi har o'qi qildan tugunni,
Teshardi nayzasi zirh osti to'nni.

Kamoni bir nishonni olsa nogoh,
Chalardi tablini osmonda Zuhro.³¹

600 Kishi gar o'n kamonni tortadur, bas,
Uning bitta kamonin torta bilmas.

Kamonda erdi o'n dushman uchun dom,
Kamanda har o'qi to'qqiz qarich tom.

Magar oq dev uni ko'rgan zamoni,
Terakning bargidek titrardi joni.

Yashindek yog'dirib o'qlarni toshga,
Qadardi nayzasin har qoyatoshga.

³⁰ Fasch – so'zga chechan.

³¹ Tabl – nog'ora.

Yoshi o'n to'rtga etdi qistab otin.
Ilm shunqori yozdi par-qanotin.

605

Ko'rib har neki oshkoru nihonda,
Nedir yaxshi-yomon, bildi jahonda...

Buzurgummid sifati

Buzurgummid edi chin mardu dono,
Buzurg etmish uni aqlu tavono.³²

Zamin poyida erdi zarra-zarra,
Falakni o'lchamishdi qatra-qatra.

Edi ilkida asrori nihoniy,
Kaliti necha ganji osmoniy.

Chekib shahzoda bir kun chetga bir pas,
Ko'ngilda borin unga ayladi arz.

610

Javohir istadi dengizni qistab,
Yopishdi domaniga donish istab.

Keyin andin ilm o'rgandi chandon.
Dili ravshan edi, bo'ldi nurafshon.

Zuhal peshtoqidin to markazi xok,
O'qib bildi, ne erdi sirri aflok.

Ko'p o'tmay bo'ldi chun daryodarun ul,³³
Degil har fanga mohir, zufunun ul.

³² Tavono – kuch-qudrat. Ya'ni to'qqiz qarichdan kam emas.

³³ Daryodarun – daryodil.

Ko'ngil g'aflatdin ogohlikka etdi,
Qadam ul poyayi shohlikka etdi.

Ne sir saqlar esa shu charxi davvor,
Etishdi unga, bo'ldi sohib asror.

620

Etib shohiga xizmat har zamone,
Emasdi forig' andin bir zamone.

Jahondor ham uni qattiq sevardi,
Jahon ne, jondanam ortiq sevardi.

Shu bois shoh uning umrini istab,
Uzun qo'llarni butkul etdi qisqa.

Munodiyga buyurdi, ayt hamon deb,³⁴
Zulmkorlarga bermasmiz omon deb.

Agar bir ot ekinni etsa payxon,
Agar bir kimsa boqqa kirs a pinhon,

625

Magar ko'z tiksa nomahramga kimsa,
Kirib turk uyiga, rasvolik etsa,

Olur mendin jazosin ul jabrkor,
Debon ahdu qasamlar ichdi bisyor.

Chu shoh adl aylasa ham mehribonlik,
Jahonda barqaror bo'lgay omonlik.

Xarobot ko'rsa qayda, etdi obod,
Jahon bo'ldi jahon zulmidin ozod...

³⁴ Munodiy -- jarchi.

— 2 —

Xusrav bir chamanzorda ishrat etgani va hurmuz siyosati

Banogoh bir kuni shahzoda shodon,
Saharlab ayladi sayri biyobon.

630

Tamosho qildiyu etdi shikor ham,
Ko'rindi ko'zga bir qishloq o'shal dam.

Edi atrofi bog', gul gulga payrav,
Borib ul joyni maskan etdi Xusrav.

Mayi nob ichdilar ul joyda muncha,
Sariq gul – o'tob to botmaguncha.

Quyosh ko'kdin tushib, sarg'aydi andoq,
Ufuq devori uzra tikdi bayroq.

Va qochqin shoh kabi gulxan tutatdi,
Ko'tardi chodiru bayroqni yirtidi.

635

Nuqul tulporin ul pastga surardi,
Falakka ikki qo'llab tig' urardi.

Chu ojiz qoldikim, bir lahza qotdi,
Qilich-qalqonini so'ng suvga otdi...

Malikzoda kirib bir uyga xushbaxt.
Yoronlar birla tuzdi bazmi ishrat.

Kechirdi kechani ishratda butkul,
Sabuhiy qildi ulfatlar ila ul.

Ko'ngilni arg'anundin xush etardi,
Sharobi arg'uvoniy no'sh etardi.

640 Boqib mayko'zaga shod edi, xurram,
Ki may jon erdiyu unga, jahon ham.

Echib arqon o'shal tong chog'i bir ot,
Kirib paykalga, andak etdi g'orat.

Yana g'uriy g'ulom boqqa kirib chun.
O'mardi necha bosh g'o'ra uzumdin.

Sahargoh oftobi olamafruz
Qaro tun o'miga keltirdi kunduz.

Qaro zog' bo'ldi g'oyib ko'zdin, illo,
Tuxum in'om etib to'tiga tillo.

645 Qaro to'nini otdi elkadin tun,
Quyoshdin mulki olam bo'ldi gulgun.

Necha bir aqli qosirkimsa shu on
Shahanshohga xabar etkazdi pinhon.

Ki "Xusrav beadablik qildi g'oyat,
Shahanshoh amriga etmay rioyat".

Malik so'rdi: "Gunohi ne emish ul?
Deyishdi: "Qilgani jabru sitamdir.

Etibdir oti bir paykalni pinhon,
G'ulomidin ziyonlar ko'rdi dehqon.

650 Yana tor xonada ul ishrat etmish,
Sadoyi changi nomahramga etmish".

Buni begonamas, aylabti farzand.
Etardi yo`qsa shoh parkand-parkand.

Tabib tomirga urgay garchi nashtar,
Qo`li titraydi ursa o`ziga gar...

Buyurdi shoh, olindi xanjari bot,
Nishon bo`ldi keyin xanjargayam ot.

G`ulomin endi dehqonga etib qul,
Gulobin to`kdilar tuproqqa butkul.

655 Magar kechgan edi ishratda vaqti,
O`shal uy sohibiga tekdi taxti.

Yulib ul changchining tirmog`ini zud,
Ayovsiz uzdilar chang torini zud...

Siyosatni ko`ring, etmishlar oldin,
Shahanshoh aylamish o`z o`g`liga chun.

Qani ul adlu insof, qayda qolmish,
Ki shahzoda jazosin bo`yla olmish?

O`shal otashparastdin izlasang ayb,
Senga andoq musulmonlik erur hayf!

660 Bugun bizlar musulmonu gabr ul,
Bu – gabriylik, musulmonlik nadir ul?

Nizomiy, qayt o`shal afsonaga boz,
Ki tutqun qush chiqargay mungli ovoz...

**Xusrav pirlar vositasida
otasidan uzr soʻragani**

Chu Xusrav koʻrdi, kelmish unga xorlik,
Kuyib oʻz holiga ul chekdi zorlik.

Tan oldi qilgani ogʻir xatoni,
Atosi berdi chun haqli jazoni.

Urardi boshiga bu qaygʻu, gʻamdin,
Tinim bilmasdi hech afsus, alamdin.

665 Shafobat soʻrdi pirlardin egib bosh,
Meni shoh oldiga eltsaydingiz kosh.

Ki shohga xush kelib andoq shafobat,
Qabul etsa mening uzrimni shoyad...

Kafan kiydi va qoʻlga tigʻ lib bot,
Jahonni toʻldirib soʻng chekdi faryod.

Borardi necha pir oldinda pirdek,
Ular ortida shahzoda asirdek.

Borib taxt oldiga chun nola tortdi,
Gunohkordek oʻzin ul erga otdi.

670 Dedi: "Shohim, azobga aylama duch,
Ulugʻdirsan, kichikning aybidin kech.

Yusufing boʻynida, koʻr, qancha yukdir,
Kichikdir ul, magar aybi buyukdir.

Hamon ona sutidir menga oshua,
Magar sherdek xunimga bo'lma tashna.

Inoyat aylakim, sargashta farzand
Atosi qahridin tiraydi zotan.

Agar afv etmasang, ey shohimardon,
Hamon amr aylagil, taslim etay jon!

675 Ketar men birla g'amki, jonga payvast,
Faqat shohga malolat etmasa bas".

Dedi shu so'zniyu yuzga surib xok,
Bosh egdi soyadek ul gavhari pok.

Bu holat baski jonni tig'lar erdi,
Ko'rarkan, barcha unga yig'lar erdi.

O'shal zoru fig'onkim mahga ko'chdi,
Yig'i, ko'z yoshi so'ngra shahga ko'chdi.

O'shal farzand hali yosh bo'lsa ham gar,
Qarang, mushkulni qandoq ayladi hal.

680 Ato farzandi iqbolin tilar tek,
Atoning baxti yo'qdir bo'yla baxtdek

Ne etgay senga farzanding, ne aylar,
Keyin farzandidin ko'rgay muqarrar.

Etar yaxshi, yomonmi senga farzand,
Sabr qil, aylagaydir unga farzand.

Chu Hurmuz ko'rdi ul farzandi qobil,
O'shal ruhi ravoni, mevayi dil.

Ajab farzonayu ohistarohdir,
Va bildi holini, farri Xudodir.

685 O'pib boshini, etdi mehru shafqat,
Sipohiga tayin etdi valiahd.

Chiqib shoh oldidin Xusrav shu asno,
Ovoza ketdi andin, bildi dunyo.

Jahondorlik sochardi yuzidin nur,
Adolat erdi har so'zida zohir...

Xusrav tushida bobosi Anushervonni ko'rgani

Yoyib tun sochin etdi dilrabolik,
Qorong'u keldi, ketdi ro'shnolik.

Ki parda ortidin chiqdi sehrboz.
Taratdi shu'lalardin shu'layi noz.

690 Ibodatxonada Xusrav shu damda,
Yaratganga ibodat etdi, sajda.

Chu o'tgan kecha o'tganda beuyqu,
Elitdi nogahon, g'arq etdi uyqu.

Tushida ko'rdi bobosin o'shal tob,
Dedi: "Ey yangi oftobi jahontob!

Magar to'rt narsadin bo'lding judosen,
Senga to'rt narsadin etgum nido men:

Chu nordon g'o'ra eb erding o'shal kech,
Eganda sen yuzing bujmaytnading hech.

695

Olursen og'ushingga nozaninni,
Ki davron ko'rmamish andoq shirinni.

Ikinchi, kesdilar oting oyog'in,
Vale sen tuymading ko'ngilda dog'in.

Kirar ilkingga ul shohona taxte,
Degaylar ne ajab zarrin daraxte!

Qaro oting bo'lur, ul nomi Shabdiz,
Ki sarsar etmagay gardiga hargiz...

Uchinchi, berdi shoh dehqonga taxting,
Ki andin bo'lmadi sho'rida baxting.

700

Va ul to'rtinchikim, sabr aylading boz.
Jafokash mutribing qolganda besoz.

Navosozing bo'lur, Borbad anga nom,
To'lur sharbatga har ohangidin jom.

Olursen bo'ylakim tosh o'rniga zar,
Ketib to'rt mo'hra, kelgay to'rt gavhar".

Bo'lib uyqusidin shahzoda bedor,
Yaratganga ibodat etdi takror.

Tunu kunlar xayol ichra o'tardi,
Bobosi ne demishdi, yod etardi.

705

Hama tunlar xiradmandlar-la hamdam.
Hikoyatlar so'rar, aytar o'zi ham.

Shopurning Shirin va Shabdizdan hikoyat aytgani

Nadimi xosi erdi, nomi Shopur,
Jahon kezmishdi Mag'ribdin to Lohur.

Uning naqqoshligi Moniyga loyiq,
Va rassom erdi Uqlidusdin ortiq.

Qalamkash erdi chun, suratgar erdi,
Qalamsiz qalbida surat chizardi.

Xayoli inja, lutfi chun safobaxsh,
Latofatdin chizardi suv uza naqsh.

710 Chu Parviz oldida bir kun o'pib er,
Necha xush so'zlar aytib muhtasham er,

Dedi: "Amr aylasa shohi jahonim,
Degum yuzdan birin sirri nihonim".

Ishorat etdi Xusrav: "Ey javonmard,
Qizit shu davrani, aqlingni ko'rsat!"

Lab ochdi so'zga Shopuri suxango'y,
So'ziga baxsh etib ham rangi ham bo'y.

Dedi: "Olam o'zingga banda bo'lsin,
Zamona sen bilan farxunda bo'lsin!

715 Yigitlik birla doim hamnafas bo'l,
Murodingga etib, mastu alas bo'l.

Ezilsin kimsakim, shoding ko'rolmas,
Buzilsin ulki, oboding ko'rolmas.

Base mulki jahon kezdim zamonda,
Base husni ajab ko'rdim jahonda.

Ajab bir mamlakat bor, tog'u gulshan.
Tutashgandir anga daryoyi Darband.³⁵

Ayol podshosi, nasli shohi shohon,
Sipohi saf chekibdir to Sipohon.

720 Hama iqlimi Arron toki Arman,
Kutar podsho xotindin amru farmon.

Necha yurtdin kelur boji-xiroji,
Agarchi bor ularning taxtu toji.

Necha ming qal'asi tog' uzra shahna,³⁶
Xudo bilgay, yana qancha xazina.

Va chorva mollari bordir gunogun,
Baliqlar, balki qushlardan-da afzun.

Eri yo'q ersa-da, baxti emas kam,
Yashaydi shodu xurramlikda har dam.

725 Ki erlardin kam ermas har tarafdin,
Mehinbonu degaylar ul sababdin.

Shamiro nomi bordir, oy vasli,
Shamiro ul Mehinbonudir asli.

Havoyi xush tilaydir ul aslda,
Muhayyo aylagay joy har faslda.

³⁵ Daryoyi Darband – Kasbiy dengizi

³⁶ Shahna – posbon.

Tutar gul faslida Mavqonda maskan,
Quvonchi maysadir har yonda o'sgan.

Kelib yoz, joyi Arman tog'idir ul,
Ki unda xirmanu xirman erur gul.

730

Xazon ayyomi ichra joyi Abxoz,
SHikor istab etar yaylovda parvoz.

Zimiston qishda joyi Barda bo'lgay,
Iliq bo'lgay havo, ne turda bo'lgay.

Kezar chun to'rt fasl mulki diyor ul,
Ki har fasl ichra aylab ixtiyor ul.

Nafasni har nafas shodon kechirgay,
Umrni shodu bearmon kechirgay.

Vale yo'qdir uning joniga payvast,
Birodarzoda qizdin o'zga bir kas.

Shirin jamoli vasfi

735

Pari qizdir ajab, osmonda oydir,
Boshida toji birlan gulchiroydir.

Magar ravshan charog'dir, olamafruz,
Yana obi hayotdir ul qaroko'z.

Kumushdir sarv qaddi shul tariyqa,
Ki sunbul sochlar unda halqa-halqa.

Va ul no'shi labin yod aylagan dam,
To'lar sharbatga xurmo ham damo-dam.

Sadafdek tishlaridin sochilib nur,
Sadafni ham jilosi aylagay dur.

740 Shakardir lablari va labda kulgu,
Kamanddir sochlari, ul ikki gesu.

O'shal gesu hamisha dilni tortar,
U gul ruxsori uzra gulni tortar.

Chamanga zulfidin atru ufordir,
Ko'zi shahlolari doim xumordir.

Fusunkor aylabon nargislarin, hay,
Yomon ko'zlarni afsun birla to'sgay.

Solib sehrli ila dillarga otash,
Shakar sochgay labi lablarga yakkash.

745 Labining tuzi bordir etsa landa,
Tuzi shirin emas gar, naylar unda?

Degaysen, burni tig'i siymin ermish,³⁷
Ki bitta olmani ikkiga bo'lmish.

Yuzi yuz pardadin garchi yorug'dir,
Ajab oy chehradirkim, dog'i yo'qdir.

Yuzi sham'iga yuz parvona shaydo,
Vale bir kimsaga etmas u parvo.

Sabo ul zulfu yuzdin hullapo'shdir,
Gahi qoqum, gahi qunduzfurushdir.

³⁷ Tig'l siymin – kumush tig'.

Vakildir noziga g'uncha dudog'i,
Turunjdir g'abg'abi, olma yanog'i.

Yuzi soya solib yulduz chiroyga,
Cho'zar qo'l gohi xurshid, gohi oyga.

Kumushdek ko'ksi go'yo qo'sh anordir,
Guli bo'ston safosi unga yordir.

Labi bermas javobin bo'saga ul,
Agar lab ochsa, andin sochilur dur.

Qo'yib chun bo'yniga bo'ynini, yohu,
Yuvar ko'z yoshi birlan o'zni ohu.

U ohu ko'z ila ul chashmayi no'sh
Necha sherlarning olgay boshidin hush.

Chu ming og'ushga jo aylab tikan, xor,
Birovga ochmamish og'ushni zinhor.

Agar yuz kimsa ko'rmish uyqu, xobin,
Qachon bir kimsa ko'rmish oftobin?

Agar o'z ko'zidin andoza olgay,
Bir ohuga yuz ohu banda bo'lgay.

Chekib nargisi rashkin yig'lamishlar
Iram bozorida rayhonfurushlar.

Hiloldek qoshini bir lahza, bir on
Ko'rolmas kimsa toki bermagay jon.

Solib hayratga Majnunni xayoli,
Etib Laylini tislum oy jamoli.

Xaloyiq bazmiga anr aylagan chog'
Qo'lida o'n qalamdir o'nta barmoq.

Ko'rib husnini oy o'zni sanar xol,
Ko'rib xolini tun andin ochar fol,

Qulog'u bo'ynidini lo'luda hasrat,³⁸
O'shandoq lo'luni sotganga rahmat!

765 So'ziga necha ming oshufta, dilband,
Labi schrida minglab bo'sayu qand.

Qaro zulfin ko'rib sunbul adodir
Labi yoqutu tish durdonayu dur.

O'shal yoqutu ul durri shakarxand
Necha oshiqni etmishdir farahmand.

Hunarga ta'nadir ruxsori mohi,
Ko'ngilga fitnadir zulfi siyohi.

Hunar pok joni deb mastu alasmish,
Ki anbar uhdasin tuproqqa yozmish.

770 Yuzi nasrinu atri-bo'yi nasrin,
Labi shirindir ham nomi SHirin.

Ki elning ul shiin joni demishlar,
Valiahdi Mehinbonu demishlar.

Pari yuzlarki kishvarga amirdir,
Hama xizmatga shay, farmonpazirdir.

³⁸ Lo'lu – sof gavhar.

Asl, oliy nasab etmishta dildor,
Turarlar kunu tun hoziru hushyor.

Husnda har biri oromi jondir,
Va zebolikda oroyi jahondir.

775

Qo'lida sozu jom-la barcha xushdil,
Yurarlar oy kabi manzilu manzil.

Gahi oy nurida mushk yopinib xush,
Gahi gul xirmanida may etib no'sh.

Niqobsizdir ular bu joyda, illo,
Yomonlik etmagay ko'zlardin aslo.

Ulardek yo'q jahonda husnu tal'at,
Jahonda ishlari shu ayshu ishrat.

Agar maydonda nogoh etsalar jang,
Qilurlar filu arslon holini tang.

780

Magar o'q uzsalar, titraydi dunyo,
Urarlar ko'kdagi yulduzni hatto.

Agar huru bihisht olamda mashhur,
Bihishtdir ul taraf, gulchehralar hur.

Mehinbonuki, andoq iqlimi bor,
Shu yanglig' siymu zar ham unda bisyor.

Shabdiz sifati

Ajab tulpor edi oxurga bog'liq,
Etolmasdin anga el bag'ri dog'liq.

Magar qo'rqitsalar-da necha chandon,
Pisand ernasdi unga vahmi to'fon.

785 Quyoshga xezlanib, bir sakrasa, hay,
O'shal etti falak tubanda qolgay.

Gahi tosh chaqnatib tog'larni ezgay,
Gahi dum o'ynatib dengizda suzgay.

Zamondek charx urar ul tezraftor,
Ki tundeK sezgiru tong misli bedor.

Qo'yib nomini ul shabrangni Shabdiz,
Sevar ortiq uni Haqqushdanam qiz.

Bir oltin zanjiri bor, otni har dam
Oyog'in boylagay zanjirga mahkam.

790 Na Shirindek shirin dildorni ko'rdim,
Na Shabdizdek ajib tulporni ko'rdim.

Shularni so'ylagay Shopuri hushyor,
Farog'at uxladi, ishq bo'ldi bedor.

Ko'ngil bo'ldi o'shal Shiringa maftun,
Ki Shopur aylamishdi bo'yla afsun.

Agar ustod cheksa Chin aro naqsh,
Bo'lurdi chizgani dildoru dilkash.

Ki Xusrav bo'ldi osbufta chunonam,
Na tinchirdi, na uxlar erdi bir dam.

795 Shu so'zdin o'zga so'zni tinglamasdi,
Shu so'zdin o'zga so'zni anglamasdi.

Necha kun bo'ldi shu andishaga band,
Quruq afsona birlan erdi xursand.

Va oxir sabru bardoshi tugandi,
Tushib ko'ngliga otash, bag'ri yondi.

Chekib xilvatga ul dostonсарoni,
Necha so'z aytdi dostonin hamoni.

Dedi unga: "Ayo do'sti vafodor,
Madad ber, chun bo'libmen oshig'i zor.

800 O'zing etding ajab shu ishni bunyod,
Tamom etgil o'zing, ey mardi ustod!

Shakar etma so'zingni, muxtasar qil,
Shitob et, so'yi Xo'ziston guzar qil.

Borib, bir butparastdek tadbir ayla,
O'shal zebo sananning ko'nglin ovla.

Nazar sol, bormi unda mehru shafqat,
Dilida bormidir insonga rag'bat?

Agar mumdek muloyim ersa, darhol
Anga sen muhrimiz ur, naqshimiz sol.

805 Agarda ul sanam ko'ngli esa tosh,
Xabar ber, toki toshga urnayin bosh".

Shopur Shirinni izlab Arman o'lkasiga borgani

O'pib er dedi ul Shopur suxandon,
Ki doim shoh bo'lsin shodu xandon.

Nazar ul sori bo'lsin xush, xayrxoh,
Yomon ko'z bo'lmasin yo'lida aslo.

Duosin aylagach andoq darnodam,
Javob aytib dedi: "Ey shohi olam!

Qalamni sathaga men chekkan oni,
Qalam tortar o'shal Arjangga Moniy.

810 Chu bosh chizsam, u boshdek o'zni chayqar,
Uchar qush ham anga gar boylasam par.

G'ubor qo'ndirma aslo toza tut dil,
Agar gard ersa ko'ngil ichra, dard bil.

Maqomim chorasozlik ichra ulkim,
Nechuk bechora ersa, chora qilgum.

Ko'ngilni xushla, tark etma safosin,
Shu ish bo'ynimdadir, etgum adosin.

Bu yo'lda tinchu rohatdin kecharmen,
Qulondek talpinib, qushdek ucharmen.

815 Tinim yo'q to seni tinchitmaguncha,
Diloromingni taqdim etmaguncha.

Magar o'tdek temirda ersa pinhon,
Va yo gavhardiru tosh ichra har on,

Chiqargum, chorayu hiylamga yo'q chek,
Temirdin otashu toshdin guhardek.

Gahi gul, goh tikanni shaylagaymen,
Ko'rib ishni, yana ish aylagaymen.

Olurmen qo'lga, gar yor bo'lsa davlat,
Uni Xusravparast aylarmen albat.

820 Agar ish bitmasa, men chor-nochor,
Etarmen shohi olamni xabardor".

Shu so'zni aytdiyu turdi oyoqqa,
Kirishdi ul azimat aylamoqqa.³⁹

Bosib yo'l to biyobondin biyobon,
Etishdi tog'i Armanga shitobon.

Go'zallar kelmish erdi toqqa ul dam,
Bari yoz gashti birlan shodu xurram.

Chu Shopur chaqdi toqqa, boqdi har yon,
Ochilmish lola, yuz ochmishdi rayhon.

825 Yana toshlarki, moviy, lojuvardiy,
Chechaklar unda qirmiz, sorig' erdi.

Chiqib tosh qoyalar boshiga ko'klam,
Zumurrad maysalar yoymishdi ko'rkam.

Ul Jirmi tog'idin to dashti Bug'ro,
Chizilmish xatti gul, tug'rovu tug'ro.

³⁹ Azimat – azmi safar.

Va bir mehrob edi, rukni Iroq ul,
Kamarbandi sutuni Inhiroq ul.

Yasalmish qoyatoshlardin qadimda,
Yashar keksa kashish-rohiblar unda.

830 Chu ko'hna dayr edi, eski zamondin
Davom aylardi ushbu rasmu oyin.

Etib chun o'zni bir rohibga monand,
Borib, ul joyni shopur tutdi maskan.

Shabdizning zoti haqida

Dariydin dur to'kib, gavhar sochib goh,
Hikoyat etdi boz ruhboni dono.

Ki bu dayr ahlining bor pastda g'ori,
Qaro tosh unda andoqkim suvoriy.

Kuyiksa Ramg'ala dashtida baytal,
Shu erda qondirar nafsini har gal.

835 U yuz farsang bosib shu g'orga kelgay,
Ilon yanglig' shu teshikka suqilgay.

Qaro toshga keyin rag'bat etar ul.
Tanin surtib, suyi shahvat etar ul.

Xudo amri bilan yukli bo'lur, bas,
Xudoning amridir, bu, boshqa ermas.

Va har toychoqki, so'ng andin tug'ilgay,
Zamondek charx urib, eldek yugurgay.

Shu yanglig' mardi dono ochdi ul sir,
Ki Shabdiz ham o'shal tosh naslidandir.

840 Bugun boqsang, o'shal dayri zamon yo'q,
Sovurmish el uni, nomu nishon yo'q.

Ko'rinmas Inqiroq ham, tosh uza tosh,
Sochilmish patsga andoqkim kesikbosh.

Ajab tog' erdi gulrang, bitdi oxir,
Anga motam tutib toshlar qarodir.

Esib taqdir shamoli, "hayt" deguncha,
Etibdir qoyalarni parcha-parcha.

Falak faryodini tinglab uning, mast,
Toshida shisha sindirmish urib dast,

845 Xudoning ibrati olamda bisyor,
Bu ibratkim, Qiyomat unda oshkor.

Kechib davru zamondin to'rt asr vaqt,
Bu yanglig' toqqa etsa bo'yla qismat.

Chu sendek bir hovuch bechora tuproq
Umid bog'lar abad mulkiga qandoq?

Nizomiy, aytganing bu qissadin kech,
Uni sendin eshitgan bo'lmasin hech...

Shopur Xusrav suratini ilk bor ko'rsatgani

Chu avval kechaning sochi taraldi,
Quyosh unga keyin parvona bo'ldi.

850 Bekildi ul qaro nard taxta shul on,
Shafaqdin shu'la borki, bo'ldi pinhon.

Dedi ul Mushtariy avji samodin
Ki shoh banddin xalos, Shopur balodin.

O'shal Shopurki dayr ichra emishdi,
Yotib dam oldi, yo'lda charchamishdi.

Keyin dayr ahli birlan etdi suhbat,
Ularda kam emasdi ilmu hikmat.

Va so'rdi, ul sanamlar erta tongda
Kelib, maskan tutarlar qaysi joyda?

855 Xabardor erdilar farzona pirlar,
Sanamlar har kuni ne joydadirlar.

Shu tog' poyonida ko'rkam chamanzor,
Ki to'rt atrofida o'rmoni ham bor.

Parivashlar salomlab subhidamni,
O'shal manzilga bosgaylar qadamni.

Falak aylandi, bas, tong ochdi gulyuz,
Qaro tunni jahondin quvdi kunduz.

Chu Alburz tog'idin boqqanda xurshid,
Jahonni etdi shod oyini Jamshid.

Saharhez erdi Shopur, turdi barvaqt,
Belin boylab, qadamga berdi sur'at.

Jadallab ul chamanzor sori yurdi,
Qizil gullarni bir ko'rmoqchi erdi.

Hujasta bir qog'ozni oldi qo'lga,
Va Xusrav suratini soldi unga.

Berib sayqal, duru durdona qildi,
Keyin eltib, daraxt shoxiga ildi.

Bekindi so'ng paridek, turdi hushyor.
Parivashlar kelishdi chun parivor.

Keyin o'ltirdilar bir joyni saylab,
Gahi shamshod, gahi guldasta aylab.

Yig'ib gul suyidin goh obi kavsar,
To'kib gul xandadin goh shahdu shakkar,

Ko'ngilarda farog'at erdi yolg'iz,
Kelinchak erdilar, ammo kuyovsiz.

Chunon bir-birga ulfat, do'st shuncha,
Anisu mehribon gul birla g'uncha.

Ichib may, etdilar mastona o'zni,
Terib gul, ko'mdilar gullarga yuzni.

Tutib qo'llarda boda oyu yulduz,
Yomonlardin jahon pok erdi, xolis.

Hama bokirayu pokizadoman,
Musaffo erdilar, toza tamoman.

Yo'q erdi yot nazar, begona, ag'yor,
Raqsga tushdilar boshlandi alyor.

Biri aytardi gullarga salomin,
Biri yo'llardi bulbulga payomin.

Sevinchu shodiyona erdi cheksiz,
Qo'shiq, savtu tarona erdi cheksiz.

875 Go'zallar ichra ul ruxsori Shirin
To'lin oy erdi, atrofida Parvin.⁴⁰

Azizlar yodin aylab aysh etardi,
Gahi may ichsa, gahi may tutardi.

Magar o'z husni birlan mast edi moh,
Ko'zi tushdi o'shal suratga nogoh.

Buyurdi, keltiring deb shu zamoni,
Uni kim chizganin ayting hamoni.

Hamon keltirdilar, ilkida surat,
Tikildi-qoldi unga necha muddat.

880 Na etgay erdi ko'z uzmoqqa holi,
Va na ko'ksiga bosmoqqa majoli.

U har gal boqsa, surat mast etardi,
Chunonchi har qadah sarmast etardi.

Boqarkan, o'zga erdi ko'nglida hal,
Yashirgan erdilar, topdirdi darhol.

⁴⁰ Parvin – yulduzlar turkumi, Surayyo.

Kanizaklarga qo'rquv tushdi andoq,
Ki surat aylagay shirinni mundoq.

Hamono yirtdilar naqshi guzinni,⁴¹
Ki rangsiz aylar erdi naqshi Chinni.

885 Shirin so'rganda ul suratni bir gal,
Dedilarkim, o'g'irlab ketdi devlar.

Parilar maskani ermish bu sahro,
Borib, maskan tutaylik o'zga ma'vo.

O'shal majjarki, yoqmishti olovdak,
Yoqib isriq, u joyni etdilar tark.

Tutunga to'ldirib ko'k sahnini bot,
Bo'lak dasht sori so'ngra surdilar ot.

Shopur Xusrav suratini ikkinchi bor ko'rsatgani

Sahargohning to'riq tulpori chindan
Elib, to'rt na'lidin chaqmoq chaqarkan,

890 Ochardi ganjdin har go'shada roz,
Berardi toqqa andin husnu pardoz.

Go'zallardin o'zib farzona Shopur,
Bo'lak ma'voda ham bo'lmishdi hozir.

Bu gal ham mo'yqalamni qo'lga olmish,
Yana qog'ozga ul suratni solmish.

⁴¹ Naqshi guzin – asl, mumtoz surat.

Sanamlar keldilar chun aylashib noz,
Chamanzor qo'ynida gul ochdilar boz.

Harir, atlas libosda erdilar oy,
Yana gulxandalarga etdilar roy.

895 Agarchi boshda kamroq erdi rag'bat,
Qovushdi asta-asta bazmu suhbat.

O'yinga tushdilar, bas, yangratib soz,
Zamona etdi lo'batbozi og'oz.

Chu SHirin har taraf ko'z solgan erdi,
Yana ul suvrati siymoni ko'rdi.

Ki qushdek ko'ksida talpindi joni,
Tutildi, kelmadi so'zga zaboni.

Axir, sarmastga bir uyqu kifoyat,
Namiqqan erga jindek suv kifoyat.

900 Urib bong, so'rdi: ayting, bu ne holdir,
Xato qildimmi yoki bir xayoldir?

Nadimi xosiga amr etdi alhol:
"O'shal suratni keltir menga darhol!"

Borib suratni oldi, etdi pinhon,
Yashirmoqqa quyoshni borni imkon?

Dedi: "Huru parilar aylamish chun,
O'yin o'ynab, etarlar bo'yla afsun".

Turib, o'zga tarafga burdilar yuz,
Ketib gul, maysa-o'tlar qoldi yolg'iz...

Shopur Xusrav suratini uchinchi bor ko'rsatgani

- 905 Etishdi tun, o'shal anqoyi fartut⁴²
Qoringa joyladi bir dona yoqut.
- Olib ul Anjarak dashtida orom,
Parivashlar base no'sh erdilar jom.
- Va sarnast yotdilar dashti qiyoda,
Oyoq ostida rayhon, qo'lda boda.
- Chiqib tun bag'ridin kun keldi xurram,
Zamona kiydi zarrin tojin ul dam.
- Berib taxt uzra zarrin sufraga zeh,
Yana may ichdilar daf'i xumor deb.
- 910 Shu erdin so'ngra to dayri Pariso'z,
Jadallab etdilar ul oyu yulduz.
- O'shal anvo chamanda bo'ldilar jam,
Falakni boshlar uzra etdilar xam.
- Xiradmand jonidek ko'm-ko'k giyosi,
O'g'il-qiz mehridek dilkash havosi.
- Nasimi o'ylakim bodi bihisht ul,
Qadab dur erga, dengizga ekar gul.
- Qizil gul toshini butxona etmish,
Sabo zulfi safosin shona etmish.

⁴² Anqoiy fartut – kekxa anqo.

Kechib gul boshida har lahza umri,
Navosoz bulbulu xo'r unga qumri.

Ucharkan shoxma-shox ne qushchalar xush,
Sadoyi sozini aylar namoyish.

Va har ovloqda gulga ikki qushcha,
Ichibsanmi, yana ich, deydi, shuncha.

Etib gulshanga ul suratchi ustoz,
Tag'in suratni chizdi, berdi pardoz.

Paripaykar o'shal gulshanda erdi,
Qo'lida may, labida xanda erdi.

Boqarkan bir taraf, ko'rdi hamoni,
O'shal surat edi, oromi joni.

Ko'rib, hayratlar ichra qoldi andin,
Ishi o'tgan edi endi o'yindin.

Chu taslim bo'ldi ul shaydo ko'ngilga,
Borib, oldi o'shal suratni qo'lga.

Ko'rib ul ko'zguda o'zdin nishone,
Ajabkim, ketdi hushdin bir zamone.

Necha so'z aytdi behushlik aro mast,
Ki takror aylamoqlik joiz ermas.

Haqir o'rgimchak erdi, xor muncha,
Qarang, qanday humoni oldi o'lja!

U bois chashma devonxona bo'ldi,
Paridek bir sanam devona bo'ldi.

Agar chun chora-tadbir aylagaylar,
O'shal mardumni qo'y, dev ovlagaylar.

Parivashlarki erdi sho'xu bebok,
Sanamni ko'rdilar ma'yusu g'amnok.

Hama bildiki, bu ishda pari yo'q,
Ajab ishdirki, bunda sarsari yo'q.

930 Pushaymonlar chekib shu lahza ancha,
Sanoxon bo'ldilar suratga barcha.⁴³

Dedilar, jonni biz bermoqqa tayyor,
Bilarmiz ne emish suratda asror.

Chu Shirin ko'rdikim, rost so'ylagaylar,
Bu ishga chora-tadbir aylagaylar.

Ne xushdir, dedi ul ko'nglida zorlik,
Yoronlarga yoronlar etsa yorlik.

Base ishlar bitar chin do'stu yordin,
Anisu mehribon, ahdida bordin.

935 Dedi so'ng ul go'zallarga gulandom:
"Bu surat oldi dildan sabru orom.

Keling, to qolmasin bu sir aroda,
Shu surat deb ichaylik endi boda".

Yana bir bor nishot og'oz aylab,
Mayi nob birla ishrat soz aylab,

⁴³ Ya'ni, suratini maqtay boshladilar.

G'azallar aytdilar ko'p oshiqona,
Ki andin keldi soqiyga bahona.

Sanam ilkida achchiq may edi, bas,
Ul achchig'u shirinlikdin jahon mast.

940 Chu har gal jomi may no'sh aylasa gul,
O'pardı erni surat oldida ul.

Oshirdi boda ishq dardini andoq,
Tugandi sabri, bo'ldi toqati toq.

Yo'l uzra bir kanizni qo'ydi oxir,
Dedi, kim o'tsa bundan, sen surishtir.

Kim ermish, ne tilar, bas, berma fursat.
Bilarsanmu deya suratni ko'rsat...

Agarchi so'rdilar pinhonu paydo,
Vale sir bo'lmadi hargiz huvaydo.

945 Chu surat sirri bo'yla mavhum o'lgach,
Etib Shirin taniga sustligu ranj,

Ilondek to'lg'anardi qayg'u ichra,
Ko'zidin dur to'kardi qatra-qatra...

Shopurning paydo bo'lgani

Banogoh chiqdi ul qushkim, fusunsoz,
Va mug' oyini birlan etdi parvoz.

Ko'rib nogoh Shirin Shopurni shunda,
Nishoni oshnolik ko'rdi unda.

Ko'ngildin kechdi gap, chun boqdi takror:
Magar ul sirri suratdin xabardor...

950 Ishorat ayladi da'vat eting deb,
So'rang ul qissayi suratni aytib.

Agarki bilsa, aytsin bizga nomin,
Muayyan aylasin shaxsu maqomin.

Yugurgancha kanizlar etdilar bas,
Va surat holin unga etdilar arz.

Berardi Shopur ichda sehriga zeb,
Yaqin fursatda ish hal bo'lgusi deb.

Sababki, o'ljasin tutmish edi dom,
Bu junbush baxsh etardi unga orom.

955 Dedikim, dur tizish oson emas ul,
Oyoq ustida aytilmas bu mushkul!..

Kanizaklar borib Shiringa shu dam,
Shitob etkazdilar ne aytdi odam.

Chu Shirin tingladi so'zni, hamoni
Qizishdi, qalbida jo'sh urdi qoni.

Kumush tog' singari yo'l oldi darhol,
Oyog'idin jarang sas berdi xalxol.⁴⁴

Yurib Shopur sari besabru somon,
Adil qomat ila bo'ldi xiromon.

⁴⁴ Xalxol – qizlar ziynat uchun oyog'iga taqadigan kumysh yoki tillo halqa.

960

Yuzi, la'li chu billurin anore,
Sochi, zulfi chu mushkin navbahore.

Qaro sochi kamand erdi taniga,
Tushibdir endi boshdin gardaniga.

Etardi naqshi andoq husnini fosh,
Boqib hayratda erdi balki naqqosh.

Yuzi, ko'zi qo'g'irchoqdin emas kam,
Qo'g'irchoqbozlik aylar o'zi har dam.

Olibdir ko'nglini bir mardi hindu,
Uni izlardi endi turk bo'lib u.

965

O'shal hindu tufayli turktozi,
Ki turkni hindu aylar erdi nozi.

Tutib daryoga gavharli qulog'in,
Va boylab unga gavhar ishtiyoqin.

Labida yuz karashma, ko'zida noz,
Etishdi kimsaga va berdi ovoz.

Dedi: "Kel endi, menga oshno bo'l,
G'ayirlik aylama, bir dam mango bo'l".

Eshitdi ul ajib ovozni Shopur,
Dedi: "Lozim menga sabru tahammul".

970

Suxandon erni andoq nargisi mast
Qotirdi bir zamon, lol ayladi, bas.

Parini maqtadi ul tahsin aytib,
Pari o'ltirdi, chun unga "o'tir" deb.

Va so'rdi: "Kimsanu qaysi mavolik,
Ko'rarmen senda rangi oshnolik?"

Javob aylab dedi: "Davru zamonda
Base yaxshi-yomon ko'rdim jahonda.

Shu Boxtar yurtidin to haddi Xovar,
Kezib chiqdim ne mulku mamlakatlar.

975

Zaminni qo'y, baliqdin oygacha to,
Bo'libmen har nechuk ma'nidin ogoh".

Ko'rin Shirin bu yanglig' azmu xotir,
Dedikim, ayt, bu suratda kimdir?"

Dedi Shopur: "Yorug' chehrangni doim
Yomon ko'zdin yiroq tutsin Xudoyim!

Bu surat qissasi g'oyat uzundir,
Ajab rozdirki, darhol aytmagumdir.

O'zingga aytilur bu sirli qissa,
Mufassal so'ylagum joy xoli bo'lsa".

980

Sanam amr ayladi, ud necha gulyuz
Taraldi har tarafga misli yulduz.

Chu xoli ko'rdi maydonni suxandon,
Suxan bobida bo'ldi mardi maydon.

Dedi: "Suratda ul pokiza paykar,
Nishoni oftobi etti kishvar.

Sikandarmavkabu dorosavordir,
O'shal shohlardin ezgu yodgordir.

Ko'rib diydorin osmon deydi xurshid,
Jahon sahnida yolg'il nasli Jamshid.

985

Shahanshoh Xusravi Parvizdir, illo,
Shahanshohlikni etdi husni dunyo".

Shu yanglig' necha so'z so'yvardi unga,
Ki jonparvar edi, singirdi jonga.

Shirin jam aylamishdi ishtiyoqin,
Shirin so'zlarga tutmishdi qulog'in.

Ki har so'z uzra o'ylab bir zamone,
Yana izlar edi andin nishone.

Berib har so'zga pinhon rang ila o't,
Chiqargay erdi toshdin la'lu yoqut.

990

Yashirmay endi Shopur o'zga bir roz,
Sananga oshkoro so'yiladi boz:

"Pariro'yo, nihoniy tutma asror,
So'zingni parda ichra etma izhor.

Kularsen gul kabi pinhona, basmi,
Shakardek bo'lsa oshkor, yaxshimasmi?"

Ne istarsanki, bo'lgay dardga darmon,
Tabibing so'rsa, darding tutma pinhon".

Bu so'zlardin o'shal zanjiramo'y gul
Yorishdi, ne ajab yorishgani ul!

995

Vale ishq o'tida ul yona-yona,
Sinov qildi, necha uzru bahona.

Harifni do'st ko'rib ham uyni xoli,
Tabaqpo'shdin tabaqni etdi xoli,

Ki Shopur oldiga o'ltirdi oxir,
Shakarband muhrini sindirdi oxir.

Dedi: "Ey do'st, Xudo haqqi, madad qil,
Muruvvat ayla menga, marhamat qil.

Bo'libmen ishqida chun zoru shaydo,
Ki sochim singari boshimda savdo.

1000 Bu suratga bo'lib oshiq, havasmand,
Kunu tun o'ylakim suvratparastmen.

Madad etgil menga bu ishda zinhor,
Manam bir ishda bo'lgaymen madadkor.

Qulog'ingga shivirlab so'yladim roz,
Sanam aytgil siring, bo'l menga hamroz".

Chu tadbir izlar erdi, bildi Shopur,
Ki rostni so'ylamak – eng yaxshi tadbir.

Shu onda bir quli bo'ldi sanamning,
Oyog'iga yiqildi ul sanamning.

1005 Dedi ontlar ichib: "Ey sham'i davron,
Sazoyi taxtu faxri shohu sulton!

Iloyo, dushmaning baxti qoraysin,
Hamisha yangi oy boshingda bo'lsin!

Ba haqqi Ulki, boshim uzra har zum,
Agar ma'zur tutarsen, rostini aytgum.

O'shal suratchi menman, naqshi pargor
Chekib, Xusravni etdim chun namudor.

Musavvir nechakim mohir erur, bas,
Chizar suratni, lekin jon berolmas.

1010 Chizarmen suratni rangu bo'yoqdin,
Va lekin jon berilgay boshqa yoqdin.

Ko'rib suratni senda bo'yla ahvol,
O'zini ko'rganingda ne kechar hol?

Magar nurli jahon ko'rgaysen unda,
Jahondir ul ajab ham nuri diyda.

Jasurdir, chobuku chaqqon, sabrli,
Mehrda ohuyu sherdek qahrli.

Xazonsiz gul erur, sof, beg'ubordir,
Yigitlik bog'ida avji bahordir.

1015 Hanuz yo'qdir guli yonida shamshod,
Hamon sarvi guli savsandin ozod.

Hamon otgan o'qi burgutni urgay,
Nilufar gul hamon suv ichra turgay.

Bulutdin to hanuz oftobidir pok,
Bulutu oftobdin unga ne bok!

Iramga yuz eshik ochgay ufori,
Etar oyni xijolat gul uzori.

Minarkan otiga, Rustam nihod ul,
Icharkan bazm aro may, Kayqubod ul.

1020

Saxovat aylabon ganj bersa bir dam,
Uchar ellarga Qorun ganji ul dam.

So'z aytsa, dur sochar so'ziga marjon,
Tig' ursa, jon berar andin arslon.

Qimirlatsa rikobi shahsuvorin,
Etolmasdan, shamol quvgay g'uborin.

Nasab so'rsang, Xudo haqqiki, Jamshid,
Hasab so'rsang, bihamdullohki, Xurshid.

Qo'shin tortsa, jahon tor kelgay har chog',
Tikibdir etti taxt ustiga bayroq.

1025

Zar ehson aylasa karvon kerakdir,
Tig' ursa, zarbidin tosh yig'lagaydir.

Qo'lida o'ynasa gar xanjari xos,
Zireh bardosh berolmas, garchi olmos.

Chu shamshir o'ynatishda yo'q qiyosi,
Xatiblarga berar shamshiri g'oziy.

Qadam bossa, zaminni xasta qilgay,
Shitobi charxni ohista qilgay.

Falak engolmagay, behuda harbi,
Bo'lur shamshiri to'mtoq, zoe zarbi.

1030

Jamoli bazimu bayramlarga oro,
Hunar etsa, hunar bobida tanho.

U iqbolidin istiqbolga etgay,
Va istiqbolidin iqbolga etgay.

Gar unda chun jamoli olamafruz,
Sening ishqingda yongay kecha-kunduz.

Xayolingda kechib tunlarda uyqu,
Chu aqlu hushdanam bo'lmishdir ayru.

May ichmas, olmagay hech ilkiga jom,
Na tunda uyqudir, na kunduz orom.

1035

Shirindin o'zgani ul istamas hech,
Bu kunga qolmagay olamda kas hech!

Mani qosid etib senga yubordi,
Men etdim xizmatim, ish senga qoldi".

Shu yanglig' muddaoga qaytar erdi,
Nechuk so'z bilsa, chandon aytar erdi.

Shirin so'zlarni ul Shirini madhush
Ichardi, may kabi aylar edi no'sh.

Yiqilmog'iga sal qoldi, shirinlab
Tutardi o'zni tetik bir amallab.

1040

Va oxir so'rdi ul: "Ey mardi hushyor,
Nechuk tadbir etay, ne chora darkor?"

Dedi Shopur anga: "Ey shohga ummid,
Salomat bo'l, mudom ko'nglingni tinch tut!

Savob uldirki, ochma kimsaga roz,
Etib ovni bahona ayla parvoz.

Minib Shabdizni erta ov sari sur,
Keyin surgil yana ovloqdanam ul.

Magar bir kimsa ilkingdin tutolmas,
Quvib bir kimsa Shabdizga etolmas.

1045 Uchib sayyora yanglig' yo'lni bosgin,
Manam borgum shitob aylab izingdin".

Uzuk berdi anga, Xusravdin ehson,
"Taqib olgin, dedi, tush yo'lga chaqqon.

Gar uchratsang yo'lingda yangi shohni,
Hamon ko'rsat anga bu yangi mohni.⁴⁵

Samand otida zarrin na'l ko'rarsen,
Libosin boshdin – oxir la'l ko'rarsen.

Kuloh la'lu qabo la'lu kamar la'l,
Yuzin ham la'l ko'rarsen, sarbasar la'l.

1050 Yo'q ersa gar, Madoin shahriga yur,
Etib, unda shahanshoh qasrini so'r.

Madoin chetida bir yo'l toparsen,
YAna ganju xazina mo'l toparsen.

Malikning qasri bor monandi Farxor,⁴⁶
Kanizaklar o'shal qasr ichra bisyor.

Kirib, sarbastu bardam tut o'zingni,
Kanizaklarga ko'rsat bu uzukni.

O'shal gulshan aro ozod sayr et,
Ochilgan gul kabi dilshod sayr et.

⁴⁵ Yangi moh – hilol shaklidagi uzuk.

⁴⁶ Farxor – Tibetda qurilgan mashhur butxona va qasr.

1055

Sabr qil, kelsin ul shohi javonbaxt,
Zamindin osmonga yuksalur taxt.

Shahanshohning jamoliga nazar qil,
Bo'lur butkul muroding shunda hosil.

O'shal fursatda gar hamroh esam men,
Nasihatlarga muhtoj bo'lmagaysen".

Dedi shu so'zniyu so'ng bo'ldi ayro,
Umidlarga to'lib oy qoldi tanho.

Kanizaklar kelib oldiga ildam,
Aroga oldilar Shirinni shul dam.

1060

O'shal yulduzlariga mohi tobon,
Ketarmiz, dedi, bu erdin shitobon.

Tuyoqdin chaqnatib o't uchdi otlar,
Magarki etdi tog'ni koni gavhar.

Tushib yo'lga hama ot surdi xushnud,
Chu oydek ravshanu oftob kabi zud.

Bosishdi yo'l shirin suhbatda ancha,
Vatanga sog'-salomat etdi barcha.

Magar tashvishlari yo'q erdi asti,
Shirinning ko'ngli xotirjam emasdi.

1065

Tutundek yoprilib tun, so'ndi yog'du,
Jahonning ko'zini to'ldirdi uyqu.

Quyosh burkandi ko'k shohiga ul dam,
Azim tol beliga boylandi gul ham.

Malikam, dedi Shirin shahriyorga,
Ijozat etsangiz erta shikorga.

Hamon Shabdizni ovga shaylasinlar,
Uni boyliqdin ozod aylasinlar.⁴⁷

Uni minsam-da, ovga rag'bat etsam,
YArim oqshom yana xizmatga etsam...

1070 Mehinbonu dedi: "Ey mohi tal'at,
So'ra Shabdiznimas, yuz molu davlat.

Xudoning amri-la shabrang SHabdiz
Yugursa, xavflidir, shiddatlidir, tez.

Bulut chaqmoq chaqar ul kishnagan dam,
Etolmas gardiga uchqur shamol ham.

G'azabga mingsa gar, otashdin o'tgay,
Va suv ostida ham otashlik etgay.

Uni minmak senga xohish esa chun,
To'lin oydan faqat zebo emas tun.

1075 Minarkan, pahlavonlardek marom et,
Jilov sol, berma erk, o'zingga rom et".

Yorishdi gul yuzi qizning sevinchdan,
Er o'pdi, xizmat etdi, yotdi xursand.

⁴⁷ Odatda uzoq safar yoki ko'pkari-uloq oldidanotni oxurga boylab boqishadi.

Shirinning ovga chiqib, Madoinga qochgani

Saharmardon turib ul xozani Chin,⁴⁸
Guhar sandig'iga soldi kalitin.

Chiqib andin, ko'rindi naqshi chiniy,
Namoyon bo'ldi bor olamning husni.

O'shal chiniy go'zallar ham chiqib bot,
Oyoqda turdilar chun sarvi ozod.

1080

Shirin munis boqib gulchehralarga,
Shirin so'zlik ila dedi ularga.

Ki "Bismilloh, bugun sahroga borgum,
Ne qush dominga tushgay unda, ko'rgum".

Echib ro'mol, olib mardona bir tus,
Kiyimlar kiydi qizlar ovga maxsus.

Kiyishdi boshga qalpoqlarni ildam,
Kamarlarni sirib boylashdi mahkam.

Chiqarkan ov uchun sahroga har vaqt,
Yigitlardek kiyinmoq erdi odat.

1085

Shirinni o'rtaga darhol olishdi,
U otlandi, ular ham otlanishdi.

Saroydan yurdilar sahro sari tek,
Kulib, obi hayot ichgan Xizrdek.

⁴⁸ Xozan – xazinabon.

Biyobon kezdilar, sayr etdilar to,
U sahrodin yana bir o'zga sahro.

Chaman erdi ajab, zeboyu dilkash,
Ko'ngillar bo'ldi andin xurramu xush.

Zamin ko'k maysa, oromgohi ohu,
Havo mushkin, vale yo'q erdi ohu.

1090 Jilovni qo'ydilar bo'sh, surdilar ot,
Hama parvozda, qon qaynoq, ko'ngil shod.

Suvoriy Shirinu ot erdi Shabdiz,
Uchardi har daqiqa tezdanam tez.

Bir-ikki "chuh" dedi, bo'sh qo'ydi tizgin,
O'zib ketdi shu lahza o'zgalardin.

Olib qochdi deya o'ylashdi tulpor,
O'shal fursat o'zi qochmishdi dildor.

Izidin barcha ot surdi hamoni,
Vale yo'q erdi bir nomu nishoni.

1095 Yurib to kechgacha sahroda sarson,
Topolmay, qaytdilar so'ng zoru giryon.

Malakdin ayrilib boshlar edi xam,
Yuvardi yuzlarin ko'z yoshi – shabnam.

Mehinbonu huzuriga chekib oh,
Kelishdi, o'rtada yo'q erdi ul moh.

Etib taxt poyiga yig'lashdi hung-hung.
Shirin ahvolini arz etdilar so'ng.

Falak unga o'yinlar etdi mundoq,
Olib qochdi uni tulpori andoq...

1100

Mehinbonuki bu so'zni eshitdi,
Chekib faryod, g'amu hasratga botdi.

Baland taxtdin o'zini otdi dardnok,
Cho'kib tuproqqa, sochdi boshiga xok.

Chidolmay, boshini changalladi u,
Ko'zidin yoshi seldek oqdi duv-duv.

SHirin deb dod solardi, yig'lar erdi,
Jiyan hajrida bag'rin tig'lar erdi.

Der erdi yosh to'kib: "Ey nozaning moh,
Meni sendin yomon ko'z etdi ayro.

1115

Gud erding, uchrading bodi xazonga,
Duchorsen, bilmadim, qay bir tikonga?

Ne bo'ldi, bizni mehringdin ayirding,
Magar bir mehribonga tushdi mehring?

Ayo ohu, bo'lib sen ohubezor,
Magar bir shergami bo'lding giriftor?

Nechuk oysan bugun yulduzlaringsiz,
Quyoshmassanki, yursang yakka-yolg'iz?

Qani sarvingki, ul yashnoq edi, bas,
Va har shoxi edi jonimga payvast.

1120

Yuzing oy, kimga nurin sochgay endi,
Yo'qotdim men seni, kim topgay endi?"

Chu shamdin tonggacha ul chekdi hasrat,
G'am uzra g'am edi, dard ustiga dard.

Quyosh chiqdi, etib tark chohi Bejan,
Butun olamni nuri etdi ravshan.

Hama lashkar, hama botir, bahodir,
Turishdi shay bo'lib xizmatga hozir.

Ki farmon bersa Bonu, jahd etarmiz,
Surarmiz otni, Shiringa etarmiz!..

1125 Mehinbonu bu ishga qilmadi mayl,
Va andoq etmadi lashkarga ham zayl.

Baloni ko'rgan erdi uyquda tush,
Qo'lidin uchgan erdi qarchig'ay qush.

Alam chekmishdi qush etganda parvoz,
O'shal qush qo'liga qungan edi boz.

Dedi lashkarga: "Topmoq endi mushkul,
Agar osmonga hamroz bo'lsagam ul.

Nasib etgusidir bizlarga bori,
U Shabdiz poyining gardi, g'ubori.

1130 Qush uchsa, ortidin sen quvlama hech,
CHu to'rdin qochgan ov bermaydi tutqich.

Kabutar uchsa qo'ldin, chekma nola,
U qaytar, o'ziga etgil havola.

Sabr etgum, yoqar garchi firoqi,
Solar jonimga o't na'li buroqi.

Agar ul gavharimdin bo'lsam ogoh,
Etardim rohatimni jonga hamroh.

Qo'shib ganjimni ul ganjinaga boz,
Bo'lardim shukr etib ganjinapardoz".

1135

Eshatdi lashkari bonuni muncha,
Uning xohishiga bosh egdi barcha...

U yoqda o't bo'lib Shirinu Shabdiz,
Uchardi qayda deb ul shohi Parviz.

Uchib go'yo chaqin yo misli bir o'q,
Na kunduz, na kecha yo'lda tinim yo'q.

Kamar boylab, yigit suratda andoq,
O'tardi ko'yma-ko'y, qishlovma-qishloq.

Kechardi bog'u rog' yo dashtu sahro,
Vale emin emas dushmandin aslo.

1140

Oshardi tog'danam toqat etolmay,
Qolardi ortida ellar etolmay.

Bekitmay, aytayin afsonadin roz,
Yo'liga chiqdi bir xotin sehrboz.

Tarog'u ko'zgu otdi qahr etib chun,
Yo'lini to'sdi shunda sehru afsun.

Tarog'u ko'zguga ko'k berdi davron,
Biridin tog', biridin o'sdi o'rmon.

Xotinkim, sehru jodu qildi qaqshab,
Beshafqat erdi tog', o'rmonga o'xshab.

1145

Shirin bu yo'lda chekdi baski anduh,
Mashaqqatlarga bo'ldi qancha o'tru.

Tinib, dam olgali yo'qdi iloji,
Toliqqan ersa-da nozik mijozi.

Nihoniy manzilin ko'zlab dilafruz,
Chunon yo'l bosdi o'n to'rt kecha-kunduz.

O'tib har necha manzildin, yiroqlab,
Borardi yo'l so'rab, manzil so'roqlab.

O'zarkan sarsari ellardanam ot,
Etardi charxi davronni zamin yod...

Shirinning chashma suvida cho'milgani

1150

Sahargoh sochdi chun olamga oqlik,
Chekindi sahni dunyodin qarolik.

Necha ming nargis erdi ko'k aro ul,
Ketishdi, chiqdi yolg'iz za'faron gul.

Surardi otini Shirin shitobon,
Mashaqqatlarga bu yo'lda tikib jon.

Ko'rindi bir chaman ozoda, ko'rkam,
YAna obi hayotdek chashmasor ham.

O'shal suvni ko'rib chun tal'at ichra,
Tiriklik suvi qolgay zulmat ichra.

1155

Zarur erdi tinim ul jismi zorga,
Tamom botmish edi gardu g'uborga.

Yurib, atrofni aylandi zamone,
Yo'q erdi kimsadin nomu nishone.

Inib o'tdin, uni boylarkan, asti
Birov ko'rgay meni deb o'yلامasdi.

Kelib, suv chashmaga nur chashma tushdi,
Boqib, osmon ko'zi andin qamashdi.

Suhayl oq ko'yлагin echganda ul dam,
Ko'tardi SHi'ridin faryod samo ham.⁴⁹

1160 Beliga shohi boylab suvga kirdi,
O'shal suvdin jahonga otash urdi.

Qaro kiydi falak avjida Parvin,
Nilufarga kelib yondashdi Nasrin.

Bo'lib qo'rg'oni niliy, chun tunoroy,
CHiqardi osmondin boshini oy.

Ko'mildi suvga siymin tan o'shal zum,
Yiqildi xuddi sanjob uzra qoqum.

Ajabdir ulki, gulni chashma yuvsa,
Ajabroq udki, suvdin lola unsa.

1165 Solarkan suvga ul zulfi chiroyni,
Baliqmas, balki ovlar erdi oyni.

Etardi atrini kofurga payvast,
Ko'rib kofurni chun erdi jahon mast.

⁴⁹ Shi'ri samo – falakning qo'sh yulduzi, Shomu Yaman deb ham ataladi.

Magarki ko'nglidin kechmishdi bir on,
Kelur qoshimga deb bir yangi mehmon.

Ziloliy chashmada mehmonga deb bot,
Gulob tayyorlar erdi ul parizod.

Xusrav chashmasorda Shirinni ko'rgani

U piri forsigo'y aytib hikoyat,
Dedi fors mulkidin andoq rivoyat.

1170 Ki Xusrav yo'llab ul chobuk qadamni,
Borib, surgil, dedi, sarvi sanamni.

Tunu kun tashnayi diydor edi ul,
Umidi vaslin aylab, zor edi ul.

Etardi subhu shomlar xizmati shoh,
Kamar boylab chunonkim xurshidu moh.

CHu taxtoroy bo'lib boshda kulohi,
Uni boshimda tojim derdi shohi.

Jahondor olida bor erdi muncha,
Yomon ko'z ofati to etmaguncha.

1175 Po'ladgar erdi qattol dushman unga,⁵⁰
Ki Parviz nomiga zarb etdi tanga.

Yubordi har shaharga ul diramni,
Solib tashvishga chun shohi Ajamni.

⁵⁰ Po'ladgar – temirchi.

Dema tashvish uni, qo'rquvga tushdi,
Chu qo'rquv ortidin qutquga tushdi.

Bo'lurmen. dedi, bu shaxmatda g'olib,
Etarmen, dedi, ul Xusravni mag'lub.

Bu ishga tadbir olsam-chi, ne bo'lgay?
Tutib, zindonga solsam-chi, ne bo'lgay?

1180 Magar tadbirga ko'ngli payvast erdi.
O'yin o'ynardi taqdir, bilmas erdi.

Engib bo'lmasdi ul Xusravni aslo,
To'sib bo'lmasdi yangi oyni, illo.

Chu har kim bersa gar rostlikka ko'ngil,
Jahon olmas uni, olgay jahon ul.

Buzurgummid xabarkim shunda topdi,
Tutib shahzodani, xilvatga tortdi.

Dedi unga: "Bugun tole' emas yor,
Jazo bermoqchidir senga jahondor.

1185 Buning ma'nosiga etmoq kerakdir,
Ki bundan bosh olib ketmoq kerakdir.

Tutun tarqab, yoniq otash qolur boz,
Va tole' yulduzing ravshan bo'lur boz".

Chu Xusrav ko'rdi, oshubi zamona
Haloki joniga izlar bahona.

Borib qasriga, mushkin gesularga,
SHu so'zlarni tayin etdi ularga.

Dedi: "Ovga chiqarman, fursatim ziq,
Cho'zilgay ikki hafta, ozmi-ortiq.

1190 Siz ersa o'ltirib yo sayru sayron,
Bo'ling har lahza xursand, shodu xandon.

Qaro tulporli qiz shomu saharda,
Tovusdek tovlanib kelsa agarda.

Chiqing peshvoz, u mehmoni azizdir,
Siz oysiz barcha, oftob ul kanizdir.

Shitob aylangki, ul beg'am o'tirsin,
Nishoti bazm eting, hamdam o'tirsin.

Agar tor kelsa bu manzil, siqilsa,
Xizr yanglig' so'yi sahroga yursa.

1195 Boring siz ham izidin dashtu ko'yga,
Qasr bunyod eting ul mohro'yga".

O'shal fursatda aytib dilrabodin,
Xabar kelgaydi ilhomi Xudodin.

Shu so'zni aytdiyu ketdi qadamlab,
Sulaymonvor parizodlarni jamlab.

Qicbab otini shahzoda yashinvor,
O'shal Arman zaminga surdi tulpor.

Tamomi dard edi ko'ksida ko'ngil,
Bosib bir manzil ichra ikki manzil.

1200 Ajabkim, otlari sustlashdi anda,
Parizod soch yuvib turgan chamanda.

Yigitlarga buyurdi to'xtamoqqa,
Bedovlarni qo'ying deb o'tlamoqqa.

Ularni qoldirib shu joyda al-on.
Chamanzor sori ul yurdi xiromon.

Borarkan sayr etib orasta gulshan.
O'shal gulshan aro suv ko'rdi ravshan.

Chu burgutdek ajab ot ko'rdi, boyloq.
Tovus ko'rdi labi kavsarda, yashnoq.

1205 Giyohlarni bosib ohista yurdi.
Yurib ohista ul ohista derdi:

“Shu dildor bo'lsa dildorim, ne erdi?
Shu tulpor bo'lsa tulporim, ne erdi”.

Vale bilmasdi, shu tulporu dilbar
Nasib etgay anga bir kun muqarrar.

Baso ma'shuq kelur eshikka sarmast,
Vale bilmaydi oshiq, uyquda mast.

Baso davlatki, yo'l ustida turgay,
Kishi ogoh emassa, yo'lni burgay.

1210 Boqarkan har taraf, ko'zi qamashdi,
Ko'zi nogoh yana dilbarga tushdi.

Boqib bir dam dili qo'rquvga to'ldi,
Ki termulgan sayin oshyfta bo'ldi.

Parivash ul to'lin oy erdi go'yo,
Magarki maskani avji Surayyo.

Na oy, oyinayi ozoda erdi,
Chu Naxshab oyi, siymabzoda erdi.

Gul erdi, nilgun suv uzra yashnab,
Belida nilgun atlas yaraqlab.

1215 Yonardi chashmada jismi gulandom,
Guli bodom edi, gul ichra bodom.

Bo`lur oqqush tusi suvga hamohang.
Berar ravnaq anga ul suv ila rang.

Paripaykar urib sochiga shona,
Sochardi suv uza dur dona-dona.

Pichirlab derdi go`yo shohga pinhon,
Kanizingman, xo`jam, ber ainru farmon.

Ajab ganj erdi qiz, chun ganja gavhar,
O`rim sochi o`shal ganj uzra ajdar.

1220 Fusungar olmamish qo`lga ilonni,
Gumon etkim, ilon o`ldirmish oni.

Tushirmish bog`bon qo`ldin kalitni,
Kelib bir juft anor ochmish eshikni.

O`shal shirin anorga ko`z solib tek,
Ko`ngil erdi yorilgan ul anordek.

Ko`rib chun chashma ichra erdi mahtob,
Ajabki, yo`lidin qaytmishdi oftob.

Parivash boshi uzra suv to`kardi,
Falak oy ustiga inju to`kardi.

1225

Tani qordek sochardi nuru tal'at,
Yoqardi shohni andin qayg'u, hasrat.

Boqib, ne erdi yol billuri dilkash,
Oshardi oftobdek shohda otash.

Bulutdek yosh to'kardi to'ldirib soy,
Magar suv ichra erdi ul to'lin oy.

Sumanbar sezmedi nazzorai shoh,
Ki sunbul to'smish ul nargisni ongoh.

Chu oy tark aylagach ul abri mushkin,
Shahanshohni hamono ko'rdi Shirin.

1230

Humo erdi tazarv ortida ul dam,
Yog'och uzra magar sarvi suman ham.

Uyaldi, tikdi ko'zni chashmaga, lek
Tani titrar edi suv uzra oydek.

Topolmay boshda chora, so'ngra bildi,
Sochini oy yuziga parda qildi.

Shu yanglig' atri sunbulni taratdi,
Quyosh uzra qorong'u tunni tortdi.

Qarolik ichra tan misli kumushdir,
Kumush uzra qaro naqsh ersa xushdir.

1235

Dili Xusrav dag'i titradi shu tob,
Misoli zar ila omuxta siymob.

Boqib sher ko'rdi qandoq erdi holi,
Ki andin qo'rqdi ko'klamzor maroli.

Chu ov ojiz edi, tashlanmadi sher.
Magar ojizga sher tashlanmagaydir.

Yig'ib aqlu hushin topdi kalovni,
Bosib, so'ndirdi ul yongan olovni.

Riokat ayladi rasmi adabga,
Nigohin burdi ul o'zga tarafga.

1240

Vale dil chashmaga parvona erdi,
Nazarga boshqa joy begona erdi.

Etib xor ikki gulni ikki chashma,
Alardin chekdi ozor ikki tashna.

Uni gar chashma avval yo'ldin urdi,
Buni ham qo'ymadi ul, chohga surdi.

Ajab yo'q, chashmani xushlaydi ko'ngil,
Ki qattiq nonni ham yumshoq etar ul.

Ularkim chashmadin chun chekdilar raxt,
Ketib oromi jon, etdi mashaqqat.

1245

Nazarni tashna har gal suvga otgay,
O'zi bilmas, oyog'i loyga botgay.

Chu xurshidi jahon ul. chashmayi xun,
SHu bois kezmagaymu girdi gardun?

Shahanshoh pardadorbo'ldi sanamga.
Chu izzat-e'tibor bo'ldi sanamga.

Chiqib suvdin parirux tez kiyindi,
Hamon sakrab o'shal tulporga mindi.

Der erdi o'z-o'ziga: bu javonmard
Menga parvona bo'ldi necha muddat.

1250 Gumon aylarmen, ul yorim emasmu?
Dilimni oldi, dildorim emasmu?

La'l uzra la'l libosi derlar oni,
Esa yorim, qani andoq nishoni?

U bilmas erdikim, yo'l yursa gar shoh,
Ki odmiy to'n kiyib yurgaydir ongoh.

Havoyi ko'ngli der erdiki, borgil,
Gulingni sen o'shal shakkarga qorgil.

Usurat ersa, bu raxshanda jondir,
U yolg'iz bir xabar, bu chin ayondir.

1255 Yana derdiki, borma, boshqa yo'l top,
Ravo bo'lmas namoz qo'sh ersa mehrob.

Ichilmas bir qadahdin ikki sharbat,
Etilmas qo'sh valine'matga xizmat.

Agarda shu yigit ersa o'shal shoh,
So'rash yo'l ustida joizmas aslo.

Meni xushdirki, parda ichra ko'rsa,
Kelinga gard qo'nar beparda ersa.

Hanuz ish parda ichra ersa andoq,
Chiqarmen pardadin bir yo'la qandoq?..

1260 Sanam tulporini surdi shu lahza,
Baliq birlan ho'kizga tushdi larza.

Necha bodi sabolar ortda qoldi,
Falak ham bir boqib, hayratga toldi.

Bosardi yo'lni andoqki jadallab,
Ololmas erdi devning ko'zi ilg'ab...

Turib bir lahza Xusrav ortga boqdi,
O'zidin o'zga unda kimsa yo'qdi.

Alanglab har tomonga surdi ul ot,
Na dil erdi, na dilbar erdi, hayhot!

1265 Buloq atrofida aylandi zamone,
Ki izlar erdi gavhardin nishone.

Tushib hayratga derdi: munchalar tez
Uchib, ko'zdin qayon ketdi dilovez?⁵¹

Daraxtlarga boqardi, so'lu soqqa,
Magar qush bo'lmishu qo'nmish butoqqa?

Gahi ko'z yoshini suvda yuwardi,
Baliqdek chashmada oyni quvardi.

Gahi ko'prik qurib ko'z yoshi birla,
Buzardi suv ila ko'prikni so'ngra.

1270 Qamashtirdi ko'zini chashma, evoli,
Yiqildi chashmaga Xusrav banogoh.

CHunon faryod chekdi, etdi nolish,
Pushaymon ayladi ko'kni bu kohish.

⁵¹ Dilovez – ko'ngil rohati.

Mahu Shabdizga erdi byo'la mushtoq,
Ki izlar bir ko'zi lochin, biri zog'.

U lochindek urardi o'zni har yon,
Ki zog' lochinni etmish bandi zindon.

O'shal zog' ko'ngliga solmish edi dog',
Jahon zog'dek qoraygan erdi mutloq.

1275 Bo'lib oq lochini zog'i qaro ul,
Tikan bo'lmish guli rayhoni butkul.

Egilmish toli, bas, ketmishdi holdin,
Bale, chavgon yasalgay asli toldin.

Keyin qoni jigardin chekdi ohni,
Ki otash yoqdi deb mardumgiyohni.⁵²

Bahor topdim, ko'ngildin ketmadi g'am,
Firot topdim, labimga tegmadi nam.

Chiqardim qo'ldin ul gavhar quyoshim,
Urarmen endi, bas, toshlarga boshim.

1280 Ko'rib, gul uzmadim men tong-saharda,
Esib el, yuldi-ketdi tun mahalda.

Ajab nargisni ko'rdim, suvda erdi,
O'shal suvdek u ham uyquda erdi.

Degaylar, uxlasa suv, zar bo'lur xok,
Nechun siymob bo'ldi sarvi cholok?

⁵² Mardumgiyoh – odam o'ti, jen'jen'.

Humo solgan edi boshimga soya,
Samo bo'lgan edi taxtinga poya.

Nechun ul soyani boshimdin oldim,
Keyin bir soyadek tuproqda qoldim?

1285

Chu otim jabdug'i ham endi qondir,
Yomondir holim, undan-da yomondir!

O'shal gul chashmadin chiqqanda ul chog',
Bilolmasman, edim uxloqmi, uyg'oq?

Qani gul chashmada, bir bor ko'olsam,
Ravodir endi men otashda yonsam.

Ul oydan yuz o'gir deb kim buyurmish?
Darig'o, baxtidin kim yuz o'girmish?

Nechuk dev erdikim, chun soldi qutqu,
Meni bog'i Irandin etdi ayru.

1290

Magar har joyda maqbul erdi bardosh,
Bu joyda ho'ylakim pand berdi bardosh.

O'shal sabrimki xom ermiş, bilindi,
Yoqarmen men uni gulxanda endi.

O'shal kun chashmadin suv ichganimda,
Kaboh etmas edim jonimni bunda.

Nasihat aylamish hinduyi xushnud:
"Qachonkim narsa topsang, yamlagil, yut!"

Bu bog'da munchakim soriq, qizil gul,
Pushaymon bo'lmagay kim bahramand ul.

Men endi qon yutib har lahza, har dam,
Tilarmen g'am o'qin ko'ksimdin olsam.

Urarmen o'z boshimga munchakim zarb,
Ki har tun qichqirar: "Yo Rab! Yo Rab!"

Topolsam bir qadar dardimga chora,
Tanuri otashim ham so'nsa zora.

Netay, bag'rimda yo'qdir gavharim ul,
Agarchi ko'zlarimdin sochilur dur.

Ko'paysa tanda qoni, shishsa odam
Agar oldirmasa qon, qayda orom?..

U chashma bo'yida egkancha boshin,
Kezardi, damba-dam artardi yoshin.

Gahi erga yiqilgay erdi behush,
Ochardi chashmaga goh gul deb og'ush.

O'shal sarvi ravonki ketdi qo'ldin,
Ketib suv sarvdin ul, rang guldin.

Sihisarvi gahi maskan etib xok,
Base titrardi chun ellarda xoshok.

Ko'ngilda derdi: odam ersa unda,
Qani, qayda izi qolmish zaminda?

Pari bo'lsa o'shal dushvor bo'lgay,
Parilar chashmada bisyor bo'lgay.

Magar aytib bo'lurmu hech biriga,
Ki Xusrav oshiq o'lmish deb pariga?

Menga bu ishda omad bo'lmagay yor,
Pari yor bo'lmagay insonga zinhor.

Sa'va lochinga hamroz qayda bo'lmish?
Pari odamga damsoz qayda bo'lmish?

Sulaymon deb magar chiqsaydi nomim,
Parilarni asir aylardi domim...

1310 Shu yanglig' necha turfa roz dedi ul,
Hikoyat aytdi, dilpardoz edi ul.

Ko'ngilda dilrabo tarkini etdi,
Va dorulmulki Arman sori ketdi...

Shirinning Madoinga Xusrav qasriga etgani

Falak bir ishni etmas istasa hal,
O'yinlar ko'rsatur ne turli avval.

Magar ul baxsh etar dehqonga ganjin,
Berar avval riyozat birla ranjin.

Agar yo'lda tikanlar o'smas erdi,
Gulu shamshod mukarram bo'lmas erdi.

1315 Agar oshiqni yoqmas erdi hijron,
Shirin bo'lmasdi muncha vasli jonon.

Shirin tushdi u dam Xusravdin ayru,
Uzun yo'llarda sarson bo'ldi asru.⁵³

⁵³ Asru – ko'p, haddin ziyod.

So'rab yo'llarda ul dargohi Parviz,
Surardi chun Madoin sori Shabdiz.

Kelindek yakka ul yorni so'roqlab,
Yuvib yuzni, kelindek o'zni chog'lab.

Etib manzil, berib o'zdin nishon ul,
CHu bo'ldi bog'aro sarvi ravon ul.

1320

Ko'rib Shirinni ul ra'no ravishlar,
Hasad birlan hama lab tishladilar.

Yana barcha hasaddin yona-yona,
Navozish ayladilar xusravona.

Hama xushnud bo'lib Xusravni derdi:
"Olov istab uzoqqa ketgan erdi.

Olov keltirdi ul tong chog'i dilkash,
Ko'ngillarga olovdin tushdi otash".

Shirinni tutdilar so'ngra so'roqqa,
So'rab holini, taftish aylamoqqa.

1325

"Qalaysan, kimsanu noming nechuk ul?
Nechuk bir qushsanu doming nechuk ul?"

Shirinning oldida necha kanizdi,
Ularga necha bir yolg'onni tizdi.

Dedikim, qisqamas qissam, uzoqdir,
Magar Xusravni kutsak, yaxshiroqdir.

Chu Xusrav tunda kelsa gar bosib roh,
O'zi etgay mening qissamdin ogoh.

Vale otiniga aslo bermangiz ranj,
Bu otning qiymatiga etmagay ganj...

1330 Shu so'zni so'yladi mehmoni tannoz,
Kanizaklar etishdi izzat-e'zoz.

Sochildi gul suvi huru pariga,
Oti boylandi podsho oxuriga.

Zaru zevallarini etdilar soz,
Ipak, atlaslariga etdi pardoz.

Chiroyi ochdi va'da bog'ida gul,
Yotib osuda, orom uxladi ul.

Kanizaklarkim, shu dargohda yashardi,
Uni oddiy kaniz deb o'ylashardi.

1335 Shakarlab ham ular birla muloyim
Kanizona o'yin o'ynardi doim.

Shirin uchun qasr bunyod etishgani

Madoinda Shirin o'mashdi xushbol,
Shirin labdin tabaqlarga to'kib bol.

Bir oy o'tgach yashab osoyishu tinch,
Xabar etdiki, Xusrav ketdi xorij.

Atodin qochmishdi, o'zni ovga urmish,
Keyin ovdin kechib, Armanga yurmish.

Shiringa dard edi bul, bedavolik,
Ishi har lahza zoru benavolik.

1340

Necha muddatki maskan xona erdi,
Tugab sabri, dili devona erdi.

Ayon bo'ldi angakim, ul suvoriy,
Nigohi erdi andoq shahriyoriy.

Bo'lak ermas, o'shal Xusrav edi tek
Nazar tashlardi oyga oftobdek.

Necha bor ta'na yog'dirdi o'ziga,
Nadomatlar chekib, urdi yuziga.

Kechirdi necha kunni sabr etib zor,
Bo'lurmen, dedi, men bu joyda bemor.

1345

Menga tog' bag'ridin tanlab chaman joy,
Qasr bunyod eting ko'ngilga oroy.

Kuhistoniy erurmen, gulparvar,
Haroratidin qizil gul bo'ldi za'far".

Kanizlar erdilar har ishga mas'ul,
Dedilar: "Xotiring jam ayla, ey gul!

Senga deb shohimiz maqtovgga molik,
Ajib joy tanlamishdir, xushhavolik.

Agar amr aylasang, me'mor erur shay,
Senga deb tog'da bir koshona qurgay".

1350

Dedi: "Ayting, o'sha zud boshlasin ish,
Qasr qursinki ul, podsho buyurmish".

Kanizlarning borardi rashki ortib,
Dedilar ustani xilvatga tortib:

“Bu o‘tkir jodugardir, kirdiyda,
Ki Bobul tog‘idin kelmish yaqinda.

Zaminga “Tur!” deya amr etsa bir on,
Samoga yuksalur to changu to‘zon.

Falakka “To‘xta!” deb amr aylasa gar,
Kimir etmaydi ul to Ro‘zi mahshar.

1355 Qasr bizdin talab aylar u badbaxt,
Chu issiqlikda bo‘lsin xuddi do‘zax.

Odamlar borsin ul manzilga ozroq,
Ki sehru jodudin yursin uzoqroq.

U sehru joduga sen hamla ayla,
Havosi eng buzuq bir joyni tanla.

Qurib ber qasrini, unga ravo ul,
Keyin haqqingni ol, har ne baho ul”.

O‘shal me‘morga so‘ng bir muncha dinor,
Ipaklik berdilarkim, erdi xarvar.

1360 Binokor shod edi andoq topib ganj,
Bisotga etgan erdi ul chekib ranj.

Kirishdi ishga, izlab bo‘ylakim joy,
Yurib ul tog‘ma-tog‘, goho kechib soy.

Va topdi, bir gadoy topmas joy erdi,
Bola bir haftada chol bo‘lgay erdi.

Ki o‘n farsangdi Kirmonshoh andin,
Na Kirmonshoh, yiroq erdi jahondin.

Borib ish boshladi ul joyda ustod,
Chu do'zaxdek qasrni etdi bunyod.

1365

Bilardi har kishi ko'z solsa bir pas,
Bu manzil huri rizvonga ravomas...

Qaro tun sochdi olam uzra mushkin,
O'shal yangi qasrga keldi Shirin.

Kanizlar erdilar dilbarga hamroh,
Ki shahvat makrini hech ko'rmagan moh.

Kelib, oxir o'shal zindonga kirdi,
Bu gavhar endi toshga tutqun erdi.

Chekib Xusrav g'amini jismu jondin,
Ko'ngil uzmishdi har ikki jahondin.

**Xusravning Armanga etib,
Mehinbonu huzuriga borgani**

1370

O'shal kun chashmani tark ayladi u,
Bo'lib giryon, ko'zidin uchdi uyqu.

Yurib, manzil osha manzil ketardi,
Umidsizlik uni abgor etardi.

Gahi dilga tasalli erdi ummid,
Chiqar tog' ortidin deb menga xurshid.

Chu men bu yo'lda mashriq sori chopsam,
Ajabmas, xurshidi jonimni topsam.

Etarkan tog‘u tosh bo‘ylab guzarni,
Nasimi yoydi har yonga xabarni.

1375

Amaldorlar barobar jahd etishdi,
Zaru debo sochib, xizmat etishdi.

Sanamlar ko‘rdi ne dildoru dilband,
Uning diydoriga mushtoq, havasmand.

Go‘zallar suhbatiga unga xush erdi,
SHu bois necha kun shu erda turdi.

Keyin andin so‘yi Mavqonga o‘tdi,
U erdin so‘ngra Boxarzonga o‘tdi.

Mehinbonu xabar topdi bu holdin,
Taraddud ayladi sidqi kamoldin.

1380

Tavozu ko‘rsatib so‘ng chiqdi peshvoz,
Sipoh saf chektirib ham yangratib soz.

Rioyat aylabon rasmi adabga,
Necha bir nozu ne‘mat tutdi unga.

Va qancha shohi, atlas, gavharu ganj,
Raqam chekmoqqa tortgaydir qalam ranj.

Etib dargohga qo‘ndi ul jahondor,
Mehinbonu navozish etdi bisyor.

Chu shoh taxtiga yondosh kursi erdi,
O‘zi o‘ltirdi, a‘yon tikka turdi.

1385

Shahanshoh so‘rdi holin: “Xo‘sh, nechuksen?
Nishoti baxtga doim etguliksen!”

Seni tashvishga qo'ydik muncha, mezbon,
Malol kelmasmi kenga bo'yla mehmon?''

Mehinbonu etib chun dilnavozlik,
Tuyib shoh xizmatidin sarfaroqlik,

Lab ochdi, o'ylakim bodi sahargoh,
Shahanshoh sha'niga aytdi tasanno.

Ne baxtkim, tashrifin etdi ravo ul,
Kelibdir, biz uchun pushtu panoh ul...

1390

Bu tashrifdin sharofat kutdi Bonu,
Saroyin shohga borgoh etdi Bonu.

Kecharkan hafta shunday shodu xandon,
YUbord shohga ko'p in'omu ehson.

Aroding hafta o'tgach, keldi bir kun,
Ajab kun erdi ul, siymosi gulgun.

Chu Xusrav o'ltirardi, ostida taxt,
U sulton erdi ul dam, chokari baxt.

Xati lab ustida chun toza rayhon,
Necha dillarni etmish mastu hayron.

1395

Hama sarmast edi ul anjumanda,
Necha sarvi sumanlar erdi unda.

So'z aytishga maroq aylardi har kas,
Ajab bir ishtiyoq aylardi har kas.

Bo'lib erk-ixtiyordin barcha xursand,
Uni rom aylamoqqa erdilar band.

Mehinbonu tavozu aylab izhor,
O'pib er, dedi: "Andoq hojatim bor.

Ki dorilmulki Barda sori yursak,
Zimistonda bahor gashtini sursak.

1400 Havolar xush, iliqidir ul tarafda,
Chamanlar qish bo'yi maysa, alafda".

Dedi shoh unga: "Xursandmen so'zingdin,
Sen avval yo'lga tush, borgum izingdin.

Chiqib shoh tongda lashkargohidin zud,
Yurib, "Bog'i safid"ga etdi xushnud.

Vatan xush yoqdi chun har neki raxtin
Tashib, keltirdilar so'ng toju taxtin.

Tikib chodirlar, aylab gulshan oroy,
Muayyan etdilar har kimga bir joy.

1405 Mehinbonu vafo rasmini tutdi,
Jahongirga yurakdin xizmat etdi.

Shahanshoh tunu kun ishratda tinmay,
Shirin deb oh chekardi no'sh etib may.

**Xusravning ishrat majlisi tuzgani va
Shopurning safardan qaytgani**

Tun erdi, ulki navro`z tunidin xub,
Hayit kunduzidin ham xushu mahbub.

Navo tinglar edi xirgohida shoh,⁵⁴
Nadimlar erdi noziktab` va dilxoh.

Maqolat birla hikmat so`ylanardi,
Gahi suhbat hazilga aylanardi.

1410 Chu girdogiri xirgoyi kayoniy
To`shalmishdi gilamlar arg`uvoniy.

Osilmishdi eshikka tig`i burro,
Ki nomahramga yo`l yo`q erdi aslo.

Va chodir ichra atru bo`y xujasta,
Yonardi udu anbar dasta-dasta.

Sharobi nob ila ishrat edi xush,
Lovullar erdi zar manqalda otash.

Va unda armaniy ko`mir yonarkan,
Edi ishratparast zanjiyga monand.

1415 Agarchi mushki nof sabza giyoh ul,
Qizargay boshda, so`ng tortgay qaro ul.

Nechuk mushk tolida rang udga maxsus,
Qarolikdin keyin olgay qizil tus?

⁵⁴ Xirgoh – chodir.

Qarolik uzra rang yo'q derlar oni,
Olov qanday qizil etgay qaroni?

Ki andin o'rganib davron nayrang,
Olibdir sochimizdin chun qaro rang.

Olov boqqa ko'mir dehqon kirib, hay,
Binafsha o'rsa, gullola ko'kargay.

1420 Qaro kiymish o'shal tog' qarg'a yanglig',
O'zining qonidin minqori qonlig'.

U burgut, parri birlan nayzadoridir,
Ilondir, boshida munchog'i bordir.

Majusiy millat ul, hindustonlik,
Etar Zardushtga o'xshab zandxonlik.

Habash mirzosi ul Bulg'orga bormish,
Borib, qirmiz qalamni ishga solmish.

Olov qish-qahraton ichra ochib gul,
O'shandin qahraton rayhonidir ul.

1425 Surohiyni xo'rozdek aylamish soz,⁵⁵
Kerak damda xo'rozdek bergay ovoz.

Xo'roz boshida yongaydir olov toj,
Ko'rib, rashkdin yonar tayhu va durroj.⁵⁶

Ravondir har emishning obu tobi,
Gahi o'rdak, gahi kaklik kabobi.

⁵⁵ Surohiy – may ko'zasi.

⁵⁶ Tayhu, durroj – kaptarsimon qushlar.

O'parlar bir-birin norinju olma,
Chu zarrin ko'zayu qirmizi boda.

Guli nargis, binafsha birla xirgoh
Guliston erdi, chun gulgun nazargoh.

1430

U norinj birla nori maslisafruz
O'yin o'ynardi misli bodi navro'z.

Jahonni yangicha ruh birla obod
Etib, tongda sabuhiy ichdilar shod.

Chalarkan sozini dostonnavozlar,
Yaqosin chok etardi ishqibozlar.

Surudi pahlaviy, ohangi dilkash
Solardi toshga ham shu lahza otash.

Kamonchi ohi musiyvor chekardi.
Mug'anniy naqshi musiqor chekardi.

1435

G'azal aytishga tushdi bir g'azalxon,
Xayr, ayshi nishot, ey ishrati jon!

Na xush erdi tiriklik bog'i, gulgun,
Agar bodi xazondin ersa emin.

Na xurram erdi ul qasri zamona,
Asosi bo'lsa erdi jovidona.

Sovuqdir aslida bu qasri manzur,
Hali o'ltirmasindin deydilar: "Tur!"

Bu xokiy qal'a muncha sust bunyod,
Sovur, dodini bergil, ayla barbod.

1440

Ki bunda ertayu kechdin nishon yo`q,
Va ketgan qaytmagay, bunga gumon yo`q.

Bugun bizga nasibdir, naqdi jondir,
Etar mu shomgacha ul ham, gumondir.

Kel endi, yayrashaylik may etib no`sh,
Tutaylik shu jahonu jonimiz xush.

Shu kecha uxlamas ersak, ne armon?
Ki tuproq ostida uxlarmiz o`bdon.

Shopur Xusravga Shirindan xabar bergani

Malik sarmastu soqiy ilkida may,
Sadoyi chang jaranglar erdi tinmay.

1445

Kirib bir gulruxe, chun sarvi ozod,
Sevinch erdi dilida, chehrasi shod.

Dedi shohga: "Kelib eshikka Shopur,
Kutar, ketsinmi yo kirsinmi hozir?"

Chu shoh sal qoldi sakrab tursa al-hol,
Vale aqlu hushini yig`di darhol.

Buyurdi, ichkari kirsin deb ildam,
Dili otash, olovda erdi shul dam.

Umid birlan vahim tushganda dilga,
Xatar shamshiri sanchilmishdi unga.

1450

Mudom ko`z yo`lda, dil ikki tilimdir,
Balodir jonga bu, dardi azimdir.

Agarchi hech g'am berardisar yo'q,
Yo'l uzra intizorlikdin batar yo'q.

Boshingga tushmagay hech, tushsa ul gar,
Yuzing sarg'aytirib, umring egovlar.

Chu kirdi ul naqshband monaviy⁵⁷dast,
Zaminga necha bo'sa etdi payvast.

O'pib er, bosh egib, bir chetda turdi,
Rusumi qulluq unda bo'yla erdi.

1455 Base tankin ila joy ko'rsatib shoh,
Uni o'tqizdi, xoli etdi xirgoh.

Va so'rdi so'ng nishoni tog'u dashtin,
Va har neki g'aroyib sarguzashtin.

Duo qildi chu boshda mardi hushyor:
"Umr bersin Xudo shohim⁵⁷ga bisyor!

Muzaffar bo'lsin olamda sipohi,
Boshidin tushmasin davlat kulohi!

Murodi baxtiga yo'l boshchi bo'lsin,
Va har kun yangidan iqboli kulsin!

1460 Bu banda amring aylab, chorasozdir,
Gapim bor aytgali, garchi darozdir.

Buyursa shohim ul, nega gapirmay?
So'rarmen shoh rizosin, nega so'rmay?"

⁵⁷ Monaviy⁵⁷dast – Moniy san'atini egallagan.

Keyin boshdin-oyoq, har neki bildi,
Hakoyat ayladi, afsona qildi.

Ki boshda o'zni quyoshdek yoshirib to,
Nechuk so'ng chashma yanglig' bo'ldi paydo.

Nechuk ul chashmalarga bordi tongda,
Muqanna misli oy ko'rsatdi unda.

1465 Nechuk surat-la qizni maftun etdi,
O'shal jon ofatini afsun etdi.

Nechuk bir hindu yanglig' yo'lga soldi,
Uni shoh qasriga qanday yubordi...

Suxan ul toza gulga etdikim, shoh
Nido soldi chekib beixtiyor oh.

Dedi: "Aytgil, nechuk bir chora etding,
O'shal oy yuzlini qo'lga kiritding?"

Dedi Shopur: "Men etdim hushyorlig',
Yana shoh baxtidin ham etdi yorlig'.

1470 Ki usta o'qchidek o'q tanlay oldim,
Kamonnini mo'tabar do'kondin oldim.

Kiritdim qo'lga ul sarvi ravonni,
Dili tosh, nozanin, dildori jonni.

Ne ko'rdim? Lolarux erdiyu dona,
Chu har sochiga boylanmish Masiho!

Yuzi gul erdikim, bodomdin asli,
Tani bodom yana, ul qo'sh mag'zli.

Ne bel ko'rdimki, monandi qil erdi,
Magar ikki jahonga zanjir erdi.

1475 Dahonin so'rma, unga pista qurbon,
Chumoli ko'ziga jodir Xuziston.

Labin tegizmamish bir labga aslo,
Faqat ko'zguni o'pmish mast bo'lib goh.

Havas aylab birovga cho'zmamish qo'l,
Ki yolg'iz sochi birlan o'ynamish ul.

Beli sochidin inja ersa andoq,
Dudog'i nomidin erdi shirinroq.

Agarchi fitnayi olamdir ul moh
Uni oshufta etdi surati shoh.

1480 Borishga ko'ndirib oyni o'shal dam,
CHu etdim so'ngra Shabdiz chorasin ham.

Jo'natdim oyni aylab makru nayrang,
Ki mingan oti ul tulpori shabrang.⁵⁸

Kasalmand erdim ul ranju firoqda,
U ketdi, men esam qoldim yiroqda.

Bilarmen, ul chekib yo'llarda zahmat,
Shahanshoh qasriga etgandir albat".

Turib, Shopurga shoh bag'rini ochdi,
Necha durru guhar boshiga sochdi.

⁵⁸ Shabrang – tun rangli, ya'ni qora.

1485

Etib izhori minnat shohi dilbar,
Tasanno aytdi unga, ofarinlar.

Sanamning chashmada soch yuvgani ul,
Hikoyatga muvofiq erdi butkul.

Keyin ne bo'ldi yo'lda, kechdi ne sir,
Hikoyat ayladi shoh boshdin-oxir.

Ayon bo'ldi shu tob, ul sho'xu tannozi,
Madoin qasriga etmishdi parvoz.

Kerak Shopur yana ul sori borsin,
Uchib parvonadek nur sori borsin.

1490

Zumurradni yana koniga eltsin,
YAna rayhonni bo'stoniga eltsin.

Shopur yana Shirinni izlab borgani

Tiriklik ne ajab davron erur xush,
Yigitlik ne go'zal ayyom erur xush!

Tiriklik davridek davron qayonda?
Yigitlik faslidek ayyom qayonda?

Jahonxusravki solori jahondi,
Yigit erdi, zabardast, navqirondi.

Navosiz ichmas erdi qatra boda,
O'tirmas erdi mutribsiz aroda.

1495

Mug'anniy birla gar o'ltirgay erdi,
Chu har xonishiga zar bergay erdi.

Edi ishratda bir kun may ichib shod,
Mehinbonu kirib o'ltirdi dilshod.

Bu tashrif shohga xush keldi bag'oyat,
Anga lutfu karam ko'rsatdi g'oyat.

Emak vaqti etib, doroyi olam
Dedi mo'badga: etgil bojbersam.⁵⁹

Taomga shoh qo'l cho'zmakdin avval
Kutardi rasmi bojbersamni har gal.

1500 Yozilsa sufra gar, mo'bad hamoni
Tatib ko'rgay edi barcha taomni.

Bu yaxshi, bu yomon deb so'ngra mo'bad,
Tanovulga etardi shohni da'vat.

Chaqirdi mayga shoh ahli a'yonni,
Ham ul farxunda bonuyi jahonni.

Uning-la jomi xosda may ichardi,
Aroda turfa so'z, suhbat kechardi.

Ichib, shoh bo'ldi achchiq bodadin mast,
Hikoyatni Shiringa etdi payvast.

1505 Chu etdi qissayi Shirinni oshkor.
Dilidi shod, tilidi erdi g'amxor.

Ki "Bonuga birodarzoda ermish,
Gul ermish, sarvdek ozoda ermish.

⁵⁹ Bojbersam – zardushtiylarda taomni tatib, tekshirib ko'rish odati.

Olib qochgan emish tulpori nogoh,
Nihon bo'lmish nazardin misli anqo...

Bugun qosid etishdi menga eldin,⁶⁰
Xabar keltirdi ul navrasta guldin.

Magar qolgum bu erda necha fursat,
Xabar olgum uning holidin albat.

1510 Yuborgayinen chopar, to unga etsin,
Adashgan qushni oshyoniga eltsin".

Mehinbonu eshitdi qissani xush,
Va andin bo'ldi lol, besabru behush.

Yiqildi erga, chun ketmishdi o'zdin.
Chekib oh so'ngra, ashkin to'kdi ko'zdin.

Dedi: "Ga tushda ham ko'rsaydim, unda,
Magar daryoda ul, to'lqinli suvda,

Ko'zim kipuriklari-la qutqarardim,
Bosib bag'rimga jonimni berardim".

1515 Keyin shoh taxti poyin o'pdi ongoh,
Dedi: "Taxtingni o'psin Oyu Zuhro!

Baliqdin oygacha afsarparasting,
YAna Mag'ribu Mashriq zeri dasting!

Men avval aytgan erdim arz etib hol,
Ki shoh iqbolidir ul bizga iqbol.

⁶⁰ Qosid - bu yerda xabarchi, chopar ma'nosida.

Uning iqbolidandir baxtimiz naqd,
Kirar eshigimizdin molu davlat.

Agar qosid yuborsa ul taraf shoh,
O'shal qosiddin etsin bizni ogoh.

1520

Berarmen unga tulporimni ul kun,
Ki Shabdiz zotidandir, nomi Gulgun.

O'shal Shabdizga bir tulpor etolmas,
Faqat Gulgun etar, garchi o'tolmas.

Agar Shabdiz to'lin oy birla hamroz,
Etishgay unga Gulgun, ortda qolmas.

Agar Shabdiz yo'q ersa unda ortiq,
Faqat Gulgun erur Shabdizga loyiq".

Buyurdi shoh, ul tulpori manzur
Hamono etkazildi, mindi SHopur.

1525

Yana bir ot olib u yo'lga tushdi,
Shitob aylab Madoin sori uchdi.

Madoin, qaydasan deb, gulshano'roy,
O'shal oy ortidin ot surdi bir oy.

Yo'q erdi ul qasrda mohruxsor,
Topib yangi qasrni, qoqdi takror.

Qasr darvozasini ochdi shotir,
Anga shohdin nishon ko'rsatdi Shopur.

Kirarkan ichkariga shodumona,
Qani, deb so'rdi ul, sham'i zamona?

1530

Qasrda bir uqubatxona ko'rdi,
Yiroq erdi jahondin, ayru erdi.

O'tirmishdi sovuq tosh uzra gavhar,
Qorong'u do'zax ichra hurpaykar.

Ko'rib ne holdadir ul gavhari nur,
Egildi oldida, er o'pdi Shopur.

Salomat bo'l, dedi, ey mohchehra,
O'shal yo'l zahmatidin so'rdi so'ngra.

"Ne erding, ne sababdin etdi bedod?
G'amingdin bo'lmamish bu banda ozod.

1535

Umidim ulki, zahmat oxirindir,
Dilingga rohatu shodlik yaqindir.

Agarchi ne mashaqqatlarga qolding,
Mashaqqatdin bugun oson qutulding.

Nechuk joy bo'ldi bu, qo'rqinchli, mudhish,
Senga bu go'shani kim taklif etmish?

Bu zulmatda muhabbat sochmagay nur.
Bu do'zaxda iqomat aylamas hur.

Faqat yolg'iz izoh bor, nomukammal,
Magar sen la'lsanu tosh ichradir la'l".

1540

Ko'rib oldida ul naqqoshi Chinni,
G'ami tark etdi shu onda Shirinni.

Yashirdi ikki-la yuz-oftobin,
Tashakkur aytibon berdi javobin:

“Agar chekkan g’amimni senga aytsam,
Sitamlar chekkanimni senga aytsam,

Qiyindir so‘ylamoq ham tinglamoq so‘z,
Qalam darkor uni yozmoqqa yolg‘iz.

Etib, sen aytgan ul ma‘voga kirdim,
Kirib, necha malomatpesha ko‘rdim.

1545 Necha nozli kanizlar erdilar ul,
Takalluf etdilar: “Ey bonu, xush bo‘l!”

Chu Zuhrodek suzib bir-birga ko‘zni,
Tarozuga solurlar erdi o‘zni.

Men ersam, har qalay pokiza, ma‘sum,
Yiroq tursam dedim toki ulardin.

Niyat qildim ulardin ayrilishni,
Talab etdim menga bir ko‘shk qurishni.

Baso rashk birla ko‘nglimni qilib xun,
Shu erda etdilar jonimni tutqun.

1550 Sabr obodim o‘ldi shu sovuq tosh.
Qoraytdi toshni ham ul sabru bardosh.

Menga uy bo‘ldi shu zindoni pastqam,
Sabr qildim, bo‘lak ne erdi choram?”

Dedi Shopur anga: “Turgil, qani tez,
Ki farmon berdi andoq bizga Parviz!”

CHiqib, gulchehra Gulgunga o‘tirdi,
Murodi gulzori sori yurdi.

Uchardi el kabi Gulgunda Shirin,
Etolmas erdi unga Oyu Parvin.

1555 Humo erdi sanamning mingan oti,
Tuyog'i o'mida uchqur qanoti.

U yonda shohda erdi beqarorlik,
Ki yor deb tortar erdi intizorlik.

Agarchi intizorlik jonga ofat,
Visol yuz ochsa, etgay ayshu rohamt.

Na xushdir, intizorlik tortib og'ir,
Umidiga umidvor etsa oxir...

Xusrav otasi vafotidan xabar topgani

O'tirgan erdi shoh nimmastu hushyor,
Umid birlanki, bo'lgay baxti bedor.

1560 Shamol yanglig' eshikdin kirdi qosid,
Magar kelmishdi ko'p yo'llarni bosib.

Ko'ziga yosh olib, yuzni nam aylab,
Bukib qaddini yoy yanglig', xam aylab.

Cho'zib maktubni, ogoh etdi xatdin,
Ki "Chinu Zang solori ketdi taxtdin.

Omonsiz charx odamga surdi jonni,
Ayirdi ikki ko'zdin shu jahonni.

U ikki marvarid ko'kdin uzildi,
Va ipdek ignadin ham o'tkazildi.

1565

Ul ikki joduni beparda aylab,
Yana milcho'p ila ozurda aylab.

Banogoh bo'ldi g'oyib, Yusufona,
Ki Ya'qub dog'ini chekdi zamona.

Jahon otang murodin senga berdi,
Qani, yur deb asoni unga berdi.

Jahon podshosi ko'z yumdi jahondin,
Jahonga rahnamolik endi sendin.

Biz ulkim, ahli taxti xusravoniy,
Yozurmiz bo'ylakim harfi nihoniy,

1570

Ki zinhor kelmaging cho'zma, shu tob et,
Jahonni bermagil qo'ldin, shitob et.

Agar bosh yuvmoq ersang, unda yuvma,
Lab ochma kimsaga sirdin, dam urma".

Chu Xusrav ko'rdi, ayyom etdi sodir,
Kamandni chetga otdi, tikdi chodir.

Ajabkim, dedi, shu davron har kez,
Asalga sirka qo'shgay, ko'kka qirmiz.

Shudir xokiy jahonning shevasi, hay,
Aridek nish urib, so'ng bol edirgay.

1575

Amal birlan azl juft, mehr ila kin,⁶¹
Hamisha yonma-yon achchiq va shirin.

⁶¹ Azl – ainaldan ketish.

Ariq bor joyda ul qum ham erur chosh,
Qaerda ko'za ersa, oldida tosh.

Vujudga banda bo'lma, rohi g'am tut,
Farog'at istasang, rohi adam tut.

Musaffo elga bergil molu jonni,
Bekitgil eshigin zindonsaroni.

Jahon bir hindudir, raxtingni olgay,
Etib yuz bir amal. naqdingni olgay.

1580 Bu do'kon ichra gar molu matoh mo'l,
Tikan bir ortida gul bo'lsa ham ul.

Kishi suv ichsa andin bir kadu tek,
Yuzin etmasmi so'ngra ul kadudek?

Daraxtni gullatib etmoqqa mash'al,
Bahor ham novdani yormasmi avval?

Falak to egmagay qaddi rasoni,
Birovga bermagaydir mo'miyoni.

Kafan kiygaymi hech o'lmay turib kas,
Ipak qurti kiyar o'lganda atlas.

1585 Ravodirmi kishi gulgunga sursa,⁶²
Yuvilmasmi o'shal hammomga kirsas?

Libos kiygil misoli xurshidu moh,
Tiriksan toki bo'lsin senga hamroh.

⁶² Gulgun – yuzni qizartiradigan elik.

Emak-ichmakni deb tig' urma jonga,
Qanoat aylagil bir hurda nonga.

Jahon, tokaygacha bedod etarsen,
Meni g'amgin, o'zingni shod etarsen?

G'aming berding menga, shod bo'lmagil hech,
Xarob aylarsen, obod bo'lmagil hech!

1590 Chu bug'doy ko'rsatib, arpa sotarsen,
Chirik arpani ko'zdin berkitarsen.

Senga bas berkitib arpa sotishlik,
Menga o'zni tegirmondek tutashlik!

Menga afzalki ul har tiyra oqshom
Bir arpa non ila ro'zamni ochsam.

Nizomiy, bo'l Masihoga tarafdor,
Jahondin o't-alaf eb jonni qutqor!

Magar o'txo'r bo'lib eshshak minarsen.
Isoning noniga noil bo'lursen.

1595 Tiriksen, yuk tashi, joningni toldir,
Ki eshshak mehnati doim haloldir.

Xusravning otasi o'rniga taxtga o'ltirgani

Chu ma'lum bo'ldiki, hukmi xudolik
Etib, Xurmuzdin o'ldi podsholik.

Farahli bir zamon shohi javonbaxt
Kelib poytaxtga, bo'ldi sohibi taxt.

Magar Shiringa erdi muhtalo ul,
Vatan tarkini etmak ham xato ul.

CHu bir yoqdin vatnni do'st tutardi,
Bo'lak yoqdin Shiringa ko'z tutardi.

1600 Imoratdin jahonni etdi obod,
Viloyat bo'ldi chun qutqudin ozod.

G'arib, bechoralarga etdi ehson,
Jahon yodidini o'chdi Nushervon.

Gahi davlat ishini etmay ortiq,
Tuzardi savtu sozli bazmi Jamshid.

Shikoru aysh etardi shomu tunlar,
Shikoru jomsiz kechmasdi kunlar.

Oshib haddin sog'inchi dilsitonin,
Kanizlardin so'rardi dostonin.

1605 Xabar bergaydilarkim, "Necha muddat
Turib, tark ayladi qasringni lo'bat.

Kelib Shopur sanamni oldi-ketdi,
Bilolmaymiz, so'roqsiz qayga eltdi?.."

Falak nayrangidin ul shohi davron
Yana bir bor parishon erdi, hayron.

SHirinning shohga yolg'iz yodgori
O'shal Shabdiz erdi, g'amgusori.

Sevar yor yodi-la siypab-silardi,
Guhar ummidi-la tosh parchalardi.

Shopur Shirinni Mehinbonu oldiga boshlab borgani

- 1610 Shirinni qasridin keltirdi Shopur,
Vale borgohda shohni topmadi ul
- Mehinbonu chamanzoriga yurdi
Va unda qizni Gulgundin tushirdi.
- Chamanga sarv keldi, ravzaga hur,
Falakka oftobu diydaga nur.
- Murabbiylar, qarindosh, ahli arkon
Shirinning ko'yida erdi parishon.
- Qo'yib poyiga bosh, er o'pdi barcha,
Ko'ngillarga quvonchlar to'ldi qancha.
- 1615 Base shodlandilar shukrona aylab,
Jahonni vaqfi otashxona aylab.
- Mehinbonuga bir ko'rmak bas erdi,
Sevinchdin chodiriga sig'mas erdi.
- Qarib erdi, magar yosh bo'ldi qayta,
O'lib erdi, hayotga keldi qayta.
- Shirinning boshini quchdi o'shal dam,
Chiroy ochdi ko'z o'ngida olam.
- Sanamning joinga jon etdi payvast,
Ki yuz bayt yozsa ham tavsifi bitmas.
- 1620 Anga ganji guhar, mulk berdi ancha,
Dedi: "Xarj ayla ko'ngling istagancha!"

Xijolat etmadi gulyuzni, mulzam,
Nega ketding deya bir soʻnmadi ham.

Bilardi ne edi bu hiylasozlik,
Sabab ravshan edi ul, ishqbozlik.

Ki shoh unga ishorat etgan erdi,
Kanizaklardan ham eshitgan erdi.

Yashirdi xumda ul joʻshqin sharobni,
Bekitmoq boʻldi erda oftobni.

1625 Dili derdiki, qoʻy, farmonga etsin,
Oʻzini oʻnglasin, darmonga etsin.

Navozishlarki beandoza qildi,
Yana avvalgi ahdin toza qildi,

Hamon etmish goʻzalni berdi ul bot,
Dedi: oʻynab, koʻngilni aylasin shod...

Shu taxlit ul oʻyinchi charxi davron
Yana bir bor oʻyin etdi namoyon.

Yana Shirin pari qizlarni koʻrdi,
Oʻzi oy, ul kanizlar yulduz erdi.

1630 Yana yayrab, quvonchga toʻldi dillar,
Oʻyin-kulguga mashgʻul boʻldi gullar...

Xusrav Bahrom Cho'bindan qochgani

Magar fathu zafar qo'rg'on olibdir,
Temirdek ra'y anga zarrin kalitdir.⁶³

Ki yuz botirdin ul ra'yi qaviy xub,⁶⁴
Va yuz tandin kulohi xusraviy xub.

Temirdek ra'yi etar lashkarni g'alvir,
Ki o'n dushmani ag'darguncha shamshir.

Qaviy ra'y erdi Bahrom, etdi mish-mish,
Ki Xusrav shu jahonning shohi ermish.

1635 Boshini band etib shohlik havosi,
Shu yo'lda bo'ldi barcha iddaosi.

Keyin buhtosh etishni ko'rdi ma'qul,
Dedi: "Hurmuz ko'zin ko'r aylamish ul!"

Chu bilmasdi, Yusuf ketganda, albat,
Ketar Ya'qub ko'zidin nuru tal'at.

Yubordi har tarafga noma pinhon,
Yomon deb yozdi ul yaxshini chandon.

Dedi: "Nodon go'dak ul, ortiq ermas,
Padarkush toju taxtga loyiq ermas.

1640 Magar bir jur'a boda aylamak no'sh,
Anga yuzlab birodar qonidin xush.

⁶³ Temirdek ra'y – temirdek mustahkam azmu iroda.

⁶⁴ Qaviy – kuchli.

Kechar kishvardanam sozu sadro deb,
Sotar nomusni ham savtu navo deb.

Bilolmas yursa yo'l to'g'ri tomonni,
Berolmas ajratib yaxshi, yomonni.

Hamon ul ishqbozlik ko'yida mast,
Hamon Shirin havosi birla sarmast.

Bu oshiq telbadin tezroq buring yuz,
Ki ul bosh ersa, boshdin ayrilursiz.

1645 Ne xush bo'lgay, uni biz bandi qilsak,
Quyib suv, vahmi otashdin qutulsak.

Tilarmiz, pandimizdin pand olsin,
Yo'q ersa gar, atosi yanglig' o'lsin.

To'singiz yo'lini shamshir-la har on,
Borarmen yoningizga chun arslon.

Shu taxlit ul, dilida kiyn naqshi,
Raiyatni ko'tardi shohga qarshi...

Shahanshoh baxtini sargashta ko'rdi,
Raiyatdin judo, otashda ko'rdi.

1650 Berib zar, baxtini zo'r deb bilardi,
O'zi ko'r, dushmanin ko'r deb bilardi.

Chu topdi dushmani borgohiga yo'l,
Raiyat cho'zdi toju taxtiga qo'l.

Arosat ichra yolg'iz qoldi Parviz,
Qo'yib taxtini yolg'iz, mindi Shabdiz.

Olib boshini o'zni chetga urdi,
Ki tojidan o'shal bosh afzal erdi.

Kayoniy toji ne kunlarga qoldi,
Jahon o'zga jahonistarga qoldi.

1655 Shahanshohga o'yin ko'rsatdi ayyom,
Uni engib, muzaffar bo'ldi Bahrom.

Mashaqqat birla Xusrav yo'lni ochdi,
U ma'vodin bu ma'vo sori qochdi.

Etib nayrang ila yo'lni ravon ul,
Chu Ozar yurtida tutdi makon ul.

Keyin Mavqonda turdi manzil aylab,
Mug'oniy sevgini ko'ngilga joylab...

Xusrav va Shirinning shikorgohda uchrashgani

Hikoyat etdi boz piri suxango'y:
"Kezarkan dashtaro shohi jahonjo'y,

1660 Anga ov uchraganda har tomondin,
Ko'rindi gardi Shirin boshqa yondin.

Go'zal hamrohlari-la ul dilafruz
Shikorga chiqqan erdi ayni kunduz.

CHu to'qnash keldi ikki ovchi ul dam,
Otildi bir-birin ovlashga ildam.

Kamonga ikki sayyod o'qni soldi,
Hamon bir-birinni mo'ljalga oldi.

Surib otlarni hamdam, ayni chog'da,
Qolishdi do'stu ulfatlar yiroqda.

1665 Biri in'om etib ul biriga toj,
Biri aylar edi yuz tojni toroj.

Biri sunbulni siypar erkalab gul,
Birida gul uza yashnardi sunbul.

Biri anbarli zulfin yuzga yopmish,
Biri mushkin kamandni erga otmish.

Biri tavqidin oyni sindirib naq,
Biri g'abg'abdin oyga boylamish tavq.

Boqib bir-birga so'ng termuldilar xo'p,
Ochib ko'k chashmalar, suv ichdilar ko'p.

1670 Na Shirindin o'tib, Parviz ketardi,
Na Gulgundin o'zib, Shabdiz ketardi.

Tariyqi do'stlik aylab imtihonin,
So'rardi bir-birin nomu nishonin.

Eshitgach nomlarin, ul ikki shaydo
Yiqildi erga otlardin banogoh.

Kechib soat. erdin uzdilar bosh,
Guhar etmishdi ul tuproqni ko'z yosh.

So'raldi hol har ikki tomondin,
Necha so'z ketdi ul yaxshi-yomondin.

1675 So'z erdi ko'p, vale andisba aylab,
Suxanni kam, sabrni pasha aylab.

Yozib uchqur qanotu parni qushdek,
Egarga oldilar o'zlarni qushdek.

Suvoriylar etib keldi yiroqdin,
Parivashlar etishdi o'zga yoqdin.

Ko'rishdi, oy ila oftobda shu'la
Qiron etmishdilar ishq burji uzra.

Muhabbat otashi dillarni yoqmish
Va mingan otlari tuproqqa botmish.

1680 Boqishdi Xusravu Shirin sari, hay,
Ularni bir-biridin ajratolmay.

Chumolilar xabar aylashdi pinhon,
Ki bu Bilqis, anuv shohi Sulaymon.

Kelishdi har tarafdin qancha askar,
Ular atrofida jam bo'ldi lashkar.

Yig'ildi muncha qo'shin, benihoyat,
Zamin zalvoridin etdi shikoyat.

Dedi Xusravga Shirin: "Podshohim,
Na yolg'iz men, hama der qiblagohim!"

1685 Ki tojingdin samoga bahramandlik,
Va taxtingdin zaminga sarbalandlik.

Faqat hukmingda ermas etti kishvar,
Jahondorim, jahon izmingda yaksar.

Uzoqmas, shu yaqinda, ey hukmdor,
Guzargoh yonida qo'rg'onimiz bor.

Ne bo'lgay, shohimiz gar tashrif etsa,
U bois boshimiz osmonga etsa.

Bosib o'tsa chumoli uyini fil,
Tutar motam o'shal bechora ko'ngil".

1690 Dedi shoh: "Mayli, mehmoning bo'lay men,
Boray jonim bilan, jonimni ol sen".

Shirin aylab hamon ta'zim adolar,
Dedi shoh sha'niga hamdu sanolar.

Qo'sh otda Bonuga odam jo'natdi,
Shahanshoh tashrifidin voqif etdi.

Mehinbonu xabar topgach bu ishdin,
Quvondi shohni ul mehmon qilishdin.

Tadoriklar qilib, so'ng chiqdi peshvoz,
O'shal oftobu oyni etdi e'zoz.

1695 Tushirdi shohni bir gulgun saroyga,
Ki jannat ham havas etgay bu joyga.

Saroykim, ko'kka etmish toqi ko'rkam,
Uzundir ikki maydoni, kengish ham.

Saroy to'rida zarrin supra yozib,
Ziyofat tuzdi podshoga munosib.

Xazina peshkash etdi nechakim ul,
Hisobiga etishmoq erdi mushkul.

Shirin unda ajab mezboni shirin,
Shahanshohga edi chun joni shirin...

Mehinbonu Shiringa nasihat aylab, ont ichirgani

1700 Mirishkor erga chun dona sochar pok,
Unib ul dona erdin, yuz ochar pok.

Kishi pok ersa, pokdir gavhari to,
Tushib tuproqqa ham bulg'anmas aslo.

Mehinbonuki pok gavharli erdi,
Sevishganlarning ahvolin bilardi.

Fikrga bordi, ikki yori dilkash
3bo'lurlar bir kuni xoshoku otash.

Dedi Shiringa: "Ey farzona farzand,
Menga dilbandu el joniga payvand!

1705 Sening bir nozingu yuz mulki shohlik,
Sening bir tola mo'ying – er ila ko'k.

Saodat xojatoshi soya senga,⁶⁵
Saloh husningga zeb, peroya senga.⁶⁶

Jamolingdin jahonga ro'shnolik,
Chiroyingga panohdir porsolik.

Muhrlangan ajab bir ganji zarsan,
Yomonu yaxshidin lek bexabarsan.

Jahon turmaydi tek, nayrangga o'tgay,
O'g'irlab ganjni, yoqutni ushatgay.

⁶⁵ Xojatosh – xizmatkor.

⁶⁶ Peroya – zebu ziynat.

1710

Ko'ngil ayturki, ul shohi jahongir,
Senga etmoqqa izlar chora, tadbir.

Agar shoh bo'yla maftun ersa senga,
Go'zal bir ov muyassar ermish unga.

Sabrsizlik etarsa, beqarorlik,
Sen uchma so'ziga, et ustuvorlik.

Ki shirin so'z-la aylab makru fanni,
Tekinga emasin halvoyi qandni.

Seni rasvo qilib, maqsadga etgay,
Keyin maylu havosin boshqa etgay.

1715

Uning oftob kabi husniga uchma,
O'zing nondin burun tandirga tushma.

Eshitdim, izmida minglab sanamlar,
Hama shakkarlabu qoshi qalamlar.

Dili gar bo'yla gullardin ochilgay,
Nechuk bir gulga andoq mehri bo'lgay?

Tusharkan kimsa bir gavhardin ayru,
Sotib olmoqni aylar so'ngra orzu.

Ko'rarkan yaxshi ahdu yaxshi noming,
Qo'yib sovchi, so'rar mendin payoming.

1720

Falakdin porsolik senga bo'lgay,
Jahonda podsholik senga bo'lgay.

Agar o'z gavharingda pok bo'lursen,
Uning og'usiga taryok bo'lursen.

Magar ishq o'tida senga etar ul,
Seni ham g'ofilu ham mast etar ul.

Chu Visdek ayblanursen ul zamonda,⁶⁷
Malomatlik bo'lur noming jahonda.

Agar ul oy esa, biz oftobmiz,
U Kayxusrav esa, Afrosiyobmiz.

1725 Hazir bo'l, yurma erkak royiga ko'p,
Javonmard bo'lmagan erdan ayol xo'b.

Baso gul uzdilar turganda yashnab,
Keyin xor etdilar bir chetga tashlab.

Baso may quydilar sog'arga gulgun.
Tatib bir necha qatra, to'kdilar so'ng.

Bu yanglig' ishqbozlik etmay har gal,
Musaffo er-xotin bo'lmoqlik afzal".

Shirin tinglab nasihat, yumdi ko'zni,
Qulog'iga quyib ham jumla so'zni.

1730 Anga xush keldi munis Bonudin pand,
Uning ham ko'nglida shu erdi zotan.

Qasamlar ichdi ul etti samoga,
U ravshannomayi getixudoga.

Ki "Gar yig'latsa ham ishq jamoli,
Bo'lurmen yor, bo'lib jufti haloli!"

⁶⁷ Faxriddin Gurgoniyning "Vis va Romin" dostoniga ishorat.

Chu Shirin ichdi ont, Bonu eshitdi,
Eshitdi, ko'nglini xotirjam etdi.

Rizolik berdi, qasru bog'da, illo,
SHirin o'tirmagay shoh birla tanho.

1735 SHahanshoh endi xilvat orzu etmay,
Jamoat ichra aytsin neki aytgay...

Xusravning Shirin bilan chavgon o'ynagani

Etishdi boshqa kun. subhi jahontob,
Shafaq la'l erdi, zarga ko'mdi oftob.

Quyoshning nayzadori otni surdi,
Falakdin Birjisu Nohidni quvdi.⁶⁸

Bu ishni bir kishikim soz etardi,
Hamon andoq yig'in og'oz etardi...

Shu dam etmishta qiz urg'ochi sherday,
Shirin oldida hozir bo'ldilar, shay.

1740 Kurashda har biri Isfandiyordek,
Tirandozlikda chun Rustamsavordek.

Va chavgon bobida ham muncha cholok,
Etardi ursalar gar ko'kka koptok.

Kamarbanddin berib bellarga pardozi,
Egarda sarvdek qomat tutib g'oz.

⁶⁸ Birjis – Yupiter. Nohid – Zuhro, Venera.

Borishdi ot surib shoshqin, talabgor,
Bari shoh zizmatin etmoqqa tayyor.

Chiqib shoh hojibi berdi salomin,
Shahanshohdin dedi lufu payomin.

1745 Shirin kirgach, oyoqqa qalqib ongoh,
Anga ko'rsatdi joy o'z yonidin shoh.

Ne ko'rdi? Necha gulgun, sho'xu dilband,
Saroe purshakar, shahr erdi purqand.

Vale bilmasdi, gar jononadirlar,
Surib maydonda ot, mardonadirlar.

Pari qizlarni shoh etmoqqa shodon,
Turib, maydon sari yurdi shitobon.

O'yingohga kelib, bas. Oldilar tin.
Pariruxlar uchar erdi quvonchdin.

1750 Magar oy erdilar, lek oftobdek,
Kabutar erdilar, ammo uqobdek.⁶⁹

Chu Xusrav ko'rdi qizlarni bu holda,
Chamanda qumriyu lochin shikorda.

Dedi Shiringa: "Kel, tulpor suraylik,
Shu maydon sahnida chavgon uraylik".

Shahanshoh to'pga ilkin urdi chavgon.
Sanamlar boshladi maydonda javlon.

⁶⁹ Uqob – burgut.

Butun maydonni to'zon tutdi butkul,
Uchib ko'kka, etishdi oyga ham ul.

1755 Va to'p urganda har gal yuksalib to,
Bulutdek qopladi oftobni hatto.

U yonda erdi yulduzlar ila oy,
Bu yonda shohu shotirlar edi shay.

Marol arslon ila o'ynar edi chun,
Talash aylardi kaklik birla lochin.

Gahi xurid surar to'p, gohida moh,
Gahi Shirin yutardi, gohida shoh.

Necha muddat to'yib o'ynashdi chavgon,
Keyin ot surdilar maydonda har yon.

1760 Uchardi el kabi Shabdizu Gulgun,
Tuyoqlardin sochilgay erdi uchqun.

Keyin andin yurishdi so'yi sahro,
Hama ov ovlamoqqa tushdi ongoh.

Ki muncha boqdi omad oftobi,
Yig'ilgan o'ljaning yo'qdi hisobi.

Sanamlar otdilar chun nayza bisyor,
Zamin bo'ldi qulonlarga qamishzor.

Otib xotinsavorlar nayzalarni,
Yiqitdi maysazorda ohularni.

1765 Sanamlar ot surib, sur'atda erdi,
Ko'rib shoh har safar hayratda erdi.

Chu erdi har biri otda humodek,
Shikorga tashlandi ajdahodek.

Boqardi shoh Shiringa nihoniy,
Etar deb saydidin ne armug'oniy.

Qamish qad, ohu ko'zni ko'rdi nogoh,
Uni ov etgali bo'lmishdi paydo.

G'izoli mast edi, ilkida shamshir,
O'zi ohu bo'lib, ovlar edi sher.

1770 Shikor etmoqqa mohir erdi muncha,
Ki Xusravdek jahongir unga o'lja...

Chu tovusi falak tark ayladi bog',
Hamon gul tergali keldi qaro zog'.

Tovusning jilvasi ohista so'ndi,
Butun boriqqa qarg'a rangi qo'ndi.

Hama uy-uyi sori burdilar yuz,
Yotib uxlashdi to kelguncha kunduz.

Yana tun ketdiyu kun keldi yashnab,
Yana shoh eshigida chekdilar saf.

1775 Yana chavgondin aylab o'zni xursand,
Yana ov ovlamoqqa bo'ldilar band.

Anga bir oy ummi etdilar sarf,
Hamon tartib edi, tushmasdi bir harf.

Shahanshoh fursat izlar erdi bisyor,
Chu Shirin birla diydor etsa bir bor.

Vade fursat qulay kelmasdi aslo,
Kalit solsa va qulfni ochsa nogoh.

Parivash uyga oqshom qaytar erdi,
Humo qush tinchu orom qaytar erdi.

1780

Dedi shoh: "Ey husn osmonida moh,
Jamoling chashmi davlatga nazargoh!

Kel, endi ertaga subhi sabohdin
Etaylik dilni shod kayfu safodin.

Ichaylik may, nishot andisha aylab,
Hamon zavqi tarabni pesha aylab.

Magar g'angin bo'lurmiz yoki shodon,
Omonlik bermagay bu charxi davron.

Bu dunyo bizga shafqat aylamas gar,
Ko'raylik qayg'udin shodlikni afzal".

1785

Ko'ziga bosdi barnog'in parivash,
O'pib er dedi: "Kechangni kechir xush".

Chu va'da berdi ul mohi shabafruz,
Shahanshoh yotdi kunduzga tutib ko'z...

Bahor sifati **Xusravu Shirin ishrati**

Falak moviy libosli piri dono,
Yana keltirdi tong, yosh erdi, barno.

Yana yoshu qariga etdi bir bor
Chamanlar gashti birlan sayri gulzor.

Gul unda gul ochib taxti Kovusdek,
Binafsha barg yozib parri tovusdek.

1790

Baso qushlarki, ishq ovoza aylab,
U eski ishqni yangi, toza aylab.

Shirin bois edi Xusrav sevinchda,
Jahon unga berardi yangi mujda.

Bo'lib xurram bahordin shodu xurram,
Chechak yashnar edi, bog'u chaman ham.

Chamanda gul ko'tarmish erdi bayroq,
Quvib qumri, qochardi qarg'ayu zog'.

Suman soqiyu nargis jomga payvast,
Binafsha mayxumoru lola sarmast.

1795

Sabo bir-bir ochib pok chehralarni,
Chaqirmish oshig'u oshuftalarni.

SHamol har yonga ot surgay, o'kirgay,
Guli za'farni ul savsanga urgay.

Yoyib er uzra qizg'aldoq chiroyin,
Guli rayhonga bergay so'ngra joyin.

Cho'zib sarv qomatin bog'i chamanda,
Yaqo chok aylar ishqdin lola unda.

Binafsha sochini ymish alomat,
Nasim nasringa sir aytur, sinoat.

1800

Kelinchakdek yashirgay yuzni rayhon,
Chechaklar soch taraydi shodu xandon.

Havo sochmish ko'katdin atru hidni,
Zumurrad uzra to'kmish marvaridni.

Qarang, tuproq etib homila avval,
Chiqarmish qornidin anvo giyohlar.

Sut emgan ohu barra endi yayrab,
Anosi yonida o'ynaydi sakrab.

Tazarv rayhon uza yoymish qanotin,
Ango rayhon nisor etmish bisotin.

1805 Bahor har novdadin atrin sochib ul,
Tutibdir armug'on deb kaftida gul.

Navoyi bulbulu ovozi durroj
Etar oshiq ko'ngil sabrini toroj.

Bahorda bo'ylakim oshiqnavozlik,
Xato bo'lgay, xato – beishqbozlik!

Kunu tun Xusravu Shirin shu damda
Xiromon erdilar bog'u chamanda.

Gahi may sipqorib bog'lardi xandon,
Gahi gullar terib tog'larda shodon.

1810 Gul rayhon mayi rayhonga payvast
Bo'lib, Shahrudga ul kun etdilar mast.

Va Shahrud bo'yida otlarni boylab,
Sadoyi soz ila jonlarni siylab,

Edi Shirinda andoq bir shakarxand,
Qamishlarga shakar joylardi zotan.

Yuzida dam sayin ortar edi nur,
Chu naysondin sadaf olgan kabi dur.

U mushkin zulfining anbar adosi,
Shirin labning shakar erdi gadosi.

1815 Shakardek xandasi uchgan zamoni,
Xuzistondin uchar novot fig'oni.

Qadi shohlik saroyin sarvi erdi,
Ko'rib har kimsa ul tubomi derdi.⁷⁰

Gul etsa nargisi sori nazora,
Hasaddin qilgay o'zni pora-pora.

Suman garchi chechaklar shohidir ul,
Egib oldida boshin, bandadir, qul...

Xusrav bazmgohda arslonni o'ldirgani

Malik sayri tamosho etdi bir kun,
Shirin erdi ko'zi o'ngida gulgun.

1820 Kishikim, unga chun dilxoh bo'lgay,
Anga har joy tomoshogoh bo'lgay.

Ajab bir sayrgoh xush keldi ko'zga,
Giyoh o'smas edi savsandin o'zga.

Bihishtdek joy edi, savsanli ma'vo.
Shu erda tikdilar podshoga borgoh.

⁷⁰ Tubo – janna daraxti.

Kanizu qul yurib aylanasida,
Surayyo erdilar oy tegrasida.

Edi Xusrav va SHirin bunda shodon,
Oyog'idin osilmish erdi hijron.

1825 Tutardi la'lgun soarni soqiy,
Kulib derdiki: "Bo'lsin aysh boqiy!"

Sharobu ishq bo'lib hamkoru hamdast,
Shahanshoh ikki karra erdi sarmast.

Banogoh kirdi bir arslon g'azabnok,
Havoga o'rlatib chang, to'zg'itib xok.

Sarosim soldi lashkargohga chandon,
Chu lashkar qotdi, o'zni urdi har yon.

Yugurli narta sher har yon, bo'kirdi,
Bo'kirdi, tikka Xusrav sori yurdi.

1830 Shahanshoh to'sdi sher yo'lini chun sher,
Sovutsiz erdi, yo'q ilkida shamshir.

Chunonam urdi boshiga tugib musht,
Yiqildi sher hamon, tark ayladi hush.

Kesing, deb boshini shoh berdi farmon.
Shilib terisini aylang saranjom...

Keyin shohlarga odat bo'ldi birday,
Bazmgoh ichra ham shamshir tutish shay.

Agarchi sherkelbat erdi Parvez,
Malik erdi, malik qo'zg'ollmagay tez.

Chu mastlik birla etdi ul jasurlik,
Ki mastlik nomi bo'ldi shergirlik.

Urrib, sherni qulatdi bo'ylakim shoh,
Turib, Xusrav qo'lini o'pdi ul moh.

Yig'ib lablarga bol shahdini dilbar,
Shahanshoh ilkiga chun to'kdi shakkar.

Shahanshoh o'pdi ul lablarni sarmast,
Ki shakkar labda bo'lgay, qo'lda ermas.

Labidin o'pdi, dedikim: "Asal bu,
Chu oshiq ahliga shirin amal bu!"

Birinchi bo'sa, andoq shakkarin jom,
Shahanshohdin Shiringa bo'ldi payg'om.

Agarchi so'ngra yuz jom ayladi no'sh,
Birinchi jomin etmasdi faromush.

O'shalkim jomi avval erdi, beshak,
Bo'lur yuz jamdanam so'ng qadri yuksak.

May avval jomda poku toza bo'lgay,
Va lekin quyqasi so'ngra ko'ringay.

Ariq bo'yida unsa avvalin gul,
Necha gulzordanam xushbo'y erur ul.

Sadafdin chiqqan ilk durdona ham chun,
Go'zaldir, qiymati yoqutdin afzun.

Taomda garchi lazzat yoshirindir,
Qozonning ustidin ersa, shirindir.

Chu sharbat totdilar ul ikki oshiq,
Yo'q erdi ul aroda zahmat ortiq.

Chu xoli topsalar bir joyni, xilvat,
Sutu moydek qorishgay erdi suhbat.

Eshikda posbonni ko'rsa gar mast,
Cho'zar gavharga qo'lni o'g'ri, kutmas.

1850 Ular bir ko'zni dushmanga tikardi,
Va boshqa ko'z ila rayhon ekardi.

Chu fursat topsalar xilvatda xushhol,
Olardi bir-biridin bo'sa darhol.

Ibolik erdi SHirin ersa hushyor,
Bu yanglig' labga lab tutmasdi zinhor.

Vale may sipqarib, bo'lganda sarmast,
Etardi bo'saga ul bo'sa payvast.

Shahanshoh bag'riga bosganda qattiq,
Qizargay erdi har gal lola yanglig'.

1855 Gahi shoh tishlabon lab so'rgay erdi,
Nilufardin binafsha ungay erdi.

Faqat qizmas, ko'kish labdin o'shal dam
Xijolatlig' bo'lardi ko'kda oy ham.

Magar sarmast edi ul yoki hushyor,
Hamisha oq uposi erdi tayyor.

202

**Xusrav va Shirin, Shopur va qizlarning
afsona aytishgani**

Nurafshon erdi tun, monandi kunduz,
Jahon ravshan, samoda oyu yulduz.

Masiho eli to'ldirmish dimog'in,
Ki andoq elki, so'ndirmas charog'in.

1860 Qorong'ulik nishoni erdi tunda.
Tiriklikning suvi bor erdi unda.

Qorong'u ichra andoq erdi bori,
Ki ismat erdi yolg'iz pardadori.

Sabo manglayni siypar erdi har on,
Sitara tongga ko'rsatmishdi dandon.

Tun ochgay erdi maqsad eshigin zud,
Murod topgay edi andin tavallud.

U yoqdin Zuhro sochgay erdi inju,
Bu yoqda Oy uni aylardi yog'du.

1865 Zamin mushk hidiga yo'g'rilmish erdi,
Havo atru uforga to'lmish erdi.

Shamoldin har nafas erdi muattar,
Sochardi har tarafga mushku anbar.

Elib olam uza bodi bahoriy,
Havoni aylamish udi qumoriy.⁷¹

⁷¹ Qumor – Hindistondabir shahar nomi.

Chalar erdi kumush sozini Zuhro,
Hilol erdi falak avjida hamroh.

Surayyo bir nadimi xosi erdi,
Atorud o'rtada raqqosi erdi.

1870 O'shal tun qushlarin uyg'otgali bot,
Chekardi tun aro haqqush faryod.

Hama hayvonu qushkim anda erdi,
Bari o'z uyida sozanda erdi.

Agar ovozida farq erdi ancha,
Vale tun soziga jo'r erdi barcha.

Faridun taxtiga shoh o'ltirib shod,
Etardi jomi Jamdin dilni obod.

Shirindin ravshan etnishdi dunog'in,
Shu bois yoqmamish sham'u charog'in.

1875 Nasimi sabza birlan atri rayhon
Berardi shohdin Shiringa payg'om:

"Bu dilbar tunni inson qayda ko'rmish?
Bu yanglig' atru bo'y qayda ufurmish?"

Nega vaslu visol bizdin yiroqdur,
Magar nurmiz, qo'shilsin nur ila nur.

Agar qonmiz, nechun jo'sh urmasin qon?
Agar jo'sh ursa, turmoqqa ne imkon?"

Havo xush, biz nechun vaqt topmagaymiz?
Tanur issiq, nechun non yopmagaymiz?"

1880

Gul ochmas g'ar kuni fasli bahoring,
Tuzoqqa tushmagay har gal shikoring.

Kishi o'z rizqi ro'zini emasmi,
Bo'lar ish bo'lgani yaxshi emasmi?

Base sayyodki, ul non deb yugurgay,
Vale non qurtu qushlarga buyurgay.

O'qir bo'ri masal, tulki shum erdi,
Topardi bo'ri, lekin tulki erdi”.

Bu so'zlarkim, der erdi shoh dildan,
Quyoshni ham magar urgaydi yo'ldan.

1885

Vale Shiringa ul etmasdi ortiq,
Hamisha ahdiga oy erdi sodiq...

Bu yonda taxt uzra o'ltirib shoh,
Saroy ahli oyoqda erdi ogoh.

Turardi shay bo'lib xizmatga Shopur,
Magar ganji guhar oldida ganjur.⁷²

U yonda oftobi nozparvar,
Edi atrofida o'n chog'li dilbar.

Farangisu Suhamli sarvi bolo.
Ajabno'shu Falaknozu Humaylo.

1890

Humoyunu Sumanturku Parizod,
Xo'tanxotunu Gavharmulk dilshod.

⁷² Ganjur – xazinachi.

Gulobu la'li mayni yor aylab,
Va andin yuzlarin gulnor aylab.

Chu mastlikdin bo'lib sharmu hayo kam,
Aroding ketgan erdi aqlu hush ham.

Shahanshoh amr etdi, har diliston
Shu onda so'ylasin bir yangi doston.

O'zlallar o'tirib chin ishtiyoqda,
Bo'yinda dur, la'l, gavhar quloqda.

1895 Ularda g'amza – o'q, qoshlar kamondir,
Va otgan o'qlari ko'p beomondir.

Shirindir har biri ul munchakim, hay,
Magar shakkarni ham hayratga solgay.

Shirinning kanizaklari masal aytishgani

Farangis avvalin ot surdi shul on,
Ki "Davlat etdi ganjni erga pinhon.

Xabar topdi Faridun, chekdi ranjni,
Qazib, tuproqdin oldi bori ganjni".

Suhamli dedikim: "Bir tustovuq qush
Baland sarv ostida o'ynar edi xush.

1900 Banogoh qaydanam lochin etishdi,
Tazarv ul ovchining domiga tushdi".

Ajabno'shi shakarso'z so'yladi ul,
Ki "Bir bog'da ochildi anbarin gul.

Kelib jannat qushi o'pdi u gulni,
Olib minqorida ketdi u gulni".

Falaknoz so'yladi shu dostonni:
"Ko'rardik bitta ko'z birlan jahonni.

Yana ko'z berdi bizga oshnolik,
Yaqindir ikki ko'zga ro'shnolik".

1905 Humaylo dedikim: "Suv toza, ravshan,
Oqardi, yashnatardi bog'u gulshan.

Javonsher chiqdi yo'ldin tashnalab to,
Simirdi ul ziloliy suvni nogoh".

Humoyun dedikim: "La'l koni erdi,
Xaloyiq ko'zidin pinhoni erdi.

Ochildi shohga ul, yor bo'ldi davlat,
Olib, tojiga etdi zebu ziynat".

O'shal Turkisuman dediki: "Bir kun
Sadafdin bo'ldi ayro durri maknun.

1910 Falak aylab uni shoh iqdiga band,
Hamono etdi bir yoqutga payvand".

Parizodi parirux dedi: "Oy qiz
O'yin o'ynar edi ovloqda yolg'iz.

Chiqib oftob uni mo'ljalga oldi.
Tutib bechorani ganbarga soldi".

Xo'tanxotun chunon lab ochdi dilkush,
Ki "Tanho erdi bir shamshod ipakpo'sh.

Etishdi unga nogoh sarvi ozod,
Na xushdir bo'lsa hamdam sarvu shamshod".

1915 Lab ochdi so'zga Gavharmulki dilband,
Ki "Zuhro yakka-yolg'iz erdi ko'pdan.

Saodat ochdi iqbolin cho'zib dast,
Qironi Mushtariyga etdi payvast.

Shopurning masal aytgani

Etib navbat, keyin lab ochdi Shopur,
Muhabbat sharhidin so'z aytdi manzur:

"Shirin erdi asalga lim to'la jom,
Shahanshoh moy bo'lib, etdi saranjom.

Ular halvosida men za'faronmen,
Boqing, rang san'ati ichra ayonmen".

1920 Ularni pahlaviyda qutladi bot,
Dedi: "Ming ofarin, ey sarvu shamshod!"

Hamisha yog'diring olamga yog'du
Va aslo tushmangiz bir-birdan ayru!"

Shirinning masal aytgani

Ko'ring so'z navbati Shiringa etdi,
Chamanni gul, havoni mushkin etdi.

Boqib erga, xijolatdin chekib "uy",
Dedi: "Dil erdi beishq, yor bejuft".

Ki Shopur etdi andoq chorayi kor,
O'shal chora ko'ngilni ayladi zor.

1925

Qazoyi ishq agarchi qismat ermiş,
Menga qismat o'zi bu ishqni bermish.

Ajab savdoda qoldim men bu yanglig',
Xijolatdin yuzimdir lola ranglig'.

Menga Xusrav qo'lidin no'shi, jomdir,
Na Kayxusrav, Panoxusrav g'ulomdir.

Boshim ul soyasidin tojvar o'lsin,
Nadimi baxtu davlat rahbar o'lsin!"

Xusravning masal aytgani

Dedi Xusrav nihoyat: "Bir zamonda
Yashardi narra sher cho'lu chamanda.

1930

Marol bir kun yo'lida qarshi oldi,
O'shal sher bo'yniga arqonni soldi.

Men ul sherman, vale Shiringa naxchir,⁷³
Qaro zulfi erur bo'yninga zanjir.

Agar Shirin qo'lni cheksa mendan,
So'narmen sham kabi o'tkinchi eldan.

Pisand ernas, menga sher hamla qilsa,
Yiqarmen, gar Shirin yonimda bo'lsa".

Jamuljam bunda barcha do'st edi, yor,
Ki har so'zga cho'zardi qo'lni takror.

1935 Dili mahram erur chun taxtayi xok,
Qo'l ursang unga, etgaydir qo'ling pok.

Shirin tab'i ochildi, zavqqa to'ldi,
Dili Xusravga boz oshufta bo'ldi.

Qadahga quydi may qalbi urib jo'sh,
Uzatdi shohga: ol, no'sh aylagil no'sh!

Olib jomi shirinni, ulfat etgil,
Shirindin o'zgasin bori unutgil!..

Shahanshoh misli guldek ochilardi,
Shirin labdin anga dur sochilardi.

1940 Gahi der: "Ey qadah, raxt boyladi tun,
Sen achchiq bo'lki, Shirin xanda ursin!"

Gahi der: "Ey sahar, yorishma butkul,
Mening holimga ofoq kulmasin ul!"

⁷³ Naxchir – ov.

Sanamlar qo'liga monandi yulduz
Uzuk taqdi falak, kelguncha kunduz.

Uzuklarni yig'ib ko'k oldi tongda,
Xo'roz bong urdi qu-qulab o'shanda.

Go'zallar tark etib dashtu biyobon,
Shaharga yurdilar xushbaxtu xandon.

1945 Jahondin tashvishu g'am etmadilar,
Sevinchni zarraga kam etmadilar.

Urildi toshga oftob-shisha qattiq,
Jahon tor bo'ldi xalqqa shisha yanglig'.

Yana qo'lga olishdi shishayi may,
Yana mayl etdilar "qul-qul"ga tinmay.

Etib ne shishadilga turktozlik,
Falak aylardi peshu shishabozlik.

Qizil maydin ko'ngilni gulshan aylab,
Chu ishrat birla tunni ravshan aylab.

1950 Hamon aytardilar afsonalarni,
Tizib marjonga ul durdonalarni.

Dili Xusrav yonardi, jo'sh etardi,
Shirin lab yodida may no'sh etardi.

Mayi rangin dema, obi hayot ul,
Labi Shirin dema, qandu navot ul.

Chu Xusrav ilkida may kosa erdi,
Yana bir ilkida guldasta erdi.

Gahi may sipqarar, goh gulni hidlar,
Etardi yor vaslidin umidlar.

1955

Taxir may joniga etgach asarni,
Solib Shirin sari shirin nazarni,

Ishorat birla necha so'z dedi shoh,
Ki lablar bo'saga band erdi ongoh,

Sanab aylab yana nozu itobin,
Ishoralar ila berdi javobin.

Ishorat birla shoh so'ylardi yolg'iz,
Karashma birla noz aylar edi qiz.

Uzun tun kechdi shu taxlitda bedor,
Shu taxlit necha tunlar bo'ldi takror.

1960

Yuziga ter chiqib issiq tufayli,
Sabuhiy sori bo'ldi shoh mayli.

Shirin mast bo'lmagin o'ylardi yakkash,
Magar taslim bo'lur unda parivash.

Vale fursat qulay kelmasdi shunga,
Ki otgan o'qi tegmasdi nishonga.

Anga yor erdi diydori dilafruz,
Tarab aylardi to kelguncha kunduz.

Kecha shabdiziga gulguni xurshid
Jilov soldi, ufuqlar kiydi yoqut.

1965

Shikor etmoq uchug Oftobu Oygul
Minib Shabdizu Gulgun, oldilar yo'l.

Qo'yib Mavqonni, Shahrudga etib bot,
Mayu soz birla aylab manzil obod.

Gahi sohilda ketguncha tutib g'ov,
Surib otlarni unda, etdilar ov.

Gahi Shahrud suvidin aylabon no'sh,
Jahonni sozu maydin etdilar xush.

Gahi sayr etdilar ul dashti Mandur,
Shikor aylab damo-dam ohuyu gur.⁷⁴

1970 Shu yanglig' necha tadbir bo'ldi bunda,
Gahi ishrat, gahi ov erdi kunda.

Kelinchak tun etishdi, tikdi chodir,
Falakka sochdi yulduzdin javohir.

Chu shoh dildori ham mayl etdi, rag'bat,
Turib ul tartib etdi bazmi ishrat.

Go'zallar bo'ldilar unga madadkor,
Hama majlisga band, shoh erdi bekor.

Shakar mo'l garchi, bodom kamchil erdi,
Kabutar ko'pu bitta lochin erdi.

1975 Hama Xusravni alqab ichdilar may,
Farah, ayshu tarab erdi payopay.

Biror tun kechmadi sozu navosiz,
Biror kun bodasiz, kayfu safosiz.

⁷⁴ Gur – qulon.

Mayu ma'shuqu fasli navqironlig',
Tiriklik xush bo'lurmu bundan ortiq!

Gulu gulzor tamosho aylab har gal,
Ichib dildor qo'lidin bodayi la'l,

Sevar yor bo'yniga qo'llarni tashlab,
Anorni chirmagan narvanga o'xshab,⁷⁵

1980

Bir ilking domani jononda bo'lsa,
Bir ilking xuddi nabzi jonda bo'lsa,

Etib goh g'amza birlan chorasozlik,
Yana goh bo'sa birlan nardbozlik.

Gahi solsa guli bag'ringga nash'a,
Gahi taqsang qulog'iga binafsha.

SHivirlab gohi ishqingdin desang roz,
Gahi dardu g'amingni so'ylasang boz,

Jahondin izlama, yo'q narsadir bul,
Agar bor bo'lsa ham, bir lahzadir ul...

Xusrav Shirindan arazlab, Runga yo'l olgani

1985

Ajoyib tun edi, yilning bahori,
Saodat yuz ochib, baxt erdi yori.

Ki tunni aylamishdi misli kunduz,
Falakdin yuz ochib ul olamafruz.

⁷⁵ Narvan – chirmoviqqa o'xshash gul buta.

Quyoshdan-da yorug' oy shu'lasida
Ichilgaydi sharob tol soyasida.

SHirin sayrardi qush, ich derdi soqiy.
Ko'ngilning yo'q edi dardi, firoqi.

Oqar suvga qamar sir so'ylar erdi,
Sabo tavsiri oyat aylar edi.

1990

Ajab sarvi ravon ul har kanorda,
Gul ochmish erdi yashnab navbahorda.

Biri jom o'rniga childirma tutmish,
Biri gulgun gulob tutgay edi xush.

Necha aylandi jom, may bo'ldi asru,
Karaxt etdi egib boshlarni uyqu.

Hariflar mast bo'lib, fursat kelib o'ng,
Olib shohdin ijozat ketdilar so'ng.

Necha soqiyni ham uyqu yiqitdi,
Necha mutrib edi, uyquga ketdi.

1995

Bo'lib majlis tamom gardu g'uborsiz,
Xudoning lutfi-la gul erdi xorsiz.

Tugandi shohning sabru qarori,
Magar oldida shay erdi shikori.

Olib qo'lga sanamning sochini ul,
Unutdi o'zniyu olamni butkul.

Labidin o'pdi, dedi: "Men g'ulomning,
Asiring bo'ldi qush, ber unga doning.

Umr din neki ketgan ersa, ketdi,
Bugun har neki etgan ersa, etdi.

2000

Bu erda senu men, tanho biz endi,
Tiyilmoqqa yana ne bois endi?

Biror soat menga chin nozanin bo'l,
Agar ro'zi esang menga, bugun bo'l.

Daraxtsen, mevasiz qolgaymisan, hay,
Bo'lurman senga zoru tashna tokay?

Agar ko'k toshdin ersa ko'prik andoq,
Suv oqmas ersa, ul ham toshu tuproq.

Kezib qassob iti atrofda g'ir-g'ir,
Jigar ko'rganidin so'ngra jigar er.

2005

Bulut gar bag'riga mushk aylamish jo,
Quritgay bog'ni ko'k din yog'sa nogoh.

Ko'ringay gohi suv sho'rxok zamindin,
To'lar tashna og'iz tuproqqa andin.

Ne ermish jomga may deb og'u quymoq,
Keyin unga Shirin deb nom qo'ymoq?

Go'zaldir ko'zga toza marvarid, dur,
Teshilsa tozalikda yaxshidir ul.

Eyilgay yoshu shirvoz ersa ko'zi,
Magar ulg'aysa ul – qashqirga ro'zi.

2010

Kabutarbachcha etsa ko'kka parvoz,
Uni shoh lochini tutgay, qutulmas.

Chu sherdek bo'lma sarpanjanga mag'rur,
Ki bizda sheryiqar sarpanja bordir.

Uzundir tog' marolin bo'yni andoq,
Vale bizning kamand andin uzunroq.

Biyobon ohusi eldek uchar, hay,
Vale tozisi undan-da o'zgay.

Sitamgar etma muncha zulfu xoling,
Zakotin ber, salomat saqla moling.

2015

Nilingni so'rsalar, kech qilma kunni,
Magar Nil ichrasen, echgil tugunni".⁷⁶

Shirinning javobi

Shakarso'z ko'rsatib lutfu odobin,
Shakardek til ila berdi javobin:

"Nechuk hamtaxt bo'lay gardu g'ubor men,
Sengakim, bo'yla mag'rur tojdorsen.

Ki necha chopsa hamki baytalim tez,
Arab tulporining oldida ojiz.

Qani kuch mendakim, otimni sursam.
Arslon ovchining yonida tursam?

2020

Agar noz aylasam, bois ayondir,
Ki issiqda shakarxo'rlik ziyondir.

⁷⁶ Nil – birinchi misrada ko'k bo'yoq, ikkinchi misradadaryo ma'nosida

Qutulsak bir qadar issiqdin, illo,
Menga shakkar muborak, shohga halvo”.

Aqiqqa chun etib olmosni posbon,
Zumurradga edi ajdar nigohbon.

Boshi sarkashlik ichra bo’lsa bundoq.
Ko’ngil xohishi, yo Rab, erdi qandoq?!

Qizarmishdi yuzi misli tikan ul,
Na xushdir gar tikan ersa qizil gul.

2025 Agar zohirda sher erdi, g’azabli,
Vale botinda munis erdi ko’ngli.

Chatilgan ersada qoshi kamondek,
Otar erdi karashma o’qlarin lek.

Agarchi g’amzasi aylar edi jang,
Vale har jangida sulh erdi gulrang.

Labim so’rma, yaro etma uni der.
Vale aslida-chi, o’pgil meni der.

Yuzi chun parda ichra gar nihondir,
Qulog’iga etar har ne ayondir.

2030 Agarchi so’z demas, jimdir dudog’i,
Vale hushyor turib tinglar qulog’i.

Agar ul ko’zi nozu g’amza aylar,
Vale bul ko’zi uzrin arza aylar.

Boshin yopganda sochi sochilib chun,
Yuzin burganda bo’yni aytdi uzrin.

Chu Xusrav xohishida ko'rdi otash,
Xijolat bo'ldi ich-ichdan parivash.

Ko'ngil xohishidin ters burdi betni,
Chu oq go'gurt ila so'ndirdi o'tni.

2035

Burib ortini derdi: shohjahonim,
Yuzing bo'lsin hamisha pushtibonim.

Adashtim, ko'rsatardi taxtayi oj,⁷⁷
Ki shohga lozim o'lgay taxt ila toj.

Yana aytardi aylab sarhisob ul,
Ki ortim ham, yuzim ham mehrob ul.

Yana aytardiki, garchi yuzim sha'n,
Yuzim bordir yana bundan-da ravshan.

Na xushdir noz etarkan lola yuzlar,
Quvib ko'zdin, yana ko'z birla ızlar.

2040

Agar bir ko'zi-la der: "Ket shu asno!"
Vale bir ko'zi-la der: "Ketma aslo!"

Anga yuz jon tasadduq bo'lsin har on,
Ki "yo'q" deb aslida "xo'p" deydi jonon...

⁷⁷ Taxtayi oj – fil suyagidanyesalgan shaxmat taxtasi.

Xusravning Shiringa javobi

Chu Xusrav ko'rdikim, sarkash erur gul,
Uning dardiga chora aylamas ul.

Dag'allik birla dedi: "Ey dilorom,
Namuncha vajah etarsen chun beorom?"

May ichding, menga ham ichkizganing bor,
Nega men mastmanu sen ersa hushyor?"

2045 Bo'lib mast, o'zni hushyor ko'rsatarsen,
Men oshiq, sen dag'i shaydo erursen!

Bu kamtarbozligingda bormi ma'ni,
Olur ishq lochini ul kaptaringni.

Agar rozi diling pinhon etarsen,
Sabr bersin, dilingni qon etarsen.

Kel endi, engilish sozingni yangrat,
Shu chohdin chodiringni ko'kka yuksalt.

Bu savdo ichra shamshir kor etar tez,
O'jarlarga qochishdir chora yolg'iz.

2050 Bilarsen, bu qilichbozlikda ortiq
Boshin kim tikka tutsa, mahv etar tig'.

Diling dildor emassa, turma bo'yla,
Chu yolg'on bo'lsa-da dildorlik ayla.

Meni yolg'ondakam "yorim" degil, bas,
Menga xush, senga ham andin yomonmas.

O'yinchoq boshida ham fol ochildi,
Ajabki, folchining aytgani bo'ldi.

Ne yaxshi so'ylamish sohib maoniy:
"O'zingga yaxshi fol och, ey faloniy!

2055 Yomon kelgay yomonni o'ylasang, hay,
Niyatni yaxshi qilsang, yaxshi kelgay".

Labingdin bo'sa bas menga, tamomdir,
Halolim ayla, yo'qsa ul haromdir.

Shuni ham ko'p ko'rar bo'lsang agarda,
Bu issiq ne emish, yongaymen unda.

Meningdek oshig'ingni o'ldirib chun,
O'zing yig'larsen erta zoru dilxun.

Tutar xunim seni, ey nozanin qiz,
O'lar oshiq, xuni o'lmaydi hargiz.

2060 Magar oshiqqa damsoz bo'lmagaysen,
Anga balki o'pich ham bermagaysen?

Ne etgaymen? Ravodir menga ul dam,
Izingni yoki ostonangni o'psam.

Demasmen, bo'sani menga uzun ber,
Labing totini totmoqqa izn ber.

Berib bir bo'sani, ol o'ndan ortiq,
Bozurgonlik bo'lurmu bundan ortiq?⁷⁸

⁷⁸ Bozurgonlik – savdo-tijorat.

Bozurgonsanki. qanding benihoya,
Menga ul bitta qanding bas, kifoya.

2065 Tugun echgil, echilgay ne tugunlar,
Tugun tugma, tushar senga tugunlar.

Olarkan suv gar saqqo, sochar mo'l,
Ajabki. suv ko'paygay chashmada ul.

Bosay bag`ringa, chun jonimga jon sen,
Magar jonimga tig' urgaymidim men?

Qaroqchi hindudir zulfing, qaro yuz,
O'g'irlar bor-bisotim kuppa-kunduz.

O'shal hinduni qo'lga olmasam-chi,
Manam bir hindumen, o'g'ri, qaroqchi.

2070 Va qancha bo'lmasin o'g'rida jur'at,
Qochar bir "hoj!" ila qo'rquvda albat.

Kishi hindu qo'lin kesmaydi zinhor,
Agarchi o'g'ridir, mardligi ham bor.

Qaro zulfingni bo'ynimga kamand qil,
Bu sho'rlik ov ila ko'ngling chaman qil.

So'ra ko'nglimni, senga jon sotay men,
O'zing jomimni to'ldir, no'sh etay men.

Visoling shomida purxandamen, shod,
Charog'i oshnolik birla obod.

2075 Buyurgil, deb qulog'im senga tutgum,
Sotib ol bu qulingni, senga sotgum.

Labingdin bo'sa ber, tutgil sharobin,
Sanashni menga qo'y, etgum hisobin.

Chu davlat eshigin ochdi, kiraylik,
Nechuk ul ganju davlatdir, ko'raylik.

Beraylik o'zni shu ra'noli tunga,
Ki yo'qdir e'timod ertangi kunga.

Bu kecha naqd erur bizga hadiya,
Ne hojat ertangi kundan nasiya?

2080

Qaro zulfing ila o'ynashda yo'q sud,
Bu kecha men bilan o'ynash, qo'lim tut.

Etishdim jonga, darmonimni bergil,
Olibdiren, menga jonimni bergil.

Shirinsaen jondanam, ey chashmayi no'sh,
Ne bo'lgay senga jon deb ochsam og'ush!

O'pib la'ling, yana poyingni o'psam,
Shirindir menga har joyingni o'psam.

Magar jisming shirin, joning shirindir,
Bekorga ermas ul noming Shiringdir!

2085

Bu shodlik senga xushdir, bo'lma g'amgin,
Shirindirsanki, erding muncha shirin".

Shirinning Xusravga javobi

Shakarlab dedikim: "Ahdingni buzma,
Tazarru qil, vafodin dilni uzma.

Vafosizlik emasdir shohga loyiq,
Yomon ishdin yomonlik kelgay ortiq.

U suvni so'rma, obro'yim to'kar ul,
U koming so'rmakim, xanjar chekar ul.

Bu ko'nghim ishqdin ayru munis erdi,
Chu ishq keldi anga, ne qilgay endi?

2090

Tilarmen ishqdin ovoza qilsam,
Senga zavqi safoni toza qilsam.

O'zi birlan kishi nard o'ynamas hech,
Sevinch, shodlikda bo'lmas ertayu kech.

Jahonning yarmi ersa shodkomlig',
YAna yarmi hamisha yaxshinomlig'.

Ne hojat no'sh etish bu tiyra jomni
Va badnom aylamak bu ikki nomni.

Na xush shapmu hayoli banda bo'lsak,
Xudo oldida ham o'zin uyalsak.

2095

Xotin yiqmoq asl erlarga ishmas,
O'zingni yiq, agar ersang zabardast.

Daraxtdirmen, shakardek meva menda,
Chu halvo boru ham jullob unda.⁷⁹

Qanoat aylagil jullobga avval,
Shirin halvo eyishga shoshmagil sal.

Ichib sharbatni kut, halvo kelur so'ng,
Ki avval sharbatu halvo bo'lur so'ng.

Magarki og'zimiz andoq shakarvor,
Xo'ziston sori qo'l cho'zmoq ne darkor?

2100

Ziloliy suv magar har nechakim xush,
So'nar andin mudom har erda otash.

Boshingdin oshsa suv, etgay ziyoni,
O'zi garchi tiriklik oshiyoni.

Ko'ngil gar sen kabi jononni sevmas,
Ko'ngil ermish o'shalkim jonni sevmas.

Eyilsa gar isitma chog'i halvo,
Kelur boshingga andin dardu safro".

⁷⁹ Jullob – gulob bilanqand sharbatiaralashmasi.

Xusravning Shiringa yalinib yolvorgani

Shahanshoh ko`rdikim, ish bo`yla xomdir,
Tili "yo`q" deydi, ammo ko`ngli romdir.

2105 Dedi Shiringa: "Ey mohi jahontob,
Itob et noz ila, oshiq berar tob.

Savob ermasmi, rahmu shafqat etsang,
Zarurat chog`i menga qo`l uzatsang?

Yugurdim, toki tutgaymen qo`lingdin,
Qo`lingdin tutdimu yurdim yo`lingdin.

Ne bo`ldi? Boylanib zulfingga ko`ngil,
Bugun qo`ldin beribmen o`zni butkul.

Demasmen, ahdu paymoningni sindir,
Xumorim necha bo`sa birla qondir.

2110 Asiring va`da birla aylagil shod,
Muborak murdani ham bo`yla ozod.

Guli vasling ila to`ldir quchog`im,
Aritgil bir yo`la dardu firog`im.

Gulingdin to`gulobolud bo`lsam,⁸⁰
Guliston atridin xushnud bo`lsam.

Ki sen sarmastsenu ilkimda zulfing,
Ko`ngil xushdir ko`rib har lahza kulging.

⁸⁰ Gulobolud – gulobga yo`g`rilgan.

Ichib may sen ila mastmen, nigorim,
Boqib chehrangga to'ymasmen, nigorim.

2115 Na xush, zarrin kamar taqсам belingga,
Dilim shod, etsa ilkim kokilingga.

Ketar bo'lsang, chu mo'hra ul ilondin,
Men unda guldin ayru, sen tikondin.

Agar dardisarim bezdirsa, yohu,
Men unda boshdanu sen darddin ayru.

Mening jonimni yoq, g'am-tashvishim yo'q,
Ki sendin yaxshiroq bir otashim yo'q.

Menga yo'q ersa sendek yori dilkash,
Dilim bo'lgay, vale dil bo'lmagay xush.

2120 Ko'zim sendin bo'lakka boqsa, ey gul,
Ko'zim bo'lgay, vale ko'z bo'lmagay ul.

Agar jon bursa sendin yuzni, gulyuz,
Ko'rar to'yu nikoh uyquda yolg'iz.

Aroga tushsa so'ngra bir tugun, hay,
Soching zanjiri bizga elchi bo'lgay".

Necha bir qissa aytib, ufladi shoh,
Sanam sochin silab, so'ng uxladi shoh.

Tong otgani

Falak ul jomi yoqutdin to'kib qut,
Etardi qatradin tuproqni yoqut.

2125 Ko'tardi kosani shoh ilkida dast,
Hamon ichgan mayidin erdi sarmast.

Yopishgan erdi savdo domaniga,
Tutashgan erdi otash xirmaniga.

Havo issiq ediyu otashi tez
Quruq o't-maysadin etmasdi parhez.

Sanamni bag'riga shoh bosdi andoq,
O'ralgay shohi, atlas taxtga shundoq.

Shirin chiqdi arang iskanjasidan,
Qutuldi ohu asrlon panjasidan.

2130 Chu ko'rdi shohda bo'yla beqarorlik,
Dedi: shoh, etma ortiq sharmsorlik.

Nechuk sudu samar senga bu ishdin,
Meni dog'i malomatga qo'yishdin?

Oshib-toshmoqliging yaxshi emas ul,
Ochilsa oshiqib xushbo' emas gul.

Ko'paytsa gapni har gal xo'ja, illo,
Qaroli aylamas so'ziga parvo.

Qaroga so'z desang bisyor, qotar bet,
Siyosat aylagil yoki sukut et.

2135

Magar podshoning oqsoq ersa oti,
Mashaqqat birla etgaydir murodi.

Faqirlik boqsa senga har teshikdin,
Muroding sudralib kirgay eshikdin.

Kishi hushyor bo'lolmas tongmidir, shom,
Oyog'ida g'ul ersa. ilkida jom.

Yo'qotgan davlatingni qo'lga ol sen,
Meni qo'y, har nafas yoningdaman men.

Hushim yo'qdir bedavlatlikka aslo,
Tilarmen menga davlat bo'lsa hamroh.

2140

Magar davlatga do'st ersam talabgor,
Senga jonim nisor etgaymen, ey yor!

Etib davlatga dilni ayla xushnud,
Muborak kunda topgansen tavallud.

Chu avval baxt, keyin kom izlamakdir,
Topib ganj, so'ngra orom izlamakdir.

Sabr birlan o'shal koming etishgay,
Va oromda diloroming etishgay.

Magar til gohi so'zdir, ko'z gahi nur,
Uzum avval kelur, so'ngra sharob ul.

2145

Shoshib ish etmagilki, yaxshi ermas,
Ki yolg'iz don ila eski semirmas.

CHunon ovoralikda bormi maylim,
Ki shohga aylasam men o'zni taslim?

Umrdoqing bo'lib, senga esam yor,
Men ul yormanki, har ishda madadkor.

O'shal podsholigingni qo'lga ol sen,
CHu davlat yor esa, yoring bo'lay men.

Menim-la bunda etsang oshnolik,
Ketar unda qo'lingdin podsholik.

2150 Desang gar boz bo'lay shohlikka payvast,
Meni tark etmaging lozim erur, bas.

Jahon nasling uchun mulki qadimdir,
Chu bersang o'zgaga, aybi azimdir.

Jahon olgay o'shal, jahj etsa asru,
Jahongirlikda yo'q sabru tavaqquf.

Har ishda yaxshidir rohatsarolik,
Vale rohatda kechmas podsholik.

Jahondorlarni sen keltir nazarga,
Say'yu g'ayrat-la etmishlar samarga.

2155 Kamoli navqiron sen, sheru shoh sen,
Maliki tojdor, sohibkuloh sen.

Bu yurtni fitnadin poku omon et,
Ne yuksak qudrating bordir, ayon et.

O'shal hinduki raxtingni olibdir,⁸¹
Muborak toju taxtingni olibdir.

⁸¹ Raxt – bor-bisot ma'nosida.

Qilich birlan ravonin jismidin uz,
G'animning hiyla-nayrang tilsimin buz.

Chu shohlar ilkida, gar istasa kom,
Gahi shamshir bo'lgay, gohida jom.

2160 Sen olmos shamshiringni shaylagan dam,
Jahon lashkarlari hozir bo'lur, jam.

Kamar boylab falak maydonga boshlar,
Otar ul dushmaning boshiga toshlar.

Manam jang aylagum, hech bo'lmaganda,
Duogo'ying bo'lib turgaymen unda...

Xusrav Shiringa "xayr" deb yo'lga tushgani

Bu so'zlar o't bo'lib bag'riga singdi,
G'azabga to'ldi shoh, Shabdizga mindi.

Qahr birlan dedi: "Ketdim, xayr-xo'sh!
Yo'linda uchrasa daryomi, otash.

2165 Xudo shohidki, otashdin kecharmeh,
Kechib daryoni ham, andin icharmeh.

Men endi tinch yotib, uxlarmidim hech,
Menga uyqu haromdir ertayu kech.

Qo'porgum shu zaminni, ko'kka otgum,
Magar tog' bo'lsa ham urgum, ushatgum.

Boshim ko'rmas o'shal bolishu bolin,
Agar filman, magar filmas safolin.

Eshak tom uzra gar nodonligimdin,
Tushirgaymen uni donoligimdin.

2170 Yasab, yashnatganim bir ko'za erdi,
Urrib erga, uni sindirgum endi.

Bo'lib qahrini bugun jonimga payvast,
Olovga yonmog'imdin berdi chun dars.

Sening ishqing boshimdin oldi tojim,
Boshimni olsa ham, nedir ilojim?

Bu savdoying boshimga kelmas erdi,
Boshim ul tojidan ayrilmas erdi.

Solib boshimga sen boshda kamandni,
Asir etgan eding, echding bu bandni.

2175 Chu avval may berib, mast aylading sen,
Keyin qo'lu oyog'im boylading sen.

Mast erdim, nogahon dedingki, turgil,
G'animlar qasdiga mardona yurgil!

G'animlar qasdiga yurgaymen, illo,
Vale shu dandakim tark ayladim, choh.

Base azm ayladim, qo'ygum qadamni,
Kechirtirmay etarmen bu amalni.

Shu aytgan so'zlaring yodimda turgay,
Etarmen jahdu jahd, ne bo'lsa bo'lgay!

2180 Ne erdi holim, ogoh aylading sen,
So'zingni qisqa, ko'toh aylading sen.

Men avval bir humoyunbaxt erdim,
Ajab sultoni toju taxt erdim.

Meni ishqing ila ovora qilding,
Bu yanglig' miskinu bechora qilding.

Yo'q ersa, bo'ylakim kuygaymidim men,
Bu tuproqqa qadam qo'ygaymidim men?

Manim-la xush kechirding subhu shomlar,
So'zing boldin shirin erdi u damlar.

2185 Tutim mendin darig' shu damda mehring.
CHu lozim erdiki, dastur berding.

Men ishdin ermas erdim jilla g'ofil,
Magar mehmon emasdim g'ayru baddil.⁸²

Ki berding menga sufrangdin nasibam,
Ketar chog'im yana bir xalta non han".

Shu so'zlarni dedi, otga o'tirdi,
Sipohni Gilakon soriga surdi.

Shirinning yodi birlan yona-yona,
Surib ot, Rum sari bo'ldi ravona.

2190 Boshimga tushmagay deb tashvishi toj,
Bu yo'lda kiymadi ul boshiga toj.

Chu Bahrom xavf solardi o'ngu so'lda,
Shu bois shoh jadallab yurdi yo'lda.

⁸² Baddil – ichqora.

Tagida to'rt qanotli burgut erdi,
Belida ajdaho shamshir, o't erdi.

Chu ruhbon sori yurdi kecha-kunduz,
Bo'lib hamrohi ko'kda necha yulduz.

Etib rohibga chun bo'ldi talabgor,
Ki ul asrori g'aybni etdi oshkor.

2195 Ko'ziga rohi davlatni yoritdi,
Saboq aylab necha bir hikmat aytdi.

Keyin dengiz bo'yi, sohilni bo'ylab,
Qo'sh otda yurdi Xusrav necha millab.

Keyin Qustantaniya bo'ldi manzil,
Etishdi bo'yla Qaysar shahriga ul.

Chu Rum shahriga shoh xushhol etishdi,
Azimulrunga andin fol etishdi.

Anga yuz ochdi iqbol, so'yladi roz,
Madadkor bo'ldi tole', chiqdi peshvoz.

2200 Chu Qaysar ko'rdi, eshikdin kelur baxt,
Hamono taslim etdi toj ila taxt.

Ki shohdin qavmi Iso xursand erdi,
Anga Qaysar qizi Maryamni berdi.

Qilib shohona to'y xursandu shodon,
Etildi o'rtada ko'p ahdu paymon.

Keyin kelin-kuyovdin aylab izhor,
Butun Rum xalqini etdi xabardor.

Niyotus birla lashkar tuzganidin,
Etib orasta, safga tizganidin –

2205 Demasmen, o'zga bir shoir demish ul,
Men uyg'oq ersam endi, uxlamish ul.

Birovning qiymatin gar aylasam past,
Mening ham qiymatimni past etar kas.

**Xusrav Bahromga qarshi qo'shin tortib,
zafar qozongani**

Necha kun aysh etib, gul hidladi shoh.
Keyin yordamga lashkar istadi shoh.

Olib zar, ishni Qaysar ayladi zar,
Berib shohga sanoqsiz, katta lashkar.

Chu qo'shin qo'zg'alib, shoh erdi boshda,
Yurib dashtu biyobon, tog'u toshda.

2210 Qo'shin ernas, temir tog' tebranardi,
Zamin ham baski andoq tebranardi.

Necha minglab bahodir erdi safda,
Yalangto'sh jangchi, botir erdi safda.

Shabexun urdi, etdi so'yi Bahrom,
Sovutni to'n etib, qalpog'ini jom.

Xabardor bo'ldi Bahromi jahongir,
Magar tashlandi ohu ustiga sher.

Vale baxt tulkilik etgan bu joyda
Jahongirliгу sherlikdin ne foyda?

2215

Hamono ikki lashkar tortdilar saf,
Chekib tig', bir-birovni etgali daf.

Keyin jang eru ko'kka larza soldi.
Arslon birla filga vahma soldi.

O'liklar bo'ldilar qo'rquvda sarxush,
Tiriklar dovdirab, tark ayladi xush.

Chu tulporlarda otashdin edi na'l,
Egar-jabduqlari qondin edi la'l.

Tutib kishnashlari ul so'lu sog'in,
Batang aylar edi erning qulog'in.

2220

Suvoriylartig'i chaqmoq chaqardi,
Arslonlar arslonni yiqardi.

Chovut solgaydi o'qlar jonga yaksar,
O'yin erdi uning oldida mahshar,

Teshardi nayzalar tanni shu onda,
Qiyomat ko'pmish erdi bor jahonda.

Bo'lib ul nayzalardin boshda o'rmon,
Qochishga da'vat aylar erdi har on.

Bu o'rmonda qulon sherdin qutulmas,
Keyin sher tig'i shamshirdin qutulmas.

2225

Teshar sovutni o'qlar bukmayin bel,
Magar gulpardaga kirgan kabi el.

Kezib burgutlar ul maydon havosin.
Berardi bori kalxatlar jazosin.

Zirehburlar zahardin suv berardi,⁸³
Zirehpo'shlarga tin, uyqu berardi.

Etib qon mavji toki avji Ayyuq,
Bo'yanmish erdi xunga qubbayi tug'.

Shikasta nayzalarning motami-chun
Yalovlarning sabo yozmishdi sochin.

2230 Kesik bosh necha erlarga yutib qon,
Zamin yoqa, etak yirtardi osmon.

Ulami baski tishlatmish edi er,
Birin shamshir, birini zaxmi shamshir.

O'shal turklar kabi, karnaylari ham,
Suron solgay edi olamga har dam.

Havoni ol yalovlar tutmish erdi,
Qamishzorga magar o't ketmish erdi.

Qilichlar qon to'kar, andoq shitobi,
Misoli toshu qumdek yo'q hisobi.

2235 Yog'ardi boshlar uzra o'qlar andoq,
To'kilgandek xazon faslida yaproq.

Qilichlardin o'rab atrofin ongoh,
Qaror tutmish edi fil ustida shoh.

⁸³ Zirehbur – sovutni kesuvchi.

Buzurgummidki, usturlobi qo'lda,
Qulay fursatni poylar erdi shunda.

Kutardi, har nafas hushyor tikib ko'z,
Qachon bo'lgay muxolif hammasi sust?

Etib fursat, dedi ul shohga: "Qo'zg'ol!
Muborak toleing soriga yo'l ol!

2240 G'azabni ayla zarbingga safarbar,
Yiqib dushmanni, bo'lgaysen muzaffar!"

G'azabdin yondi, shoh qoni ko'pirdi,
Chu Nildek toshdi, Bahrom sori yurdi.

Etib, pilpoyini boshiga soldi⁸⁴
O'shal filtanni fil ostiga oldi.

Qorishdi erga ul xasmi jahonso'z,
Muzaffar bo'ldi Xusrav jangda, piruz.

Ariqlarda bo'lib suvdek ravonlar,
Oqizdi necha bir boshlarni qonlar.

2245 Ki rumiyalar kamandi misli zanjir,
Chu zanjiiy sochidek erdi girehgir.⁸⁵

Ko'rinsa kimsa hindu tig'i birlan.
Hamono uzdilar boshini tandin.

Qaro kunlarga bahromiy etishdi,
Chu go'yo nurga sarmsomiy etishdi.⁸⁶

⁸⁴ Pilpoy – katta cho'qimor.

⁸⁵ Girehgir – tugun-tugun.

Omon qoldi faqat, garchi shikasta,
U Bahromu yana bir necha xasta.

Demishdi: bormi men Bahromi zo'rdek?
Jahon yiqdi uni Bahromi Go'rdek!

2250 O'zining suratiga boshin egdi,
O'ziga chun o'zining ko'zi tegdi...

Necha ko'rdimki, kimsa xudparastdir,
Yiqilgay oqibat, iqboli pastdir.

Chu Xusravdin o'girdi yuzni Bahrom,
Va dushman bo'ldi unga komu nokom.

Jahon xirmon yoqishga ustadir, bas,
U nayrangbozga nayrang o'rgatilmas.

Nechuk sarv, baxsh etib unga balandlik,
Va oxir bermamishdir dardmandlik?

2255 Chamanda yashnatib avval qizil gul,
Qachon so'ng etnamishdir za'faron ul?

Shirin bo'lmaydi senga barcha luqma,
Sharob ham gohi sofdir, gohi quyqa.

Sevinchu g'am sira qo'ymas taloshni,
Ezarlar goh oyoq, gohida toshni.

Magar bir yoqda mutrib yangratar soz,
Bo'lak yoqda g'amu motamdin ovoz.

⁹⁶ Sarsomiy – meningit Bu kasalga duchor bo'lganlar yorug'likni xush ko'rishmaydi.

Bu ovozkim, sevinch, g'am erdi unda,
Ko'rarsen shu jahonda ayni kunda.

2260

Bu tandirda mudom otash va kuldir,
Uni xobi tikan, xoh gulga to'ldir.

Jahonkim yo'l bosar chun zotli chavkar,
Egaysen tepkisin bir kun muqarrar.

Yashil tulpor erur ul charxi cholok,
Yo'lidin qochsa yaxshi aqlu idrok.

Uning bir kimsadin yo'q oshnosi,
Yana hech kimsaga yo'qdir vafosi.

Chu Bahromi Cho'bindin burdi yuz baxt,
Qolib Xusravga ham shamshiru ham taxt.

2265

Qochib Chun sori ketdi benavo ul,
Qazodin kelsa har neki, sazo ul.

Faqat ul ko'rmamishdi g'ussayu g'am.
O'yinlar ko'rdi ko'p shu sahni olam...

Xusravning ikkinchi bor taxtga o'ttirgani

Chu oy burjidan ochdi yangi oy yuz,
Va shohlik burjidan ul mohi Parviz.

Savr-la Zuhra, Xarchang birla Birjis⁸⁷
Kesishdi, bu saodaterdi yolg'iz.

⁸⁷ Birjis – Yupiter.

Hamal pargoridin Xurshidi manzur
Boqib, Dalv burjidan topdi Zuhul nur.

2270

Atorud joyi erdi burji Javzo,
Boqib, Mirrixni aylardi tamosho.

Zanab tutmishdi Mirrixni kamandda,
Zuhul ko'ziga Ros bo'lmishdi banda.

Kulib tole' ishorat etdi baxtga,
Shahanshoh ul zamon o'ltirdi taxtga.

Ayirdi oq-qarolikni tamomi,
Ketib mag'ribu mashriq sori nomi.

Chu davlat ishlari tartibga keldi,
Kuchida kuch edi, qudrat qo'shildi.

2275

Etishdi taxti to avji Surayyo,
Yana ganjida gavhar, durri daryo.

Guharlar bor edi unda jahontob,
Ki porlar erdi tunda misli mahtob.

O'tirdi taxt uza sherdek bahodir,
"Muborak!" deb kelishdi qancha botir.

Jahon ahlini xurram etdi yaksar,
Yog'ildi har tarafdin ofarinlar.

Taratdi shu'lasin ravshanjanobi,
Xurosonni yoritdi oftobi.

2280

Duolar qildilar Xusravni har on,
Marvdin Balxgacha xalq shodu xandon.

Agarchi farrux etdi taxt ila toj,
Shirin aylar edi sabrini toroj.

Na qayg'u ul ko'ngildin ketgay erdi,
Na ko'ngil ul pariga etgay erdi.

Bo'lib jufti haloli endi Maryam,
Iso qavmiga bo'lmishdi mukarram.

Agarchi shohligu ganj erdi unda,
Shirindin ayriliq ranj erdi unda.

2285 Demam, ayshu tarab etmasdi ul, bas,
Tarab aylardi, lekin dildan ermas.

Gahi sozu sadodin izlab orom,
Gahi ko'z yoshin aylar bodayi jom.

Gahi derdi: "Ko'ngil, muncha adosen,
Magar oshiqmisen yo podshosen?"

Qovushmas bir-biriga ishqu davlat,
Birini tanlagil, et jonga ulfat.

Demish qoplonga sher: "Eshshakka imkon –
Xo'tik tuqqay, ketar yo so'yi Zangon..."

2290 Agar bo'lsaydi yorim, davlatim ham,
Bu shohlikdin bo'lardim shodu xurram.

O'shal yuz mulki Xo'tanni netarmen?
Nigorim tola mo'yiga sotarmen.

O'shal tun menga hamdam erdi dildor,
Ajab, baxtim edi boshimda bedor.

Chu baxtim uxladi, bedor bo'ldim,
O'shandin bedilu beyor bo'ldim.

Qani ul damba-dam majlis qurishlar,
Bihishtdek bog'da shodon o'ltirishlar?

2295

Parivashlar-la no'sh etgan u chog'da,
Parivashlar shahanshoi quchoqda.

Qani Shirinu ul shirinzabonlik,
Shirinlikda chu obi zindagonlik?

Qani ul ayshu tunni tongga tutmak,
Sahardin to sahar afsonap aytmak?

Qani ul toza gulbarga shakarbor,
Shakar bermishdi menga necha bir bor?

Qani iffatki, qo'rg' oshin hisori,
Bilakning zo'ridir siymin amori?⁸⁸

2300

Gahi guldek surib yuzlarga yuzni,
Silab kokilni, shodon etmak o'zni?

Gahi mastlik-la sindirmoq xumorni,
Gahi og'ushga tortmoq ul nigorni?

Gahi may ichmagim chun xuni badxoh,
Gahi maskan menga ul masnadi moh?

Bu gaplar xotiram, aqlu hushimda,
Xayolmi yoki ko'rgandim tushimda?

⁸⁸ Imor yoki amor – taxti ravon.

Menga derlarki, kul monandi xurshid,
Ki anduh joyi ermas joyi Jamshid.

2305 Nechuk og'zim mening kulguga to'lgay,
Ki unda ohu zor yo xanda bo'lgay?

Bu holimdin etay men kimga faryod,
Bahorim bitdi elda sovrilib bot.

Xayolim nojavonmardlikdin har kun
Malomat yog'dirib, bag'rim etar xun.

G'animsizlik magar mo'l etdi ganjim,
Vale yorsizligimdin ortdi ranjim.

Men ul qushmanki. qayg'u ichra nokom,
Yasat bir xonada bo'ynimdadir dom.

2310 Nechuk sayr aylagum bog'u chamanda,
Oyog'im bo'lsa gar zarrin kishanda?

O'shal bandimni na echmoqqa imkon,
Na ul bandim ila uchmoqqa imkon.

Birovning dardida qaddim bukarmen,
Birovlar dardini qandoq chekarmen?

Boshimda bo'lsa hamki yuzta g'amxor,
Ne sudandin, boshimda yuz g'amim bor.

Eshak olgach, o'zinga yukni ortsam.
Mening holimga kulmasmi eshak ham?

2315 Samoda oyu oftob birlasharkan,
Kunu tun aylagay olamni ravshan.

Ko'ngil xohishiga etmas esa ul,
Parishondir faqat, aftoda, benur.

Samo yulduzlari – rayhoni bog'dir,
Chu bir-birdin yiroq, noqis charog'dir.

Surar uchqunni o'zdin partavi sham,
Parokanda ular, lek nuridir jam.

Ko'ngil der: toj ila taxt istamasmen,
O'zimga chun mashaqqat istamasmen.

2320

Qaro tun bosdi kunduz ravshaninni,
Harorat yoqdi bu bemor tanimni.

Chayon iniga sichqon sig'madi, boq,
Supurgi boyladi dumiga axmoq!

Qaro erdi magar zanjijda diydor,
Qizardi yuzlari bo'lganda bemor..."

G'azab birlan keyin bong urdi ul, bas
Ki davlatga bu raftor joiz ermas!

Shu davlat borki, ul baxtingda orom,
Shu bois sipqarur jonona ham jom.

2325

Shu davlat borki, sendek mo'htaram yo'q,
Jahonga senga hech hukmu hakam yo'q.

Bedavla kimsa aslo kom topolmas,
Falak andin ziyoda nom topolmas.

Murodga etkazur insonni davlat,
Don ersa, qush kelur domingga albat.

— — — — —
— — — — —
— — — — —

Chu bug'doy eksang ul senga tiriklik,
Giyoh o'sgay aroda necha turlik.

Yog'ilgay nur davlatdin, unutma,
Xudoyo, bizni hech bedavlat etma!"

2330 Diliga so'yladi afsonalar ul,
CHu ishq keldi, qani sabru qani dil?

Sabr qildi, g'am etsa beomonlik,
Sabrdin topdi oxir shodmonlik.

Xusrav hajrida Shirin nola chekkani

Yana daftarga darj etdi suxansanj,⁸⁹
Yana so'z ustida chekdi alam, ranj.

Ki Xusrav ketdi, unda qoldi Shirin,
Tanu joni havasda, ko'ngli g'amgin.

Bodomdek ko'zlaridin oqdi gulsuv,
Sochildi chun guli bodomga inju.

2335 Pichoq ostida qo'y bergan kabi jon,
Oyog'u qo'llarin siltardi har yon.

Tani hijronaro betoqat erdi,
Dili tang erdi, chun berohat erdi.

Sovurmishdi sog'inchi xirmonini,
Ko'zining yoshi tutmish domanini.

⁸⁹ Suxansanj – suxandon, so'z ustasi.

Qaro zulfi yo'qotmish erdi orom,
Misoli qush edikim, bo'ynida dom.

Ajabki, yig'latib yor ishtiyog'i,
Ko'zi durriga to'lmishdi quchog'i.

2340

Gahi mastdek yiqilgay erdi yo'lda,
Chidolmay goh urardi qo'lni qo'lga.

Hamisha otash erdi bag'rida jam,
Tutun erdi yana boshida har dam.

Kshngil ketgan tomon dud ketsa shoyad,
Birovning boshiga yoprilsa shoyad.

Ko'zidin rishtayi gavhar uzardi,
Va kiprik-rishtaga gavhar tizardi.

Havaslar birla to'lmishdi dimog'i,
Mudom bedor edi chashmi charog'i.

2345

Mudom og'zi quruq, lablar yunuqdi,
Ishi gavhar to'kishdin o'zga yo'qdi.

Sihisarvi terakbarg erdi, larzon,
Ki andin nofa kosid, nifa arzon.

Yiqildi bir zamon ul erga g'amnok,
Chu mushkin bo'ldi mushkin sochidin xok.

Va bir nasrin kabi so'ng soldi tirnoq,
Shu yanglig' lola ko'ksin ayladi dog'.

Shahi shakkarga bodomdin urib suv,
Gahi chaynar edi unnobu funduq.

2350

Gahi koptok kabi har yon chopardi,
Gahi chavgon, bukilgancha yotardi.

Ko'zi o'shr yoshidin tark aylamish xob,
Va lekin lolani etmishdi serob.

Daraxt erdiki, misli gunbazi nur,
Yonardi o'ylakim suv ichra kovur.

Bahor erdiki, toza, misli mahtob,
Turardi tovlanib chun erda simob.

Shabexun urdi g'am ko'ngil rahiga,
Shikast etdi ko'ngil lashkargahiga.

2355

Pusib poyloqda anduhlar turishdi,
Sabr posbonlarini sindirishdi.

Jigarning qa'ridin to qalbi siyna,
Talandi har necha ganju xazina.

Gahio'zni aroding olgay erdi,
Gahi xizmatga belni boylar erdi.

Gahi nafrat-la dilni yod etardi,
Gahi oshiq ko'ngil faryod etardi.

Gahi baxtiga derdi: "Ey sitamkor,
Qachon bundoq yomonlik etganing bor?"

2360

Muroding chiqmish erdi chun yo'lingdin,
Qo'lingga oldingu berding qo'lingdin.

Oyog'ing botdi ganjga nogahoniy,
Pisand etmay, sovurding, sochding oni.

Bahor keldi, chamanga eshik ochding,
Uzib gulni, tikonin dilga sanchding.

Jahondin bir charog' bo'lmishdi tortiq,
O'zing puflab o'chirding, so'ndi ortiq.

Tiriklik chashmasiga qo'l cho'zib, hay,
Yashirdi o'zni suv, qolding icholmay.

2365

Ajab oshxona, unda otash erdi,
Ki andin har zamon ko'ngil xush erdi.

O'shal otashdin endi burqirar dud,
Pushaymonlik chekishdin bormidir sud?"

Gahi dilga surushi osmonliq
Tushib, derdi: toparsen komronliq!

Gahi devi havas avrardi qattiq,
Ki shohning ortidin bor, kutma ortiq...

Tunu kunlarni g'am ichra kechirdi
Va oxir kemasin qirg'oqqa burdi.

2370

Tushib qirg'oqqa, chun hajru firoqqa.
Base xorlik chekib turdi oyoqqa.

Mehinbonu sari etdi guzar ul,
Anga shoh koridin etdi xabar ul.

Eshitdi Bonu, etdi mehrin izhor,
O'git aylab, nasihat qildi bisyor.

Dedi: "Sabr aylagaysen necha bir kun,
Kishi qolmas abad g'am ichra tutqun.

Shitob etma chiroy ochmoqqa gulday,
Magar suv toshsa, ul ko`prikni buzgay.

2375

Yiqilmoq, turmoq uzra ish bitar naqd,
Yiqilgan kimsa borki, turgay albat.

Urug' to aynimas, chiqmas er uzra,
Tugun ersa, echilgay senga so'ngra.

Muroding yaxshi kechroq bersa uldast,
Damo-dam ichsa odam tez bo'lur mast.

Yo'lingda oshiqib, tez yurma zinhor,
Ki andoq tez yurishdin toliqish bor.

Ko'targan ersa bir qop yukni eshak,
Ko'targay bir yarim qop yukni beshak.

2380

Bulut avval bo'g'ar ersa havoni,
To'kib ko'z yoshi, so'ng ochgay samoni.

Mashaqqatlarga birdosh aylagil, chun
Kishi bilgaymu erta ne kechar kun?

Base Xusrav yo'lida ranju xorlik,
Mashaqqat tushdi senga, intizorlik.

Magar naf ko'rmading, lekin ziyon ham,
Eyilmas yaxnidin ko'ngilga ne g'am?

Kelur vaqt, suv kelur toshqin bo'lib, bas,
Ishing andoq mashaqqat ichra qolmas.

2385

Kelur ul yaxshi kun, kesma umiding,
O'shanda qulfni ochgaydir kaliding.

Ko'ringay senga goh ko'k, gohi zangor,
Vale unda sariq, ol atlasing bor.

Ko'rarsen necha durjo chang ichingda,⁹⁰
Topilgay yoqutu firuza unda..."

Mehinbonu shu yanglig' so'yladi bot,
Tasalli topdi andin ul parizod.

Yana Shiringa Shopuri xiradmand
Tasalli berdi necha nuqta birlan.

2390 Dilni sabru chidamga band etishdi
Va Xusrav yodi-la xursand etishdi.

Mehinbonu Shiringa vasiyat etgani

Mehinbonu mehr ko'rsatdi har on,
Ki to o'ksinmagay ul mohi tobon.

Chaqirdi bir kuni xilvatga yolg'iz,
Dedikim, tun yaqin, kechmoqda kunduz.

Borib, ganjlar kalitin shu zamon ol,
Ajal boshindadir, menga quloq sol.

Butun a'zoyi tanga kirdi sustlik,
Kasallik keldi, ketdi tandurustlik".

2395 Chekib dard necha kun so'ng yotdi Bonu,
Tani jondin, jahondin to'ydi joni.

⁹⁰ Durjo – dur saqlanadigan sandiqcha.

Xudoga taslim etdi so'ngra jonin,
Shiringa baxsh etib jonu jahonin.

Qarolik qahriga oftobi ketdi,
Tanini taxtdin tuproqqa eltdi...

Shu bo'lgay oqibat har neki borga,
Xazon ayyomi yoprilgay bahorga.

Chu bormi shishakim, berguvchi bardosh,
Ki oxir-oqibat sindirmagay tosh?

2400 Fig'on, bu charx ishim hiylasozlik,
Gahi shisha yasar, goh shishabozlik.

Asalari asal jam etgay avval,
Keyin o'zi emoqqa boshlar har gal.

Omonat u taningga bo'lma mag'rur,
Ki oxir bir hovuch tuproq erur ul.

Kulohni el uchirsa boshdin, ul dam
Giyoh osudayu sarv qomati xam.

Imoratkim yiqilsa, bo'lsa barbod.
Buzildi, bo'lmagay ul boshqa bunyod.

2405 Bu dunyo to'r erurkim, kechgulikdir,
Magar yong'oq erur, mag'zi chirikdir.

Quyonglar, tulkilarni tinglama hech,
Quyonglik, tulkilik ul ertayu kech.

Necha sheri jayonni, bo'rini, boq,
Yiqitdi tulki makri, etdi tuproq.

Boqib, o'z tajribamdin aytaman to,
Qichiqdir qo'lda bir dam ayshi dunyo.

Qichiq gar qo'lga avval xush tuyulgay,
Keyin ul xush emas, otash tuyulgay.

2410 Agarchi jomi dunyo xushguvordir,⁹¹
Chu boshda mastligu so'ngra xumordir.

O'kinma, g'amga dunyo arzimadir,
Sevinma, bunga aslo arzimadir.

Agar dunyonijam etsang-da, shaksiz,
Egaysan bir qorin to'yguncha yolg'iz.

Gadodirsan va yo bordir xazinang,
Jahonda bir qorin ovqat nasibang.

Salomatlik muyassar ersa senga,
Mashaqqatlar pisand bo'lmaydi tanga.

2415 Mijozingga kasallik etsa, qiynoq,
Qiyindir so'ng salomatlikka qaytmoq.

Agar lablarda ersa no'shxandlik,
Tabiatdin topibdir no'shmandlik.

Umidsizlik etar insonni xomush,
Najot yo'lini ham aylar faromush.

Jahon og'uki, achchiq fe'li ham bor,
Sen ozroq eb, jahondin jonni qutqor.

⁹¹ Xushguvor – yoqimli.

Qabrda qurt kabi sen bo'lma mechkay,
Chumolidek ebon, xizmatga tur shay.

2420 Ziyon yo'q kam eyishdin jonga hargiz,
O'lurlar ko'p eyishdin har kuni yuz.

Haromdir oshu non toroj etmak,
Taningni doriga muhtoj etmak.

Esang noningni misli gulshakarvor,
Emakka gul shakar senga ne darkor?

Eyilmas ersa o't ham yashnagan gul,
Eyilsa, qand, shakar ham aynigay ul.

Tilab dunyo, bezarsen so'ngra andin,
Qocharsen har daqiqa ul yomondin.

2425 G'ami dunyo dilida bo'lmasa, kas
Makoni biz kabi dunyoda bo'lmas.

Bu cho'lni manzil etganlar qolur och,
Hamisha burda nonu suvga muhtoj.

Diling tor etma, ey shaxsi gili tang,
Yomondir ul gili tangu dili tang.

Jahonni chun yomonotliq qilar, bil,
Kishikim shu jahon deb tang etar dil.

Kuningdin qolsa bir kun, g'ama ema, hay,
Xudo razzoq o'zi rizingni bergay.

2430

Falak chun aylagay nomusu nayrang,⁹²
Tunu kundek ola tulpori bor, lang.

Surar tulporlaring ul har sariga,
Biridin tushgayu mingay biriga.

Ato ketgay, dili g'am birla dog'li,
Ato ketsa, qolur o'mida o'g'li.

Birovning qonini gar hindu to'ksa,
Olur andin qasos vorisi bo'lsa.

Ayo farzand, senga loyiqmi shu ish,
Padarkush hinduga etmak navozish?⁹³

2435

Uning ko'ksiga urgil xanjariningni,
Halok etdi necha bobolaringni.

Uzilmas ersa to tori kamonda,
Yurishmas kimsaning ovi jahonda.

Marolning yo'lida sher bo'lsa, ul dam
Oyog'i ostida tig'dir alaf ham.

Yasharsen munchakim tinch, bexavotir,
Ki ortingda shamol, oldinda chohdir.

Ishonma zarra, bu daryoyi xomush
Odamxo'rlikka etganmas faromush.

2440

Jahonning bormidir andoq makoni,
Ki ko'klam ortidin kelmas xazoni?

⁹² Nomus – bu yerda shuhrat, ovoza ma'nosida.

⁹³ Padarkush hindu – dunyo ma'nosida.

Jahonning noni achchiq der eranlar,
O'lur achchiq mudom shirin eganlar.

Kishi ko'ksi hayotda dardu dog'dir,
O'lar chog'ida ul ravshan charog'dir.

Kishikim konidir ko'ksi kadarning.
Qo'lin o'pgay chu guldek gulzorning.

Degay voiz senga: ot xoru xasdek,
Uni yo'ldin olurmen shu zamin lek.

2445 O'shal zohidki, zor, pajmurda bir er,
CHoponingni echib ber, men kiyay der.

Jahonning moliga aslo baqo yo'q.
Bahosi mis chaqa, boshqa baho yo'q.

Ki yo'qlmk yo'lida ozuqadir xok,
Sirishtin sof etar har gavhari pok.

O'lim chog'i degaylar ahli irfon,
Hama yaxshi-yomon bo'lgay namoyon.

Ayollar borki, unda mard, bahodir,
Base erlarki, unda yuz qarodir.

2450 Xudovando, oyoqqa tosh ilashsa,
Kmr kemam borib, girdobga tushsa,

Nizomiy jonini osoyish ayla,
Kechirgil aybini, baxshoyish ayla...

Shirinning podsholik taxtiga o'ltirgani

Chu Shiringa muqarrar bo'ldi shohlik,
Jahonni ayladi ul nurga molik.

Raiyat barchasi shod bo'ldi andin,
Hama mahbuslar ozod bo'ldi andin.

Javrdin bo'ldi forig' ahli olam,
Javr tarkini chun etdi davr ham.

2455 Solinmas bo'ldi har eshikka bosh ul,
Olinmas bo'ldi dehqondin xiroj ul.

Bag'ishlab shahru ko'ylarga safoni,
Chu afzal ko'rdi duyondin duoni.

Kabutar birla lochin etdi suhbat,
Yana qo'y birla bo'ri bo'ldi ulfat.

Yaqindir yo yiroqdir ahli dunyo,
Dedilar dodu diniga tasanno.⁹⁴

Ulusga qut-samar etdi jahondin,
Etishdi o'n boshqoq bir dona dondin.

2460 Niyat pokiza bo'lsa podshoda,
Biyobonda guhar ungay giyohda.

Og'ochda shumniyat ersa, qurir shox,
Dadil bosgay qadamni nekniyat shoh.

⁹⁴ Dod – bu yerda adolat ma'nosida.

Magar kenglikmidir, tanglikmi atrof,
Hama shoh adlidin so'ylab, urar lof.

Yomon kimsa etar shohlik netib ul,
Yomonlik aylagay shohlik etib ul.

Shirin shohdin xabarsiz erdi mutloq,
Dili zeru zabar erdi o'shal chog'.

2465 Qo'lida davlati Kayxusrav erdi,
Borib, sayr aylasam sahroni derdi.

Ko'rib sahroda karvon, yona-yona,
So'rardi shoh Xusravdin nishona.

Chu ogoh bo'ldi, shohi mushtariybaxt,
Ko'tarmish erdin osmon sari taxt.

Sochib el uzra zar, durru guhar ham,
Saxovat rasmini tutmishdi mahkam.

Vale Maryamdin erdi ko'ngli ko'p g'ash,
O'jar ham bag'ri tosh erdi parivash.

2470 Icharmish erdi ul shohga qasamni,
Ki orzu etmagay o'zga sanamni...

Etishdi bu xabar Shiringa achchiq,
Icharkan, bo'ldi chun suv unga achchiq.

Oshib savdoyi ishq, tinchi yo'qoldi,
Yana qayg'u, alamlar ichra qoldi.

Kechib bir yilcha podsholikda holi,
Na qush ozor chekdi, na chumoli.

Ko'zidek ko'ngli ham erdi xumorlik,
Ishida aks etardi intizorlik.

2475 Cho'chirdi, ishq degan qanday balo deb,
Adolat ishida etmay xato deb.

Magar etsam, dedi ul sarvi cholok,
O'zimni saltanat da'vosidin pok.

Keyin tanho o'zim Xusravga borsam,
Borib, Xusrav ila tanho ko'rishsam...

Muhabbat dardiga chun bermadi dosh,
Ki ul oshiq edi besabru bardosh.

Birovga chun chun omonat etdi shohlik,
Chu bezdirgan edi sohibkulohlik.

Shirinning Madoinga kelgani

2480 U yo'lga shayladi Gulgunni ildam,
Anga Shopur edi bu yo'lda hamdam.

Yana bu yo'lda necha sho'xu zebo
Kanizaklarni etdi do'stu hamroh.

Ki har joyda anga yor erdi qizlar,
Azob-rohatda g'aimxor erdi qizlar.

Dinor oldi base, gazmoldin oldi,
Yana har turli chorva moldin oldi.

Ho'kiz, qo'y-qo'zi, otu teva butkul,
Chu daryo erdi tog'u dashtaro ul.

Kelib shoh qasriga chun etdi ra'no,
Cho'zilmish necha mil ortida chorvo.

Sadafga kirdi qayta lo'ʻluyi tar,
Yana baxsh etdi tanni toshga gavhar.

Etishdi huri hinduga xazina,
Urildi gʻam toshiga shisha-siyua.

Tegib durri xushob, tosh bo'ldi so'zon,
Chu mo'ʻbad o'tidek nur sochdi har yon.

Yuzi andin bo'lib xurram bahordek,
Edi otashkada ul lolazordek.

Shirinda munchakim erdi muhabbat,
Havoda ul sabab erdi harorat.

Shahanshoh bildi, chun kelmishdi yodi,
Ko'ngil ummidining kelmish barori.

Vale Maryamdin erdi unda qo'rquv,
Kunu tun Maryam erdi unga o'tru.

Talab etmoqqa chun ruxsat yo'q erdi,
Borib ko'rmakka ham fursat yo'q erdi.

Habar birlan qanoat aylabon shoh,
Sevar yor xoki rohi erdi dilxoh.

Nigori yodi-la har dam yonardi,
Shu otashda ilondek to'lg'anardi.

Bahromi Cho'bin o'limidan Xusrav xabar topgani

Shahanshoi sabohkim taxtga chiqdi,
Sipohi Rum kelib, zanjiyni yiqdi.

Ajab norinj ila Yusuf chiqib chun,
Zulayho oyni sindirdi turunjin.

Ketib ko'kning ko'zidin hiylasozlik,
Jahonga chehra ochdi dilnavozlik.

Yana firuza gunbaz eshik ochdi,
Jahonga yaxshilikdin mujda sochdi.

2500 Zamona ichra yo'q g'avg'oyu faryod,
Zamin osuda, bitmish zulmu bedod.

Chu Xusravga kulib yuz ochdi baxti,
Bezandi ul sababdin toju taxti.

Boshida chodiri kunga etishdi,
Yana bayrog'i gardunga etishdi.

Qoshida Qaysaru Hoqonu Fag'fur,
Egib bosh, turdilar xizmatga hozir.

Yana har joyda bir kursi muhayyo,
Va har kursida o'ltirmishdi bir shoh.

2505 Tarafdorlar saf uzra saf chekishdi,
Boqolmay tikka, erga ko'z tikishdi.

Hama qo'rqardi hoshdin ayrilishdin,
Tiyardi o'zni shohga tik boqishdin.

Kamarbandlarga yoqut erdi, yulduz,
Yonardi yarqirab chun kecha-kunduz.

Kamarbasta bo'lib shu onda yaksar,
Tizilmish erdi maydon ichra lashkar.

Ki vahmi birla otash suv bo'lardi,
Suxan zar ersa, siymobga do'nardi.

2510 Chu Xusrav Parviz unda sohibi taxt,
Javonfarru javontab'u javonbaxt,

Uning atrofida shotirlar erdi.
Kamarbasta hama botirlar erdi.

Sukut saqlab base zarrina pargor,
G'ulomlar erdi misli naqshi devor.

Zamin tazt ostida orom olardi,
Saroydin xosu om payg'om olardi.

Edi tong pallasi, osuda har yon.
Xabarchi kirdi nogoh shodu shodon.

2515 O'pib er dedi: "Shohim, shodmon bo'l,
Jahonda doimo shohi jahon bo'l!

Hamisha senga bo'lsin taxti zarrin,
Yog'och ot mindi ul Bahromi Cho'bin.

Yiqildi ul, qaro tuproqqa kirdi,
Ki dushmanlik etishga ojiz endi".

SHahanshoh bir masal aytib yig'inda,
U Bahrom cho'pidin so'z ochdi shunda.

Zamona bizga cho'p urganda ul dam,
Falak Bahromga cho'p tutdi damodam.

2520

Ochili cho'pimiz ko'rki, chiroyi,
Qoraydi, botdi ul Cho'binning oyi.

Na ul Bahrom, magar Bahromi Go'rdir,
Jahonda so'ng etishgan joyi go'rdir.

Agar Bahromi Go'r tark ayladi dom,
Kelib, ko'ngil yana yuz go'ri Bahrom.

Jahonda to jahon yorlik etardi,
Tamannoyi jahondorlik etardi.

Qani ul sherki, aylab bizga sherlik,
Chu mastdek aylamishdi shergirlik?

2525

Qani ul tig'ki, tanni tikka yorgan,
Jahonni qon ila otashga qorgan?

Baso farzonalarkim erdi sherzod,
Jahon makriga uchdi, bo'ldi barbod.

Baso yosh bo'rilarkim, tulkiyi pir
Sehrlab, soldo so'ng bo'yniga zanjir.

Magar tulki berar bo'riga buyruq,
Ki tulki to'r ko'rgay. bo'ri quyruq.

Base shohlarki, ig'voga uchib ul,
Xusumatga bo'lurlar so'ngra mashg'ul.

2530

Kishikim bo'lsa andoq xomtadbir,
Gumon yo'q, ko'kragidin o'q egaydir.

Kulohingdin g'ururga to'lma aslo,
Kuchingga mastu mag'rur bo'lma aslo.

Magar doim chiroqni yondirar moy,
Vale meyordin oshsa, so'ndirar moy.

Chu tuz birlan taomga kirgusi tot,
Ko'paysa tuz etar ne'matni barbod.

Ema xurmoni ko'p, etgay ziyoni,
Keyin joningga sanchilgay tikoni.

2535 Taomni sen egil etguncha holing,
Mudom hazmi taom bo'lsin haloling.

Bu yo'lda bir muqim darvoza bo'lgay,
G'amu shodlikka ham andoza bo'lgay.

Balanddin izlama rohu ravoqni,
Uzat ko'rpangga mos aylab oyoqni.

Esang daryo, toshib, mavjingdin oshma,
Chu parvoz aylasang, avjingdin oshma.

Va qadringga munosib so'yla, ur lof,
Ki zardo'zlik etolmas bo'riyobof.

2540 Na xush aytinish bu so'zni bir xiradmand:
"Xalilaga xalila, qand ila qand".

Ne hojat yangi deb har narsa qurmoq,
Va eski rasmu odatni emirmoq?

Ekin ekkan kishi ko'rgay samarni,
Men ermas, dona bergay bu xabarni.

Na har bog'da o'sar biz istagan gul,
Na har sozdin kelur dilbar sado ul.

Baso sarhangki, osmish bo'yniga tig',
Qaro er ostida yotgaylar ortiq.

2545

Birovkim qon to'kib ul sherni ovlar,
O'shal qon oqibat haqqini dovlar.

Jahon ablaqsavoru nimzangiy,
Ki mingan oti chavkardir, durangiy.

Hazir bo'l, unda chun fe'li palangdir,
Qachon yakdil bo'lur ul, ikki rangdir?

Sitam davlat rusumida ravomas,
Sitamgarlarga davlat oshnomas.

Somonxonaga eshshak kirsas nogoh,
Eshakkamas, somonga derman "evoh!"

2550

Chivin halqodin aslo yuz burarmu?
Kishi anjir otib, zog' o'ldirarmu?

Yasatma uy birovning zarriga, hay,
Diningga darz tushib, kessang teshilgay.

Hazir bo'l, bu chunon oshufta bozor,
Otar norinjini har yoqqa attor.

Sukut etma boshingga tushsa mushkul,
Zulmni qo'llagay jim turmaging ul.

Eshitdim, bor emish bir mardi dono,
Oyog'i jinnidek zanjirda har goh.

Kichiklar unga tosh otsa agarda,
U toshni irg'itarmish kattalarga.

So'rashdi: "Nega yoshlar aylasa xor,
Etarsen keksalarga ranju ozor?"

Dedi ul: "Keksalar gar kulmas erdi,
Kichiklardin sitamlar kelmas erdi".

Oyoqdin norizo ersa agar qo'l,
Oyoq aybiga boshni mushtlagay ul.

Bu darvesh deb balanddin boqma zinhor,
Uning ham ko'nglida bog'u chaman bor.

Bekitgil, yaxshilar aybiga kulma,
Yomon ko'z birla ayb ko'rguvchi bo'lma.

Yomon ko'z doimo ayb izlagay, dog',
Tovus poyigamas, zog' ko'ziga boq.

So'zingda bir emas, yuz bitta nuqson.
Birovning so'zidin axtarma nuqson.

Ko'rarsen aybing ul gar bitta ko'zdin,
Birovning aybini yuz bitta ko'zdin.

Ayo ayb izlaguvchi shaxs, aybjo'y,
Yuzi qattiq bo'lishni ko'zguga qo'y.

Muruvvat ko'zgudin andoq erur, bas,
Birovdin ul birovgga g'iybat etmas.

Qaro yuz soya yanglig' o'ltirar o'ng,
Chu avval ko'rganin ul so'ylagay so'ng.

G'animga sen kichik deb boqma zinhor,
Kichik dushmandanam engilmog'ing bor.

Ishonma sen quyonga, ulki zarfom,
Chekibdir xanjaringga mardi rassom.

Chu sherlar xanjarin chekkan zamoni,
Quyonlarning to'kilgay qancha qoni.

2570 Ishonma sokin oqqa suvga ham to,
Oqizgaydir seni bir yoqqa nogoh.

Isitgay deb olovga berma ko'ngil,
Yoqib yuz xirmaningni kul qilar ul.

Arslon kulsa, ortiq bo'lma xurram,
Tish ermas, ko'rsatur tig' senga ul dam.

Kishikim o'zni qo'rqmas qahramon der,
Jang aylab sherni yiqsa, nom olur sher.

Xusumat ayladi Xusravga Bahrom,
Shu bois oldi so'ng Xusrav degan nom.

2575 O'zingdin past-la yovlashma, yomondir,
Yiqilsang ham, yiqitsang ham ziyondir.

Ulug' birlan olishsang, ulg'ayarsen,
Kichik birlan talashsang, kichrayarsen.

Nahang dengizda bo'lsa, bo'lmagay kam,
Kichik suvda kichik bo'lgay baliq ham".

Chu Xusrav dard ila so'z aytdi muncha,
Buzurglar to'kdilar ko'z yoshi ancha.

Keyin taxtdin tushib shoh yurdi diltang,
Ko'zidin to'kdi ul ham ashki gulrang.

2580 Chekib ul kuncha g'am yod etdi Bahrom,
Na taxtga chiqdi, na no'sh ayladi jom.

Xusravning bazm oro etgani

Faqat to'rtinchi kun qiyg'os etib boz,
Tuzildi bazmi Jamshid, yangradi soz.

Saxovat eshigini ochdi daryo,
Zamin bo'ldi javohirdin Surayyo.

Shahanshoh bo'ldi shunda may ichib mast,
Shirin dardi edi joniga payvast.

Toping Borbadni deb ul berdi farmon,
Tilardi aylasa dardiga darmon.

Borbadning o'ttiz taronasi

2585 Magar bir bulbuli mast erdi Borbad,
Kirib keldi hamon, ilkida barbat.⁹⁵

Ki yuz ohangni ul sozida jamlab,
Alardin o'ttizin olmishdi tanlab.

Eshitgan kimsa aylar may kabi no'sh,
Gahi dil o'rtar erdi, gah olar hush.

⁹⁵ Barbat – sakkiz torli, udga o'xshash qadimiy cholg'uasbobi.

Chu Borbad urdi ul barbatga noxun,
Taraldi sozidin jon o'rtagich un...

Avval – Ganji bodovard

Shamoldek "Ganji bodovard"ni ochdi,
Shamol har esganida ganj sochdi...

Ikkinchi – ganji gov

2590 Chu "Ganji gov"ni etdi so'ngra og'oz,
Zamin yashnab, ho'kizga etdi pardozi.

Uchinchi – Ganji so'xta

Chu "Ganji so'xta" sori oldi yo'lni,
Ki yuz ganji birla kuydirdi ko'ngilni.

To'rtinchi – Shodirvoni marvorid

Chu "Shodirvoni marvorid" demishdi,
Labi ayturki, marvoridni teshdi.

Beshinchi – Taxti taqdisiy⁹⁶

Chu "Taxti taqdisiy"ga etdi navbat,
Ochildi ko'zlari o'ngida jannat...

⁹⁶ Taxti taqdisiy – Xusravning toqmonand taxti, Faridundan meros.

Oltinchi va yettinchi – Noqusiy va Avrangiy

CHu “Noqusiy” va “Avrangiy” etib soz,
Uni avrang dedi noqisdin ovoz.

Sakkizinchi – Huqqayi Kovus

2595

Magar qand bersa Kovus huqqasidin,
Shakar beshak olurdi bo'sa andin.

To'qqizinchi – Moh bar ko'han

Chu savti “Moh bar ko'han” uchirdi,
Falakdin tog' uza oyni tushirdi.

O'ninchi – Mushkdona

Chalarkan ul navoyi “Mushkdona”,
Xo'tandek atri mushkka to'ldi xona.

O'n birinchi – Oroyishi xurshid

O'shal dam “Ziynati xurshid”ni chaldi,
Quyosh bir oycha andin ziyna oldi.

O'n ikkinchi – Nimro'z

Chalarkan bazm aro ul “Nimro'z”ni
Xirad to tushgacha tark etdi o'zni.

O'n uchinchi – Sabz dar sabz

2600 Navoyi "Sabz dar sabz" soldi larza,
Xazonrez bog' aro bo'y cho'zdi sabza.

O'n to'rtinchi – Qulfi rumiy

Taratdi "Qulfi rumiy" so'ngra ohang,
Ochildi qulfi ganj Rumdin to Zang.

O'n beshinchi – Sarviston

Bo'larkan savti "Sarviston"ga mashg'ul,
Sabo tark etdi sarvistonni bir yil.

O'n oltinchi – Sarvi sahiy

Chalib "Sarvi sahiy"ni etdi mahjub,
Sahiy sarv yozdi qoni birla maktub.

O'n yettinchi – No'shinboda

Chu "No'shinboda"ni so'ng etdi talqin,
Xumori boda butkul sindi andin.

O'n sakkizinchi – Romishi jon

2605 Etarkan "Romishi jon"ni tarona,
Anga jonin fido etdi zamona.

O'n to'qqizinchi – Nozi navro'z

Taratdi "Nozi navro'z" savtidin un,
Ki navruz ochdi yuz davlatga gulgun.

Yigirmanchi – Mushko'ya

Chu "Mushko'ya" navosin so'ngra chaldi,
Saroy sahni ufori mushkka to'ldi.

Yigirma birinchi – Mehrgoni

"Mehrgoni" taratdi soz-kumushdin,
Eshitganlar bari ayrildi hushdin.

Yigirma ikkinchi – Marvoyi nek

Chu "Yaxshi fol" deya ochgan edi fol,
O'shal yil yaxshilikda kechdi xushhol.

Yigirma uchinchi – Shabdiz

2610

Keyin tun og'ushida chaldi "Shabdiz",
Butun borliq oyoqqa turdi ul kez.

Yigirma to'rtinchi – Shabi farruh

"Shabi farruh"ni og'oz ayladi, bas,
U tundin yaxshiroq tun ko'rmadi kas.

Yigirma beshinchi – Farruhro‘z

Navosi so‘ngra “Farruhro‘z” bo‘ldi,
Zamona faruhu firuz bo‘ldi.

Yigirma oltinchi – G‘unchayi kabki dariy

Taratdi “G‘unchayi kabki dariy”ni,
O‘shal tog‘ kakkligi sayrashlarini.

Yigirma yettinchi – Naxchirgon

“Shikorgoh” kuyini so‘ng chaldi boplab,
Asir etdi necha Zuhroni ovlab...

Yigirma sakkizinchi – Kini Siyovush

2615

“Siyovushning qasosi”n chalgan onlar,
Siyovush qoniga g‘arq bo‘ldi jonlar.

Yigirma to‘qqizinchi – Kini Eraj

Chalib “Kini Eraj”ni, chekdi faryod,
Eraj o‘chi jahonni qurshadi bot.

O'ttizinchi – Bog'i Shirin

Chalarkan "Bog'i Shirin"ni jarangdor,
Ki achchiq meva ham bo'ldi shakarbor...

Solib savti navodin jonga larza,
Chalardi shohga Borbad lahza-lahza.

Chu har gal chalgani avvaldin a'lo,
Shahanshoh derdi tinglab: "Ming tasanno!"

2620 Chunon ul aylamishdi rasmu oyin,
Berardi har safar bir xalta oltin.

Yana har pardakim chalgaydi Borbad,
Shahanshoh ganj ila siylardi albat.

Yana har pardada chalgay navoe,
Tegardi shohdin zarrin qaboe.

Tasanno ul tasannogo'ygakim chun,
Tasanno deb berardi durri maknun.

Bizim davronda aytib yuz tasanno,
Magar bir hirqa ham bermaslar hatto.

2625 Mashaqqat ichra ham tut o'zni mag'rur,
Tamahga berma yo'l, boshdin uloqtir.

Tamahdin kech, kelur joningga xushlik,
Chu mendek qatra bo'l, daryoravishlik.

Xazina baxsh etib menga shohga ancha,
Tamah ham etmadim bargi somoncha.

Faqirlik ichra men mardona turdim,
Na u berdi, na men bir narsa so'rdim.

Menga bas ulki, to'ldirdim jahonni,
Solib izmingga shu daryovu konni.

2630 Nizomiy, to'ni zarrin ko'pdir, illo,
Faqir to'ningni tandin echma aslo.

O'shal to'n birla doim sen sarafroz,
Bo'lursen necha bir avlodga ustoz...

**Xusrav Shirinni keltirmak uchun
Maryamdan izn so'ragani**

To'lin oy yuz ochib chiqdi samoga,
Jahonni chulg'adi dilakash jiloga.

Bazmni tun aro tark etdi Xusrav,
Shirin savdosi birla ketdi Xusrav.

Borib, so'z ochdi ul Shirindin ochiq,
Ki andin bo'ldi Maryam koni achchiq.

2635 Jahonshoh mast edi, oldida Maryam,
Dami Isodin unga urdi ul dam.

Dedi: "Shirin uzoqroq turgani xo'b,
Yaramga tuz sepilmas ul zamon xo'p.

Vale bildimki, dushmankom bo'lmish,
Jahonda men sabab badnom bo'lmish.

Shu bois etsam unga mehru shafqat,
Savob bo'lgay senam etsang muruvvat.

Ijozat ber. Shirin qasrimga kelsin,
Kelib, bunda kanizlar birla yursin.

2640 Yuzin ko'rmasmen aslo, ko'rgan onim,
Ko'zingdin o't sochib, kul ayla jonim".

Chu Maryam dedi unga: "Ey jahongir",
Kavokibdir shukuhing, osmongir!

Charog'i olaming boshingda har on,
Falak ham bosh egar qoshingda har on.

Shirindir, nomi gar, keltirganingdin,
Sening koning shirin bo'lgaymi andin?

Shirin halvo kabi qarshingdadir yor,
Sovuq oshni isitmoqlik ne darkor?

2645 Tikansiz ersa xurmo, behtarindir,⁹⁷
Tutunsiz ersa halvo, ko'p shirindir.

Menga hamdam etarsen jodugarni,
Keyin ko'rsatgay ul makru hunarni.

Keyin afsonaga afsona qo'shgay,
Va tannoqlik ila oldinga tushgay.

Sen unga yor bo'lib, hijronda qolgum,
Sen undan rozi, men armonda qolgum.

Uning afsunlarin men ham qilurmen,
O'shal afsonalarni yod bilurmen.

⁹⁷ Behtarin – eng yaxshi.

2650

Xotunlar borki, o'ndin beshni bilmay,
Atonidni sehrlab, yo'ldin urgay.

Xotunlar borki, rayhoni safoldir,
Ichi kir, zohiran sohibjamoldir.

Qidirma behuda, ochunda bo'lmas,
Vafo shamshiru ot, xotunda bo'lmas.

Vafo — mardlik.netar xotunda, yohu,
Kishi xotun desa, andin qo'ling yuv.

Eranlar etdilar ne chorasozlik,
Xotundin kelmadi olamda rostlik.

2655

Xotun chapdin yaralgan deydilar ul,⁹⁸
Ki chapdin o'ngni axtarmoq xatodir.

Ko'ngilni boylama ul bexudoga,
Boshingni qo'ymagil andoq baloga.

Ki g'ayratli esang, bodard bo'lursen,
Chu beg'ayrat esang, nomard bo'lursen.

Ki endi, har zamon shodlikda yurgil,
Guli savsandek ozodlikda yurgil".

Keyin ont ichdi Maryam, dedi: "Shohim,
Aql, joni xiradmanddir guvohim.

2660

Shu toji Qaysar, ul tojingga ham, shoh,
Qasam ichgum, Shirin kelsa mabodo,

⁹⁸ Momo Havo Odam atoning chap qovurg'asidan yaratilgan.

Qaro arqonni men bo'ynimga solgum,
Sening javring-la olamdin yo'qolgum.

O'shal yaxshi bo'lurki, qolsa anda,
Ne bor boyqushga bu bog'u chamanda?"

Ayon bo'ldi bu gapdin shohga shaksiz,
Shiringa bul tomon yo'l bermas hargiz.

So'zini boshqa yoqqa burdi butkul,
Navozish ko'rsatib, sabr ayladi ul.

2665 Gahi Xusravga Shopur kelgay erdi,
Parivashdin xabar keltirgay erdi.

Javobin ham nihoniy etkazardi,
Tinim bilmay, aro yo'lda kezardi.

Bu ishga lolu hayron erdi Shirin,
Usiz Xusrav nechuk sabr aylar erkin?

Dili derdi: bu ermas bevafolik,
Sabr etsa, salohi podsholik...

Xusrav Shirinni keltir deb Shopurni yuborgani

Shahanshoh chorladi Shopurni bir kun,
Ki "Tokay oh chekarmen bo'yla dilxun?

2670 Ketur bir kecha ul oyni, qadrdon,
Tutarmen la'l kabi jonimda pinhon.

Boshimda toju taxt tashvishi bordir,
Etolmam bundan o'zga chora-tadbir.

Chu Maryam bilsa, o'tdek rashki ortar,
Iso yanglig' o'zini xochga tortar.

Shu afzaldir, kelib pinhona dildor,
Visolin menga ochsin ul parivor.

Oyog'inni magar kuydirdi rohi,
Qo'limni kuydirar balki nigohi.

2675

Agar Maryam piriuzlikni ko'rsa,
Bo'lib dev, devni mingaydir shu lahza".

Dedi naqqosh tusharkan yo'lga darhol:
"Chekarmen senga Chin naqshini, xush qol!"

Shirin qasriga Shopur keldi shoshqin,
Azim daryo kabi shiddatli, toshqin.

Shiringa muddaoni etdi og'oz,
Ki "Fursat etdi shohga etgali noz.

Shikoringni shahanshoh istar har chog',
Vale Maryam sabab shamshiri to'mtoq.

2680

O'shal bois bu yanglig' peshasi bor,
Ki Qaysar ahdidin andishasi bor.

Kel endi, otga min, yo'lga savor bo'l,
Olaylik ul shahanshoh qasriga yo'l.

Borib, Xusrav ila ayshi sharob et,
Raqibing davlatin andin xarob et.

Shirinning Shopurga itob etgani

Buti tanhonishin, ul mohi zebo,
O'zidin forig'u Xusravdin ayro.

G'azab birlan dedi SHopurga ul dam:
"Bu gapni so'ylamoqdin aylagil sharm!

2685 Etar, bas, aytganing jonga xurujdir,
Chu har neki deding. behuda, puchdir.

Na har gavharki, kelgaydir, teshilgay,
Na har so'z tilga kelgaydir, deyilgay.

Ichilgaymu magar duch kelsa har suv,
Va har ishni kishi etgaymu, yohu!

Chu etmay menga insofingni zinhor,
Noinsoflik etarsen necha bir bor.

Bu san'atdin Xudo aylab judolik.
Aql etsin yo'lingda rahnamolik.

2690 Ayirding, ul boshimda tojim erdi,
Judo etmoqchisen jonimdin endi.

Ilmsizlik sabab bu g'amga tushdim,
Qurib g'amdin, bu yanglig' namga tushdim.

Uni qayg'uda ko'rsam, bormi toqat,
Supurgaymen yo'lin sochim-la albat.

To'qimdo'zdin eshak qochgay muqarrar,
Vale arpafurushni ko'rsa, hangrar.

Asl gavhamajodmen, el emas, hay,
Nechuk borgum anga da'vat etilmay?

2695

Hovuzda bo'lsa otim jabdug'i nam,
Xato bo'lmasmi gar daryoga kirsam.

Ne dersan, chun xarob ersa bu ko'ngil,
Nechuk ajdar-la bo'lgum hamniqobul?

U dargoh chun zalolat etsa xo'rlab,
Nechuk borgum anga men o'zni zo'rlab?

Necha kunlarki chun boshimda xorlik,
Chekarmen bunda qayg'u, intizorlik.

Ko'ring ul bevafo, kibr etib to,
Darig' tutdi salomin mendin hatto.

2700

Solib boshimga tokay chodra, tag'in
Taqarmen belga erkaklar yarog'in?

Ravo bo'lgaymu men xotinadolik,
Magar tojdorga etsam podsholik?

Qazoyi badni ko'rgil, nogahonni,
Yaramga tuz sepib, sanchar tikonni.

Gul uzgum deb tikonni qo'lga oldim,
Mashaqqat qaydida, darmonda qoldim.

Birovdanmas, xatolik mendin o'tdi,
Yomon ko'zdin nechuk berkitgum endi?

2705

Birovni men dedim jonu jahonim,
Jahonni oldi, olgay endi jonim.

Na har kas ulki otash der zaboni,
O'shal otash ila kuygay dahoni.

Tarozi tosi ikkidir muqarrar,
Biri arpa, biri tortgusidir zar.

Tarozi berdi Xusrav menga turfa,
Faqat bir tosi bordir, doni arpa.

Ko'ngil ul arpaga hech moyil ermas,
Eyishdin o'zgaga ul loyiq ermas.

2710 Etib toshlar aro yuz hiyla, nayrang,
Kelindirman, vujudim ganchu gildan.⁹⁹

Kelin gil ersa, bo'stonga yarashmas,
Turunj mum ersa, rayhonga yarashmas.

Takalluflarki qildim, o'z ishidin
Uyalsin deb, qizarsin qilmishidin.

Ne qildi ul qaroqchi? Baski yakkash
Boshimga yog'dirur har lahza otash.

Tirik holimda ul yor birla o'zga,
Chu ishq savdosi bozor ichra o'zga.

2715 Yuzim toshdin yasalgan bo'lsa ham chin,
Ko'rar bo'lsa, yonar erdi uyatdin.

Agar sidqu vafoda itmen ortiq,
Va lekin it emib ulg'ayganim yo`q.

⁹⁹ Ganch – loy va ohak qorishmasi.

Magar itmen, ko'rib makrin muqarrar,
Uni itdek eshikdin quvmasam gar,

Otarmen unda it oldiga dilni,
Kim istar bo'yla bahosil ko'ngilni?

Chu ko'r bo'lsin ko'ngil gar yuzni ko'rmas,
Magar ko'rgaydir itni, bizni ko'rmas.

2720 Meni kosh erdi onam tug'masaydi,
Tug'ib, it oldiga kosh otsa erdi!

Kel, ey, rost o'ttirib ham so'ylayin chin,
Ne xorliklar boshimga keldi andin.

Necha rost pardani chaldim agarda,
Hamon yor mashqida ul erdi parda.

Chu mendin ketdi obro', ul beparvo,
Magar yuz bermamish hech narsa go'yo.

Qaroqchiga ne parvoyi palak ul,
Ki obro'yim jahonda bo'lsa bir pul.

2725 Mening-la jangda ul ot surdi ortiq,
Magar sulhu salohga endi yo'l yo'q.

Ki parvo etmasa ul bizga hech bir,
Uning ham shohligi bizlarga hechdir.

Uni deb garchi chekdim muncha qayg'u,
G'amidin bo'lmadim bir lahza ayru.

Dilim ko'r ermishu men voqif ermas,
Ko'rar bo'lsa, nechun bolimni ko'rmas?

Qichir boshim, men etmam unga parvo,
Qichitgum boshni men ishqida tanho.

2730 Tilim achchiqligi andin nishondir,
Chu andin olganim zaxmi zabondir.

Ravodir, bo'lmasa ul menga hamdam,
Birovdin kelmadi, baxt kelmas undan.

Nechuk baxtim anga hamuyqu bo'lgay,
Boshog'riq bo'lgayu g'am-qayg'u bo'lgay.

Ko'ngil talpindi, shunda bildim, ayyom
Ziyon etkuzgisidir komu nokom.

Sinovlar ko'rsatur andin nishonlar,
Ko'ngil talpinsa, kelgaydir ziyonlar.

2735 Yana har dam ko'zim uchgay guhar bor,
Yana boshimda qandoq ko'rgulik bor?

Qasrdin tashqari garchi bihishtdir,
Men andin chiqmagum, gar sarnavishtdir.¹⁰⁰

Na Shopur kelsa-da, Qaysar qizi ham,
Qasrdin xor etib quvgaymen ul dam.

Magarki bo'yla hushyormen, mast ermas,
Tuzoqu hiyla-nayrang foyda bermas.

Meni bilmas deya o'ylashmasin ul,
Ki men bilganni bilmas abli Bobul.

¹⁰⁰ Sarnavisht – qismat.

Boshing et bunda sarkash, unda ermas,
Na'ling et bunda otash, unda ermas.

U Xusravmas, esa Kayxusrav hatto,
Bu ish unga ravo ermasdi aslo.

Ha, mayli, nargisi mastdin firoqda,
Guli savsan ila yursin yiroqda.

Meni yonsin deya qo'ymoqchi o'tni,
Agar yonsam, eritgaymen sovutni.

Yuborsam el ila zulfim uforin,
Yo'qotgay bir yo'la sabru qarorin.

Yuborgum tun mahal, g'amzam etar ul,
Elib ellarda so'ng ot o'ynatar ul.

Sochimdin mushk sochgaymen olovga,
Ufori ud qo'shgaymen olovga,

Va zulfim bandidin domimga olgum,
Va g'amzam sehridin uyquga solgum.

Xayolimda buyurgum uyqu ichra,
Yugur deb suv kabi shu tuproq uzra...

Meni qo'y, yig'lay endi necha bir kun,
Anosi o'lsa gar kim yig'lamas xun?

Uning yodin etib men har nafas shod,
Agarchi ul meni hech aylamas yod.

Mening mehrimdin unda zarra yo'qdir,
G'amimdin ko'nglida bir qatra yo'qdir.

Gar ul nomchribon to'ymish mehrdin,
Zamona benasib qo'ymas shehdin.

Sabr etgum, agarchi menga og'ir,
Uzr aytib kirar eshikdin oxir.

Kamand solgaymidim sarkashga ul dam,
Nechuk arqon solay otashga ul dam?

2755 Maga men er esam, ul misli osmon,
O'shal osmonga etmoqqa ne imkon?

Etar jinsi tomonga jinsi parvoz,
Kabutrağa kabutar, boz sari böz.¹⁰¹

Shamol tuproq ila aslo qorishmas,
Olov suv birla birlashmas, qotishmas.

Chu vasli yo'q esa, hijron ne ermish?
Tirik ersa tanim, zindon ne ermish?

Magar sarmoyadoming qayg'usi bor,
Faqirga ne etar o'g'riyu tarror?

2760 Na ul qushmanki, kimsa aylagay qayd,
Na lochinmanki, sayyod aylagay sayd.

Topolmas, kelsa Xusrav tark etib Chin,
Bu sho'riston aro ul shahdi Shirin.

Agar yo'llarda Shabdiz sur'ati bor,
O'shal sur'atda Gulgun shiddati bor.

¹⁰¹ Boz – lochin.

Agar Maryam daraxti qandu xushdir,
Mening xurmolarim maryamsirishtdir.

Agar Maryamda ul sohibkulohlik,
Mening ham qismatim boshida shohlik.

2765

Bu achchiqlikni etmasmen faromush,
Ki SHirin jon uzar, Maryam etar no'sh.

Biri dur istabon etmish kamarga,
Biri sirka so'rab, etdi asalga.

Qo'ling bo'lmas mudom ko'ksingda zinhor,
Magar har joyda bo'y ersa, bo'yin bor.

Nechuk oshiq bo'lardim yo'qsa taqdir,
Pushaymonmen, xato qildim, ne tadbir?

Hazil etgan edim, ul chinga burdi,
Gapirsa lofu qof, rost deb tushundi.

2770

Bu bozordin bo'libimen muncha bezor,
Ki hozirmen qasam ichmoqqa ming bor.

So'zimni noziku ingichka chekdim,
Agarchi torini tun ichra chekdim.

Chu tokay mum kabi afsurda jonim,
Yonarmen, toki bor tan ichra jonim?

Demasmen nafyrin aytib xayru shardin,
Xudovando, o'zing bilguvchidirsen.

Labim shaydosiga leb tutgum, illo,
Berilmas har cho'zilgan qo'lga halvo.

Bahorda ekkaning tuproqqa har gal,
Uni bodi xazon eltgandin afzal.

Base itlar talab, etsam senga kiyn,
Arslon poyida xor bo'lma lekin.

Kel endi mard esang, ey mardi hushyor,
Birovga bermagil sen ranju ozor.

Hamisha yosh arslon o'ltirib shay,
O'shal ov-o'ljasin ovloqda tutgay.

Chu davlat birla andoq poybastmen,
Birovlar poyi-la yurguvchimasmen.

Birovlar ustiga zalvorni ortmam,
Birovlar toshi-la zanjir ushatmam.

Nechun tadbir uza tadbir etay men,
Bu yo'lda o'zni bir kampir etay men?

Qariganda may ichmak menga ne sud,
Ko'char chog'i buzarmish oxurin xurd.

Chu nodonlikda bo'ldim bandayi dom,
Ki donolikda etgaymen saranjom.

Sehrgardin emish so'zning butuni:
"Bilar tuynukni har kimning tutuni".

Menga ranju alamlar keldilar, bas,
Ko'ngildandir bari, dildordin ermas.

Hama joyda esa begona o'g'ri,
Menga begonamas, hamxona o'g'ri.

Sehr birlan kishi kechgaymi o'zdin,
Qutulgaysen nechuk uy o'g'risidin?

So'qirdek la'l topib, tosh ko'rmagaymen,
Ko'rib qishloqni, farsang so'rmagaymen.

Chu nomimni yomonga burdi ko'nglim,
Olib bolta oyoqqa urdi ko'nglim.

2790 Ko'ngil bor, lekin andin hosilim yo'q,
Bu holdin yaxshidir desam dilim yo'q.

Dilim zolim erur, yorim sitamkor,
Bo'libmen yoru dildin bori bezor.

Dilafruz birla erdim, shod unga,
Kunim qoldi o'shal kundan bu kunga.

Kishi izlar tiriklik ichra chora,
Buyurmish menga bu kunni, ne chora?

Yashirgaymen nechuk, g'am yondirar chun,
Netay men ersa ul kun kundan afzun?

2795 Menga sabr aylamakdin talx erur kom,
Ravodir Sabrbonu bersalar nom.

Yiroqmen garchi ganju kishvarimdin,
Yiroqmasmen o'zimdin, gavharimdin.

Hukmdin xoli bo'lgay ikki kimsa,
Biri ozod, biri betama' bo'lsa".

Kiyin shakkarga la'l mehrini urdi
Va andoq nuqtalarga so'zni burdi.

Ki "Shoh gar desa, men jondin sevarmen,
Degilki, bo'yla ishdin bexabarmen.

2800 Desa, tongni kutarmen, lolagundir,
Degil, uyg'oq o'tirma, tun uzundir,

Desa, ne damki men Shiringa etsam,
Degil, Maryamdin o'zni tiyganing dam.

Desa, men bo'yla halvoga cho'zay dast,
Degil, halvoga rag'bat etmagay mast.

Desa, quchsam uni, bo'lsam hamog'ush,
Degil, bu orzuni etgil faromush!

Desa, sharbat simirsam gul dudoqdin,
Degil, evoh, yiroqsen ul dudoqdin.

2805 Desa, amringa olgum zulfu xolin
Degilki, avval olgaysen mamolin.¹⁰²

Desa, oy yuziga sursam yuzim, oh,
Degil, yuz birla yuzlashgay qachon shoh?

Desa, oppoq zanaxdin to'pni surgum,
Degil, chavgon urar betiga zulfim.

Desa, hay-hay, so'rarmen la'li xandon.
Degil, so'rma yiroqdin obi dandon.

Gar amrimdin bo'yin tovar desa ul,
Degil, hijronidir boshimda mushkul.

¹⁰² Mamol – mamlakat.

2810

Desa, dardi firoqi ichradirmen,
Degil, turgil, namuncha o'ltirursen?

Visolini kutarmen, desa, qancha?
Degil, jim tur o'zi to aytmaguncha".

Shu yanglig' so'ylar erdi ul fasona,
Necha tahdidlar aylab ma'shuqona.

Magar jangu itob erdi bayoni,
Aqiqidin kelardi sulh nishoni.

Urib Shopurga do'q yozdi xumorin,
Aritdi bir qadar ko'ngil g'uborin.

2815

Keyin yumshab dedi: "Ey mardi dono,
Bisotingda so'zing bor misli daryo.

Qachonkim shohga aytarsen salomim,
O'shal hazratga etkaz shu payomim.

Ki Shirin derki, ey badmehru badahd,
Qani ul, qayda qoldi sozu suhbat?

Umidim erdi, jonim yoqmagaysen,
Meni dersan, birovga boqmagaysen.

Vale sen o'rtading jonu tanimni,
Dilingga joylading ul dushmanimni.

2820

Bu bedoding qo'yib, dod aylagaysen,
Shirinning ohini yod aylagaysen.

Chu uxloq toleimdek himmating yo'q,
O'tar davronga o'xshab shafqating yo'q.

Meni xor etma muncha, ey aziz er,
Kaniz ersam, mening ozod xatim bor.

Senga tengman-ku, bilmay turganing ne?
Meni tubanga mundoq urganing ne?

Menga tubanda andoq etmagil joy,
Yo'q ersa, eshiginggabosmagum poy.

2825 To'kib ko'z yoshlarim monandi marjon,
Yuborgum eshigingga misli to'fon.

O'zingdin o'zga birlan hech ishing yo'q,
O'zim dersan, bo'lak bir tashvishing yo'q.

Murodingga etishtir dilda darding,
Murodi yo'qmi o'zga kimsalarning?

Meni yo'l uzra sindirding tamomi,
Magar "ber, ber" debon egding kamonni.

Shirin erdim, bugun achchiqmen, evoh,
Ajabki, novdada xor bo'ldi xurmo.

2830 Sug'ordim bog'ni bag'rim ichra qondin,
Vale hosilga kirgach, quvding andin.

Isinmay otashingga, ey dilafruz,
Dudingdin ko'r erurmen kecha-kunduz.

Jafo ham shuncha bo'lgaymu, jafokor,
Baland nomimni chun past aylading, xor.

Amaldorlarga bu dunyoda ne g'am,
Haqir ko'rgay ular yo'qsilni har dam.

Faqirlikda ko'zinga kirgan erding,
Bo'lib farzona, mendin ko'zni yumding.

2835 Ko'zim yoshin to'kay dardingda tokay?
G'ami vaslingchekay hajringda tokay?

U dam yorsiz eding, men yor bo'ldim,
Bugun sen yorlisen, men xor bo'ldim.

Bugun nomimni rasvolikka qotding,
Pisand etmay, siparni suvga otding.

O'lim hukmiga yozdirding xatimni,
Oshirding, bas, firoqu hasratimni.

Jonimdin qolgani bir rishtadir, hay,
Etar, ko'p tortmagilki, shart uzilgay.

2840 Tig'ingga uchmasin Shirini mazlum,
Shu basdir, chekdi tig'ing zarbini Rum.

Ishing rumiychadir, naqshu nigorlik,
Aya, armanga etma Rumikorlik.

Guling Rum bog'idin oldingda xirman,
Ki toroj etma taxtu toji arman.

Dam urma, andin otash zud taralgay,
Gahi otash taralsa, dud taralgay.

Magar may ichganingda senga ming yor,
Vale g'am-qayg'uda yoningda kim bor?

2845 Base ranju alamlar keldi sendin,
Chekib domingga, chekding o'zni mendin.

Chu davron domaniga to'kmagil xas,
G'ariblar joniga tuz sepmagil, bas.

Tuzib shohona bazming, xush o'tirgil,
G'ariblar kulbasidin yuzni burgil.

Meni qo'y, shu mashaqqat menga afzal,
Xudoyimga etay endi tavakkal.

Qo'y endi qushnikim, domingga tushdi,
Qutuldi domidin, sahroga uchdi.

2850 U yo'ldin yurmakim, balchiq atalgay,
Ishingdin kimsalarning ko'ngli qolgay.

Yonib o'rtandi bu joni sitamkash,
Bu manzildin yiroq tut endi otash.

Bu otashkim yoqar jonu tanimni,
Tilar kul etsa butkul xirmanimni.

G'aming jonimga chirmashdi ilondek,
Magar har tola mo'yim bir tikondek.

Na kunduz, na kecha osoyishim bor,
Na sendin zarracha baxshoyishim bor.

2855 Bu holimga nechuk men toqat etgum,
Chuloqdirmen, nechuk manzilga etgum?

Qiyos et, ashku ohim qancha bordir.
Ki dengiz nam, jahannam bir sharordir.¹⁰³

¹⁰³ Sharor – uchqun.

Bu dengizkim, suzar otashda kemam,
Meni ham do'zaxiy bil, jannatiy ham.

Chu do'zax oldida ersang nihoniy,
Nechun izlarmen obi zindagoniy?

Menga sensiz hayot har lahza qayg'u,
Ki bultur yoring erdim, endi ayru.

2860 Sen ul tuproqki, naq shif'tga tutashgan,
Men ersam suv, toshib, boshimdin oshgan.

Seningsiz har ishim ul notamomdir,
Etarmen ne tamaniolarki, xo'mdir.

Bilarsen, o'Imaguncha tinmagay kas,
Tiriklikdin umidin banda uzmas.

Xirad donish yo'lida rahnamodir,
Vale ishq shevasi andin judodir.

Kishi ot sursa bu maydonda nogoh,
Uni oshufta etgay ishq savdo.

2865 Farahbaxsh aylagay farzonalarni,
Aqlga yo'llagay devonalarni.

Chu sabr etmak bu yo'lda hamkorlik.
Muhabbatning asosi beqarorlik.

Sabr ishq shevasida noravodir,
Kishi oshiq emasdir ersa sobir.

Agar Shirin erur g'am ichra har dam,
Shahanshoh boshiga hech kelmasin g'am!"

Aningdek so'yladi Shopurga doston,
Egildi Shopur unga, o'pdi oston.¹⁰⁴

2870 Ki "Roying har nechuk tadbirdin afzal,
Hama aytganlaring rostu mukammal".

Anga so'z qotmadi so'ng o'ylamasdin,
Pishirdi dilda so'zni so'ylamasdin.

So'zing donish ila darj etganing xush,
Sanab aqchangni so'ng xarj etganing xush.

Farhod ishqining ibtidosi

Paripaykarki erdi husn aro toq,
Qulog'ida kumushdin erdi baldoq.

Makoni dilgir erdiyu farahsiz,
Ki xushlab ichgani sut erdi yolg'iz.

2875 Gar ersa oldida yuz turli halvo,
Parivashga faqat sut erdi avlo.

Yiroq erdi vale mol-chorva undan,
Ketirmak sut muammo erdi shundan.

Magar vodiya yantog'u qamishdi,
Zaharli o't-o'lanlar qoplamishdi.

Cho'ponlar chora-tadbir aylar erdi,
Suruvni boshqa joyga haydar erdi.

¹⁰⁴ Oston – ostona

Shiringa sut kerak erdi, nachora,
Ki har gal izlar erdi o'zga chora.

2880 Yiroqdin sut tashib keltirmak, albat,
Kanizaklarga erdi koni zahmat...

Qaro tun yozdi zulfin olam uzra,
Kumush oydan quloqqa taqdi sirg'a.

Yotib to'shakda Shirin, mohi dilso'z,
Base to'lg'andi to kelguncha kunduz.

Keyin Shopur kirib oldiga tanho,
Necha so'zu suxanlar aytdi anvo,

Ne sir kechsa dili sarvi sumandin,
Dili Shopur xabardor erdi andin.

2885 Ajab bir qissani naql ayladi tek,
Eshitguvchi ochildi lolaguldek.

Egildi hindudek huru pariga,
Egilgandek Atorud Mushtariyga.¹⁰⁵

Dedi: "Bordir muhandis, mardi ustod,
Ajoyib bir yigildir, nomi Farhod.

Kamoli handasa bobida cheksiz,
"Majastiy", Uqlidus ilmida tengsiz.¹⁰⁶

¹⁰⁵ Atorud (Merkuriy) – eng kichik sayyora.

Mushtariy (Yupiter) – eng katta sayyora.

¹⁰⁶ Uqlidus (Evklid) – qadim yunonistonlik matematik.

"Majastiy" – Batlimus (Ptolemey)ning kitobi.

Ki har gal teshasin ilkiga olgay,
Baliq. qush suvratin tuproqqa solgay.

2890 Qizil gulga hunardin rang berar ul,
Naqshdin toshga ham ohang berar ul.

Mislsiz san`atiga bosh egar Rum,
Urarkan teshasin tosh qoya ham mum.

Ajab ustod erur san`atda shaksiz,
Tikandin gul unar har gal u bois.

Mahoratsiz nechun bunyod bo`lur ish,
Ki ustod avvalu so`ngra kelur ish!

Yasar har narsani ul jonu dildan,
Simu zardin emas, yo`q, mumu gildan.

2895 Agar amr aylasang, unga etarmen,
Huzuringda hamon hozir etarmen.

Biz ikkov hitta ustoddin olib dars,
Edik Chun mulkida hamkoru hamdast.

Olib dars har kishi bir pesha tutdi,
Qalam men tanladim, u tesha tutdi..."

Chu Shopurdin hikoyat tinglabon xush,
Shirin sut tashvishin etdi faromush.

Quyoshning shu`lasi sarf bo`ldi kunda,
Kecha yuzlab charog`in yoqdi shunda.

2900 Hamon Shopur ijobat etdi so`zni,
Borib, keltirdi Farhodi azizni.

Shirinning chodiriga keltirib shod,
Qo'yib bir kursi, taklif ayladi bot.

Misoli tog' kabi kirganda Ko'hkan,
Haloyiq qoldi hayrat ichra chindan.

Magar fil erdi ul, zalvori shuncha,
Vale qudratda erdi ikki filecha.

Haram ahli berib unga salomlar,
Namoyish etdi izzat, ehtiromlar.

2905 Parivash pardasi oldida Farhod,
Beli bog'liq turardi, ilki ozod.

Fikr aylardi, nayrangboz gardun
Bu sirli pardadin ne ko'rsatarkin?

Jahon nogoh shabexunsozlik etdi,
Ki parda ichra lo'batbozlik etdi.

Shakar kulguda yangrab shakkarin soz,
Shirin lab ochdi, berdi shirin ovoz.

Shakardek qulf ochib, yoqut ko'tardi,
Chu yoqutu shakardin qut ko'tardi.

2910 Berib xurmosiga husni adosin,
Berardi o'zga xurmolar jazosin.

Ko'rib xurmosida andoq masalni,
Shakar deb aytdi choshnigir asalni.¹⁰⁷

¹⁰⁷ Choshnigir – tatib ko'ruvchi.

Shakra labdin shakarni jonga sochdi,
Shakarni eltdi, xo'zistonga sochdi.

Ajab shirin kalom erdi maromi,
Shu bois bo'yla Shirin bo'ldi nomi.

Ovozi aylar erdi dilni sarxush,
Baliq orom olar, uxlar edi qush.

2915

Labi novot so'rardi har daqiqa,
Qulog'ida shakardin erdi halqa.

Ki har majlisda lah ochgay edi u,
Eshitganlar tushardi jondin ayru.

Quloqqa gar shirin rozi etardi,
Falotun bo'lsa ham hushdin ketardi.

Ovozi Ko' hkanga etgan oni,
Gupurdi ko'ksida Farhod qoni.

Chekib bir otashin oh, nola qildi,
Kasaldek erga yuz tuban yiqildi.

2920

Yotardi hushdin ayru, to'lg'anib lek,
Misoli boshi yanchilgan ilondek.

Shirin ko'rdiki ul ne erdi holi,
Dili – to'rdin qutilgan qush misoli.

Shirin so'z birla Farhod ko'nglin oldi,
Sochib don, qushni qayta to'rga soldi.

Dedi shu lahza: "Ey farzona ustod,
Tilarmen ulki ko'nglim aylasang shod.

Murodinga tikib ko'z, ey hunarmand,
Meni qayg'udin ozod ayla derman.

2925

Shitobu g'ayratingni oshkor et,
Hunardin shu qasrni ustuvor et.

Yiroq bizdin suruvlar necha chandon,
Sehr etkim, olaylik sutni oson.

Ariq qazsang magar bir-ikki farsang,
Va toshlar yotqizib mustahkam etsang,

U yoqdin sut to'kardi sutchi qizlar,
Bu yoqdin sut olar erdi kanizlar".

Qulog'iga etib guftori Shirin,
Hushiga keldi ul Farhodi miskin.

2930

U so'zlarning sadosi birla mastdi,
Vale ma'nosini hech anglamasdi.

So'zing boshing ustiga deb, ey malohat,
Shiringa berdi ul belgi, ishorat.

Saroy ahliga so'ng yuzlandi, so'rdi,
Shirinning so'rgani ayting, ne erdi?

Chu mastmen ma'nisizdir menga saslar,
Magar ko'rdil bo'lur odatda mastlar.

Saroy ahli izohga etdilar qunt,
Shirinning aytganin anglatdilar zud.

2935

Eshitdi, baski ogoh bo'ldi Farhod,
Kirishdi rejani etmakka bunyod.

Bu ishni aylamakka mohir erdi,
Go'zallar xizmatiga hozir erdi...

Chiqib andin qo'liga tesha oldi,
Mahorat birla kuchni ishga soldi.

Yo'q erdi teshasining zarbiga chek,
Kechardi, tig'iga tosh erdi mumdek.

Magar sut yo'liga tarnov yo'nardi,
CHu toldek qoyatoshdek nov yo'nardi.

2940 Urarkan teshasin toshlarga qattiq,
Javohirga edi har zarbi loyiq.

Bir oy zahmat chekib tosh ichra tanho,
Ariq bunyod etdi misli daryo.

Chu yaylovdin qasrga etkazib bar,
Base tosh to'kdiyu yotqizdi marmar.

Qasr oldida havza etdi paydo,
Ki havzi kavsar erdi unga shaydo.

Ariq bunyod etdi bo'yla ko'rkam,
Ki andin sizmas erdi qatra suv ham.

2945 Hovuzkim erdi toshlardin murassa',
Oqardi sharqirab suv lahza-lahza.

Ko'ringay garchi har ish boshda dushvor,
Qiyinmas, unga azm etsa binokor.

Magar yuz tog' yo'lida uchrasa bot,
Emirgaydir ularni odamizod.

Va lekin bilmas ul, ne chora bo'lgay,
O'lim oldida chun bechora bo'lgay.

Shirin Farhodni ko'rishga kelgani

Xabardor etdilar Shirinni: Farhod
Ariq qazdi, hovuz ham etdi bunyod.

2950

Ariqning ishlari bitdi, tugandi,
Oqar suv shaldirab hovuzga endi.

Parivash dasht aro qistab to'riqni,
Tamosho ayladi havzu ariqni.

Chunon fikr etdikim, ishga berib tan,
Ular bor erdilar go'yo azaldan.

Magar bir odamiy etmishmi bir qur,
Bihishtu sut ariq ham havzayi hur?

Keyin Farhodni alqab, aytdi olqish,
Tasanno, aylamishdir bo'ylakim ish!

2955

Keyin yoniga chorlab etdi e'zoz,
Aziz tutdi uni chun mahrami xos.

Dedi: qanday to'lay, ustod, haqingni,
Mukofotlay bu yanglig' xizimatingni?

Qulog'ida yonardi ikki gavhar,
Ki baldog'iga ziynat erdi, zavar.

Magar tosh erdi joyi ul guharning,
Xirojiga etardi bir shaharning.

Qulog'idin olib, dediki: "Farhod,
Buni ol xizimatingga, istasang, sot.

2960 Qo'linga tushsa bundan yaxshiroq zeb,
Berarmen senga muzdi mehnating deb.

U qo'sh gavharga Farhod ahsan aytdi,
Olib, alhol Shirin poyiga otdi.

Oyoqqa qalqdiyu sahroga yurdi,
Bulutdek to'kdi ko'z yoshi, o'kirdi.

Ki oshkor bo'lmasin deb bu sinoat,
Xaloyiqdin uzildi necha bir vaqt.

Farhod Shirin ishqida nola chekkani

Shirin ishq tushib ko'ngliga, Farhod
Bu o'tdin yondi bag'ri, chekdi faryod.

2965 Mashaqqatda kechardi ro'zgori,
Bir ish etmoqqa yo'q erdi qarori.

Na bir toqat, qanoat erdi dilda,
Na bir sabru chidam erdi bu yo'lda.

Damo-dam holi andoq ermish erdi,
Magar ko'ngilni qo'ldin bermish erdi.

Tiliga ham tugun solmishdi qayg'u,
Tanida kuch, ko'zida yo'qdi uyqu.

Xaloyiqdin yiroq, ma'yusu dilgir,
Xazon yaprog'idek titrardi dir-dir.

2970

Kezardi tog' u dasht qo'ynida sarson,
Kezarkan, ko'ngli erdi zoru giryon.

Ham erdi qomati g'andin, na chora,
Va kiygan ko'yilagi yuz pora-pora.

Chekardi nolayi zor misli bulbul,
Tugun ko'ksida xuddi g'unchayi gul.

Jahonda munisu g'amxorasi yo'q,
G'ami bor, yordin bir chorasi yo'q.

Tikon chopmoqqa aylab qomatin xam,
Oyog'idin tikon tergaydi ham dam.

2975

Na jismida tikondin qo'rqusi bor,
Na jonida qilichdin qayg'usi bor.

Yiroq ketdi, vale savdosi oshdi,
Tugandi sabri, o't jonga tutashdi.

Ko'zida yosh emas, qondin nisore,
Yuzi ul xun sabab chun lolazore.

Damo-dam nolasi ko'kka etardi,
Falakning toqini zir titratardi.

Go'dak erdi, tilab suv to'la jomin,
Unutmish erdi lekin doya nomin.

2980

Yo'qotmish erdi oromini butkul,
Yonardi beomon otash aro ul.

Dili otashda, otashdi dimog'i,
Shu boisdin so'nik erdi charog'i.

Dili yuz pora erdi qayg`u birlan,
O`lim vahmin pisand etmasdi zotan.

Baloyu ranji haddin oshgan erdi,
Oshib hattoki boshdin, toshgan erdi.

Shirin ishqida ul zor erdi, giryon,
Baland ovozası ketmishdi har yon.

2985

Dili ketmishdi andin, baxti murda,
Quvardi ko`nglini shomu saharda.

Qochari do`stu dushmandin u har dam,
Temirdin dev, sipanddin jodu monand.

G`ami hamdam, vale ul g`am ila shod,
Chu ganj erdi, xarobot ichra obod.

Vale qo`rqar edi dardu firoqdin,
Ilon toshdin kabi, bo`ri tayoqdin.

Dili nolon, ko`zi yig`lashda doim,
Jigar bag`ri g`amu otashda doim.

2990

Tilab dardiga darmon topmas erdi,
G`amu qayg`uga somon topmas erdi.

Yashardi yakka-yolg`iz. dilda anduh,
Ki do`stlardin yiroq, yorondin ayru.

Shirin ishqı ila erdi hamog`ush,
Etib Farhodligin bori faromush.

Na ruxsat erdi, g`amdin jom yuborgay,
Na do`stu mahram ul payg`om yuborgay.

Gar ul yor ko'yidin gard kelgay erdi,
Ko'ziga surma yanglig' surgay erdi.

2995

Magar yor yo'lida ko'rsa giyoh ul,
O'par erdi o'qib hamdu sano ul.

Ochardi, kimsaga mayl aylamasdi,
Shirindin o'zga so'zni so'ylamasdi.

Chunon bildiki ul oshuflayu, mast,
Ki ishq ko'ngilga tushsa, yondirar bas.

Muhabbat o'tiga duch kelsa ko'ngil,
Jahon yaksar bilurki, kuydirar ul.

Shirin nomi tiliga kelsa har chog',
O'pardi yodi-la yuz karra tuproq.

3000

Shirin qasriga gar nazzora etgay,
To'n ermas, jonni ham yuz pora etgay.

Chopardi, o'ylakim, dasht oti ermish,
Ki dasht vahshiylari-cha do'st tutinmish.

Chu vahshiy jonivorlar gohi qurshab,
Chekarlar erdi gird-atrofida saf.

Biri darhol supurgay erdi joyin,
O'par erdi biri har lahza poyin.

Kiyiklar birla goh xilvat tutardi,
Qulonlar birla goh suhbat etardi.

3005

Marol yoshin yig'ib goh dona-dona,
Gahi sher yoliga urgaydi shona.

Kiyiklar birla kunduz ersa damsoz,
Marollar birla tunda erdi hamroz.

Tinim bilmasdi charxdek kecha-kunduz,
Yashardi tunu kun suvsiz, taomsiz.

Va har gal yo'lga tushsa tark etib joy,
Yurardi betinim shu yo'lda bir oy.

Yo'li ustida devor ersa qancha,
Uni ko'rmasdi boshin urmaguncha.

3010 Ko'ziga toki bir o'q botmas erdi,
Boqardi tikka, kiprik qoqmas erdi.

Yo'lida bir quduq duch kelsa nogoh,
O'shal chohga yiqilgay erdi ongoh.

Jahondin to'ymishu g'am erdi peshu,
Balò hamroh edi unga hamisha.

Uzun tunlar fig'onu nola kunduz,
Ko'ngilda lahza-lahza hasratu so'z.¹⁰⁸

Yo'li goh qasru goh ko'ydin o'tardi,
Fig'oni toshni ham chil-chil etardi.

3015 G'amidin ayru tutsa gar nishoti,¹⁰⁹
Nishotidin kechardi shu zahoti.

G'amiki, unga damsoz erdi har dam,
Tilardi boshidin hech ketmasin g'am.

¹⁰⁸ So'z – bu yerda kuyish, o'rtanish ma'nosida.

¹⁰⁹ Nishot – sevinch, shodlik.

Yuvardi qonli ko'z yoshdin yuzini,
Ko'zidin izlar erdi yulduzini.

Mudom uyg'oq edi ul ertayu kech,
Eshikni qayg'uga yopmas edi hech.

Dili o'zligidin begona erdi,
Ki o'zga raxtu o'zga xona erdi.

3020 Ajabki, o'ziga ermasdi o'xshash,
O'ziga chekmish erdi o'zga bir naqsh.

Yugurgay erdi haryo n subh ila shom,
Na kunduz, na kecha bilmasdi orom.

Chopardi, toki unda qolmagay tan,
Ki yorim birla bo'lsam derdi yaktan.

Vale bilmasdiki, qush yo'q qafasda,
Malik maydonda, jon orzu-havasda.

Jununi etdi andoq nuqtaga to,
Tanimas erdi ul yorini hatto.

3025 Agarda nur va yokim nor ko'rardi,¹¹⁰
Nishoni hajru vasli yor ko'rardi.

Nechuk naqsh kelsa erdi unga alhol,
Ko'rardi ko'ngli unda yaxshi bir fol.

Yomon fol ko'r magay ishq ichra inson,
Magar ko'rsa, o'ziga ko'rmas hech on.

¹¹⁰ Nor – bu yerda olov ma'nosida.

Va har naqshc, yomondir, yaxshidir, xub,
Ko`rar erdi faqat o`ziga mansub.

Kelib bir hafta goh mehmon bo`lardi,
Kiyin yorga yiroqdin termulardi.

3030 Yana sahro sariga yo`l tutardi,
Yana qayg`u, alamga qo`l tutardi.

Gahi tunlar kelib bir jonivordek,
Hovuzdin sut ichardi tamshanib tek.

Emish yo`q erdi unga sutdin o`zga,
Hamisha talpinar erdi hovuzga.

Uzun tunlar kelib, sayron kezardi,
Hovuz bo`yida sargardon kezardi.

Jahonda tarqalib bu qissa har yon,
Necha tillarga tushdi, bo`ldi doston...

Xusrav Farhod ishqidan xabar topgani

3035 Xabardor erdi bir a`yoni dargoh,
Shahanshohni bu gapdin etdi ogoh.

Ki Farhod Shirin ishq i birla sarson,
Hadisi ishqidir olamga doston.

Dimog`in ul qadar savdo tutibdir,
Bu savdodin so`yi sahro tutibdir.

Tilab husnu jamolin ul dilafruz,
Aoyu hoshyalangdir kecha-kunduz.

Demish Shirin-la ko'nglim dardmanddir,
Bu shuhrat birla ovozi balanddir.

3040

Na bir yosh qo'rqitar, na mo'ysafid pir,
Pisand ermas anga paykonu shamshir.¹¹¹

Qachon yod aylagay ul siymtanni,
Unutgay o'zligin ul, jonu tanni.

Kelib har hafta bergaydir salomin,
Sevingay tinglab har gal yor payomin...

Shahanshoh tinglabon bu dostonni,
Dilida tuydi ortiq ishqijonni.

Na xush maydonda qo'sh polvon esa ul,
Va gulga xonish etsa ikki bulbul.

3045

Agar bir naqdga ersa qo'sh xaridor,
Bahosi ortadir ul necha bir bor...

Shahanshoh ko'ngli bir yoqdin sevindi,
Raqib bor erdi ishq ko'yida endi.

Raqobat unda g'ayrat qo'zg'atardi,
Nigoriga muhabbat qo'zg'atardi.

Vale yo'l yo'q edi oshufta royga,
Oyog'i botmish erdi chunki loyga.

Agar tanga etib, chirmasha bir dard,
Sahisarv ham egar qaddini albat.

¹¹¹ Paykon – o'q, nayza.

3050

Kishi bemor esa, ne chora qilgay?
So'zi ham, fikri ham bechora bo'lgay.

Taning sog'lom esa, so'z ham durustdir,
Kasalda so'zu tadbir bori sustdir.

Birovlarga shifo bergay tabib, gar
Kasal bo'lsa, birovdin chora istar.

Xusravning Farhod haqida maslahatlashgani

Shahanshoh necha xos marhamni yig'di.
Shu haqda so'zladi, andisha qildi.

Dedi: "Bu ishga biz ne chora etsak?
Qimorni ne yurishlar birla yutsak?"

3055

Chu qo'ysam holiga, holim tabohdir,
Magar qonini to'ksam, begunohdir.

Base ishratda etdim podsholik,
Kunim bayram aro kechdi safolik.

Bugun bayram tuzib ul mohipaykar,
Meni bir telbaga etdi barobar".

Xiradmandlar javobin berdilar bot,
Ki "Ey davlat diydoring-la obod!

Hukm o'midadir shohlarga roying.
Chu shoblardir hamisha xoki poying.

3060

Jahon ul sadqayi toji saringdir,
Saodat yoru davlat navkaringdir!

O'shal oshuftaga ne tadbir etsak?
Ravodir unga oltin zanjir etsak.

Ki savdoda mufarrah zar erur, zar,
Chu zar birlan bo'lur orzu muyassar.

Muloyimlik ila et boshda da'vat,
Quyosh yanglig' anga ko'rsat saxovat.

Magar ul zarni ko'rsa, dinni qo'ygay,
O'shal shirin ila Shirinni qo'ygay.

3065 Baso ko'zlarki, zardin ko'r emishlar,
Qilichlar zar ila bezo'r emishlar.

Agar zar birla taslim bo'lmasa ul,
Buyurgil, tosh kechishga ayla mashg'ul.

Ki bo'lsin tosh yo'nishlik mashg'uloti.
O'shal toshloq aro bitsin hayoti!..

Xusrav Farhodni o'z huzuriga chaqirgani

Shahanshoh tinglab ahli anjumanni,
Huzuriga chaqirdi ko' hkanni.

Kirib keldi eshikdin misli bir tog',
Saroy ahliga hayrat erdi mundoq!

3070 Vujudida edi mehnat nishoni,
Mashaqqatlar aro hasrat nishoni.

Yuzida aks etardi beqarorlik,
Ko'zida yosh edi chun ohuzorlik.

Na Xusravga, na taxtga etdi parvo,
Zaminga panja bosgan sher go'yo.

Shirin ishq i adosi birla mastdi,
Birovga zarra parvo aylamasdi.

Buyurdi shoh kuting do'sti aziz deb,
Ki mehmondirki, e'zoz aylangiz deb.

3075

O'shal filjussani o'tqizdilar so'ng,
Boshidin simu zarlar sochdilar so'ng.

Dili pokida erdi ishq i gavhar,
Chu tuproq birla zar erdi barobar.

Zaru zevarni ul ilmasdi ko'zga,
Shahanshoh boqdiyu lab ochdi so'zga.

Necha nozik savollar berdi ul bot,
Necha nozik javoblar aytdi Farhod...

Xusrav va Farhod munozarasi

Qaerliksan, dedi, aytgil makoning?
Dedi: do'stlikka manzildir makonim.

3080

Dedi: unda ne san'at ko'rsaturlar,
Dedi: anduh olurlar, jon soturlar.

Dedi: ul jonfurushtlikda adab yo'q,
Dedi: ishq ahlida ersa, ajab yo'q.

Dedi: dildanmi bo'lding oshiq ondin?
Dedi: dildan deding, men ersa jondin.

Dedi: Shirinning ishqiq. ayt, nechukdir?
Dedi: jonimdanam shirin, suchukdir.

Dedi: ko'rgaymisen oydek tun ersa?
Dedi: uyquda ko'rgum. uyqu kelsa.

3085

Dedi: ishqin qo'yarsen endi qaydam?
Dedi: ul damdaki, tuproqqa kirsam.

Dedi: kirsang saroyi ichra bir zum?
Dedi: men poyiga boshimni qo'ygum.

Dedi: mil tortsa bir ko'zingga alhol?
Dedi: tutgumdir o'zga ko'zni darhol.

Dedi: qo'l cho'zsa unga o'zgalar, hay?
Dedi: toshga temirning zarbi etgay.

Dedi: yo'l topmasang unga firoqdin?
Dedi: men oyga termulgul yiroqdin.

3090

Dedi: oydan yiroq ersang, ne ma'no?
Dedi: boqsin yiroqdin oyga shaydo.

Dedi: so'rsa magar boringni butkul?
Dedi: so'rsin, Xudodan so'rganin shul.

Dedi: boshing ila gar bo'lsa xushnud?
Dedi: bergum chu bo'ynimdin uzib zud.

Dedi: qo'y do'stligin, savdosidin kech,
Dedi: do'stlar bu ishni aylamas hech.

Dedi: osuda-tinch bo'l, ish xomdir.
Dedi: osudalik menga haromdir.

Dedi: sabr aylagil, qo'y dardi hijron,
Dedi: sabr aylagaymu ishq aro jon?

Dedi: sabr aylaganlarga xijil yo`q,
Dedi: sabr aylagay dil, menda dil yo`q.

Dedi: ishqdin ishing ul ohu zordir,
Dedi: hay, yaxshiroq bundan ne bordir?

Dedi: jon berma, bas, dil unga payvand,
Dedi: yorsiz dilu jon menga dushman.

Dedi: hijronida qo'rqinchmi bir kas?
Dedi: qo'rqinch o'shal hijronidir, bas!

Dedi: etgaymu vaslidin inoyat?
Dedi: men bo'lmasam, ul bo'lsa shoyad.

Dedi: nedir senga ishq, jamoli?
Dedi: basdir menga dilbar xayoli.

Dedi: dildan chiqar ul ishq SHirin!
Dedi: qandoq yashay bejoni shirin?

Dedi: Shirin manimdir, aylama yod,
Dedikim, aylamas bu ishni Farhod!

Dedi: gar unga solgaymen nigohim?
Dedikim, yondirar ofoqni ohim!..

Javobin berdi Farhod chun xatosiz,
Savol bermoqqa Xusrav qoldi o'jiz.

Saroy ahliga so'ng etdi xitobin,
Ki bundoq ko'rmadim hozirjavobin!

Chu ko'rdim, zarga ul parvosiz erdi.
Sinov qilgum, dedi, tosh birla endi.

Qilichdek til ila so'z boshladi shoh,
Ki toshga urdi ul olmosni go'yo.

Dedi: "Tog' uzra yo'l bor, bizga mushkul,
Mashaqqat keltirar har yo'lchiga ul.

3110 Tuzatmoqqa shuyo'lni bormi imkon,
Ki shoyad bordi-keldi bo'lsa oson?

Bu ishni eplay olmas har nechuk kas,
Bu ishga sen kabi yo'qdir zabardast!

Ba haqqi hurmati Shirinni dilband,
Ki bundan yaxshiroq yo'q ahdu savgand.¹¹²

Ado etsang magar shu hojatimni,
Bajargum unda har ne hojatingni!"

Javob aylab u mardi qoyabardosh,
"Ko'targum, dedi, Xusrav yo'lidin tosh.

3115 Faqat shartim shuki, ishni bajarsam,
O'shal yo'l ustidin tog'ni qo'porsam.

Ishim kelsa magar Xusravga ma'qul,
Shirinning shakkarin tark aylasin ul".

Bu gapdin shoh g'azabga keldi qattiq,
Ki sal qoldiki ursa boshiga tig'.

¹¹² Savgand – qasam, ont.

Vale boz o'yladi, bu bir havasdir,
Ki toshdir qazgani, tuproq emasdir.

Agar tuproq esa, qazsin uni, hay,
O'shal tuproqni so'ngra qayga eltgay?

3120 Dediso'ng: "Roziman bu shartga rasman,
Agar qaytsam so'zimdin, mard emasmen.

Belingni boylagil, boy berma fursat,
Tushib maydonga endi kuchni ko'rsat".

Eshitdi so'zni ul Farhodi bedil,
Dedi: "Ko'rsat u tog'ni, shohi odil!"

Chu Xusrav yo'lladi toqqa hamoni,
U tog'ning Besutundir endi nomi.

Ki unda qoya uzra qoya erdi,
Qalashgan toshlari yuz poya erdi.

3125 Shahanshoh so'zidin ko'ngli bo'lib xush,
Ravona bo'ldi Ko'hkan misli surxush.

Uchib eldek kamarkash toqqa bordi,
Kamar boylab, qo'liga tesha oldi.

Baland toshqoyadin taxt yo'ndi avval,
Keyin atrofiga soldi shakllar.

Shirinning suratini soldi hamoni,
Chu Arjang naqshini solmishdi Moniy.

So'ng ersa teshasin toshga urib tez,
Namoyon etdi shakli Shohu Shabdiz.

Eshitgansan, shu surat oldida ul,
Ne kunga tushdi, holi bo'ldi mushkul.

Base yolg'on ila avrab biloxir,
Javonmardni ne kunga soldi kampir?

Agar qashqirga quyruq osti qopqon,
Adodir ul tufayli mardi maydon.

O'shal quyruqda bordir necha nayrang,
Ishonma unga, holing etmagil tang.

Zamona – qari tishli qo'y yanglig',
Emoqqa dumbani ko'z tikma ortiq.

Yo'q ersa toleingda baxtli yulduz,
Anga intilma ortiq, tikmagil ko'z...

Farhod tog' qazib, kuch-qudratini ko'rsatgani

Chu Farhod ko'rsatib ne azmu g'ayrat.
Necha toshlarga chekdi shaklu surat.

Tinim bilmas edi to subhdin shom.
Dilida har nafas yodi dolorom.

Bilak zo'rida shiddat erdi muncha,
Uchardi qoyatoshlar parcha-parcha.

Ki zalvor teshasin urganda har on,
Magar bir qal'ani aylardi vayron.

Shu yanglig' tog'ni ag'darganda har vaqt,
Xaloyiqqa tushardi vahmu hayrat.

Kesarkan shul yo'sin yoqutni olmos,
U toqqa yuzlanib so'ylar edi roz.

Ki "Ey tog', qoyatoshsen, sangi xora,
Javonmardlik qilu bo'l pora-pora!

Rioyat ayla men miskinni doim,
Ki zarbim etsa qattiq, bo'l muloyim.

Yo'q ersa, men ba haqqi joni jonon,
Ki to ul damgacha, jismimdadir jon,

3145 Shu jismim holini tang aylagaymen,
Damodam sen ila jang aylagaymen!"

Kelib shom, baxsh etib g'am dashtiga tob,
Baland tog' boshiga etganda oftob.

Qarolik aylabon oqlikni pinhon,
Ko'targan chog'da bayroq misli sulton,

Turib suratga yondosh bir zamone
Va izlab toshda gavhardin nishone.

Oyog'idin o'pib gulchehraning bot,
Chekardi ishqidin so'ng nola, faryod.

3150 Ki "Ey ishq ahliga mehrob, ravobaxsh,
Ko'ngillar dardiga sensan davobaxsh!

Buti siymintanu ham toshko'ngillim,
Ki sensiz bo'yadir ovora ko'nglim.

Sen ul tosh ichra gavhar, payvasta,
Men ul toshdin siniqmen, dilshikasta".

Chu surat oldida yig'lar edi zor,
Tinib, so'ngra etardi uzri bisyor.

Chiqardi so'ngra ul tog' elkasiga,
Chu yuklab hasratu dog' elkasiga.

3155

Boqardi so'yi ul qasri dilorom.
Chekib zor, derdi: "Ey sarvi gulandom!

Jigarxunlarga jindek marhamat qil,
Yiqilganni suya, turg'iz, madad qil.

Murodin bemurodlarga ravo et,
Umidin noumidlarga saxo et.

Bilarmanki, meni yod etmagaysen,
Ki mendin yaxshi yoring yod etarsen.

Seni men yod etarmen kecha-kunduz,
Jahonga o't urar ohim, jahonso'z.

3160

Dilingni shoh ila shod aylagaysen,
G'aribni qaydanam yod aylagaysen?

Ochilgan gul kabi Shirin, guluzor,
Shahanshohni necha yod etmaging bor!

Fido aylar vale Farhodi miskin
Shiringa har daqiqa joni shirin.

Ayo, etmasmisen, sham'i hayotim,
Magar haj, umradin ham so'ngra yodim?

Sening ishqing ila men zoru dilxun,
Boshim uzra hamon qattiq erur kun.

3165

Bu tor dahlizda chun toshlar taralmish,
Vujudim, o'ylakim, toshdin yaralmish.

Etakdin bo'yla qismatkim tutibdir,
Bu badbaxtlik meni tutqun etibdir.

Yuzim gar ermasa, yohu, temirdin.
Vafo izlarnidin toshu temirdin?

Ko'ngilni bundan ortiq xo'rlama, hay,
G'aribga tosh otib, ezma ilonday.

Emasdir joni qurbon senga noyob,
Magar ikki ko'zingdir ikki qassob.

3170

Men ersam oh chekib og'riqligimdin,
So'yilmasmen hamon oriqligimdin.

Yiroqdin termularmen chun to'kib yosh,
Ki parvona berolmas nurga hardosh.

Yaqinlashgaymu aslo senga bu xok,
Yaqinlarning ishi bo'lgay xatarnok.

Ko'ngilda ishq haqi, kel, ayla himmat,
Meni o'ldir-da, qo'y bo'ynimga minnat.

Mudom bechora jon g'am birla yuklik,
O'limdin ham yomondir bu tiriklik.

3175

Tug'ilmay yulduzim ostida odam
Va mendek bo'lmasin baxti qaro ham!

Duo aylab onam, kechsa hayoting,
Yiroq bo'lsin demish har ne muroding.

Kesarkan tirnog'ingni tig'i davron,
Nechun kesgay qo'limni, oqizib qon?

Ne boisdin tutib ko'ksini gardun,
Senga sut bergayu men xastaga xun?

Onang bergan sut erdi senga imdod,
Arig'imdan icharsen to hanuz shod.

3180 Meni yod etib ichib sut shakkarolud,
Ki sut birlan shakardin tashnaga sud.

Cho'pon yanglig' sutingdin siyla andoq,
Chu ishqingda go'dakmen sutga chanqoq.

Shirin sut birla xush etsang yurakni,
Faromush aylama mendek go'dakni.

Emassa no'shi joming birla shirin,
Etay og'zimni noming birla shirin.

Ki sendin o'zga yo'qdir yori g'amxor,
Meni yori vafosiz qo'yma zinhor.

3185 Tilingni so'zga keltir, ech tugunni,
Yorug' kunduzga burgil tiyra tunni.

Magar yo'qsilman ul ko'yingda, darvesh,
Vale jonimni bergaymen beandesh.

Ki darvesh ham g'aniy, boydir, badavlat,
Berar sarmoyasiz ul necha sarvat.

Ko'ngilni o'rtama, dildori sensan,
Shu borliq olam ichra bori sensan.

Malohat ko'kida, ey nurli yulduz,
G'aribni qo'ymagil yo'llarda yolg'iz.

3190 G'ariblikdin agarchi benasibsən,
Hazir bo'l, bo'lmagil mendek g'arib sen.

Tiriklikka ko'ngilni boylagandim,
Yigitlikdin umidlar aylagandim.

Bugun har ikkisi begona menga,
Balo boshimdadir, hamxona menga.

Dareg'o, har ne olamda rafiqdir,
Mashaqqat etmaguncha hamtariyqdir.

Mashaqqat chog'i ko'z tashlab yiroqdin,
Ular qo'l tutmagay, olgay oyoqdin.

3195 Ichib qonimni chun kiyn ayla kamroq,
G'aribmen, o'ylakim, shahringda tuproq.

Senga qandoq yomonlik ayladim men,
Ki menga chun yomonlik aylagaysen?

Xayoling mehri jon etdim, habibim,
Juhudmen bundan ortiq bo'lsa aybim.

Darig' tutma g'aribingdin vafoni,
Kishi etmas kishiga bu jafoni.

Shamol ersam agar, ey sarvi ozod,
Boshingni tut, shamolni aylagil shod.

3200 Agar tuproq esam, boshimda turgil,
Bu tuproqdin ziyoratxona qurgil.

Agarda yo'q desang, sham'i jahonim,
Charog'ing o'tida yonsin shu jonim.

Va yoki qo'yma, ostonangdin hayda,
Shu jismi ustuxonim nobud ayla.

Manam bir qush erurmen, tunda bedor,
Yonimda yig'laguvchi Haqqushim bor.

Tilarmen nolayu zorimni ko'rsang,
Uzun tun holi bedorimni ko'rsang.

3205 Temirdin bo'lsa ham ko'ngling, malikam,
G'arib, bechoramen, rahm ayla bir dam.

Chekarmen, vahki, yangi-yangi javring,
Ki javr etmoqdin hech bitmasmi sabring?

Adoyingga rahm qil, yori jonon,
Gadoyingga muruvvat ayla, ey jon!

Haqiqat bil, majoz yo'qdir bu ishda,
O'yin yo'q ishq aro bundoq yonishda.

Magar tog' oldida ojiz emasmen,
Sening ilkingda ammo xoru xasmen.

3210 Chu ojiz ersa tog' qarshimda yaksar,
Ne ermish menga tog'dek kelsa lashkar?

Agar maydonda shamshir sirmasam tez,
Na Shabdiz unga dosh bergay, na Parviz.

U Parvezu u Shirinu u Farhod,
Barida beshta harfdir, ey parizod.

Agar har nomda andoq beshta harfdir,
Nega Xusravda qo‘l ustun, shigarfdir.¹¹³

Raqib bormiyki, ersa mendin ustun?
Hamisha men kelurmen andin ustun.

3215 Vale badbaxtliginni men bilurmen,
Raqibning baxtiga parvo qilurmen.

Ajab badbaxtligim bordir bu yo‘lda,
Ko‘rarmen baxtli bir badxohni unda.

Kishi garchi jahonda shoh bo‘lgay,
Yo‘lida baxtli bir badxoh bo‘lgay.

Cho‘chirmen, gar qo‘porsam tog‘ni, yohu,
Garov dushmanda qolgay, menda anduh.

O‘shalkim menga bu ishni buyurdi,
Talabgori haloki jonim erdi.

3220 Bu mehnat ichra o‘lmak menga oson.
Ki jonim g‘ussa ichra, g‘ussada jon.

Bu oshiqlik aro ish menga mushkil,
Ki jonga boyladim tosh, toshga ko‘ngil.

Haqiqat bor, majoz yo‘qdir bu ishda,
Halol ishdir, o‘yin yo‘q bu yumushda.

Menga sen toshbag‘ir bo‘lding bag‘oyat,
Temir ham tortadir hatto xijolat.

¹¹³ Shigarf – bu yerda kuchli, qudratli ma‘nosida.

Meni mum singari yondirdi ishqing,
Ko'ngilni o'rtadi chun dardi ishqing.

3225 Bisotimda simu zar yo'qki zinhor,
Chu to'ksam senga deb xirvor-xirvor.

Ruxi zardimga ul ishqing chekar rang,
Gabi zarrin etar, gohi kumushrang.

Sening ishqing ila, ey sham'i ofoq,
Farog'at yo'q, na uxloqmen, na uyg'oq.

Agar uyg'oq esam, dardim uzundir,
Magar uxloq esam, ortar, fuzundir.

Uchar uyqu va uyg'oqlikda ohim,
Chu sendin o'zga yo'qdir hech panohim.

3230 Kel endi, mehri jonimni sochay men,
Dev ermasmanki, mardumdin qochay men.

Kishi mardunga qul bo'lgaymidir chun,
Ki toshdin ul yo'nar mardumni har kun?

Yo'narmen tosh, murodim hosili, bas
Turar qarshimda, peshonamda ermas.

Kishiga baxt magar oldida tursa,
Ne qilsa, manglayi gar qattiq ersa?

Kishi erda unib-o'sgay ne yanglig',
Bunafsha singari bo'lsa ibolig'?

3235 Hayosiz kimsa turgay bog'da yashnab,
Kiyar zarrin kuloh nargisga o'xshab.

Jahonda men kabi bir xas topilmas
Va mendek benavo, bekas topilmas.

Magar bir do'sti tjonim bormi, manzur,
Yiqilsam, tutsa ilkimdin, desa "tur".

Chu bilmasmen yaqinroq bir kishimni,
Gar o'lsam, ul tuzatgay bolishimni.

Boshimni qo'ydim ostonangga, ey jon,
Kechar unrim g'amu anduhda har on.

3240 Agar yuz yil makonim ersa chohim.
Boshim uzra faqat ko'rgaymen ohim.

Agar yuz yil kezarsam tog'u sahro,
Faqat soyam bo'lur yonimda hamroh.

Shu jonim – it joni, dard aro tek,
Yugurgaymen misoli itboqardek.

Jahonda itga joy bor, menga joy yo'q,
Giyohga erda poy bor, menga poy yo'q.

Arslonlar uchun tog'lar panohdir,
Nahanglarga dengizlar joygohdir.

3245 Bu dunyoda magar diltang dilim bor,
Na tuproqda, na toshda manzilim bor.

Shu tuproq uzra yo'q g'amdin judolik,
Ki tuproq ichra topgaymen raholik.

Qolib maysiz mening mag'zi dimog'im,
Dili dardim erur yongan charog'im.

Chu mendin kul qolur dard ichra yakkash,
Kul ichra yoshirin qolgaymu otash?

Uchib har yonga sovrimish g'uborim,
Ko'ngildin zavqu poyimdin madorim.

3250 Qo'linga olsam erdi o'zni bir bor,
Chizardim o'zgacha bir naqshi devor.

O'girgum endi pargor sori yuzni,
O'shalkim naqshi devor sori yuzni.

Ko'targum orqa-o'ng devorim uncha,
Birovning naqshini to ko'rmaguncha.

Dilimni jazb etolmas surati kas,
Etar suratparastlik etganim, bas".

Keyin so'zni o'shal suratdin ochdi,
Dili miskinni ul suvratga sochdi.

3255 Viloyatdin kelardi bostirib tun,
Sipohini chekardi ortiga kun.

Tun aylab ertagi andishasini,
Egovlar erdi olmos teshasini.

U kunduz tosh yo'nardi, tog` yiqardi,
Va shomdin tonggacha gavhar yig'ardi.

Kishi bexonumonu yo'q bisoti,
Bu achchilikda ne kechgay hayoti?

"Senga bodi halokim etgay oxir,
Ne bod ermishki, xokim etgay oxir.

3260

Chu sen horsanki, men mazlum emishmen,
Bu yurtindir, men unda kim emishmen?

Ravomas gar desam men boru sen bor,
Ki unda xudparastlik bo'lgay oshkor.

Ketishga azm etarmen, bormidir sud,
Topolmasmen yo'limni, qoplamish dud.

Bu manzil ichra qismatdin darakdir,
Etishmog'im mahol, ketmoq kerakdir.

Ketarda otim uchgaydir har onda,
Bilolmam, joyi oromim qayonda?

3265

Chu g'amdin bo'lmadim bir lahza ozod,
Jahonda hech kishini istamam shod.

Ko'ngil, boq, ahli dono ne demishlar,
Akl so'ziga chun sohib emishlar.

Birovkim bor esa tab'ida sustlik,
Birovga istamas ul tandurustlik...

Menga ishq loyiq ermishmi, ayo mard,
Magar har tori mo'yimda nega dard?"

U bo'yla tosh yo'nib, gavhar to'kardi,
Chekib oh, o'rtanib gavhar to'kardi.

3270

Jahon ichra o'shal Farhodi ranjur
Shu yanglih tog' qazishda bo'ldi mashhur.

Kelishdi toshkesarlar har tomondin,
Taajjub ichra qoldi barcha ondin.

Ko'rib toshu temir jangini har on,
Xaloyiq barcha erdi lolu hayron.

**Shirin Besutun tog'iga borgani,
otining hurkib qochgani**

Muborak kun edi, osuda, ko'rkam,
Chu Shirin do'stu yoron birla hamdam.

Aroda so'z ketardi har tariyqdin,
CHunon achchiq-chuchuk, issiq-sovuqdin.

3275

Biri ayshi safosin yod etardi,
Ki ul bois ko'ngilni shod etardi.

Biri afsona so'ylab derdi. iqbol
Etar bizni sevinchlar birla xushhol.

Suxan har shevada gar dilnavozdir,
Ki takror aylasa, bo'lmas, darozdir.

Ulandi so'zga so'z, mavzu biloxir
Sutuni Besutunga etdi oxir.

Shirin ul necha yori lolagunga,
Tilarmen, dedi, borsam Besutunga.

3280

Ko'ray, nelar etay ul usta Farhod,
Nechuk toshni kesar ilkida po'lod'?

Temir birlan etarkan toshni pora,
Mening ko'nglimga ham o't tushsa zora".

Buyurdi, otga jabduq urdilar zud,
Bostb zarrin egar, keltirdilar zud.

Bugun Gulgun emasdi, o'zga tulpor,
Suvoriy bo'ldi ul tulporga dildor.

Va yo'lga tushdi andoqki bahorv,
Chu zebolikda gulgun, gulzore.

3285 Yuzi gul, ko'zlari purxob edi ul,
Chu yuz xirman guli serob edi ul.

Ajab nozikligi shunga etardi,
Misoli qush kabi parvoz etardi.

Chunon bir sur'at erdi ul sanamda,
Bosardi o'n qadamni bir qadamda.

Saboga na'lidin mismor chekardi,
Samodek er uza pargor chekardi.

Etishdi chun sochib ul mushki nasrin,
O'shal tog' domaniga jisimi siymin.

3290 Tushib aksi, o'shal xurshidi raxshon,
Bo'lishdi toshlar ul la'li Badaxshon.

Sanam tosh qoyalar koniga bordi,
U erdin Ko'hkan yoniga bordi.

Uning la'li labini aylabon yod,
Tinimsiz tog' qazirdi bunda Farhod.

Magar tosh yorsa-da gohida boshin,
U qo'ymas erdi tosh birlan taloshin.

Talosh aylab chekardi ranj joni,
Tarozu yo'q edi o'lchashga oni.

3295 Qazirdi bo'yla tog' bag'rini har dam,
Damovand tog'i yanglig' ko'nglida g'am.

Qazishga sarf edi butkul saboti,
Magar kelgaydi toshlardin murodi.

U toshni xuni la'l birlan yuvardi,
Magar tosh qoyadin la'l axtarardi.

Topib chun la'li shirindin xabar ul,
Magar tosh bag'ridin topdi guhar ul.

Chu oshdi teshasi zalvori ul dam,
Va yumshoq tortdi har urganda tosh ham.

3300 Agar bir ilki-la tosh surgay erdi,
Bir ilki ko'ksiga iosh urgay erdi.

Dili but ishq i birla o'rtanardi,
Buti bor ersa, nega but yo'nardi?

Sanamda sut edi lim to'la sog'ar,
Uzatdi, dedi: "Yodim birla sipqar!"

Shirinning ilkidin oldi javonmard,
Shirin ermas, shakardek erdi sharbat.

Shirin soqiy esa, dil xush bo'lgay,
Na sut, balki zahar ham no'sh bo'lgay!

3305 Etib oshiqni mast ul jomi boqiy,
O'zini chog'ladi ketmakka soqiy.

SHirin charchab zar uzra zar tashishdin,
Toliqqan erdi ot gavhar tashishdin.

Oson ermasdi bunga aylamak dosh,
Na ot, tog' bo'lsa ham bermasdi bardosh.

Agarchi erdi oti bodraftor,¹¹⁴
Horitgan erdi ul ganji guharbor.

Chu oshiq ko'rdikim, ma'shuqi joni
Yiqilgay erga, yo'q erdi gumoni.

3310 O'shal ot birla ul dilbarni azot
Ko'tardi, ishni oson etdi Farhod.

Va eltdi qasriga ildam, yashinvor,
Shirinning chekmadi bir mo'yi ozor.

Parivashni qo'yib qasriga unda,
Yana tog' bag'riga qaytdi shu onda.

Yana misronni tig'dek toshga urdi,
Yana toshlarni o'ngu so'lga surdi.

Yana tog' birla ul aylab taloshni,
O'shal tosh qoyalarga urdi boshni.

3315 Chu ohudek yiroqda sabza ko'rdi,
Sho'ristondin go'riston sori yurdi...

¹¹⁴ Bodraftor – yeldek yugurik.

**Shirin Farhod yoniga borganidan
Xusravning xabar topgani**

Jahonsolor Xusrav har zamone
Shirindin izlar edi bir nishone.

Xabar berguvchilar bor erdi minglab,
Sanamga ko'z tikib, gap-so'zni tinglab.

Shirin burniga barmog'in tegizsa,
Xabar topgay edi Xusrav shu lahza.

Chu ul muddatki qiz Farhodni ko'rdi,
Tog' ermas, qal'ayi po'lodni ko'rdi.

3320 Xabardor etdilar shu onda shohni,
Ki Farhod ko'rdi deb ul dilraboni.

Tanini, dedilar, g'ayratga qordi,
Va har gal hamlasi tog'ni qo'pordi.

Quvonchi ko'ksiga sig'masdi ul dam,
Muloyim tortgan erdi unga tosh ham.

Ki tog' boshiga andoq soldi kunni,
Sutunsiz aylar erdi Besutunni.

Urarkan teshasin chun sheri jangiy,
Uchardi avji osmonga jarangi...

3325 Ko'ring tulkini, etgay makru nayrang,
Raqibi bo'ridir gar, aylagay jang.

Agar yuz vazni og'ir ersa asru,
Dinordin yuz o'girgaydir tarozu.

Shu yanglig' jahdu javlon aylasa ul,
Bir oyda etkazar tog' ortiga yo'l...

Shahanshoh tingladi, oh urdi dildan,
Nahot ketgay o'shal dildori qo'ldan?

Chu hushyor keksalardin so'rdi oxir,
Ne bo'lgay, dedi, bu mushkilga tadbir?

3330 Dedilar necha keksa ul xiradmand:
"Bu isb andoqki, echmoq istasang band,

Xabarchi yo'lla, borsin yo'l bosib to,
Shirin o'ldi, desin, to'sat, banogoh...

Keyin Farhod qo'li bormaydi ishga
Va ortiq rag'bat etmas tosh qazishga".

Chu topdilar bir bedavoni,
Xunuk yuz, ukki ko'z, manglay qaroni.

Yuzida qahr ila qondin nishone,
Qilichdek mo'ylovi otashfishone.

3335 Yomon so'zlar ila ta'lim etishdi,
Berib zar va'dasin, so'ng qo'rqitishdi.

Keyin yo'llashdi so'yi Besutunga,
Ki bo'ldi bir razil yo'l boshchi unga.

Etishdi, bordi, ul Farhodni ko'rdi.
Qo'lida teshayi po'lodni ko'rdi.

Magar sher erdi, tosh bag'rir yorardi,
Magar fil erdi, tog'ni ag'darardi.

Dilida Shirin ishq'i erdi har dam,
Qo'lida mum edi toshu temir ham.

3340

Yonardi jonida otash shararsiz,
Na o'zdin ul, na olamdin xabarsiz.

Shirin sha'niga she'r aytardi har on,
Urib tesha, etardi tog'ni talqin...

Chu Farhod yoniga yondashdi nomard,
Yuzida zohir etdi qalbaki dard.

Dedi: "Nodoni g'ofil, ne erursen?
Nechun g'aflatda umring o'tkazursen?"

Dedi: "YOrimni yod aylab hamisha.
Urarmen bo'ylakim toshlarga tesha.

3345

O'shal yorimki jonda yoshirindir,
Shirin jonimdanam yuz bor shirindir".

O'shal olchoq niyatli, shumu badxoh.
"Shirin" so'zini eshitgach, hamono.

Sovuq bir oh chekib, dediki: "Hayhot!
Shirin o'lmish, xabarsiz bunda Farhod.

Darig'o, sarvinoz dech keldi elga,
Etib bodi ajal, jo bo'ldi erga.

Falakka jokidin anbar taraldi,
Va yo'llar borki, ko'z yoshiga to'ldi.

3350

Kuyib hajrida, "evoh" aytdi barcha,
Qo'yib tuproqqa, so'ngra qaytdi barcha".

U nomard bo'ylakim tig' chepkdi, og'u,
Toshirdi yuziga har lahza qayg'u.

Dedi: "Ul zulfu ul xol, ey darig'o!"
Tili chun bo'lmadi lol, ey darig'o?

Kishi qay til ila chun roz aytur,
Ko'rar kuydirganin ul, boz aytur?

Bu so'z bechora ul Farhodga etdi,
Chu tog' boshidin o'zni pastga otdi.

3355

Yiqildi, chekdi andoq bir sovuq oh,
Ki botdi ko'ksiga bir nayza go'yo.

Dedi ingrab: "Mudom ranjida bo'ldim,
Chu rohat ko'rmayin, ranj ichra o'ldim.

Sruvda yuz nafar qo'y-qo'zi bo'lgay,
Ochiqqan bo'ri darvesh qo'yin olgay.

Gulob tortguvchi kimsa gulga dermish:
Gulim, shu berganingni olmasang, xush...

Magar tuproq esa ul sarvi ofoq,
Nechun sochmayin boshimga tuproq?

3360

Gulin to'kmish esa gul bargi xandon,
Nechun bog' bo'lmasin ud menga zindon?

Qushim uchdi chamandin, ketdi dildor,
Bulut yanglig' nechun men yig'lamay zor?

So'nibdir ul charog'i olamafruz,
Tunim etmasmi chun ketganda kunduz?

Charog'im so'ndi, yolg'iz qoldi boshim,
Ketib oy, ko'kda sarg'aydi quyoshim.

Shirin deb endi ketgaymen adamga,
Adam ko'yida etgaymen sanamga.

3365 "Shirin!" deb so'nggi bor ul chekdi afg'on,
O'pib er, Haqqa taslim ayladi jon...

Zamona bundan ortiq ne qilolgay?
Berib nduh, keyin joningni olgay.

Kishi muhtoj qolarkan, benavoc,
Kelur har yoqdin unga bir baloe.

Magar gul shoxiga qo'l cho'zsa nogoh,
Yog'ar boshiga tosh, gul ermas, illo.

Quvonch o'miga kelgay endi qayg'u,
Tomog'ida novot ham misli og'u.

3370 Chunon tang holga kelgay ul qaro baxt,
Ko'targay bu jahondin bir yo'la raxt.

Uzangida bo'lur yoshlik oyog'i,
Nishab bo'lgay umr undan uyog'i.

Kishi topgay bu dunyodin omonin,
Ko'tarsa gar jahondin ko'ch-ko'ronin.

Masihodek xarobot ichra yursa,
Charog'in ko'rmasa olamda kimsa.

Jahon devdir, uni boylash kerakdir,
Shirin atvor ila moylash kerakdir.

3375 Yomon fe'l sen uchun do'zaxdir, angla,
Ulusga yaxshi fe'ling jannat ayla.

Agar xulqingda mehru shafqating bor,
Har ikki olam ichra jannating bor.

Ko'zim, ey, uxlama chun g'ofilu mast,
Nigohingni jahonga tashla sarbast.

Hali uxlarsen aylab maskaning xok,
Faromush aylagay davroni aflok.

SHu ellik yilni chun e'zoz etarsen,
Eshak munchoqqa muncha noz etarsen?

3380 Na ellik yil, magar ellik hazordir,
Muvaqqatdir bari, nopoydordir.

Kishi toshdan-da qattiq bo'lmagay hech,
Sochilgay qum bo'lib tosh ertami-kech.

Zamin bir sufradirkim, qum erur, bas,
Ki qondin o'zga hech narsa to'kilmas.

Bu dasht bag'riga qancha qonlar oqmish
Va lekin unmadi andin Siyovush.

Agar el birla bo'lsa zarra hozir,
Faridundir o'shal yo Kayquboddir.

3385 Kishi topgaymu bir kaf loy zaminda,
Ki yo'qdir odamiyning qoni unda?

Kishi bilgaymu dunyo mo'ysafid chol,
Yasha qancha, ne kechgay unda ahvol?

Yashab gohi etrakan yuzga daron,
Bitar davri, etar bir o'zga davron.

Yashar insonki, to davrini ko'rgay,
Magar o'z davrining javrini ko'rgay.

Jahonda necha yil sen surma davron,
Eshitmoq yo'q, ko'rmoqqa ne imkon?

3390

Mudom adlu jafo davr ichra sozdir,
Bu – ahli ma'rifat bilguvchi rozdir.

Javr ko'rmay desang, bu so'zga qaytma,
Davr rozini sen davronga aytma.

Kunu tun – to'xtamay elguvchi tulpor,
Sen unga ixtiyoring berma zinhor.

Necha bir hiyla etma, bo'lma dono,
Senga tulpor jilov tutqismas aslo.

Mushukdek o'zni siylab siypama ko'p,
Mushukdin o'zni ayro tutganing xo'p.

3395

Falak chandon qovurdi garchi tuproq,
Vale har gal taomi qoldi xomroq.

Agar dunyo qizi osmonda oydin,
Yaqin keltirma, ul aslida kampir.

Agar to'zon to'sarkan oyni bir dam,
Taloq bergay shamol tuproqqa ildam.

Shamol esgaymi ul, esmasmi oyo,
Bu tuproq uzra mash'al yoqma aslo.

Hovuch tuproqliging sen fahmiga et,
Agarchi o'nta barmog'ing charog' et.

3400 Chu tuproqsen, o'zingdin o'zmagaysen,
Kesik barmoq-la tuproq qazmagaysen.

Bu tuproq tanda bo'lmas tandurustlik,
Ki unda gohi og'riq, gohi sustlik.

Bo'lurdi ko'p qulay tomdin yiqilmoq,
Ki sinmay, qo'l-oyog'ing qolsa gar sog'.

Ko'rarsen tushda goh begona bir shaxs,
Tegar yuz o'q anga, parvoyi kelmas.

Turunj gugurt dudidin ko'rnamish, yo'q,
Ki biz to'qqiz turunjdin ko'rdik ortiq.

3405 Yusufdek ul turunjdin qochmasang gar,
Zulayhodin ziyon etgay muqarrar.

Sahargoh mast bo'lib bir sufra tuzgil,
Norinj birlan turunjni chetga surgil.

Burib to'qqiz eshikdin so'ngra yuzni,
Shu to'qqiz bosh ilondin qutqar o'zni.

Nafasdir ul tiriklik xojatoshi,
Biz ersak, ul xazon ellar taloshi.

O'liksen, bir nafas ishqisiz esang, hay,
Ki har ne olganing doim sanalgay.

3410

Kiroyi ishq aro Farhod bo'lgil,
O'lar bo'lsang, o'limdin shod bo'lgil.

Muhandis soplasa har gal tesha,
Anor cho'pıdin etgaydir hamisha.

Tutilgaydir hamisha qo'lda mahkam,
Qulaydir ul yana, farmonpazir ham.

O'shal so'zni eshitgan damda Farhod,
Chu otdi teshasin tog' boshiga bot.

Temir, toshlar aro sop erga tushdi,
Ki tuproq nam edi, namga tutashdi.

3415

O'shal sopdin o'sib bir novdayi nor,
Daraxt bo'ldi va berdi meva bisyor.

O'shal nor sharbatidin gar totarsen,
Necha darding esa, darmon toparsen.

Nizomiy ko'rmadi gar ul chanianni,
O'qib daftarda bildi bu suxanni...

Xusravning Shiringa kinoyali ta'ziyanomasi

Hikoyatchi hikoyat etdi bunyod,
Ki Shirin ishqida ko'z yumdi Farhod.

Shirin bag'riga hijron qo'ydi dog'in,
Magar ko'ngil qushi tark etdi bog'in.

3420

O'shal sarv hajrida hasrat chekib tek.
Kuyindi, yig'ladi abri bahordek.

Kiyib motam libosin, to'kdi yoshin,
Borib qabriga ma'yus egdi boshin.

Ko'tardi so'ng qabr boshiga gunbaz,
Ziyoratxona qurdi unga payvast.

Xabar etkazdilar Xusravga manzur,
Yo'lingda qolmadi deb xoru xas ul.

Pushaymon bo'ldi shoh qilgan ishidin,
Bo'lib ozurda ko'ngli qilmishidin.

3425 Bilardi qilgani savdo ne erdi,
Jazosin, der edi, tortarmen endi.

Kishi gar kimsaga etgay yomonlik,
O'ziga qaytadir ul beomonlik.

Shu g'am qaydida yurdi kecha-kunduz,
Shu g'am qo'ymas edi bir lahza yolg'iz.

Chaqirdi oqibat sohib qalamni,
Qog'ozga to'kdi ul dardu alamni.

Dedi: "So'zingni sen shakkardin etgil,
Shirinning nomiga bir noma bitgil.

3430 O'shal maktubni boshlarkan shahanshoh,
Xudovand zotiga etdi tavallo.

Ki andin koru bor ro'shnolik oldi,
Bo'lib sohib nazar, dunyolik oldi.

Namoyish etdi ul har insu jonni,
Yaratdi shu zaminu osmonni.

Falakni er uza parvona qildi,
Zaminni unga gavharxona qildi...

Azizlar nomini so'ng aylabon yod,
Keyin necha hadislar keltirib bot,

3435

Dedi: "Ey shohsanam, Shirin dilbar,
Labi yoqut, so'zida shahdu shakkar!

Eshitdim, o'zni motamlig' etibdir,
Birovning ko'yida g'amlig' etibdir.

Sochibdir sunbuli mushkini har yon,
Tizibdir nargisi yoshini marjon.

Duto etmish g'ami sarvi ravonni,
Nilufar sori egmish arg'uvonni.

Bunafsh guldin sumanga boylamish tavq,
Berib xurmoga so'ngak zaxmidin haq.

3440

Qilib xun lola gullardin yanog'in,
Yarolab durru gavhardin dudog'in.

Etibdir gul yuzini oy monand,
Ochib yuzdin niqobu sochdin band.

Jahonni kuydirib faryod etibdir,
Shu yanglig' do'stu yorin yod etibdir.

Chunon bo'lg'ay jahonda sharti yorlig',
Yana shundoq nishoni do'stdorlig'.

Chehib ul toshkesar hammolga qayg'u,
Kezibdir tog'ma-tog', mavzuba-mavzu.

G'aribga arzigay cheksang fig'one,
G'amida yig'lasa ahli jahone.

O'libdir ishq aro oshiqki g'amdin,
Kishi olmasmi ibrat bu alamdin?

Magar o'lgan esa ul, bizga ne ish?
Seni deb ko'nglimizda dardu tashvish.

Uni deb g'am eding, g'amlar egaysen,
Ajabki, o'lsa ham jon o'rtagaysen.

Chu avval dard ila o'ldirmog'ing ne?
Ki o'ldirding, kuyib oh urmog'ing ne?

Uni deb qayg'u chek, zor aylamishding,
Aziz tut yodini, xor aylamishding.

O'tir qabrida yuz yil yona-yona.
Ko'rinmas senga andin bir nishona.

Ko'ngilga jamla yuz orzu-havasni,
Topolmassen o'sha Shirinparastni.

Bo'lurmu bo'ylakim ko'z yoshidin sud,
Kabobsiz hech taratgaymu kishi dud?

G'amu qayg'u chekarsen, kam emasdir,
Ne tadbir, bo'yla toroj etsa taqdir?

O'lim aylar tirik har jonni nobud,
Jahonda qolmagay bir kimsa jovid.

Chu kunduzsen, u yulduz, ey dilafruz,
So'nar yulduz falakda kelsa kunduz.

Agar tongsen, charog'dir ul, emas kam,
Magar tong otsa, o'chgaydir charog' ham.

Agar shamsen, u bir parvonadir mast,
Yonar sham, kul bo'lur parvona qolmas.

Agar bog'sen, u bog' ichra giyoh, hay,
Giyoh bog'da unib, so'ngra to'kilgay.

3460 Agar o'tsen, u bir udi balokash,
Kuyar ud avj olib yonganda otash.

Agar qush uchsa bog'ingdin biloxir,
Etar ko'kda navozish nasri toir.¹¹⁵

Agar ko'zangdanam suv tomsa qatra,
Arig'ingda oqur daryoyi Dajla.

To'lin oy borida sindir hilolni,
Chiroying bor, anga qo'ndirna xolni.

Chu Farhod ketsa, ul Shirin omondir,
Sariq gul ketsa ne, nasrin omondir".

3465 Yozib maktubni kotib, bas, tugatdi,
Shahanshohga uni so'ng taqdim etdi.

Olib Xusrav uni qosidga berdi.
Parivashga, dedi, etkazgil endi.

Shirin ko'rdiki, kelmish nomayi shoh,
Ochildi nur taratdi o'ylakim moh.

¹¹⁵ Nasri toir – yulduzlar turkumi.

O'pib uch karra so'ng muhrini ochdi,
Ki har so'ziga ko'z nurini sochdi.

Jigarlar ko'rdi mushkandud unda,
Novotlar ko'rdi zahrolud unda.

3470 Ipaklar ko'rdi bag'ri yuz ilonlik,
Ne xurmolar yana, mag'zi tikonlik.

Yana ne nayzalar erdi, harirpo'sh,
Zaharlar erdi qancha, zohiri no'sh.

Na sabri bor edi sharbat ichishga,
Na mavrid erdi ul qahrin sochishga.

Chekib bir ayricha ranju sitamni,
Ichiga yutdi ul dardu alamni...

Maryamning o'limi

Nazar sol, ey hakim, gardishi ayyom
Har ishni aylagay oxir saranjom.

3475 Javobsiz ko'rmagay, yaxshimi yo dun,
Javob aytar munosib unga gardun.

Chu Farhodning vafoti uzra Xusrav
Yozib maktub, kinoya etdi payrav.

Etishdi qudrati amri ilohiy,
Qoraydi ko'kda Maryam nurli mohi.

Demishlar Shirin unga og'u bermish,
Emish ul, chunki og'u shirin ermish.

Nari sur og'uni, yolg'onmi bu, rost,
Uni himmat o'limga etdi damsoz.

3480 Agar hindu etarsa himmatin. hay,
Quruq shoxdin yashil yaproq to'kilgay.

Fusunzorlarga oy munchoq erur chun,
Etarlar bo'yla himmat birla afsun.

Chu Maryam ro'zasini tutdi Maryam.
Shahanshoh shakkaridin kechdi ul dam.

Ki Maryam jangi Maryamga tutildi,
Shahanshoh changi Maryamdin qutildi.

Yiqildi erga Maryam otli shamshod,
G'amu tashvishidin shoh bo'ldi ozod.

3485 Vale o'miga qo'ydi ehtiromin,
Tutib motam, sharaflab tilda nomin.

Necha kun taxtiga o'ltirmadi shoh,
Qaro kiydi, musibat etdi ifsho.

Xabar etdi Shiringa: "O'ldi Maryam",
Xabarda gul edi unga, tikon ham.

Quvondi, chunki etganda xalosi,
Uni charchatgan erdi rashk balosi.

Va lekin boshqa yoqdin chekdi hasrat,
Uning boshiga ham kelgay bu qismat.

3490 Chu Xusrav xotiriga burdi yuzni,
Bir oy xursandchilikdin tiydi o'zni.

Keyin ko'ksidin oldi ul tikonni,
G`ubordin bo'yla pok etdi jahonni.

Havasdin tuydi ul ko'ngil xitobin,
Ki yozgil endi Xusravga javobin.

Suxanlarkim, bari ko'ngilda erdi,
Chiqardi birma-bir, qog'ozga terdi.

**Maryam vafoti munosabati bilan Shirinning Xusravga
kinoyali ta'ziyanomasi**

Qo'liga oldi mirzosi qalamni,
Shu so'zlar birla so'ng chekdi raqamni.

3495 Suxanlarkim edi chun mazzasi qand,
Bitib, so'zboshi ichra etdi payvand.

Xudovand nomi birlan boshladi so'z,
Ki "Ul berdi basharga kecha-kunduz.

Xudovanddirki, tanho korsoz ul,
Bizu sizning amaldin beniyoz ul.

Uning izmidadir asrori qudrat,
Faqat andin kelur olamga hayrat.

Zamindin ko'k, quyoshdin oygacha to,
Saxovat, fazlidir har erda hamroh.

3500 Berar xalqqa munosib rizq ila qut,
Qalamsiz jo etar tosh ichra yoqut.

Chu qushdin to chumoli tog'u daryo,
Kezib, bebahra hech qolmaslar aslo.

Gahi ne'mat tomonga yo'llagaydir,
Gahi mehnatda qolsang, qo'llagaydir.

Unutgaymiz gahi shukrini butkul,
Qulog'imiz cho'zib, bedor etar ul.

Gahi rohat berar bizga, gahi ranj,
Gahi bergay faqirlik, gohida ganj.

3505

Jahonni ikki rang aylab aroda,
Gahi oq ko'rsatur, gohi qaroda.

Buning bedodidin unga berar dod,
Buning qayg'usidin aylar uni shod.

Demish donoga dono so'zni ko'rkam:
"Eshak o'lsa, bo'lur itlarga bayram!"

Na har qismatki kelsa, ul nishotdir.
Na har ustun yiqilsa, ul bisotdir.

U rizqin baxsh etarkan bizga har vaqt,
Gahi rizqi davo bo'lgay, gahi dard.

3510

Xiradmand ulki, doim orzumanddir,
Gahi gul hamdami, goi tikandir.

Shahanshoi jahon, xurshidi ofoq,
Ki etti taxt uzra tikdi bayroq.

Ishi doim jahonda podsholik,
Ki boshdin boshga chun sohibkulohlik.

Bihisht ul hazratimga mevagohdir,
Tubi – gul bog‘ida o‘sgan giyohdir.

Shu davron ichra chun dono erur ul,
Baliqdin oygacha ogoh erur ul.

3515 Bilar ul, tuni kun ne yog‘du bo‘lgay,
Taomi goh shakar, goh og‘u bo‘lgay.

Bilar sandalsaroy, antiqa bu uy,
Gahi motam bo‘lur unda, gahi to‘y.

Agar shoh dilrabosi zeri xokdir,
Necha gulgun qabosi bor, ne bokdir?

Falak amri-la gar tuproqqa berdi,
Ham ogoh erdi shoh, ham to‘ygan erdi.

Gar undan yaxshiroq yo‘q shohga hamdam,
Shahanshoh to‘ygan ersa, unda ne g‘am?

3520 So‘rar shoh o‘zga bir gulning dudog‘in,
Kiritgay qo‘lga undan yaxshirog‘in.

Darig‘o, ul sanam ketmish, yo‘qolmish,
Surar ayshini kimki ortda qolmish.

Ayo nozikko‘ngil shoh, chekmagil ranj,
Chu ganjdirkim sanam, tuproqdadir ganj.

Kuyinma, g‘amga odam dosh berolmas,
Zamin ham qayg‘uga bardosh berolmas.

Ezilgay nozaninlar g‘am chekishdin,
To‘zar nozik ko‘ngillar o‘rtanishdin.

3525

Unut Maryamni, ul husni jahonin,
Iso bo'lsang-da, topmassen nishonin.

Agar ul taxtga uzra ketdi ra'no,
Shahanshoh taxtidin kechgaymi aslo?

May ich, kipriklaringdin to'kma gavhar,
G'aming oshgay, uni tark etmasang gar.

Agar har kimsa mirdin oldin o'lmas.
O'zi birlan alam, qayg'uni olmas.

U o'ldi, sen yasha, paymona sindi,
Uning o'lganiga tan bergil endi.

3530

Fig'on aylab o'likka etma bedod,
U istar sabru toqat, yo'qki faryod.

O'limdin kelga gar tanga tabohlik,
Na darveshlik yarar unga, na shohlik.

Magar bir chashma leb sen chekmagil g'am,
Degilkim, Dajladin bir qatradir kam.

Borib daryo bo'yiga jomi Jam ol,
U Bag'dod zambilin ilkingga kam ol.¹¹⁶

Dili bechoraga ber endi rohat,
Ki ko'zdin ketdi, dildin ketgay albat.

3535

Agar sarv etdi tark bo'stoni olam,
Sen unda bo'l omon, ey joni olam!

¹¹⁶ Zambil – bu yerda gadoyxalta ma'nosida. Ko'pam g'am chekaverma demoqchi.

— ❦ —
Ema g'am, xush o'tir, mastona may ich,
Boshingdin bir tukung ham bo'lmasin hech.

Agar qo'l cheksa olam, bo'lmasa yor,
Bihamdulloh, o'zing borsan, hama bor.

O'zing durqadru dur tanho azizdir,
O'zing la'l, la'li behamto azizdir.

Shu tanholikka o'rgan misli xurshid,
Ayolni yo'lda sherik etdi Jamshid.

3540 Agar qush birla qush birga yotar, xo'p,
Ki sen simurg'sen, simug'rga yo'q juft.

O'kinma, gavharing gar benishondir,
O'zing konsan-ku, kon gavharga kondir.

Bosh afzaldir, agarchi hamsari yo'q,
Guhar afzal, magar hamgavhari yo'q.

Gar ohu ketgan ersa, g'am emasdir,
Bu sahro ichra ohu kam emasdir.

Agar bir dona kam shoh xirmanidin,
Falak o'rgilsin ul moh xirmonidin.

3545 Magar gul ketdi, sen boqma tikonga,
Bahoring keltirur guldasta senga.

Sanam ketgan esa, Kisro omondir,
Ema Maryam g'amin, Iso omondir!"

Shirin maktubining Xusravga etgani

O'qib maktubni shoh diqqat-la shu on,
Shirin so'ziga qoldi lolu hayron.

Dedi: "Jangmas, javobdir bu, qarordir,
Kesak otganga tosh tegmog'i bordir.

Javobi yirtish erdi, lek ne etdim,
Eshitmog'im kerak so'zni eshitdim..."

3550 Yana Shirindin ul bo'ldi shakarxoh,
Chivin g'avg'osidin forig' edi roh.

Chu Maryam tashvishidin bo'ldi osud,
Danaksiz erdi xurmo, sham' bedud.

Tiriklik bazmidin qo'l uzdi Maryam,
Shahanshohga jahoniy bo'ldi bayram.

Raqib yo'qsa, yurishgay ish bag'oyat,
Ki bir qultum suv ichsang, ul kifoyat.

Shirin so'zlar debon Shiringa qancha,
Temirdek ko'nglini yumshatdi ancha.

3555 Buti farmonpazir farmonga etdi,
Ki dardi bor edi, darmonga etdi.

Xayol aylardi, shoh tutgay adabni,
Nazokat birla etgay ul talabni.

Anga taxti ravonni yo'llagay ul,
Kelin yanglig' navozish aylagay ul...

Yana dilda itob og'oz etardi.
Itobi ortar erdi, noz etardi.

Qadrlar erdi ul yaxshi matoni,
Baland tutgay edi unga bahoni.

3560

Xaridordin mato kutgay ravolik,
Ko'rar ko'zdin topar ul ro'shnolik.

Bu so'zda foyda bor senga, unutm,
Matoyingni ochma, arzonga sotma.

Bu bozordirki, unda foyda bor, qut,
Do'koning eshigin doim ochiq tut.

Malik aylar, Shirin dam aylamasdi,
Va lekin nozini kam aylamasdi.

Chu ojiz qoldi shoh noz oldida ul,
Va chora izlamoqqa bo'ldi majbur.

3565

O'shal dildori toki qo'lga kirgay,
Shu oqsoq eshagini yo'lga surgay.

O'zini etgay ul bir ishga payvand,
Ko'ngilni o'zga ish birlan qilur band.

Chu har qavmdin so'rardi shoh hikoyat,
Ishiga e'tiborli erdi g'oyat...

Xusrav saxovati

Jahonxusravki, toj kiydirdi ofoq,
U yanglig' shohni dunyo ko'rgani yo'q.

Ki taxtga o'ltirar ersa, u chog'da,
Turardi oldida besh saf oyoqda.

3570 Badavlatlar edi oldingi safda,
Faqir, yo'qsil ado orqa tarafda.

Uchinchi safda erdi xasta, bemor,
U dunyoga safar etmoqqa tayyor.

Asiru bandilar to'rtinchi har gal,
Oyoq-qo'llarda zanjir erdi yaksar.

Keyin beshinchi qotillar edi saf,
Sukut saqlab turardi, jon hovuchlab.

Nido uchgaydi boshlar uzra goho:
"Boqingiz orqa-oldingizga ogoh!"

3575 Badavlatlar boqib yo'qsil sari ul,
Shukur, derdi, emasmen zoru yo'qsil.

Keyin yo'qsil boqib bemorga bir bor,
Shukur, derdi, salomatmen baharhol.

Boqib qotilga bandi derdi har dam
Shukurkim, qon to'kar qotil emasman...

Shu qotil ham umid birlan boqardi,
Dilida sham'i shukrona yoqardi.

Shahanshohning bo'lib chun shod ko'ngli,
Misrdek erdi shukrobod ko'ngli...

**Xusravning toqdisiy taxtiga o'ltirib,
mayxo'rlik qilgani**

3580 Shahanshoh o'ltirib taxt uzra bir kun,
Qo'lida sog'ari may erdi, gulgun.

Yana atrofida podsholar erdi,
Xushomad aylagach maddohlar erdi.

Necha timsolki erdi osmoniy,
Ayon etmishdi ul taxti kayoniy.

To'lin oydan to xirgohi kayvon,
Uning boshida erdi ko'shku ayvon.

Va yulduzlarki, sobit erdi, sayyor,
Shahanshoh ustida porlab fusunkor,

3585 Guhardek yarqirab turguvchi erdi,
Kecha-kunduz xabar berguvchi erdi.

Bilimdonlar baholab bori yukni,
U taxt oldida taxa derdi ko'kni.

Kishikim taxti ul Xusrav ko'rardi,
Necha ming jomi Kayxusrav ko'rardi.

Ajab taxt erdi taxti osmon ul,
Yana shoh demakim, sohibqiron ul.

Ajab fil erdikim odamga monand,
Ajab sher erdikim, lek odamiy tan.

Zamindin to samo dilbasta erdi,
Surayyo avjiga payvasta erdi.

Iramga ramz edi majlisida jom,
Falakka halqa ul dargohida nom...

Buyuklik istasang, xayru saxo qil,
Ochiq tutgil qo'ling, xarji ado qil.

Xasislikka badavlat bursa yuzni,
Duchor aylaydi badbaxtlikka o'zni.

Shu olamning ishin shodlikka darj et,
Talab ayla xirojin, so'ngra xarj et.

O'shancha ber mudom qancha olursen,
Berib so'ng olmasang gar, sen bilursen.

Jahondor yakka-yolg'iz bo'lmagay kas,
Jahonni yakka bir kimsa eyolmas.

Haqiqat ulki, oqil kimsa bilgay.
Kishi gar yakka eydi, yakka o'lgay.

Siminna yakka, gar daryoyi Sir ul,
Icharsen yakka, dengizdek taxir ul.

O'zingni sham etib yoq, ey jumard er.
O'zingdin boshqalarga ham madad ber.

Agardi yig'di Qorun ganji dunyo,
Ne eltdi bu jahondin? Ranji dunyo!

Qo'lingga kirsaraj birlan, salimdir,
Qo'lingdin ketsa ul, ranji azimdir.

Agarki ganj kelar ersa, kelar ranj
Quruqqo'llik sharaf, gar bo'yladir ganj.

Malik Parvizki Jamshiddek yashardi,
Saxovat etsa, xurshiddin oshardi.

Nisor aylar edi ganjini andoq,
.chu tuproq erdi ganju ganj tuproq.

3605 Yozardi sufra doim subh ila shom,
Taomdin kosa lim-lim, bodadin jom.

Cho'zilgay erdi sufra necha bir xil,
Chivinga mol berardi, pashshaga fil.

Yana halvolar erdi unda xirmon,
Bilolmay ne esin, lol erdi mehmon.

Chu go'shti molu qo'y, qushdin baliq to,
Bari mehmon uchun erdi muhayyo.

Bazmning xush havosi mast etardi,
Sabo rayhon hidini tarqatardi.

3610 Taralgaydi buxori udu anbar,
Xiroji Hind edi ul xarji mijmar.

Taomi xosi dasturxonga etgay,
Ta'mi xushbo'yi Xuzistonga etgay,

Kabobin erdi peshin, ayni kunduz,
Surib har gal anga durri shabafruz.

Chu Ummon tojiridin shoh nihoniy
Necha man zar berib olmishdi oni.

Eshitdim, dur shifobaxsh erdi chindan,
Rutubatlarni haydardi badandan.

3615 Va shoh toychog'i ko'kko'z edi, navzod,
Muattar erdi chun rayhoni Bag'dod.

Anosini emishga bermay imkon,
Uni ko'ysut ila boqmishdi cho'pon...

Buyurdi shoh, kumushdin katta tandir
Yasashdi, bo'ldi ul xizmatga hozir.

O'tindin ermas erdi otashu dud,
Chu unda yoqishardi behisob ud.

Kabobpaz ko'zini biryon etardi,
Kabobin husni dasturxon etardi.

3620 Shahanshoh er edi bir-ikki luqma,
Bir-ikki mag'zi pista holva birla.

Nazar tashlar edi atrofga ongoh,
Ko'zi gar tushsa bir muhtojga nogoh,

Bag'ishlar erdi unga oshu nonni,
O'shal tandir ila butkul taomni.

Ne dasturxonki ul, ehson nuridin
Chiqargay bo'ylakim non tandiridin!

Keyin kun u xoni lojuvardiy
Yana tandiridin tongni uzardi.

3625 Yana shoh maqsadin aylardi og'oz,
Yana tandiru sufra aylashar soz.

Yana takrorlanib shoh rasmi kori,
Keyib yillar, shu erdi ixtiyori...

Jahonda qolmadi ul podsholik,
Ko'rinmas bo'ldi ul xayru saxolik.

Sharaf istar esang, muqbil bila yur,
Kishi muqbil ila muqbil bo'lar ul.¹¹⁷

Nuqul sunbul egay ohuyi totor,
Ufursa el, to'lar atriga bozor.

3630

Xashak cydi vale bir o'zga ohu,
Xashak hidi taralgay andin asru.

Otam, qabri iloho nurga to'lsin,
Nasihat aylamishdi menga bir kun:

"Bedavlat kimsadin o'zni yiroq tut,
Badavlat kimsalarning suhbatin kut.

Oshir tun suhbatiga ishtiyog'ing,
Yorug' mash'aldin et ravshan charog'ing.

Bahoyi dur buyuk ersa, emas sir,
Buyuklar birla chunki hamnishindir".

¹¹⁷ Muqbil – iqbol egasi, baxtiyor.

Xusrav isfahonlik shakarining ta'rifini eshitgani

- 3635 Jahondorlik rusumi birla gulgun,
Jahondor ayshu ishrat etdi bir kun.
- Ki shoh bazmiga Qofdin Qofgacha to,
Kelishdi necha sulton, necha podsho.
- Chu hozir erdilar ishratda shu on
Solari Chinu Rumu Ray, Sipohon.
- Hukmdori Xutan ham xusravi Zang,
Tutib qo'llarda barcha boda gulrang.
- Qadahlariga tinim bermasdi soqiy,
Ki oshgay so'zga jonlar ishtiyoyi.
- 3640 So'z ochdi shunda shoh, maqsadga burdi,
Arodin pardani bir chetga surdi.
- Dedi: "Ayting, qayu kishvarning ortiq
Guli ra'nosi bor podshoga loyiq?"
- Biri dediki: "Running yo'q qiyosi,
Latofatli erur Rum dilrabosi".
- Biri dedi: "Magar Xutandadir gul,
Husn bobida chun afsonadir ul".
- Biri dediki: "Arman yurti obod,
U yurtning qizlari bo'lgay parizod".
- 3645 Biri dedi: "Pari Kashmirda bo'lgay,
Chiroyi oy bo'lib osmonda to'lgay".

Biri dedi: "Qiyosi yo'q jahonda,
Shakar nomli go'zal bir Isfabonda.

Shakardir, har nechuk shiringa bedod,
U bois jumla Xuzistonda faryod.

Yuzida nozli yuz xanda desam, rost,
Labiga yuz shakar banda desam, oz.

Qadi tang aylagay sarvi chamanni,
Tani etgay xijolat yosumanni.

3650 Dahoni oldida sharmanda xurmo,
Dudog'iga shakar ermas muammio.

Niqobini yuzidin cheksa gohi,
Uchar yuz chohdin Yusufklar ohi.

Faqat bir aybi bor, kelsa kalomga,
Ochiq chehra erur xosu avomga.

Borib, har joyda ul oromin olgay,
Miosli lola yanglig' jomin olgay.

Darig' tutmas birovdin lutfi jonin,
Magar baxsh aylagay ul xonumonin.

3655 Kishi bir kecha gar bo'lsa hamog'ush,
O'shal tunni keyin etmas faromush".

Shahanshohga etishdi dilnavozlik,
Vujudin qurshadi boz ishqibozlik.

Shiringa istadi ul ot surishni,
Ochib turkiyga chun turkiy urushni.

Bu qandga qo'l cho'zib, olsin u qandni,
Bu bandni boylasin, echsin u bandni.

Chu gavhar oldida gavhar tushar past,
Ipaklar oldida ojizdir atlas.

3660 Boshiga tushdi, bas, savdoyi Shakkar,
Ki shakkar ichra shirinlik muyassar.

Na hayday oldi ul shavqini jondin,
Na chorlay oldi gulni Isfahondin.

Kechirdi boshidin toqat shamolin,
Birov bilmas edi ul hasbiholin...

Xusrav Shakarni istab, Isfahonga borgani

Kechib bir yil, otiga jabduq urdi,
Jadallab Isfahon yurtiga yurdi.

Borib etgach, ko'rib ortdi quvonchi,
Ki mulki Rumdin erdi keng qulochi.

3665 Guruhi toza yuz va ishratafuz,
Dili xush, ravshan erdi misli kunduz.

Sevindi shoh, qo'lida boda erdi,
Dilida lo'bbati ozoda erdi.

Nihoniy so'rdi ul jonona joyin,
Surishtirdi yo'lin, ko'shku saroyin.

Tun ichra bir g'ulomin etdi hamroh,
Shakar bozoridin kom istadi shoh.

Jadal aylab Shakar ko'yiga keldi,
Sipohon o'zga Shirin qasri bo'ldi.

3670 Anga ayshu halovat erdi asli,
Shu Shakkar ko'yi, ul Shirin qasri.

Eshikning halqasin ohista qoqdi,
Eshik ochdi g'ulom, mehmonga boqdi.

Yigit ko'rdi g'ulom barnoyu shunqor,
Jahondorlik yuzida erdi oshkor.

Olib otdin va boshlab uy tarafga,
Otini eltdi, qo'ydi o't-alafga.

Keyin mehmonni ul ayvonga eltdi,
Quvonchdin boshi naq Kayvonga etdi.

3675 Shahanshoh o'ltirib no'sh ayladi jom,
Nisor aylab shu onda simu zar ham.

Ijozat etdi so'ng: Shakkar ko'rinsin,
Labidin bizga ham shakkar to'kilsin!

Shakar kirdi, qo'lida jomi gulgun,
Dudog'i purshakardi, ko'zi suzgun.

Shakarnomdin shakar ersa, ul erdi.
Sipohondin novot dersa, ul erdi.

Sochi zanjir edi, mushk tarqatardi,
Labidin kulgusi shakkar to'kardi.

3680 Visodek fitnakordi bo'sa boli,
Shirin so'z erdi ul doya misoli.

Kanizaklar edi rumiyu chiniy,
Go'zal erdi, alomat erdi husni.

Yarim tunda tuzib navro'z bayram,
Navozish etdilar ko'p shodu xurram.

Kuyib boda uzatdi mohi tal'at,
Sanam tanho edi, uy erdi xilvat!

Sharobin gohida achchiq berib ul,
Tabassumdin shirin aylar edi gul.

3685

Shahanshoh o'ltirardi mehtarona,
Shakar aytar edi shirin tarona.

Payopay may kuyib, sog'ar tutardi,
Malikni uyquga moyil etardi.

Keyin Shakkar muvofiq ko'rdi damni,
Turib, darhol qo'liga oldi shamni.

Uzr aytib, etib tark bodayi jom,
SHahanshoh oldidin chiqdi dilorom.

Kanizi bor edi, xushqomat erdi,
Ko'rib begonalar Shakkarmi derdi.

3690

Anga kiydirdi zarru zevarini,
Muhayyo etdi shohga dilbarini.

Shahanshoh ko'rdi, kelmish nozanin ul,
Quchib, shakkar so'rishga bo'ldi mash'ul.

Etib komiga ul sarmastlik ichra,
Adashgan erdi ammo mastlik ichra.

Boqib husniga, chun sham'i sahar deb,
Gumon etmishdi shoh ayni SHakar deb.

Kaniz Xusrav ishidin bo'ldi sarxush,
Shirin erdi o'shal Xusravda og'ush.

3695

Husn bobida erdi ul fasona,
Fusungar erdi so'z ichra, yagona.

Bor erdi bir ajib erkaklik unda,
Yana sarvarligu yuksaklik unda.

Edi chun xushmag'iz bodomi tar ul,
Va yo shirin qamishli nayshakar ul.

Oti gar tunda yo'lni lang bosardi,
Kam emas, o'ttiz uch farsang bosardi.

Gahi kunlar sharob kam tortar erdi,
Kamida qirq qadah dam tortar erdi.

3700

Tong otgach, ul kaniz uyg'ondi, turdi,
Shahanshohdin ketishga izn so'rdi.

Shakarga uchrashib ul komu nokom,
Bayon etdi tamom ahvoli bodom.

Chu shohdin har ne ko'rganini aytdi,
Kechirgan sirri pinhonini aytdi.

Ki Shakkar bo'lgay ul ishdin xabardor,
Javob bergay savol etsa jahondor.

Olib sham', yurdi mehmon sori dilbar,
Na xushdir birga bo'lsa sham'u Shakkar!

SHahanshoh ko'rdi, tungi dilbar erdi,
Kanizak ermas aslo, Shakkar erdi.

Dedi qizga: "Ajab mehmonparastsen,
Meni xilvatda mehmon aylamishsen".

Javob aytab dedi SHakkar: "Shahanshoh,
Seningdek ko'rmadim mehmonni aslo.

Ajab barno yigitsen, sarvqomat,
So'zing shirin-shakardir, jonga rohat.

Bir aybing bor, ko'ngilga olma, shohim,
Ki og'zingdin kelur tuz hidi doim.

Birovlar tuz esa, ma'lummas uncha,
Chu sendin tuz hidi anqiydi muncha?"

Dedi shoh: "Ayt, buning tadbiri qandoq?"
Dedi: "Bir yil sarimsoq e sarimsoq".

Shahanshoh mindi ot, tark etdi manzil,
Amal qildi Shakar so'ziga bir yil.

Aroding haftalar, oylar o'tishdi,
Mijozi shoh holdin holga tushdi.

Yana ostida ul davroni tavsani,¹¹⁸
Sarimsoqdin etishdi, undi savsan.

Yana shavqi visol qo'zg'oldi unda,
Shakar bozoriga yo'l oldi tunda.

¹¹⁸ Tavsani – ot, tulpor.

Yana yo'l topdi shirin orzularga,
Shirin totgan ko'ngil boylar shakarga.

Etishdi shohga rohat, ayshsozlik,
Olib og'ushga gulni, dilnavozlik.

Shakar boshqa kanizni ziynat aylab,
Yubordi shohga tunda ulfat aylab.

Shahanshoh quchdi, o'pdi gul qaboni,
Shakar deb o'yladi ul dilraboni.

3720

Ketib tun, to'nini echdi sahardin,
Shahanshoh subhidam so'rdi Shakardin:

“Senga mendek magar kelmishini mehmon,
Dilingni men kabi olmishini mehmon?”

Anga Shakkar javobin so'yladi tek,
Ki “Bultur bittasi kelgandi sendek.

Kelurdi og'zidin badbo'y, taraf yo'q,
Vale sendin kelur xushbo'y, ajab yo'q!”

Dedi shoh: “Ko'rganing yot aybi erdi,
Qachon ko'rgaysen o'z aybingni endi?”

3725

Dedi: “Aybimni aytgil ne emish ul,
Mening aybimni andoq kim demish ul?”

Dedi shoh: “Voqif ermishmen alardin,
Yiroqmassen bir zum boshqalardin.

Ishing har kimsa birlan ishva-nozlik,
Etarsen barcha birlan ishqibozlik.

Chu qushdek talpinarsen turli yoqqa,
Ucharsen ul butoqdin hu butoqqa.

Ajab nozik g'ilofsen, boshqamas ul,
Ishing har lahza tig' birlan o'yinldir".

3730

Javobin berdi SHakkar: "Ey javonmard,
Eganmas shakkarim olamda bir mard!

Tirikmen, pardayi sattor yuzimda,
Butundir, iffati muhrim o'zimda.

Birov yor bo'lmamish umringa hargiz,
Kishi daxl etmamish durrimga hargiz.

Kanizaklar edi lab so'rganing ul,
Ki xilvat ichra ishrat qurganing ul.

Men erdim bazm aro kirguvchi avval,
Qadahga mayni to'ldirguvchi avval.

3735

Vale gulkim, ocharding unga og'ush,
Kanizak erdi, men yanglig' qabopo'sh".

Eshitdi shoh bu so'zni ul zabondin,
Keyin SHakkar qasamlar ichdi jondin.

Dur erdi qizda chun muhri xudoyi,
Guvohlik bergay ul so'ngra kiroyi...

**Xusrav Shakkarning nasli-nasabini surishtirib,
keyin unga sovchi qo'ygani**

Quyosh yuz ochdi sharqdin yona-yona,
Shahanshoh bo'ldi ul joydin ravona.

Ulug'larni yig'ib, qo'ydi talabni.
Surishtirdi u nozik, no'shlabni.

3740 Sipohon ahli bir so'zda davoman,
Dedilar, tozadir qiz, pokdomon.

Magar guldir, birov qo'l urmagan gul,
Tutar o'z iffatini beg'ubor ul.

Jilovlab, boshqaga mindirmas otin,
Hamisha ko'rsatur sabru sabotin.

Matohiga mudom hushyoru nozir,
Kanizaklar turar xizmatga hozir.

Va oxir onalar berdi guvohlik,
Ki Shakkar qiz erur iffat, ibolik.

3745 Sevintirdi malikni foli axtar,
Chivindin xoli erdi chunki shakkar.

Yubordi sovchiyu aqdiga oldi,
U Shakkar qizni shoh qo'yniga soldi.

Duri noyob edi ul, durni teshdi,
Uzugi zar edi, yoqutni qo'shdi.

Madoin shahri sori yurdi so'ngra,
Shahanshoh birla Shakkar erdi birga.

SHirin ishqini Xusrav xor etardi,
Ki Shakkar o'zni shakkarbor etardi.

3750 Shakardin oqibat to'ydi hukmdor,
Shirin sog'inchini his etdi takror.

Shakkar shoh qasrida ma'yusu malul,
Tikan erdi Shirin xurmosidin ul.

Edi savdoyi Shirin shohda yaksar,
Erir erdi shu vajdin suvda shakkar.

Shirin hajrida shoh sham' erdi, otash,
Asal birla eylsa, mum erur xush.

Kishikim ayru tushgay jismi jondin,
Ne foyda labga shakkar surkamoqdin?

3755 Shakar hargiz ololmas joyi Shirin,
Shakardin toflidir halvoyi Shirin.

Chaman xokdir, magar nasrin emas ul,
Shakar achchiq, magar shirin emas ul.

Dema shirin, shakarni bitta birlik,
Qamishdin shakkaru jondin shirinlik.

Asal sham'ini Shirin yoqsa har gal,
Yoqar manqalda ul dam udni Shakkar.

Shakar jom ichra yolg'iz tomchidir, toq,
Shirinlikdin halovat olgay andoq.

3760

SHirinlikni sevarlar kattalar gar,
Go'dakni, to'tini ul shakkar aldar.

Ko'ngilga xush kelur suv shirin ersa,
Shakar bitgay erib gar suvni ko'rsa.

Shirin birlan shakar farqi ayondir,
Shirin jondir, shakar unga makondir.

Pariyuzdir Shirin taxti ravonda,
Shakar bir pardadir unga shu onda.

Bilar ulkim, magar ahli tamizdir,
Shirinlik vajahidin shakkar azizdir.

3765

Dili derdi: Shiringa men ctay zud,
Ki Shakkar birla ayshdin kelmagay sud.

Magar muz shishadek sofdir, emas kam,
Quduqdir ul, bu ersa suvlidir, nam.

Yana derdi: Shirinsiz toqatim yo'q,
O'zinga tokay otgaymen o'zim o'q?

Boshida gar tegirmon toshi yursa,
O'shal oshiqmi yordin yuzni bursa?

Boshidin o'rgilib, boshimni qo'ydim,
Bu ishq ko'yida men boshimni qo'ygum!

3770

Yana derdiki, bu tadbir xomdir,
Sabr qil, yo'qsa, ish rasvo-tamomdir.

Na xush jumboqni men sabrim-la echsam,
Go'dakmasmanki, shirinlikka uchsam.

Yurib mil uzra mil, sur'at kerakdir,
Har ishning halliga fursat kerakdir.

Menga Shirinu Shakkardin etar jom,
Nechuk talx aylagay jomimni ayyom?

Bu do'stu dushmanimda ko'rimgum farq,
Ko'paysa kemachi kema bo'lur g'arq.

3775 Desang, tushmay zaminiga misli soya,
Baland narvonga chiq sen poya-poya.

Etay maqsadga deb ko'p urma javlon,
Etolmay qolganingda kuymasin jon.

Tamah kam qil tiriklik tashvishingda,
Yutuq uzra yutuq bo'lgay ishingda.

Jumard bo'lsin kishi har ishda, har zum,
Murodiga etar mardlik-la mardum.

Etarmen endi sabrim rahnamun, bas,
Xotin deb xor bo'lish erga yarashmas.

3780 Magar erkakka xotinlik haromdir,
Yo'q ersa, unga qaydi ehtiromdir?

Qilurmen, bas, nechuk da'voyi sherlik,
Gar etsa ohu qarshimda dadillik?

Agar bir qo'ymanu ozudadirmen,
O'zimning yungimu po'stimdadirmen.

Kezarman filga o'xshab o'z ko'yimda,
Yotarmen pilla qurtdek o'z uyimda.

Chunonam oshdi haddin turki tannozi,
Na Xusrav, balki Kayxusrav chekar nozi.

3785 Chu kurd ko'nglingni olsa, siyna izlar,
Gar unga xona ber, ganjina izlar.

Ko'ngilni chun firoqi ayladi xun,
Ki andin xastalik kelmog'i mumkin.

Vafo ma'shuqadin kutmoq g'aribdir,
O'zini holini bilgan tabibdir:

Etar nozu itobi shungacha to,
Ki o'ldirsam uni, astag'furilloh.

Chekarmen tokay andin ranju ozor,
Tamom ozurda bo'ldim, balki abgor.

3790 Gelonlik bittasi aytmish: "Sababsiz
Ayolga ranju ozor berma hargiz.

Vale janjal etarken ertayu kech,
CHunon ur, o'rnidin qo'lg'olmasin hech!"

Dili shoh bilmas erdi chorayi g'am,
Yo'q erdi dardini aytishga mahram.

O'shal mahramki gar hamxona bo'lgay,
Dili begona ham begona bo'lgay,

Desang, o'g'ri qo'liga tushmasin dur,
Degil begonaga: uydin yiroq tur!

3795 Va har gal do'stga rozing so'ylagan dam,
Xayol et, dushmaning qarshingda ul dam.

Chu ag'yor oldida sir ochma, ko'ngil.
Na ag'yor, balki do'st-yoringga ham ul.

Ishonma, to'rt tomoning ersa devor,
O'shal devorda ham balki quloq bor.

O'zingdin ham yashir, ko'rding, iloj yo'q,
Chiqar boshingdanu yo'l berma ortiq.

Ne hojat o'ylamoq aytilmasa boz,
Chu aytmas narsa ul aytilmasa soz.

3800

So'zingni pardalab ayt majlis ichra,
Qilich o'ynatmasinlar boshing uzra.

Agar qo'shiq biyobon ichra noxush,
Bo'lurmu bazmi sudton ichra ul xush?

Agar dono, magar nodon do'st-yor,
Muhrsiz unga moling berna zinhor.

Yomon birlan turib-o'ltirma aslo,
Etar nomingni past, sha'ningni rasvo.

Daraxt ek, yaxshi et unga nazarni,
Keyin kut mevasin, sudu samarni.

3805

So'zingni so'yla joiz ersa qayda,
Kelur aytmas so'zingdin senga foyda.

Agar yuz yaxshi vahm kelsa, amal qil,
Biri andin yomon ersa, hazar qil.

So'zingga dushmaning ko'zi bilan boq,
Nedir yaxshi-yomon, bilgaysen ul chog'.

Kiyarsen yuz qabo, lek yaxshi beshak,
Ki yaxshi nomda yirtang bitta ko'ylak.

Shirinning yolg'iz qolib, nola chekkani

Shahanshohga ayon erdi badastur,
Shirinning g'amgusori erdi Shopur.

3810 Chaqirdi, etdi so'ngra xosi dargoh,
Ki yolg'izlikda qolsin o'rtanib moh.

Qolib chun zoru tanho mohi gulruh,
Qo'zidin g'amli yoshin to'kdi duv-duv.

Ezildi, qoldi tang ahvolda dilbar,
Tuni bo'lmish edi yilga barobar.

Qaro tun erdi, tog'dek zog' go'yo,
Qanot silkirdi zog'dek tog' go'yo.

Tun erdi, necha dilxunlar dalili,
Saharsiz, tongi yo'q tunlar dalili.

3815 Ko'rinmas, tong qushidin bir darak yo'q,
Qaro zulmatga botmish erdi borliq.

Dubulchi qo'liga chirmash ilondi,
Kavokib poyiga botmish tikondi.

Tayog'i yo'q qo'lida, tentirab, bas,
Tushirmish qo'ng'irog'in posbon mast.

Siyosat yozmish erdi erga doman,
Zamona tutmish ul shamshirga gardan.

Qo'shilmish erdi oy, ofto'b shu mavrud,
Ulardin topgay erdi tong tavallud.

3820

Kecha ochmish edi osmonga og'ush,
Qushni aylamish mashriq faromush.

Janub yulduzlari gar suvda erdi,
SHimol yulduzlari uyquda erdi,

Zamin boshida chodir erdi rangin,
Baliq, qushlar olurdi tun aro tin.

Olib nur diydalardin kecha har dam,
Yi'roq etmish Banotunnash'ani ham.¹¹⁹

Jahon tutqin bo'lib, zulmatga botmish,
Qutb yanglig' falak joyida qotmish.

3825

Jahonkim erdi xilqatdin xabarsiz,
O'shal tun o'zidin burmish edi yuz.

Falak boshin egib, daryosifat ul,
Sochardi betinim o'z boshiga dur.

Sitora dur o'marmoq bo'ldi ongoh,
Vale qir xumiga tushdi banogoh.

Qolib xum chira kullarga belandi,
Dav'r o'txonasi chun dudli erdi.

Falak usti somon yo'l erdi raxshon,
Somon yo'l ostida suv erdi osmon.

¹¹⁹ Banotunnash'a– Yetti og'ayni yulduzlar turkumi.

Surayyo atpa erdi bir hovuch, sir,
Chu kafdin kafga olgay folchi kampir.

Na mubadga zaboni Zandxonlik,
Na qushlarga nishoti parfashionlik.¹²⁰

Charog'i o'chgan erdi bevazanning,
Xo'rozin dev emishdi pirazanning.¹²¹

Magar bir uyga dev kirsamabodo,
Xo'rozi qichqirar ermish "ilalloh!"

Ne tun erdiki, devlar erdi hozir,
Xo'rozlarda yo`q erdi bongi takbir?

Shirinning ko'ngli tunde tiyra erdi,
Charog'i ko'ngli yanglig' xiyra erdi.

Shirinning holi erdi bo'ylakim tang,
Dili har dam jahon birlan qiltur jang.

Chu doston xush, gar ul darmoni bemor,
Vale tundir haloki joni bemor.

Tun ichra xasta bo'lmoq jonsiporlik,
Ki bemorlikdanam zo'r unda zorlik.

Shirin labochdi so'zga: "Ey zamona,
Bu qanday tun, haloyi jovidona?!"

Tun ermas ul. qaro bo'g'ma ilondir,
Yo zanjyidir odamxo'r, og'zi qondir.

¹²⁰ Nishoti parishonlik – uchish, parvoz zavqi.

¹²¹ Bevazan – ersiz, tul xotin. Pirazan – keksa ayol.

To'karmen yosh, sababki zanjiyki mast
Turar shunday qarolik ichra, kulmas.

Ne bo'lgay, ey sipchri lojuvardiy,
Yana avvalgidek aylansang erdi?

Yo'ling to'smishmi shu ko'ngil g'uborim,
Oyog'ingga kishanmi ohu zorim?

Na zulmatdin menga amnu omone,
Na ul tong shu'lasidin bir nishone.

3845 Nechun boshimda andoq borsan, ey tun?
Dinim yo'qdir, agar dindorsan, ey tun!

Kel, ey tun, bas javonmardlikni o'rgan,
Meni o'ldir va yo kunduzga yuzlan.

Bulutdiren qaro, boshimda og'ir,
Seni o't haydagaymu yoki shamshir?

Dovulchining yo'qolmish gar tayog'i,
Magar singanmi Parvinning oyog'i?

Men ersam sham' erurmen, zoru hayron,
To'karmen tun bo'yi ashkimni giryon.

3850 Mening ham sham kabi bag'rimda otash,
Yonarkan sham kabi ko'nglim bo'lur xush.

Gapir, ey qush, magar til bo'lsa senda,
Tabassum qil, sahar, dil bo'lsa senda.

Magar, ey tun qushi, kofir emassen,
Nechun ovozi takbir etmagaysen?

Agar otash emassen, subhi sodiq,
Nega toshsiz, temirsiz kelmaging yo'q?"

3855 Yonardi o'rtanib g'am ichra har dam,
Kelib ko'nglin yoritdi subhi olam...

Tong ta'rifi

Kishi ko'rmishli tong yanglig' chamanni?
Toparsen unda ko'ngling istaganni.

Kishikim ganj istab tushsa yo'lga,
Kaliti tong mahal tushgusi qo'lga.

Magar orzu, muroding tongda etgay,
Kalit ersa, ishing ul joyda bitgay.

O'shal soatki, to'lgay zavqqa jonlar,
Guli tasbih terurlar til, zabanlar.

3860 Tirik jon borki, bori sidqi birlan
O'qir shu damda tasbihi Xudovand.

Magar qush ham o'qir, ammo netar ul,
Tili yo'qdir uning, gar bezabondir?

Duo borsa, o'shal dargohi a'zam
Tushungay bezabonlarning tilin ham.

Shirin Yaratganga iltijo etgani

Chu Shirin kimiyoyi tongga etdi,
Besabru beqarorlik tarkin etdi.

Anga qushlar qanotin yozdi silkib,
Xo'roz "Assabru miftohul faraj" deb.¹²²

3865

Shirin ixlos-la qo'l ochdi duoga,
Egib bosh, iltijo etdi Xudoga:

"Xudovando, tunimni kunduz ayla,
Jahonga kunduzim yoz, piruz ayla.

Qaro tun ichramen ma'yusu navmid,
Yorug' nur birla et chehramni xurshid.

G'amim o'ldirgusidir sheri mardni,
Quvonchim ber bugun, daf ayla dardni.

Najot ber, mehnatim chun oshdi boshdin,
Qutulsin la'lu yoqut endi toshdin.

3870

Etarsen o'zgalarga shafqat, etgil,
Mening ham dodu faryodimga etgil!

Bu haqqi ko'zi yoshli tifli ma'sum,¹²³
Jafokash keksalarkim, xoru mazlum.

G'ariblarkim, boshi yostiqa botmish,
Asirlarkim, chuqur chohlarda yotmish,

¹²² Sabr qilgan maqsadga yetadi...

¹²³ Tifli ma'sum – ma'sum go'dak.

Bu haqqi ul hukim etguvchi dovar,
Gunohkorlar gunohin afv aylar,

Va ul hujjatki, dillar unda banda,
Va ul oyatki, etgay jonni zinda.

3875 Va ul pokdomanu dinpavaringga,
Va jumla anbiyo, payg'ambaringga.

Va muhtojlarki, barcha zoru nochor,
Va majruhlarki, barcha xoru abgor,

Va yo'qsillarki, xonumondin ayru,
Va ma'yuslarki ul, karvondin ayru.

Va ul zikri duokim, dilda kechgay,
Va ul ohkim, dili otashdin uchgay.

Va ul rayhon, guli ashku firoqdir.
Va ul Qur'oni, tonglarda charog'dir.

3880 Va ul nurkim. kelur xalqqa hijobdin,
Va ul in'omki, ortiqdir hisobdin,

Va ul tasdiqqi, aylar rohibi dayr,
Va ul tavfiqqi, bergay vohibi xayr.

Va ul maqbullaringkim, xilvat ichra,
Va ul ma'suslaringkim, toat ichra.

Va ul toatki, nazdingda savobdir,
Va ul da'vatki, senga mustajobdir.

Va so'nggi ohki, Arshdin ham o'tar, bas,
Va yuksak nonki, ul tavsifga sig'mas.

3885

Shular haqqi. menga rahmu karam qil,
Boshimdin qayg'uni surgil, adam qil.

Ayo, aylansa tilga har tukim gar,
Senga tasbih o'qib, shukrona aytar.

Hanuz tilsiz edim, uyquda ortiq,
Ki yuz shukring birin aytolganim yo'q.

O'zing borliq erursen, bormi sendek?
O'zing borsanki, qolgan bori yo'qlik.

Nihonsen pardayi vahdatda har on,
Falak ul eshiging tubida posbon.

3890

Xudovand avvalu oxir o'zing, bas,
Nedir ul avval-oxir, kimsa bilmas.

U dargohing sari taslim bo'lib biz,
Borarmiz vahmu ummid ichra yolg'iz.

Falak bunyod etib, davronni ochding,
Jahonga jonu jonga rizq sochding.

Berursen risqu yoki jon olursen,
Ado et ul ajalni, sen bilursen.

Topib tavfiq, o'zingdin bo'ldim ogoh,
Shu tavfiqimga tavqif qo'sh, Xudoyo!

3895

Etarsen har nechuk hukmi qazolik,
Berarmen bosh egib, unga rizolik.

Kelarkan ne qazo, hukmingga har dam,
O'lim birlan tiriklikdir musallam.

Men ul ranjidamanki, rohatim yo‘q,
Meni ranjitmagilki, toqatim yo‘q.

Chu mendin xush amal kelmog‘i mushkul,
Vale sendin kelur vojib amal ul.

Charog‘on et yana ko‘nglimni bir bor,
Ko‘ribmen lutfu ehsoningni bisyor.

3900

Nechuk rozimni aytmay senga ro‘y-rost,
Yashirsam-da, bilursen ne emish roz...”

Yurakdin iltijolar ayladi tek,
Va tushdi erga ko‘z yosh tomchisidek.

Kengishlik berdi tor ko‘ngliga Yazdon,
Olib toshdin, kalit baxsh etdi, ehson.

YAshardi nozlanib ul nozu nasrin,
Ketib achchiq, Shiringa etdi shirin.

Duosi etdi Xusravga asar ul,
Qilib shoh ko‘nglini zeru zabar ul...

**Xusrav ov qilish bahonasida
Shirin qasriga borgani**

3905

Ko'tardi osmon zarrin alamni,¹²⁴
Va toroj ayladi anduhu g'amni.

Shahanshoh tarqatib ovdin xumori,
Ko'ngildin istadi yuvmoq g'uborin.

Hamono otlanib ul ovga chiqdi,
Shirin orzusida sahroga chiqdi.

Suronlar soldi karnaylar bilan bong,
Magar qo'zg'aldi er, qo'zg'aldi osmon.

Alamdorlar tutib bayroqni yuksak,
Yigitlar shaylanib yo'lga qilichdak.

3910

Ravona bo'ldi shohu shahsuvorlar,
Rikobida piyoda tojdorlar.

Uzangisin tutib bir yonda Fag'fur,
Va bir yonda sipohsolori Qaysur.

Kamar boylab beliga shoh xushhol,
Kulohi kaykubodiyini qo'yib dol.

Quyosh erdi anga hamrohu hamdam,
Rikobida na oy erdi ul dam.

Boshida koviyoona tug' edi shay,
Magar oy uzra bir parcha bulutday.

¹²⁴ Alam – bu yerda bayroq ma'nosida.

3915

Qilich taqqan yigitlar dasta-dasta,
Edi zarrin hisor shoh tegrasida.

Qilichlar, nayzalar to'smishdi andoq,
Borolmas erdi bir kimsa yaqinroq.

Chu o'rmon erdi butkul nayza, shamshir,
O'lardi vahmidin o'rmon aro sher.

Qo'lida nayzasi, navkar kulardi.
"Yiroq tur!" deb falakka do'q urardi.

Shahanshoh soyaboni erdi zardin,
O'ralgan har tomoni erdi zardin.

3920

Agar ko'kdin banogoh tushsa igna,
Tushardi yo qilich, yo nayza uzra.

Chovushlarning nidosi: "Hoy, yiroq tur!"
Yomon ko'zlarni aylar erdi mahjur.¹²⁵

Bedovlarning tuyog'idin bo'lib tang,
Tekis bo'lmishdi yo'llar necha farsang.

Egilmish erdi er zalvoru zo'rdin,
Bo'g'ilmishdi havo "yurho, yur!"din.

Dovullar fil uza gumburlar erdi,
Sadosi tog'u dashtni chulgar erdi.

3925

Jaranglab tevalarda qo'ng'iroqlar,
Teshiklardin soqardi mushku anbar.

¹²⁵ Mahjur – yiroq, uzoq.

Yuz ellik navqiron, mashkob qo'lida,
Separ erdi gulob shohning yo'liga.

Yuz ellik kas idishda o't yoqardi.
Ajab atru uforlar tarqatardi.

Yana zarrin libosli necha qullar,
Sochar edi bu yo'lga tanga pullar.

Ki podsho qayga qistab ot solgay,
U bosgan har qadamda tanga qolgay,

3930 G'aribu benavo o'tganda nogoh,
Ki bilsin shundan o'tgandir shahanshoh.

Shu oyin birla shoh tark ayladi shahr,
Anga peshvoz chiqdi gardishi dahr.

Boqib lashkarga barcha erdi hayron,
Ki qayga yo'l olur deb shohi davron?

Buyurdi shunda xurshidi jahon ul:
"Shikorga necha kun mayl etdi ko'ngil".

Dovullar basma-bas gumburladi boz,
Va uchqur qarchig'aylar etdi parvoz.

3935 Damo-dam uchdi lochinlar, kumushpar.
Havoda qolmadi kakligu kaptar.

Kezib bir hafta chun tog'u biyobon,
Etib burgutlari burgutni sarson,

Shahanshoh har zamon aylar ekan ov,
O'shal dam o'zga ov sori edi dov.

Qo'nim topmay, damodam ov etardi,
U ovloqdin bu ovloqqa o'tardi.

Bahona aylabon ovni jahondor,
Shirin qasri tomonga surdi tulpor.

3940 Va bir farsang berida to'xtadi shoh,
Magar may erdi ul jom ichra go'yo.

Tun anbar chodirin tikdi shu mezigil,
Qish erdi. chun yasardi izg'irin el.

Ayozdin er qotib, muz boylamishdi,
Harirdek suvni shamshir aylamishdi.

Agar issiq makon bor ersa, unda
Durust ermas turish el, izg'irinda.

Buyurdi shoh hamon gulxan yoqin deb,
Udu anbar uforin tarqating deb.

3945 Qimoriy ud yonib, uchdi ufori,
Havoni chulg'adi kofur g'ubori.

Shahanshoh charchagandi, horg'in erdi,
Ki shomdin to sahar uyquni urdi.

Quyosh la'l erdi go'yo, chiqdi kondin,
Kecha kun ishqida ayrildi jondin.

Elarkan mast fildek charxi davvor,
Uni tunning qarosi etdi zangor.

Shafaq hoziqlari maydonga tushdi,
Falakka qirrnizi ranglar sochishdi.

3950

Shahanshoh uyqudin uyg'ondi shodon.
Saharlab tuzdi bazmin shodu xandon.

Labolab tutdi unga jom soqiy,
Ziyoza bo'ldi zavqi, ishtiyoqi.

O'shal gulgun sharobdin oshdi kayfi,
Murodingga etish deb toshdi kayfi.

Otildi tashqari, Shabdizga mindi,
Shirin qasri tomon ot surdi endi.

Dili mastlikda raqqos erdi go'yo,
Yonida necha xosulxosi hamroh.

3955

Shirinni etdilar darhol xabardor,
Ki qasring sori kelmoqda hukmdor...

Dili pokiga andin tushdi qo'rquv,
Taraddud ichra qoldi bir zamon u.

Qasr darvozasin berkitdi mahkam
Va shunda shay etib poshonlarin ham.

Ularning qo'liga zar sufra berdi.
Ki ul har sufrada zar soqchi erdi.

Shahanshohning kelar yo'lini obod,
Guzargohlarni sha'n etdi parizod.

3960

Ko'cha-ko'ylarda osdirdi gilamlar,
Gulob sochdirdi chun aylab hashamlar.

Qasr tomiga chiqdi chun to'lin oy,
Ko'zini tikdi yo'lga ul diloroy.

Magar har kiprigin bir nayza qildi,
To'kib qon yoshini, har lahza qildi.

Ko'rindi yo'lda gardi to'tiyorang,
Ki ko'zlar to'tiyosi erdi ul chang.

Eshikdin kirdi go'yo subhi ravshan,
O'shal gilxona endi bo'ldi gulshan.

3965 O'shal mash'alki, andin sochilib nur,
Charog'in so'ndirib, aylardi benur.

Egarda nayzadek tik erdi qomat,
Boqib shamshod edi andin xijolat.

To'nida la'li, yoqut yona-yona,
Boshida toji erdi xusravona.

Yuzini yuz dema, gullola ermish,
Xati chun g'oliya erdi, chizilmish.

Qo'lida dasta nargis erdiyu, bas,
Va nargis ko'zlari xushxob edi, mast.

3970 Guli shabnamda g'avvos erdi go'yo,
Tazarvi bog'da raqqos erdi go'yo.

Nech abir ahli xosi shu nafasda,
Qo'lida gullar erdi dasta-dasta.

Chu Shirin ko'rdi Xusrav erdi sarmast,
Yiqildi, bo'ldi ul tuproqaro past.

Ki bir muddat hushidin ayru qoldi,
Kelib hushga keyin andisha qildi:

“Uni qasrimga qo‘ymas ersam, albat,
Firoqiga etolmam so‘ngra toqat.

3975

Agar bir lahza unga rom bo‘lurmen,
Viso yanglig‘ base badnom bo‘lurmen.

Xatoyim bo‘l magay to oshkora,
Agar eplolmasam, unda ne chora?”

Shahanshoh keldi, orzusi ushaldi,
Sochib poyiga zar, atlas to‘shaldi.

Surib otini chun atlaslar uzra,
Etishdi dilrabo qasriga so‘ngra.

Vale darvozani berk ko‘rdi ongoh,
Qolib hayratda, andin ranjidi shoh.

3980

Chu bilmasdi, magar ortiga qaytsin,
Va yo darvoza qulfini ushatsin.

Dedi posbonga: “Bor, ayt, so‘ylasin ul,
Nechun bizni eshikda zor etar gul?”

Shiringa ne yomonlik etdim andoq,
Menga darvozasin berkitdi mundoq?

Shahanshoh demagil, balki g‘ulom de,
Tilida necha bir yaxshi payom de.

Tilar mehmon bo‘lib chun xizmat etsin,
Buyur amringni, ul kirsinmi, ketsin?

3985

Labingda tuzmi yo shakkarmidir tek,
Tutarsen eshiging mehmon uchun berk?

Ayo, och eshiging, shohi jahonmen,
Uzr so'rmoqqa keldim bu zamon men.

Bilarsen, senga nisbat, mohpora,
G'ubor yo'qdir mening ko'nglimda zarra.

Ne bo'lgay menga damsoz bo'lsang, ey moh,
Ketolmasmen seni ko'rmasdin aslo!

Desang gar tark etay texroq uyingni,
Eshik och, to ko'ray qaddu bo'yingni.

3990 Etishdi chun payomi shohi shaydo,
Shakarlab tingladi va chekdi bir oh.

Kanizakka dedi: tur xizmat ayla,
Falon shashtoqi guldeboni shayla.¹²⁶

Uni ayvonga tik, shiftga barobar,
Va mushku za'farondin et muattar.

Bisoti gavharin, ashyosini yoy,
Va oltin poyali shoh kursini qo'y.

Va chodir poygahin to's parda birlan,
Borib, podshoga so'ng ayt: ey xudovand.¹²⁷

3995 Saroyning sohibi ermas. g'ulomi,
Senga arz aylagay, andoq payomi.

Yo'lingga ko'z tikib Shirini dilso'z,
Mening lafzim-la senga aytadir so'z:

¹²⁶ Shashtoqi guldebo – shohona ipak chodir.

¹²⁷ Xudovand – bu yerda podsho ma'nosida.

“Chu mehmonim esang, noz aylama, tur.
Va har joyki desam, ul joyga o‘ltir.

Savob uldirki, gar oldinni ko‘rsang,
Kelib, maskan tutib, ayvonda tursang.

Kelarmen izzating etmoqqa shunda,
O‘pib er, xizimatingda bo‘lgum unda.

4000 Keyin ne lozim ersa, so‘ylagaymiz,
Va har ne joiz ersa, aylagaymiz”.

Kanizak chiqdi eshikdin shu asno,
Parivash ne buyurmish, etdi ijro.

Keyin chodirga shohni taklif etdi,
Uni qoldirdi shunda, o‘zi ketdi.

Xijolat ichra Shirin terladi, hay,
Ziyofat etgali shohni payopay.

Ki boshda boshidin ul sochdi tillo,
Keyin shakkar kiritdi, qandu halvo.

4005 O‘zi avval totib totini mahtob,
Kiritdi so‘ngra sharbat, totli jullob.¹²⁸

Keyin oy yuzga berdi zebu tobin,
Quyoshga soyadin chekdi niqobin.

Kiyimlar kiydi gulnoriparand ul,
Etib har tola sochin bir kamand ul.

¹²⁸ Jullob – qandli sharbatning gulob bilan omuxta etilgani.

Kamandni yoydi so'ngra elkasiga,
Jahonni band etib har halqasiga.

Hamoilpaykar erdi, zar koni,
Libosi atlas erdi, arg'uvoniy.

4010 Ro'moli durru gavhar birla yashnab,
Ki chiniy rasmi-la boshiga tashlab.

Qaro zulfi edi gul, anbarafshon,
Yuzi zulfi aro mohi durafshon.

Tovus yanglig' va yoki bir humodek,
Qadam tashlab tazarvi dilrabodek.

Berib surat o'ziga, sho'xu tannoz,
Niyoz aylab, yana boz ustiga noz.

Yurib chodir sari, bo'ldi xiromon,
Kirib shoh oldiga, er o'pdi shodon.

4015 Qulohidin echib so'ng yoqutu la'l,
Etib Shabdizni butkul otashin na'l.

Yig'ib yuz dona andoq durri shahvor,
Hamon Xusrav boshiga sochdi dildor.

Xusrav Shirinni ko'rib, u bilan so'zlashgani

Chu Xusrav ko'rdi, yor kelmishdi anga,
Chaman etdi dilin sarvi sumanga.

Shirinning qasri erdi chun bihishtdek,
Bihisht yanglig' magar eshigi ham berk.

Kirib keldi nigori, shoh chu lahza
Boqib, sal qoldiki erga yiqilsa.

4020 Vale sakrab hamon turdi-da bir rav,
O'pib dildor qo'lin, o'ltirdi Xusrav.

Lab ochdi, uzru ma'zur etdi izhor,
Shirin holin so'rab shu onda takror:

"Jahonni ravshan etdi subhxanding,
Falakka soya solgay sarv qadding.

Sevintirdi meni shirin kalomlar,
Xijolat etdi ushbu ehtiromlar.

Chu ganju gavharu mansuju debo
Sochib, etding yo'limni muncha zebo!

4025 Qulog'ingda guharkim erdi yal-yal,
Chu Shabdiz na'lin andin aylading la'l.

O'shal gavharnikim na'linga chekding,
Yuzimga, rishtayi la'linga chekding.

Nisor etganlaring qaytsin o'zingga,
Yuzingga termulib shodmen, yuzingga!

Asalni sutga qo'shding menga deb, do'st,
Ki xizmat aylading chun bekamu ko'st.

Vale eshikni yopgoning ne erdi?
Magar yanglishmi yo tadbirni erdi?

4030 Menga o'rnimni erda tuban etding,
O'zing bording-da, ko'kni maskan etding.

Demasmen, sendin ul avlologim bor,
Suxan, so'z bobida ra'noligim bor.

Senga mehmon esam, ey dahr aro toq.
Eshik yopgaymilar mehmonga mundoq?

Ochiq tut men kabi mehmonga oni,
Ki sendin o'zga yo'q jonu jahoni.

Saxiylar, davra ichra ersa damsoz,
Etarlar jondanam mehmonni e'zoz.

4035 Magar oysen, malaksen, ey parivash,
Nega ko'nglingni mehmon aylamas xush?

Suirinning Xusravga javob bergani

Javobin berdi sarvi lolaruxsor,
Ki "Bo'lsin davlating boqiy, jahondor!

Falak senga kamarshamshir bo'lsin,
Taning fildek, shukuhing sher bo'lsin!

U boshkim istar amringdin judolik,
Zulmdin ko'rmasin hargiz raholik!

Hamisha yaxshi ko'z yoningda bo'lsin,
Yomon ko'z ko'rmay, armoningda bo'lsin.

4040 Menga ta'n aylading yuksak maqomni,
Kanizing tursa yuksakda, yomonmi?

Bugun bayroqmen ul ishqing aro toq,
Bilarsen, hilpirar bosh uzra bayroq.

Men ul gardmanki, to'zg'ib har qadamda,
Sening gardingni izlarmen balandda.

Senga qismat erur sohibkulohlik,
Shu bois aylagaysen podsholik.

Men ersam, oh chekib ishqingda har on,
Turarmen tom uza chun hindu posbon.

4045 Jahondorlarda turk askarlar asru,
Vale tomlarda doim soqchi hindu.

Qaro ko'z turk erurmen, maskanim tom,
U bois qo'ydilar oq hindu deb nom.

Magar oy uzra ham bo'lganda joyim,
Musallammen shahanshohimga doim.

Dedingki, yaxshilar andisha aylar,
Sira mehmonga eshik yopmagaylar.

Na mehmon, balki lochinsen, temir tan,
Chu tog' kaklikka kelmishsen havasmand.

4050 Agar mehmon esang, bas, ushbu joying,
Kanizmen xizmatigda, xoki poying.

Demishlar, ayla rad yoki qabul et,
Chu mehmon kelsa, qattiq aylama bet.

Eshikni yopganim, bilsang, ravodir,
Ki sarmast kelgani bizga xatodir.

Chu men xilvatnishinu sen esang mast,
Magar etmasmi g'iybat bizni har kas?

Senga lozim edi, bir necha keksa
YUbersang, kelsa, menga sovchi bo'lsa.

4055

Meni taxti ravonda eltib ul on,
Yuzimdin etsalar tunni charog'on.

Chu mendek yor mehrga arzimasmı,
Shakar yanglig' mahrga arzimasmı?

Magan sen istading to xilvatimni
Topib, mastlikda totsang sharbatimni.

Meni mastlik ila bag'ringga tortsang,
Chu guldek hidlasang, so'ng chetga otsang.

Hayosiz bo'lma, shohlarga yarashmas,
Etar ul Isfahonda etganing, bas.

4060

Sen ul Shakkar ila et bo'yla savdo,
Shirin ul Shakkaring ermasdir aslo!

Shakarning shakkarin etgil tanovul.
Shirin boldirki, toza luqmadir ul.

Magar ikki qanotli erdi xushhol,
Tovusning bir qanotin etdilar shol.

Ko'ngil ketgay nechuk ikki nigorga,
Ko'ngil bermaydi oqil ikki yorga.

Atorud bo'ldi ko'kda ikki burjli,
Quyoshsen, senga bitta burj etarli.

4065

Shirin nomin tilingga olma, qo'ygın,
Yaro etgay dehqoningni shirindin.

Mening ishqimni qo'y, et beniyozlik.
Menim-la etma ortiq ishqbozlik.

Rahm qil, chekma shamshiringni menga,
Etar ul, nayza urding ahli Runga.

Chu shohdek bitta to'pga o'zni et band,
Chu hindu o'nta to'pni surma birdan.

Agar o'n so'zli o'n yoqqa yugurgay,
Vale bir so'zli mard bir ko'yga kirgay.

4070 Yuzingdir menga yolg'iz, bitta qibla,
Yuzimdin o'zga senga mingta qibla.

Agar ketsa yoningdin bitta zebo,
Kelur yoningga andoq mingta zebo.

Tutibdir ohular oldu ketingni,
Bu nolon ohuga solma itingni.

Magar shohimning hijronin chekarmen,
Dayr zindonida, choh ichradirmen.

Tutarmen joni g'amnokimni yolg'iz,
Chu asrab gavhari pokimni yolg'iz.

4075 Gili sarsho'y, o'shalkim toza, pokdir,¹²⁹
Surarlar boshga doim, garchi xokdir.

Tinarlar tunda qushlar ham, baliq ham,
Mening jonimga rohat yo'q, ne qilsam?

¹²⁹ Gili sarsho'y – ayollar sochini yuvadigan, sovunga o'xshash loy.

Manam bir qush, magar domingga tushgan,
Eshiging berk ekan, tomingga tushgan.

Qafasda to'tidek tutqunu tanho,
Va tanholikda xursand misli anqo.

Sen ul chodirdayu men kulbada tor,
Tiriklik senga jannat, menga ozor.

4080 Tikonzorda yarodir jismim har on,
Na malham bor anga, na o'zga darmon.

Necha kunlik umr bu, dodu gar dud,
Ne chog'li o'tkazarsen, ul o'tar zud.

Muqarrardir ketish senga bu joydin,
Osondir kulbadin, mushkul saroydin.

Shu joyim boylamish ko'kka hamoyil,
Shirin so'zing uni aylarmi moyil?

Arslonni kiyik quvgaymi aslo,
Shirindirmen, go'dak ermasmen, ey shoh!

4085 Go'dak ermasmen, avrab, yo'lga solsang,
Berib xurmo, qo'limdin kulcha olsang.

Itobdir xirmaningda chun bag'oyat,
Menga bir yilda bir arpa kifoyat.

Chu Zuhrodek berib sozimga sozish,
Etarmen boshda ozor, so'ng navozish.

Olovdek garchi oxir nuri pokmen,
Vale boshda tutunli, dudnokmen.

CHu avval o't sochar osmon, keyin suv,
Bu suvlar tashnaga armon emasmu?

4090

Tikon xurmoga, derlar, taqdir ermish,
Tikandin ayru xurmo qayda bormish?

Danaksiz bo'lsa xurmo, toti bo'lmas,
Chu oy ham tunda to'lgay. kunda to'lmas.

Yo'lingda qanchalar ko'rding diloro,
Ular achchiq, men shirinman, ey shoh!

Necha hamsuhbating gar et edi, po'st,
Ular chun ustuxon, men mag'z, ey do'st.

Shu dunyoda ilib ishqimni ko'zga,
Ne ko'rding shohu sultonlikdin o'zga?

4095

Qachon, qay dam meni yod aylading sen?
Qachon, qay kun meni shod aylading sen?

Qachon yodim-la yirtiding sen choponni?
Qachon ko'ksiindin olding sen tikonni?

Qachon menga nasib etdi payoming,
Yubording qaysi bir tunda saloming?

Sen unda may ichib do'stlar ila shod,
Qalam Shopur chekardi, tesha Farhod.

Xusravning Shiringa javob bergani

Yana bir bor jahondor ko'rsatib mehr,
Dedi Shiringa: "Ey sarvi chamanchehr!

4100

Sihisarvingga unnob hamdam o'lsin,
O'shal unnobga novvot mahram o'lsin!

G'ayrlar totmasin jami labingdin,
Va mendin o'zgasi ul g'abg'abingdin.

Itobingda agarchi zahri nobdir,
Zamirida asalning toti bordir.

Demasmen, nega chiqding shu balandga,
Magar chiqding, jafu ko'rsatma menga.

Sihisarving o'zi shundoq balanddir,
Yana bo'y cho'zmog'ing, ayt, ne pisanddir?

4105

Nisorin ko'zlarim sochgay yiroqqa,
Otar qay manjaniq shunday uzoqqa?

Ko'tar qasringni bir milga barobar,
Ko'zim yoshini ko'r filga barobar.

Sochib boshimga ganji Qorun, endi
Meni tuproqqa ko'mgoning ne erdi?

Ko'ngil bunda, to'kay yoshimni qayga?
Tanim bunda, qo'yay boshimni qayga?

Etolsam eshigingga qayta bir bor,
O'pardim halqasin misli falakvor.

4110

Bo'lardim eshiging ul halqasin tek,
Xato qildim. qulog'ing halqasidek.

Jafo qilma, ko'ngildin uzma ohini,
Vafodorlikdin o'zga yo'q gunohim.

Gunohim bo'lsa gar, sendin rahimdir,
Gunohi odamiy rasmi qadimdir.

G'azabkorlikni qo'y, ol endi orom,
Asov ot bo'lmagil bo'lganda men rom.

Cho'ponlik ayla, bo'ri bo'lmagil sen,
Ulug'larga ulug'lik qilmagil sen.

4115

Xush ermas ham yarashmas manmanlik,
Ulug'larga etarsen bepisandlik.

Ki ostonamga chun tuproqki uyding,
Magar uyimni tuproqxona bilding?

Dema, ey fitna, ket, ko'zdin yo'qol tez,
Nechuk ketgum sen ersang fitnaangez?

Zulm etma, uyal men notavondin,
Magar mendin emas, qaytar jahondin.

Na har ovqatki, qo'ygaylar, yutilmas,
Na har ishkim, kelur qo'ldin, etilmas.

4120

Va har qo'lda magar shay ersa shamshir,
U xalq qonini to'kmoqqa emasdir.

O'zimdandir bu xorlik, sendin ermas,
Bu bir baxtiqarolik, sendin ermas.

Magarki toleim bong urdi bevaqt,
Xo'rozim bo'ylakim qichqirdi bevaqt.

Yo'q ersa, kuyganim kim ko'rgay erdi,
Zabun holimni kim ham so'rgay erdi?

G'alat aytdim, bu ishqdir, dema shohlik.
Magar ishq birladir faryodxohlik.

4125 Ayo, ey istagancha noz menga
Chiqarma "ket!" debon ovoz menga.

Magar sulton kabi aylar esang noz,
Qulingmen deb senga tilxat beray boz.

Qulog'imdin tutib, sotsang birovga,
Itoat aylagaymen ul sinovga.

Ko'zimni o'y, senga boshim tutarmen,
Yana boshqa ko'zimni shay etarmen.

Kamarbandingda ko'rsam erdi qonim,
Der erdim bu mening shohi jahonim.

4130 Agar boshim kesilcha xanjaringdin,
Boshimni tovlamasmen daftaringdin.¹³⁰

Menga jon o'mida jonim erursen,
Birovlar bilmas ersa, sen bilursen.

Magar hushyor, magar mast. gohu begoh.
Xayoling ayladim doim nazargoh.

¹³⁰ Daftar – bu yerda qonunlar to'plami ma'nosida.

Bu sharbatni bo'lak bir kimsa tots,
Ajab ermaski, rasvolikka botsa.

Mudom yirtar edim xilvatda to'nni,
Bichardim yangidan zahmatda to'nni.

4135 Ki mendin lashkarin to burmagay yuz
Va shohlik iqtidorim bo'lmagay sust.

Emasdim randi mast ishqingda, erkam,
Ki tanbur yangratib ko'yingga kelsam.

Jahondovarmanu ish korsozlik,
Jahondor qaydayu ul ishqbozlik?

Xayol zulfingga band, dilbasta vaqtim
Berardim atriga shu toju taxtim.

Tanim bo'lganda boshqa birla xursand,
Dilu jonim-la erdim senga payvand.

4140 Bo'yin hech egmadim men egri so'zga,
Amal-ish etnadim rostlikdin o'zga.

Qadam qo'ygan esam gohida quvnoq,
Yoni yoshlikka yo'y. yoshlikdir andoq...

Yana Shirinning Xusravga javob bergani

Yana ul lo'bbati tovuş paykar
Lab ochdi, to'kdi andoq shahdu shakkar.

Ravon etdi yana ul naqshi zebo,
Necha so'zlar tizib chun durri anvo.

Dedi: "Davring – shu davroni jahondir,
Kun tun ichra eru osmondir.

4145 Jahondovar, jahondori jahon bo'l,
Shahanshoh bo'l, hukmdori zamon bo'!

Janobingda kavokib misli farrosh,
Rikobingda soadat mangu yo'ldosh!

Mening ko'nglimda sendin yuz g'ubordir,
Qo'y ul shohlikni, bu boshqa hisobdir.

Hamon ul nozi davlat ko'rsaturesen,
Hanuz jabru jafoga yo'l tutarsen.

Hanuz boshingda shohlikdin g'ururing,
Yiroqdir bu g'ururdin ishq, sururing!

4150 Senga ishq bo'lsa, menga beniyozlik,
Senga shohlikmi afzal, ishqbozlik?

Gar issiqdir, sarin el ham ufursin,
Ko'ngil bo'lsa magar dard birla bo'lsin.

Nechun oshiqqa toju mulki davlat,
O'yinmi senga savdoyi muhabbat?

Men ul qushmanki, gulzor menga maskan,
Magar yoz otashin ko'rgan emasman.

Edim guldek malikbonuyi Saqlob,
Bugun bir shisha ichra misli jullob.

4155 Ko'katdek lablarimni qorga yuvdim,
Chechakdek chashmalar bo'yida undim.

Makon tutdim, shu tuproq erdi, shu tosh,
Umiding birla etdim sabru bardosh.

Gar issiqda erib yotdim gahi men,
Ayozda muz kabi qotdim gahi men.

Na bir kimsa madadkor erdi menga,
Na bir munisu g'amxor erdi menga.

Hamisha men seni oshiq dedim, yor,
Dedim har joyda chun sodiq, vafodor.

4160 Vale yoringga parvo etmading sen,
Shu ko'ngilga madoro etmading sen.

O'limdin yo'q mening ul zarra vahmim,
Ki shamshiringga etdim jonni taslim.

Tarozu erga tushsa, unda tuproq
Hisobini bilur toshdan-da ko'proq.

Chu aqlim yor bo'lib, bir joyda tursam,
O'zimdin ko'rsam ul har neki ko'rsam.

Qolib nochor, qo'limdin kelmasa ish,
Ko'zimda ashki-xun, ko'nglimda nolish.

4165 Malomat yog'dirarmen shu zamonga,
Otarmen ketma-ket o'qni nishonga.

Nechun mendek sanam, chun sarvi ozod
Mashaqqatlarda qolgay zoru noshod?

Hanuz ko'nglimda ul zavqu tarablar,
Hanuz boshimda ul shavqu shag'ablar.¹³¹

Hanuz hindularim otashparastdir,
Hanuz nargislarim chun turki mastdir.

Hanuz g'uncham turar xomush, gulsiz,
Hanuz ul durri daryoyim daxlsiz.

4170 Tiriklikdin hamon la'limda kulgu,
Hamon o'ynaydi yoshlik nahrída suv.

Yuzim zeboyi turkoni Tarozdir,
Hamon izmimda husnu kibru nozdir.

Valine'mat rayohinu nasimga,¹³²
Valiahdmen shakar, durri yatimga.

Charog' nurim ko'rib, parvona bo'lgay,
Yangi oy ko'rsa, ul devona bo'lgay.

Aqiq la'lim ko'rib, holi bo'lur tang,
Hamisha gul yuzim guldin olur rang.

4175 Turunji g'abg'abimni aylasang yod,
Xijolatdin yonar norinji Bag'dod.

Yuzimning olmasin shoh olsa qo'lga,
Sipohon olmasi chiqmaydi yo'lga.

O'shal durki labimdin baxsh etarmen,
Ko'ngil istarmanu jon baxsh etarmen.

¹³¹ Shag'ab – hayajon, g'ulg'ula.

¹³² Rayohim – rayhonlar.

Arslonlar tavof aylar ko'yimni,
Kiyiklar o'rganur mendin o'yinni.

Marol istab ko'zim, bu chashmi cholok,
To'kar zahrini ko'zdin, yo'qki taryok.

4180 Gar ohu bir nazarni menga solgay,
Xiroji gardanim bo'yniga olgay.

Agar el izlagaylar Rumda rozim,
Xutanda istagaylar atri nozim.

Bahor har erda barmoqdek ochar gul,
Mening har barmog'imda ikki yuz ul.

To'lin oy ham agarchi oy erur, bas,
Qo'limga suv quyishga loyiq ermas.

Magar men istasam gul bodadin kom,
Labim novotidin shirin bo'lur jom.

4185 Bihishtga lola qasrimdin etar nur,
Shu ko'ksim noridin ziynat olar hur.

Agarchi g'amzada turki parimen,
O'pichda dilnavozlik sarvarimen.

Ko'zi torlarga hech mayli, hushim yo'q,
Nari tursin, ular birlan ishim yo'q.

Shu zulfim oyga men zanjir etarmen,
Necha sherlarni ov, naxchir etarmen.

Labi la'lim shakarni g'amga solgay,
Demishlar mard g'amini mard olgay.

4190

Shakar hamshirayi dandonim o'lmish,
Vafo hammanzili paymonim o'lmish.

Magar noz bir jahondir, yuz jahon sharm,
Etarmen bir qahr, yuz mehru ozarm.

Labi la'lim hamon shakkartishondir,
Sari zulfim hanuz domankashondir.

Agar mayni asiri jom etarmen,
Shakarni ulfati bodom etarmen.

Agarchi nori siymin bo'ldi olman¹³³
Hamon oshiqkushu oqilfiribman.

4195

Yuzim – kunduz, yoritgaydir jahonni,
Sotar oltingugurtga arg'uvonni.

Bu ra'nolik-la gar nargis erur mast,
Birovlar qoniga ilkini cho'zmas.

Ne savdolarki men boshimda ko'rdim,
Ne jonlar berdi jon qoshimda, ko'rdim.

Bor endi, to'kmayin qoningni, basdir,
Magar bo'yninda qonlar kam emasdir.

Ko'targil o'ng qo'ling, etmasdin ozor,
Ki ishqim etmasin ul chap qo'ling xor.

4200

Diling tosh, menda jon toshdin-da qattiq,
Ki shunday dilga shunday jon muvofiq...

¹³³ Nori siymin – kumush anor.

Yana Xusravning Shiringa javobi

Shahanshoh dedi takror: “Ey dilafruz,
Shu gap-soʻzlar ila oʻtgaymu kunduz?”

Hisobi yaxshilikni aytmagil sen,
Ki yuz bor yaxshidirsan aytganingdin.

Koʻzimning ravshani, durdonasen, dur,
Charogʻi subhdirsan, nur uza nur.

Chu daryosen, ishing gavharfishonlik,
Suving jonlarga obi zindagonlik.

4205

Koʻribsen koʻzguda oʻz suratingni,
Mening koʻzimda koʻr yuz talʼatingni.

Agar nomingni aytsam, ey dilorom,
Dahonimni shakarga toʻldirar nom.

Seni xurshid desam gar, bejiz ermas,
Falakda oyni nursiz etganing rost.

Shakarning holi boʻldi ul zamon tang,
Ki toshdin yoquting yuz ochdi gulrang.

Sahisarv qaddini egdi chamanda,
Kumush noring oʻshal qad rostlaganda.

4210

Rutabning ustuxoni sindi ul tun,
Labing xurmosi rang ochganda gulgun.

Iramga gar kalit ermish jamoling,
Iram yangligʻ koʻrinmasdir visoling.

Qamar maftun senga, dildodaying ul,¹³⁴
Shakar – mavloyi mavlozodaying ul.

Guling shakkar ila hamxona bo'lsin,
Navotingdin dahon shakkarga to'lsin.

Va har majlisga boling xon kiritgay,¹³⁵
Necha mun surat ersa, jon kiritgay.

4215 Sadafkiin har safar og'zin ochar, kom,
Etar dandonidin durdona in'om.

Yarim tola soching soch, men adosi.
Olarmen, garchi bir iqlim bahosi.

Yuzing rashkida gar kuyguvchi mohdir,
O'zingga boqma, xudbinlik gunohdir.

O'zing husningga maftun boqma zinhor,
Ko'zing zaxmi etar husningni abgor.

Bir oz andisha qil, men podshomen,
Ha deb qonimni to'kma, begunohmen.

4220 Agar shohsen, ayon et gavharingni,
Shirin ersang, ravo et shakkaringni.

Nizoni qo'y, yarash yo'lini ochgil,
Nifoqni qo'y, uzr qo'lini ochgil.

Yomon so'z demadim, aslo demasmen,
Degan ersam, uzrsiz so'ylamasmen.

¹³⁴ Dildoda – oshiq.

¹³⁵ Xon – bu yerda dasturxon ma'nosida.

Go'zallar rasmidir gar tundxo'ylik,
Ularning xulqi bor ammo chiroylik.

Ulug'lar garchi goh tundlik etarlar,
Hamisha rahmu shafqat ko'rsaturlar.

4225 Boqib, andishayi yori qadim et,
Chu tundlik aylading, endi rahim et.

Shamoldek har safar chetlab o'tarsen,
To'kib har lahza obro'yim, ketarsen.

Sazovormen senga, lek bo'yladir ish,
Ki sendin ko'rmadim aslo navozish.

Bilimdonlar bilur, bu bizga ma'lum,
Ki bo'lgay mustahiq albatta mahrum.¹³⁶

Shu ko'nglim boricha dilbar o'zingsen,
Gapirma jonni, jonparvar o'zingsen.

4230 Agar bandingdin istarmen judolik.
Ko'ngil bandiga topmasmen raholik.

Jafo otingni, bas, boshimga solma,
Meni goh qonu goh tuproqqa qorma.

Shirin deb boshda chun bong urganing ne?
Zahardek so'ngra achchiq berganing ne?

Kiyinmas menga chun takror totibmen,
Muborak bo'lsin ul, bisyor totibmen!

¹³⁶ Mustahiq – loyiq, munosib.

Necha bir raxnalar bor, mahkam asli.
Necha anduhu g'am bor, xurram asli.

4235

Jafo etmak magar farxunda folmas,
Jafo etma, tuning yilga cho'zilmas.

Dilimni xushlakim. g'amxor keldim,
Seni istab, seni, dildor, keldim.

Oyoqda sham kabi turgum umidvor,
Shirinni istaganlar baski bisyor.

Yonar sham yosh to'kib ko'zdin alomat,
Ki Shirinning labi bermish tarovat.

Tugun bordir qamish jismida zotan,
Shirin boisidin ermasmi ul band?

4240

Nega xurnoda sanchilgan tikon bor,
Magar Shiringa ermasmi giriftor?

Shuningdek sut agar shirin emasdi,
Go'dakka ne'matu taskin emasdi.

Shirin der o'zini ul necha miskin,
Ular shirin erurlar, sen-da shirin".

Yana Shirinning Xusravga javob bergani

Javob aylab parivash nozli boqdi,
Shahanshohga shakardin sirg'a taqdi.

Ochib ul durji durdin qulfi yoqut.
Rutabga qand qo'shdi. qandga ul qut.

4245

Keyin o'rgatdi oyga ot surishni,
Sochib mushk, parda ichra o'ttirishni.

Sarvga dedikim, yurgil xiromon,
Ochildi g'unchadek, gul bo'ldi xandon.

Keyin er o'pdi, o'zni chokar etdi,
Pishiq g'ishtlarni atru anbar etdi.

Kirishdi so'ngra xizmat aylamoqqa,
Jasorat birla ko'ngil ovlamoqqa.

Dedi avval: "Ayo doroyi olam,
Kamoning ostida dunyoyi olam!"

4250

Ki Chindan toki Rum ovoza noming,
Qadarxon bandangu Qaysar g'uloming.

Na tanho chokaring hoqoni Chindir,
Senga farmonpazir ro'yi zamindir.

Magar poluda halvo sorig' o'lgay,
Shirin ham totli ersa ul, eyilgay.

Men ul poludaman, bir qatra yog'siz,
Shirin totim mening nomimda yolg'iz.

U damdinkim ochib olamga diydor,
Dilu jondin senga bo'ldim xaridor.

4255

Va hargiz o'zgaga ko'z sunmadim men,
Va sendin boshqaga bosh egmadim men.

Vale hech ko'rmadim men mehribonlik,
Ishing qaysarlik erdi ham ziyorlik.

Mudom hoyu havaslar sori chopding,
Eshikni boshqalar yuziga yopding.

Bu ishq ermas, bu shahvatdir havoyi,
Qani ishqing, qani ko'ngil chiroyi?

Menga fil ber, uni boylab etay band,
Piyoda band etar podshoni qaydan?

4260 Qachon sher ohuga mehmon bo'libdir.
Qachon chunchuqni eb, burgut to'yibdir?

Agar sen sarvgul, men xoru yantoq,
Makon ermasmi, bizga bitta tuproq?

Sipand, ud mijmar ichra bittadir ul,
SHu yanglig' bittadir bug', dud bilan kul.

Kabob bu sufrada gar nuqli jondir,
Chivindin filga ne zaxmu ziyondir?

Ajabkim o't sochar bar dam zaboning,
Hazir bo'l, kuymasin bunda qozoning.

4265 Baliq havziga seldek yoprilib sen,
Murodingga etib, qaytmoqchidirsən.

Qabul etmaydi to'foningni ko'ngil,
O'tirgil bu eshikda yoki turgil.

Kamand otding o'shal oy qasriga, hay,
Magar yo'l topmasang ko'kka, ne bo'lgay?

Falakka hiyla birlan etmagay kas,
Va afsun birla kimsa oyga etmas.

Duru durdona marjon bo'lsa yaxshi,
Suxan daryoga gar aytilsa yaxshi.

4270

Iram bog'i ko'rinmas ko'zga ortiq,
Xato aytdim, eshigi katta ochiq.

Shakar istab, yana ko'ngling Shirin-la,
Baliq tut yoki ko'kda oyni ovla.

Havoyi qasri Shirinni tamom et,
O'shal Shakkar sari yo'lda davom et.

Jigarqonim ichib bo'lgaymidim to'q,
Magarki bosh qashishga fursatim yo'q.

Etolmam shohparastlik endi hech on,
Kanizak top o'zingga yoshu chaqqon.

4275

Meni yod aylasang, yodi vido qil,
Ki sozing soz esa, savtu sado qil.

So'zingni tinglasin senga asirlar,
Sen aytib tur, yozib olsin dabirlar.

Diling g'amdin yiroq yo'q o'hu voying,
Boshingda bor necha kibru havoying.

Osonmi sen-la jomi xun simirnoq
Va oriq qo'y misol so'ngra semirnoq?

Ishim ersa yomon, qo'y tashvishimni,
Xudoyim bor, o'zi o'nglar ishimni.

4280

Men ul suvmanki, suv ermas, tiriklik,
Sen otashsen, uning nomi yigitlik.

Suvu o't istamasmanki qovushsa,
U bois fitnalar olamga tushsa.

Tirikmen, yoniga bormasmen ortiq,
O'shal insonki, men birlan ishi yo'q.

Bor endi, ul Shakar birlan shikor et,
Kechishni shahdi Shirindin shior et.

Shu inju tishlarimdin o'zga, zero,
Shakardek lablaringa tegmas aslo.

4285 Shirin bo'sasining bozori qizg'in,
Shirin deb el aro ovoza har kun.

Shiringa sen Shakardin urmagil lof,
Chu qassob qaydayu qayda qasabbof?

Bo'lur chun manjaniq ham ikki, turdosh,
Biri doim ipak otgay, biri tosh.

Shirinni garchi Shakkar sindirolmas,
Vale shakkarni shirin sindirar, bas!

Chu ko'ngling to'lmadi toti asaldin,
O'zingga gulshakar etding SHakardin.

4290 Agarchi maskanim vayrona vodiy,
Qo'yarmen har tarafga men munodiy.¹³⁷

Degaymen ne o'yinlar qildi Parvez,
Kelin bunda, u qaylarda shakarrez?

¹³⁷ Munodiy – jarchi.

Ki bir bor tushdim andoq domiga, bas,
Urish sha'nimni erga, ayladi past.

Qadrsiz bo'ldi nomim, yig'lamaymi?
Yopar el eshigin benomu nangni!

Raqibim ham bu ishga ustadir ko'p,
Xazina eshigi berk bo'lgani xo'p.

4295 Samar qandim jahonda bilmagay chek,
Samarqandiy erur qasrimda eshik.

Agar eshik ochishga yo'qsa imkon,
Etarmen senga shu sochimni arqon.

Tilarmen may ila joming to'latsam,
Etib zulfimni ip, tomimga tortsam.

Shamol ipdin oyog'ing uzsa nogoh,
Magar dorboz emassen, ne bo'lur, oh?

Shahanshoh, shuncha chekdim ranju dog'ing,
Etar, yog'im-la yoqmasman charog'ing.

4300 Yurak qonim ila dardimni aytdim,
Omon bo'l, yaxshi qol, men endi ketdim".

Dedi shu so'zniyu qo'zg'oldi tikka,
Tutib qaddini g'oz, yurdi eshikka.

Etak silkitdi, yo'qki ul g'ubori,
Jahonni qopladi atri, ufori.

Tushib yo'l uzra so'ng nozu firoqqa,
Ro'molin echdi qayta boylamoqqa.

Shu yanglig' berdi o'zga zebu oro,
Jamolin etdi butkul oshkoro.

4305 Gahi nasringa roz aylab havola,
Qulog'iga taqardi gohi lola.

Gahi oshufta aylab farq ochardi,
Tugun boylardi, oyga mushk sochardi.

Cho'zildi chun zaru zevarga tadbir,
Oyog'i ostida tig' erdi, shamshir.

Tuzatdi zanjiri xalxolini ham,
Ki shohni chirmadi zanjirga shu dam.

Gahi sochin kamar aylar, gahi toj,
Ki shoh toju kamarga erdi muhtoj.

4310 Tizarkan lolani moh gardaniga,
Kamar soldi magar shoh gardaniga.

Olovni past yoqib, halvo pishirdi,
Baland etsa, olov kuydirgay erdi.

Chu berdi husniga ul etti oro,
Diloro erdi, boz bo'ldi diloro.

Va shahdin yuz o'girdi sho'xu xandon,
Ki ul dam oftobsiz qoldi osmon.

Yuziga ikki zulfi tob berardi,
Hayosi jismiga titroq berardi.

4315 Tovoniga tushardi sochlari lek,
Halok aylardi ko'rganni ilondek.

O'shal nozik bilurin bo'yni birlan
Qaro sochin o'yin o'ynardi zotan.

Ko'ngilkim ul bo'yinga banda erdi,
O'shal arqon uning bo'ynida erdi.

Yurib, chodirni tark etdi dilorom,
Ketib gul, qolmadi Xusravda orom.

Chaqirdi yolvorib shunda shahanshoh,
Xirom aylab iziga qaytdi ra'no.

4320 O'tirdi, to'kdi ko'z yoshin parivash,
O'shal ko'z yosh jahonga urdi otash.

Nechuk sehru amal dilni etar rom,
Barini ishga soldi ul dilorom.

Amallar borki, oshiqni eritgay,
Adosin har zamon ma'shuqa etgay.

Yana Xusravnng Shiringa javob bergani

Chu ko'rdi bo'ylakim noz erdi ongoh,
Qilich sirmashni bas qildi shahanshoh.

Shikoyatni tugatdi ul nihoyat,
Shirinlardin nechuk bo'lgay shikoyat?

4325 Dedi Shiringa: "Ey chashmu charog'im,
Humoyi gulshanim, tovusi bog'im.

Boshimda tojimu taxtim tuzuvchi,
Yiqitguvchi o'zing ham turg'izuvchi.

O'zing dilbar menga, dildor o'zingsen,
Meni mast aylading, hushyor o'zingsen.

Kishim yo'q sendin o'zga, to chekib raxt,
Boshiga toj qo'ysam, poyiga taxt.

Chekibsen garchi mendin necha ozor,
Nega qonimni to'kding necha bir bor?

4330 Shu onda zor etib kelgoning erdi,
O'zingni chetga tortgoning ne endi?

Demish Namrudga bir dehqoni dono:
Jadal ek, o'ldirishga shoshma aslo!"

Ne istarsen? Uzrmi, jon? Ado et,
Hayitmi istaging, qurbon? Ado et!

Etar, noz aylama ko'pdir niyozing,
Navozish ayla, haddin oshdi nozing.

Umidsizlik ila sindirma ko'nghim,
Sevinchim ber, alanga burna ko'nghim.

4335 G'amim ko'pdir, vale g'amxor kishim yo'q,
O'zing g'amxor esang, hech tashvishim yo'q.

Kishi dardu alanga botsa, naylar?
O'shal g'amni g'ami borlarga so'ylar.

Dili beg'amga zoe so'yلامak roz,
Hamohang yangragaydir soz ila soz.

Ko'ngilga solma ortiqcha havasni,
Olib, oson chiqargil har nafasni.

Jahonda menu sendeklar ko'p erdi,
Ularning nom-nishoni qayda endi?

4340 Ajab darvozadir shu eru osmon,
Ketishga ne uchun imillar inson?

Firibi dilni bas qil, ey malohat,
Navozish ayla, bitdi sabru toqat.

Yurishtirgil ishimni, vaqtidir ul,
Badar et tashvishimni, vaqtidir ul.

Etar qoshu qovoqni muncha uymoq,
Echib beldin kamarni boshga qo'ymoq.

Bekitma kelsa gar Fag'furga eshik,
Arig'i Mo'liyonda buzma ko'prik.

4345 Chekib olam g'amin oh urma g'amdin,
Sevich keldi, qutul qayg'u, alamdin.

Bulut bosganda g'am chekmak savobdir,
Bugun shodlikka to'l, kun oftobdir.

Ezilganni yana ezmoqmi shuncha,
Asiringman, meni xor etma muncha.

Na donish bo'lgay insonda, na farhang,
Yarash chog'i yana boshlar esa jang.

Xiradmand ulki, gar jangda tirar poy,
Yarashmoqqa hamisha qoldirar joy.

4350 Muloyim tort, yasharsen tund bo'lib chun,
Yurarsen o't bo'lib tokaygacha tund?

Yig'ib do'stu qadrdon majlising tuz,
Yorishsin unda yuzlar misli kunduz.

Bu bo'stonga kelibman, meva tersam,
Menga xoru xasakni tutma, erkam.

O'shal chashmu labingdin, ey dilorom,
Shahi shakkar uzatgil, gohi bodom.

Murodim ul erur bo'stonda bilsang,
Turunji g'abg'abing, norinji mammang.

4355 G'azab, ta'na, malomat tarkin ayla.
Urushni qo'y, yarash rasmini tanla.

Sen ohu, qon to'kish loyiqmi senga,
Bu ishni qo'y o'shal sheru palangga.¹³⁸

Tush endi, tark etib ul kibr ila noz,
Kelibdir sevganing, lutf ayla, e'zoz.

Agarchi kakliging uchmoqqa mohir,
Shahanshoh lochini ham bunda hozir.

Tusharsen qo'lga bir kun, ey parizod,
Etarsen ul zamon qo'ynimni obod.

4360 O'pib o'ynarmen unda zulfu xoling,
Ki tunlar ulfatimdir ul xayoling.

Ne ish bo'ldiki, bu zoru haqir, hay,
Bo'lib baxtdin yiroq, darmonda qolgay?

¹³⁸ Palang – qoplon.

Na dilda menga mehru shafqating bor,
Na suhbatlarga jindak hurmating bor.

Ishongil, suvga tushsa qishmi, yozin.
Chiqargay har kishi undan palosin.

Menga mehru karam yo'q erdi senda,
Boqib, qaytishga azm etding o'shanda.

4365 Tilarsen gar, hisobim ayla andoq,
Yaqin yo'lni yana etgil yaqinroq.

Qoshingni chatma, yoz abro' hiloling,
Xazinangga guhar to'k, och visoling.

Uying soriga yo'l yo'q ersa menga,
Muborak deb tusharmen unda yo'lga.

O'shal yo'lkim, kelibmen shodu xandon,
Yana qaytishni ham bilgaymen o'bdon.

Unutmoq dorusiga men cho'zib dast,
Bo'lak soqiy yod aylab, bo'lay mast.

4370 Bo'lak sharbatga endi to'ldiray jom,
Bo'lak halvo bilan shirin etay kom.

Uzib ko'ngilni Shirindin bayakbor,
Shakardin labni etgaymen shakarbor.

Shirin achchig'iga yo'q ersa tobim,
Icharmen u bilan achchiq sharobim.

Ko'ngil ichra ketishga ishtiyoqdir,
So'zimni qisqa qildim, yo'l yiroqdir..."

Yana Shirinning Xusravga javob bergani

U Xallux xublarining oftobi
Lab ochdi, bo'ylakim keldi javobi.

4375 O'pib er dedi: "Shohim, konron bo'l
Va sohib davlatu sohibqiron bo'!

Seningsiz etti iqlim ko'rmasin nur,
Yomon ko'zlaranam doim yiroq tur!

Bo'lib ming hojating, shohim, ravoying,
Zavol hech ko'rmasin baxti baqoying.

Kishi yoding-la gar boda etar no'sh,
O'shal menman faqat, etma faromush.

Etar, bas, shahdi zahrolud to'kishlar,
Bu afsunxonga afsona o'qishlar.

4380 Rivoyatlar demak afsunga molik,
Hikoyatlar demak kibru havolik.

Shikor aylab, surib chodirda rohat,
Shirin qasriga qo'ymoq so'ngra minnat.

Etar podshogingga qayda zaxmi,
Mazax aylar esang bir mustamandni.

Surib ov itlarin ustiga har on,
Qiyinmas, ohu ovlash senga oson.

Vale men ganjdirmen muhri qattiq,
Nasib etgaymidim senga bu yanglig'.

Magar sen ko'p o'yinlarkim qilursen
Va ko'p afsonalarni yod bilursen.

Ularni menga etmak zoedir, bas,
Agarchi tol tugar gul, meva bermas.

Sen ul daryoki, poyoningni bilmam,
Chu daryo rozi pinhoningni bilmam.

Men ul mo'jaz hovuzmen manzilimda,
Ne ersa ko'nglim ichra, ul tilimda.

Kishida gar sadafdin siyna bo'lgay,
Dilida misli daryo kiyna bo'lgay.

Kelibsen so'zlaring aylab shirinkom,
Deding shirin ila Shirin bo'lur rom.

Shakarguftorliging tinglarmidim gar,
O'zim sotgaymen andoq shahdu shakkar.

Tiling bor ko'p ravon, o'zga vaqo yo'q,
Yoqarsen jismu jonimni, davo yo'q.

Chu tokay toju taxt ortiq degaysen,
So'zingni har safar qattiq degaysen.

So'zi qattiq kishi ul bedavodir,
Magar g'orida doim ajdahodir.

So'zim o'ylarmen avval so'ylamasdin,
So'zingni so'ylama sen o'ylamasdin.

Bu ish bitgay mashaqqat birla oxir,
Ki men ko'zgu ko'targum, sen shamshir.

Magar yaxshi-yomon soʻz ersa qancha,
Tafovut oʻrtada monandi qilcha.

Bu mahmilda kishi xushdil oʻtirgay,
Va zogʻ koʻzini ortida koʻrgay.

Toshu toshdir magar nomus ila or,
Hazir boʻl, shishaga tosh otma zinhor.

4400 Suxankim necha aytding, joiz ermas,
Oʻzing mast erdingu aytgan soʻzing mast.

Suxankim ul kalomi hushmanddir,
Magar er ostidin kelgay, balanddir.

Soʻz aytguvchi gahi osuda aytmas,
Yomon soʻz aytsa-da, behuda aytmas.

Magar har soʻzga ham meyor kerak, had,
Koʻpaysa gap, eshakka yukdir albat.

U yuzdin birnikim sen chokaringga
Deding, nutrib deyolmas lashkaringga.

4405 Diling bosh ogʻritishga ersa mushtoq,
Gapir, sendin deyish, mendin eshitmoq.

Agar istar esang, pinhona paygʻom
Ila yuz ishni etgaysen saranjom.

Qamab qoʻrgʻonga mendek bir goʻzalni,
Tilarsen oʻzgadin qandu asalni.

Koʻzim yoshiga boq, durdonadir, shaʼn,
Oʻyin qilma qulogʻim durri birlan.

Bu ohi anbarim ko'rgil, chunondir,
Kt zulfi anbarim ham bo'yla qondir.

4410

Labi la'limni ko'r, bordir sururi,
O'marmish bog'din ul norimni o'g'ri.

Qo'lim funduqiga toshimni otsang,
Bo'lur andin labim unnobi diltang.

Muborak yuzlimen, lek pardadorlik.
Muborak menga bu parhezkorlik!

Hazir bo'l, shu ko'zimdin ayla parhez,
Ki nozu g'amzasi chun xanjari tez.

Shu zulfim tolasi bir-birga chatmish,
Ilondir timqaro, poyloqda yotmish.

4415

Manim-la bo'lmagaysen bir nafas xush.
Ki muz qandilda hech yongaymu otash?

Bu choh boshida arqon uzmadim men,
Bu ov hirsida yo'ldin ozmadim men.

Diling yo'ldin adashgay, chapmidir, rost.
Uning bo'yniga ohdin qo'ng'iroq os.

Qara, har gal o'tarkan karvone,
Yo'l uzra qo'ng'iroq solgay fig'one.

Sahar to yo'lda karvon qo'zg'amas chang,
Biror qush boylamas ul bo'yniga zang.

4420

G'alat surding otingni, qayda inding,
Qora tulporni deb chavkarni minding.

Chu Hindiston sari oting surarkan,
Yo'qotding yo'lni, Bobul bo'ldi maskan.

Tilab daryo suvin sohilda turding,
Gul erdi rag'bating, lek lola terding.

Agarchi va'dani Shiringa sochding,
Vale ro'zangni Shakkar birla ochding.

Senga men yoru sen bir boshqaga yor,
Ishing mundog'u menga ne ishing bor?

4425 Haqir etma, base xor aylamishding,
Ki avval ham meni zor aylamishding.

Quvilganni unutmog'ing ravodir,
G'arib, darmondani qishloqda qoldir.

Chu ota-onasiz farzand kabi men,
Etimdek bag'ri yuz parkand kabi men.

Men ul dev g'orida tutqun misoli,
Bir oyda bundan o'tmas bir chumoli.

Meni mehringga zor etdi zamona,
Malomat o'qiga bo'ldim nishona.

4430 Qara, tegramda toshdir, o'ng ila so'l,
Yana ustiga tosh qo'y, go'r bo'lar ul.

Agarda ostu ust tosh bo'lsa chandon,
Yopar har necha ersa aybu nuqson.

Men o'ylarmen hamon, ey yori gulgun,
Ki Shabdezdin yiqildim avvalin kun.

Xalos qil bir yo'la yukdin bu tanni,
Etar, gul sochma, yo'ldin ol tikanni.

Ne erdi gul sochib, to'zon to'zitnoq,
Tuzin eb, oxiri tuzdonni to'kmoq?

4435

Seni deb bo'ylakim bechora bo'ldim.
Qo'yib ul xonumon, ovora bo'ldim.

Sevinchim ketdi, boshimga etib g'am,
Meni Shahruda sen tark etganing dam.

Chu men miskin kimu shahri Madoin,
Muvofiqdir qachon menga bu oin?

Senga lozim o'zingdek sarbaland ul,
Ne hojat men kabi bir mustamandul?

Quduq qazkim suvi bo'lsin farovon,
Tomirni keski, andin sachrasin qon.

4440

Etib do'stlik binosin bo'yla barbod,
Asosin yangidin qo'ymoqchisen bot.

Magar yangi gilamning issig'i yo'q,
Gar ul eskirsa, hech ortarmi issiq?

Daraxtkim boshdanoq ul qiyshiq erdi,
Qaridi, qaddi rost bo'lgaymi endi?

Qadam ranjida etding, shahsuvorlik,
Muruvvat aylading chun, shahriyorlik.

Va lekin bu kecha hamxonalik yo'q,
Visol sham'iga ul parvonalik yo'q.

4445

Hamon zirvak qozon tubida xomdir,
Hanuz halvo pishiqmas, notamomdir.

Bu kecha amr etishni aylagil bas,
Kishikim mast esa, mehmon etilmas.

Kelur ul vaqti soatkim, kutarmen,
O'shanda chorlabon, mehmon etarmen.

Jahonda ish bo'lur, fursat esa yor,
Va har ganj eshigiga bir kalit bor.

Bilarsanki, xo'roz qichqirsa bevaqt.
Uzarlar boshini darhol beshafqat".

Yana Xusravning Shiringa javobi

4450

Chu Xusrav ko'rdikim, ma'shuqi tannoz
Itobin qo'ymamish, boz aylagay noz.

Fusun etdi kecha, osori qayda,
Fusun Bobulga eltishdin ne foyda?

Yalindi shunda: "Ey maqsudi jonim,
Ko'zinning ravshani, ruhi ravonim!

Boshingga baxtu baxtingga etuklik,
Dilimga jonu jonimga tiriklik!

Chu gardundek etarsen men bilan jang,
Ne bo'lgay, boqsangu holimni so'rsang.

4455

Etib bir ishva, ayla oshig'ing shod,
Alamdin bu ko'ngilni ayla ozod.

Etarsen ta'na o'z aybingni ko'rmay,
Ko'rarsen shu ravish aybimni tokay?

Chu ko'r ham ko'rmagay o'z ko'rigin hech,
Birovdin ayb qidirgay ertayu kech.

Otib toshi, har nafas boshimni yorma,
Yotibmen tuproq ichra, qonga qorma!

Turib g'am ichra so'ng g'am ichra yotmoq,
Afokullah, bu yanglig' g'amga botmoq!

4460 Cho'kib tun, qor yog'ar, ko'kdin tushar dur,
Qo'yib muz mehrini, andin yuzing bur.

Vale qorga harorat urma, yolqin,
Erib, suvlansa qor, noxush bo'lur kun.

Bu kecha eshiging och menga, erkam,
O'pay to eshiging tuprog'in ul dam.

Adab saqlarmen ul o'tru o'tirsam,
Yurarmen ko'zni diydoringni ko'rsam.

Topar yo'l kimsa ul koshonang ichra,
Agar ul yumsa ko'zni xonang ichra.

4465 O'shal do'st aylanibdir dushmaningga,
Magar ko'z tiksa doim ravzaningga.¹³⁹

O'shal insonni bil do'sti haloling,
Ki istar ortishin ul mulku moling.

¹³⁹ Ravzan – daricha.

Hasad aylar esa gar senga ulfat,
Nari sur, suhbatl uch pulga qimmat!

Kel, ey jono, ko'ngilning zori shuncha,
Eshikda halqadek zor etma muncha.

Azoblar ichra qo'yding, nosavobdir,
Bihishtdir bu, jahannamda azobdir.

4470 Bihishtiy mevalar bor senda, totli,
Chu kimsa ko'rmamish ul mo'jizotni.

Eshik och, boshqa bir fursatni kutma,
Daraxtning mevasini zoye etma.

Rutab, xurmodin ul sufrangga ber zeb,
Sikandar kelmish ul obi hayot deb.

Eshik och, kinu kiyna tarkin ayla,
Kamar avvalgidek xizmatga boyla.

Chu mumkin bo'lmasa eshik ochish ul,
G'aribga bir kecha lutf'ersa mushkul,

4475 Niqob och, oftob chehrangni ko'rsat,
Niqob oftobga, dildorim, ne hojat?

Ajab oshuftamen, olding hushimni,
Uchirma har taraf ko'ngil qushimni.

Quvonchim yulduzi, dilbar, o'zingda,
Ki ham yoqutu ham anbar o'zingda.

Labing garchi asaldir mendin ayro,
Tiling nishtar kabi sanchilgay ammo.

Bu yumshoqlik-la shaddod bo'lma, gulyuz,
Magar kirpitikan bo'lgaymi qunduz?

4480 Chunon ish qilki, sendin shod qaytay,
Va diydoring tilab dilshod qaytay.

Qadam garchi g'uborolud hamisha,
Ko'rib vaslingni dil xushnud hamisha.

Magar men kelmasam ko'nglingga manzur,
Qiyin bo'lgay senga ul uzru ma'zur.

Bu Xusra vboshiga tosh otma takror,
Uni Farhodga o'xshab etma sangsor.

Kishikim osmonga irg'itar tosh.
O'shal tosh zarbidin so'ngra qo'yar bosh.

4485 Yorarsen boshni, qonlarga botar tan,
Keyin tushgay ular bo'yningga zotan.

Menga mehring-la et mehmonnavozlik,
Menim-la qilma mundoq muhrabozlik.

Na har oshiqki, topsang, mast erur ul,
Na har qo'l, uchrasa, hamdast erur ul.

Menim-la gohi sulh, goh jang qilursen,
Etar, bu ikki ranglikdin qutul sen.

Yo oqlik, yo qarolik qil, bo'lakmas,
Ilonbaliq ilon yoxud baliqmas.

4490 Bilolmasmen, nechuk bu kiynayu kin,
Shuni ma'shuqalarga rasmu oyin?

Etarmen menga muncha ranju ozor,
Ki daryodek toshim, jo'sh urmog'im bor.

Senga derman yaqinlash, o'zni rostlab,
No'noq shogirdga o'xshab ketma pastlab.

Yaro uzra yaro soldingki, basdir,
Ko'ngildir bu, po'lat yo tosh emasdir.

Qayishding dushmaning kecha-kunduz,
Bu dushmankomliging ne erdi. ey do'st?

4495 Yurakdin va'da ber, yaxshi qiliq qil,
Qo'y andoq egrilikni, to'g'rilik qil.

Raqiblar qasdiga lutf et, diloro,
Nihon kuydir, sevintir oshkoro!

Taomni sho'r etishga aylama zo'r,
Shirin achchiq bo'lur etsa uni sho'r.

Muloyim bo'l, shirinlik sengadir yor,
Muloyimlik, shirinlik do'stu hamkor.

Bulutdin izladim oy deb seni tek,
Vale topdim bugun suvsiz bulutdek.

4500 Charog' etding yorug', ey jonga mahbub,
Tushib ilkinga kuydirding meni ko'p.

Yiroqdin gul ko'rinding olu dilkash,
Yaqin kelganda ko'rdim, erding otash.

Araz haddin osharkan, g'ashdir oxir,
Chu tuproq tortsa qattiq, toshdir oxir.

Sololmas tanga har tig' ham yaro, dog',
Barobarmas qo'lingda o'nta barmoq.

Bu erdin, istasam, darhol ketarmen,
Chu sendin yaxshiroq yorga etarmen.

4505 Vale xizmatlaring qadriga etgum,
Shirin suhbatlaring andisha etgum".

Yana Shirinning Xusravga javobi

Ijzat etdi SHirin boz labga,
Shirin so'z aytgali shirin rutabga.¹⁴⁰

Aqiq sochdi, duru durdona porloq,
Guhar boylab, to'kib marvarid andoq.

Dedi avval: "Ayo shohi javonbaxt,
Ki sen birlan go'zaldir toj ila taxt.

Kuchingga daxl etarsa har badxoh,
Berib boshini, tuproqqa bo'lur jo.

4510 Sening ustingda shon-shuhrat choponi,
Sening ilkingda sustdir ko'k kamoni.

Mudom baxt yoring o'lsin, baxtiyorim,
O'zingsen pushtboni ro'zgorim!"

Keyin tund bo'ldiyu o't oldi, otash,
Dedi Xusravga: "Ey solori sarkash,

¹⁴⁰ Rutab – xurmo.

Ki shohsen, shohga andoq ishqibozlik.
Sening ishqing faqat ishqij majozlik.

Kishining shu jahonda yori bo'lgay,
Yana andin bo'lak ne kori bo'lgay?

4515 Menga ta'n aylama ul ishqij Farhod,
G'aribni yaxshilik-la aylagil yod.

Aningdek mehribon menga qayonda?
Tutungan og'am erdi ul jahonda.

Ne ko'rmishdi mening oydek yuzimni,
Va na bir bor eshitmishdi so'zimni.

Chu men bois edi ro'zgorida dud,
Yonardi, ul yonishdin erdi xushnud.

Menga ming bor muruvvat etdi chindan,
Muruvvat ko'rmadim bir bora sendan.

4520 Tikan ham boshida gar o'stirar gul,
Azizdir meva bermas sarvdin ul.

Temirni bolish etgil menga har gal,
YUtib qon, zar kamar boylashdin afzal.

Taqarmen mis uzukni, xushdir ulkim,
Ne hojat siymu zar, kuydirsa ilkim.

Charog' tunlarda avlo menga butkul,
O'shal shamdanki, boriy aylagay kul.

Gar oshiq misli daryo bag'rida tosh,
Mening boshimda tog'dek tog'u bardosh.

4525

Bu zindon ichra qismat menga qayg'u,
Ko'ngil do'stlikdanu qo'l do'stdin ayru.

Kelarkan tang ko'ngilga tangdastlik,
Bo'lur devonalik ustiga mastlik.

Men ul mastdirmanu devonamen, bas,
Bo'lolmas senga yor devonayi mast.

Shu o'ksik so'zlarimning ustidin chiz,
Qo'limdin kelgani senga shu yolg'iz.

Gumon et, el esib bog'ingni buzdi,
Og'ochdin bir yashil yaproqni uzdi.

4530

Mashaqqat ichra bo'ldim darbadar men,
Ko'tar raxtingniyu ortingga qayt sen.

Qolib otashda, yondim men jabrdin,
Boqib sen ibrat ol, qochgil bu erdin.

Havo kofur socharkan zarra-zarra,
Nafaslar ham sovuq ersa, ne chora.

Bulut oq aylamishdir senga yo'lni,
Etar, sho'rlik Shirindin uz ko'ngilni.

Sen etma shabparakdek tunda parvoz,
Qiron lochin kabi chiq kunga peshvoz.

4535

Necha afsonalar mendin eshitding,
Yana ne mehribonlik ersa, ko'rding.

Shiordin bir "shaire" qolmamish ul,
Arabcha bilmasang gar "arpa" deb bil.

Falak boshin egar poyinga har dam,
Hama tinu shikan sochimdadir jam.

Diling qush bo'lsa ham unga etolmas,
Daming tong bo'lsa ham kunga etolmas.

Yusuf tushini ko'r yuz karra, beshak,
Masihosen o'shal, ostingda eshak.

4540 Bulut yanglig' urarding birgina zarb,
Urarsen endi tongdek ikki qo'llab.

Qul erding, lek nazar shohlikka solding,
Sotib boltangni, qo'lga nayza olding.

Ket endi, qo'y bu manzil, sig'magaysen,
Agar qil bo'lsangam ul, sig'magaysen.

Firebu zo'rilingdin hech samar yo'q,
Eyolmaysen nasib etgandin ortiq.

Alam, ranj chekmayin yonmoq ne erdi?
Adab rasmini tut, jim bo'lgin endi!

4545 Halol yo qarchig' aydek qorning ochsa,
Ema kalxatga o'xshab losh, o'laksa.

Meni behudamas Shirin atarlar,
Ki ilkimdin kelur shirin amallar.

Birini yig'latarmen talxi jomdin,
Birini shod etarmen ayshi jondin.

Gulobim etsam achchiq gohi, bok yo'q,
Gulob ul yaxshiroqdir ersa achchiq.

- Ki andoq bir sharobmen qotilu bas,
Hidim aylar seni yillarcha sarmast.
- 4550 SHirin deb tarqalibdir elga nomim,
Ne tong, gar achchiq etsam goh kalomim.
- Magar ikki shirin bir joyda bo'lmas,
Danak xurmoda yaxshi, pistada mag'z.
- Dag'alsan deb menga ayb taqma zinhor,
Dag'allik ostida mehru karam bor.
- Guhar tosh ichrayu xurmo tikonda,
Xazina mo'l bo'lur buzg'un makonda.
- Sabri rahnamo et o'zga har dam,
Bosib yuk. bo'lmagil zoru zabun ham.
- 4555 Magar zoru zabun chandon bo'lursen,
Juhud bo'lgaysen unda. ne qilursen?
- Eshak haddin ziyod yuvosh esa, hay,
Go'daklar ham mimnib, har yon yuritgay.
- Magar lochin uchib, ov etmas ersa,
U chumchuq tepkisin er lahza-lahza.
- Tuya tark etsa karvonda qatorin,
Berar sichqonga erku ixtiyorin.
- Kishi sherlik kuchin da'vosin aylar,
Tishini sher kabi ko'rsatsin avval.
- 4560 Chu itlar ham urushsa, beomondir,
Solib bir-birga tish, tinchilar oxir".

Keyin ont ichdi, aylab ahdu savgand:
Ba haqqi ziyraku joni xiradmand,

Ba haqqi gunbazi firuza, gulshan,
Ba haqqi chashmayi xurshidi ravshan,

Ba haqqi naqshi a`lo jannati pok,
Ba haqqi hartı zebo, manzili xok.

Ba haqqi ulki, boqiy umri, o`lmas,
Ba haqqi ulki, uyg'on, uyqu bilmas.

4565 Ba haqqi ulki, bergaydir emishlar,
O`shalkim jonni asrab parvarishlar,

Qasamki, mayliga, shohi jahon bo`l,
Nikohsiz topmagaysen men sari yo`l!"

Dedi shu so`zni, shohdin burdi yuzni,
Ki topgan ganjidin ham kesdi o`zni...

Xusravning Shirin qasridan qaytгани

Cho`kib tun, ul Xo`ton ohusi dilbar
YAna atrofga sochdi mushku anbar.

Va minglab ohu barra lablari sut,
Biyobon ichraorom topdilar, qut.

4570 Magar ko`ksi yaroli ohu yanglig`
Shahanshoh ko`ngli ma`yus erdi, munglig`.

Yog`ardi betinim yong`ir ila qor.
Bahor mavsumidek tinmasdi zinhor.

Chu tog'lar elkasiga qor cho'kardi,
Samo dillarga qo'rg'oshin to'kardi.

Belanmish erdi qorga shohi Parviz,
Kumushrang parda ichra erdi Shabdiz.

Tiliga tuk chiqib yolbordi qancha,
Ki parvo etmadi dildori qilcha.

4575 Base oh urdi to rahm aylagay yor,
Vale yuz noladin bir chiqmadi kor.

Agarchi damba-dam rahm ayla derdi,
Javobi har safar beshafqat erdi.

Qaro tundin kecharkan bir qadar, shoh
Shirinning qasrini tark etdi nogoh.

Egik erdi hamon ot uzra boshi,
Ko'zidin sochilardi qonli yoshi.

Yaroli erdi ko'ngli, o'ylakim qush
Va butkul uchgan erdi boshidin hush.

4580 Oyoq siltab bedovni qistamasdi,
Qo'li ortiq jilovni ushlamasdi.

G'amin yo'l ozig'i etmish edi ul,
Ko'zidin to'kildardi gul uza dur.

Qaniydi, derdi, shu yo'limda nogoh
Baland tog' uchasaydi yoki bir choh.

Qolardim, topilar erdi bahona,
Yotardi shunda jismim jovidona.

Gahi qo'lni qo'liga "qars" urardi,
Gahi ko`ziga dastorcha o`rardi.

4585 Etib lashkargahiga keldi navmid,
Dilida otash erdi misli xurshid.

Bulut erdi qaro, tark etdi gulshan,
To`lin oy ayladi olamni ravshan.

Shahanshoh ko`k kabi chodirga kirdi,
Va horg`in bordi burchakka, o`tirdi.

Jahonga aylamasdi hech nazora,
To`n ermas, aylar erdi dilni pora.

Boshini qo`ygali joy topmas erdi,
Boshi xam, tizzasiga payvast erdi.

4590 Nadimu hojibu jondoru dastur
Ketishdi, qoldi tek Xusrav va Shopur.

Ajab san`at ila ul mohir ustod
Tarab naqshin chekardi etgali shod.

Separdi otashi so`zoniga suv,
Kulardi oy kabi, qo`zg`ardi kulgu.

Der erdi unga: "Shirin mehribondir,
Agarchi gohida achchiq zabondir.

Gahi bergan esa ko`nglingga ozor,
Shirin xurmoda ham, ko`rgil, tikan bor.

4595 Shirin jahl aylasa, sen etma savdo,
Shirinlikdin oshar jismingda safro.

Qizishgan bo'lsa ul, sen bo'lma ranjur,
"Shirinlikda harorat" so'zi mashhur".

Malik xilvat ko'rib atrofni, ovloq,
Shikoyat ayladi Shopurga shundoq.

Ki ko'rding, jabr etib shu jonu tanga,
U nelar qilmadi har lahza menga!

Xudodin qo'rqmagay, yo'qdir ibosi,
Ayo! deysan, qani sharmu hayosi?

4600 Echib men oldiga qo'ydim kulohim,
Sarvdek tik turib so'rdim gunohim.

Va lekin ul omonsiz bolta urdi,
Butoqlarni kesib, erga tushirdi.

Na so'zimdin muloyim tortdi ko'ngli,
Na mehrimga javobin etdi ko'ngli.

Tili jonimga misli xanjar erdi,
Ki uzri ul gunohdin battar erdi.

Bale, yor birla yor ham aytishar goh,
Tikan birlan tikandek ermas ammo.

4605 Mening ham bor g'azabga to'lgan onim,
Mening ham bor, axir. shu tanda jonim.

Agar ul Horuti Bobul jamoli,
Va bobul sohiri ul hindu xoli,

Sovuqdir menga ortiq. baski bezdim,
Fusunu sehrini muz uzra yozdim.

G'ami ul sabru toqatdin fuzundir,
Men ul g'amxora, bilgaymenki, chundir.

Go'dak holini doim doya bilgay,
Yomon hamsoyani hamsoya bilgay.

4610 Menga dushmandir ul, kori yomonlik,
Nihoniy kiynu zohir mehribonlik.

Ne xohish aylasam ul bag'ri toshdin,
Qabul etmay, hushinni oldi boshdin.

Hama xush so'zlarimga men berib roy,
Desam bir yil, eshitmas hatto bir oy.

Kelib tunda ziyosin etmadi baxsh,
Siniqqa mo'miyosin etmadi baxsh.

Agarchi vasli Shirin muncha shirin,
Falak ostida yo'qdir shuncha shirin.

4615 Va lekin yor bo'lishga arzimas ul,
Zabunu xor bo'lishga arzimas ul.

Xasislar sori qo'l cho'zgandin, illo,
Yovuz fil ostida jon bergan avlo.

Madad qurbaqadin ketguncha har gal,
Baliqdek suvga g'arq bo'lgoning afzal.

Chu nomard oldida sarg'aymagil ko'p,
Borib, tirmoq ila tosh qazganing xo'p.

Hama pok suvda durri pok topgay,
Kishikim xok izlar, xok topgay.

Nechuk toshloqda endi izlayin kon?
Nechuk yolg'iz charog' yanglig' uzay jon?

Nechuk men mulki jon bergum malakka,
Ki bir dam qarg'asi qo'nmas kesakka?

Menga mendek kerakdir ahli nomus,
Munosibdir magar tovusga tovus".

Shopurning Xusravga javobi

Chu avval bosh egib, er o'pdi Shopur,
Keyin otashga urdi obi kofur.

Dedi: "Andin g'azabga minma behad,
Kechirimli bo'lur sendek javonmard.

Chaqindir qahri ma'shuq, umridir oz,
Magarki farqlidir ul qahru ul noz.

Qizishgan bo'lsa Shirin, tut ma'zur,
"Shirinlikda harorat" so'zi mashhur.

Na Shirin ul, hama xurmodahonlar
Berarkan luqma, bo'lgay ustuxonlar.¹⁴¹

Shirin safrosidin deb bo'yla ohim,
Shirin savdosini tark etma, shohim.

Magar Shirin sening holingni tuymish,
Shakar ostiga jindak sirka qo'ymish.

¹⁴¹ Xurmo danaksiz bo'lmaydi, demoqchi.

Shirin, nordonki bor, oʻrni boʻlakdir,
Bu safro birla savdo ham kerakdir.

Al ctgay ayollik, yoʻqki erlik,
Chu it ham itlik aylar, sher-sherlik.

Shabah gar dur bila boʻlgay, ne sirdir,¹⁴²
Chu ganji zar kaliti ham temirdir.

Goʻzallardin koʻngil uzmoq ne lozim?
Ularning nozini chekmoq-da lozim.

Hama maʼshuqalar ham boʻyla badxoʻy,
Kelinchak boʻlmagay berangu beboʻy.

Tikansiz gul latofat qayda ernish?
Va pargor chekmayin xat qayda ernish?

Goʻzallarga oʻjarlik rasmu odat,
Qolursen suv ilon chaqsa salomat.

Tilarsen qaygʻu, anduhdin raholik,
Oyoqda ustuvor boʻl misli togʻdek.

Har esgan el seni titratsa shuncha,
Magar togʻ boʻlsangam qadring somoncha.

Na xush nokomlik ichra etsa kom ul,
Ki anbar atri ham xomlikda oʻtkir.

Sanamga turktozlik etsa, boʻlmas,
Choʻzib qoʻl oyga ham chun etsa, boʻlmas.

¹⁴² Shabah – shishamunchoq.

Ayoldir ul, eshik qoq, poylagil tek,
Ko'ringay darchadin ul misli oydek.

Chu oy birlan ayolning odati shul,
Eshik berk bo'lsa, kirgay darchadin ul.

Sen o'ylaysanki, ma'shuq to'kmagay yosh,
To'kar yosh, lekin aylar sabru bardosh.

Magar ko'hi jafodin tosh ko'chgay,
Sening soyangga, yor boshiga tushgay.

4645 Tikan sanchilsa to'ningga banogoh,
Uning ko'ksi qonab, dildan chekar oh.

Agar tun kelsa, dilxun bo'lmagil, hay,
Sabr qil, erta undan ne tug'ilgay?

Faqat bir yoqdin ermas baxting o'tru,
Faqat bitta ariqdin oqmagay suv.

Hama yillar senga baxting emas yor,
Gahi etgay aziz, goh aylagay xor.

Nechuk noz etmasin davlatga ortiq,
Sen andoq toleingni tutma qattiq.

4650 Chu pargor aylanib, etmaydi qayga,
Vale kelgay yana avvalgi joyga.

Asov otni chavandoz aylagay rom,
Magar ohistalik-la pishgay ul xom.

O'ziga bo'yla bo'ysundirgay otni,
Keyin kim istagaydir, mingay otni.

Asirlikdin qutulgay sabr ila kas,
Va har mushkul kaliti sabr erur, bas.

Echar band, ersa hamki ul mashaqqat,
Kular tong, bo'lsa hamki kecha zulmat.

4655 Umidim ulki, bu savdolar o'tgay,
Shahanshohim murod, maqsadga etgay".

Shirin Xusravning ketganiga afsus chekkani

O'shal sohibsuxan bir pas olib tin,
Chunon ogoh etdi boshqa gapdin:

"Ketib shoh, oqdi Shirin ko'zidin yosh,
Urar erdi alamdin ko'ksiga tosh.

Ko'zida ashki beandoza erdi,
Chekarkan, ohi toza-toza erdi.

Chalajon qush kabi o'zdin qochardi,
Sumanga nargisi siymob sochardi.

4660 Aqiqdek lablarin tishlar edi ul,
Boshiga gohida mushtlar edi ul.

Havoni yondirib ul ohi har on,
Zaminga suv separdi chashmi giryon.

Chu g'am, qayg'uga botmish erdi poyi,
Ki jon qo'ymoqqa ham yo'q erdi joyi.

Bo'lib besabru toqat o'z ishidin,
Xijolat erdi qilgan qilmishidin.

Borib Gulgunga mindi ul dili tang,
Oti gulgun edi, ko'z yoshi gulrang.

4665

Shamoldek uchdi ul raxshi xujasta,
Suvoriy o't uza suv shu nafasda.

Yo'li ingichka erdi qoshidek, tig',
Qaro tun zulmat erdi sochi yanglig'.

Elarkan oti yo'lda sur'at ichra,
Xudoga yolborardi zulmat ichra.

Yigit to'nini kiymish erdi ra'no,
Falakdin ham o'zardi oti go'yo.

Qadamni qaygakim Gulgun chekardi,
U joyga ashkini Shirin to'kardi.

4670

Elib to bo'yla lashkargohi Xusrav,
Etishdi oti ul xirgohi Xusrav.

Hama uyquda, o'zdin kechgan erdi,
Qilich, tig'larni beldin echgan erdi.

Hama afyun ichib, uyquga ketmish,
Necha posbonki bor, uyqu elitmish.

Shu erdi hol, necha nazzora qilsin,
Bilolmas erdi ul ne chora qilsin?

Malik dargohidin shu onda Shopur
Solib ko'z, ko'rdikim kelmoqda kimdir.

4675

Chu afsunlar o'qib Shopur damodam,
Shahanshoh uyquga ketmishdi ul dam.

Chaqirmay yoniga bir soqchi, posbon,
Chiqib, Shirin sari yurdi xiromon.

Va so'rdi: "Hay, paripaykar, kimsen?
Nechuk shu bemahal bunda yuribsen?"

Magar sher kelsa, bo'lgay tang holi,
Ilon kelsa, bo'lur misli chumoli!"

Tanidi, qarshisida Shopur erdi,
Egardin qiz shu onda erga indi.

4680 Boqib Shopur, qolib hayratda butkul,
Yaqinroq bordi, oyo, kim emish ul?

Nazar tashlab yaqindin nozaninga,
Kulohin ko'kka otdi, o'zni erga.

Va so'rdi: "Bo'ldi qandoq bo'yla roying,
Ki bizga to'tiyodir xoki poying?"

Paripaykar navozish aylab ortiq,
So'zini shirin etdi nozi yanglig'.

Qo'lidin tutdi sodiq kimsasini,
Etib bir chetga, aytdi qissasini.

4685 Gapirdi necha nodon bo'lganin ul,
Chekib afsus, pushaymon bo'lganin ul.

Necha afsona aytdi, xom erdi,
Necha so'zlarki, behangom erdi.

Dedi: "Ul lahzakim shoh yo'lga tushdi,
Dilinga qayg'u, g'amdin o't tutashdi.

G'aminga qovrilib, bechora bo'ldim,
Aqldin ayrilib, ovora bo'ldim.

Jasorat topdim o'z holimda nogoh,
Zarurat kelsa, ohu sher bo'lur goh.

4690

Buni ko'rgilki, qismat shu qaro kech
Yomonlarga meni duch etmadi hech.

Yo'limda xavf-xatarsiz, to'g'ri keldim,
Magarki niyatimda to'g'ri erdim.

Huzuringga, mana, xavfsiz etib men,
O'zingga taqdirim taslim etarmen.

Senga arz aylagum men ikki hojat,
Madad aylab, ularni et ijrbat.

Biri ulki, shahanshoh no'sh etib may,
Qadahlardin sado uchsa payopay,

4695

Meni bir go'shada tut unda yolg'iz,
Shahanshohga vale sezdirma hargiz.

Boqib, to ishrati jomin ko'ray men,
Jamoli jonga oromin ko'ray men.

Yana ulki, meni istar esa shoh,
Nikoh shartin rioyat etsin, illo.

Qabul ayla so'zim, bahri savob et,
Qarosi ketmayin tunning shitob et.

Yo'q ersa, o'zga bir yo'lni tutarmen,
Olib boshimni qasrimga ketarmen".

4700

Ne istar, bildi Shopur, ul pari zeb,
Qasamlar ichdi aytgoning qabul deb.

Va SHabdiz oldiga Gulgunni eltdi,
Va shoh ayvoniga Shirinni eltdi.

Edi ul joyda qo'sh chodir muhayyo,
Shahanshoh ziynati birlan Surayyo.

Birida no'sh etib shoh bodayi jom,
Birida uxlab olgay erdi orom.

Base e'zoz etib chun porayi nur,
Parini boshladi xobgohga Shopur.

4705

Va o'tqazdi muzayyan kursi uzra,
Chiqib, xirgoh eshigin yopdi so'ngra.

Shahanshoh oldiga so'ng ketdi shodon,
Yurakdin shay edi xizmatga har on.

Kezib goho etardi sayri gulshan,
Gahi shamlarni aylar erdi ravshan.

Xusrav tush ko'rib, Shopur uni ta'bir etgani

Sahar uyg'ondi yaxshi tush ko'rib shoh,
Sevinchdin chehrasi oy erdi go'yo.

Hamon Shopurga tahsin aytdi andoq,
Ki "Men uxlog'u sen baxtimdek uyg'oq.

4710

Sening baxtingga yaxshi tush ko'ribmen,
Etib osmonga boshim, charx uribmen.

Kezibmen bog`u bo`ston, gulshan ermish,
Qo`limda bir charog`i ravshan ermish.

Charog`imdin taralgay erdi shu`la,
Nechuk tush bo`ldi bu, sen ta`bir ayla`.

Lab ochdi so`zga, ta`bir etdi Shopur:
"Ko`zingni ravshan etgay ko`rganing nur.

Qaro tunni Xudoyim kunduz aylar,
Parini keltirib, qo`yningga joylar.

4715 Buning-chun may ichib, bir yayrashaylik,
Zaminga kimiyoyi la`l to`shaylik.

Tuzaylik ertaga bir yangi majlis,
Ki bo`lsin eski boda, yangi nargis.

O`shalkim, ochsa mashriq chashmayi nur,
Va dengiz uzra to`ksa gardi kofur.

Ichib, biz kofuriy maydin bo`lib mast,
Suraylik kemani dengizda sarbast`.

Bu so`zlar shoh yuzini lola etdi,
Sevindi, shodlanib uyquga ketdi.

Xusrav shikorgohda bazm etgani

4720 Sahargoh ochdi yuz olamga xurshid,
Jahonni chulg`adi ul zebi Jamshid.

O`shal yoqdin chiqib mashshota nogoh,
Kelinchak tongga berdi zebu oro.

Va qushlar yozdilar andin paru bol,
Go'zallarda jarang sas berdi xalxol.

Kirib keldi shahanshoh shunda bardam,
Chu ko'rgan tushidin shod erdi, xurram.

Buyurdi, qurdilar bir yangi borgoh,
Uning yonida tog' xas erdi go'yo.

4725

Boshi osmonga etgan erdi, porloq,
Yomon ko'z boqsa, bo'lgay erdi tuproq.

Ko'tardilar havoza ko'kka yo'llab,
Xaloyiq yonma-yon, bir-birin qo'llab.

Hama zarrin libos sarhangu sulton,
Eshik oldida soqchi erdi, posbon.

Yana qullar, bo'yi naq ko'kda Ayyuq,
Kulohlar erdi boshlar uzra qiyshuq.

Yana dahlizda erdi tanqarolar,
Habashdin kelmish erdi ul sipohlar.

4730

Habashlar-la go'zallar erdi chinlik,
Etarli tunga aydek hamnishinlik.

Magar taxt ostidin el o'tmas erdi,
Qiyiq ko'zlar ijozat etmas erdi.

Azim chodir ipini mil uza mil,
Chekib, tortib turardi necha bir fil.

Yana atrofda chodirlarki, zarboft,
Nuridin xiya erdi oyu oftob.

Birida o'ltirardi Xusravi Chin,
Birida g'am chekar bechora Shirin.

4735 Yoyilmishdi bisotlar zarru zarhal,
Esib el ganj terardi bunda har gal.

Magarki el ila ketgay edi ganj,
Sababki el bila etgaydi beranj.

Munodiy barcha do'st-handamni yig'di,
Quvildi, kimki ul nomahram erdi.

O'shal damda haramda qoldi tanho
G'ulomlarkim, kelishgan erdi, barno.

Adabparvar nadimlar, xos xiradmand
Kelib, xos kursilarni etdilar band.

4740 Qo'yildi zumradu yoqut idishlar,
Gazak erdi ularda xos emishlar.

Edi har kimsaning ilkida ganji,
SHahanshoh ilkida anbar turanji.

Tag'in bir kaftida zar erdi yal-yal,
Oqardi suv kabi siqqanda har gal.

Labolab quydi soqiy bodayi noz,
Payopay chaldi mutrib yangratib soz.

Chu Borbad ilkida barbat jaranglab,
Jahonni osmondek oldi chulg'ab.

4745 Damodam ko'kka yuksalgan navosi
Edi ne xasta dillarning davosi.

Ko'ngildin soziga tor boylamishdi,
Dovud yanglig' jarangos aylamishdi.

CHalarkan, kuy jarangdor erdi unda,
YAna lyso nafas bor edi unda.

Ko'ngilni mijmar aylab yondirardi,
Chalib ud, ul zamon ud kuydirardi.

Olardi sozi boshdin munchakim xush.
Ketardi ul zamon uyquga haqqush.

4750 Burardi so'ngra ul barbat qulog'in,
Sochardi nag'madin dardu firog'in.

Urib noxunni torga, yangratib soz,
Butun borliqqa solgay erdi ovoz.

Bor erdi bir Nakiso, changchi, o'ktram,
Nadimi xos edi ul shohga har dam.

Uningdek nag'masoz yo'qdi zamonda,
Uningdek xushovoz yo'qdi jahonda.

CHalarkan, udi sochgaydi sadolar,
U ijod aylamishdi xush navolar.

4755 U chalsa sozini, qush ul navodin,
O'zini erga tashlardi havodin.

U xonish aylar ersa mastu shaydo,
Samo sahnida raqs etgaydi Zuhro.

Sanardi o'zini Zuhrodin afzal,
Magar Borbadga erdi ul barobar.

O'shal majliski, shoh aysh etdi og'oz,
Bazmda changu barbat etdilar soz.

Jaranglab ikki soz, barbat ila chang,
Hamovoz bo'ldilar, hamsozu hamrang.

4760 Navolar jonga otash solgay erdi,
Biri jonbaxsh, biri jon olgay erdi.

Oshirgach nolasi zavqu tarabni,
G'ulomlar etdi tark rasmi adabni.

Shahanshoh amr etdi, xosu chokar
Bazmgohni bo'shatdi barcha yaksar.

Mug'anniy qoldi, shoh qoldib Shopur,
Ki qolganlar bari tark etdi chodir.

Chu Borbaxt ilkida soz yangrar erdi,
Eshitgan jonni sarxush aylar erdi.

4765 Nakiso changda kuy aylardi og'oz,
Va gohi yangratardi arg'anun soz.

Shahanshoh mast edi har ikkisidin,
Darig' tutmas edi zar ikkisidin.

Keyin xirgohini tark ayladi shoh,
Ko'rindi shunda gulyuz, o'ylakim moh.

Edi xirgoh aro chun chashmayi nur,
SHu on parvona bo'ldi unga Shopur.

Dedi Shopurga tilda sehri birla:
"Mening oldimga bir mutribni chorla.

4770

Shu dargoh ichra ul boz yangratib chang,
Mening dardinni aytsin. yoysin ohang.

Mening shu hasbi holim kuylasin soz,
Ko'ngil rozimni mutrib so'y lasin boz".

Nakisoni anga keltirdi Shopur,
O'tirdi ikki-uch odim nari ul.

Dedi: ""Ul pari sori boqma zinhor,
Ne ohang istar ersa, senga aytar.

Navoying bo'lmasin avvalgidin kam,
Ne aytsa, sen tarona ayla ul dam".

4775

U yoqdin Borbad chun bulbuli mast,
Bu yoqdin bu Nakiso, changga payvast.

Yonar chodirda shamlar anbarolud,
Bihisht husnini bermish otashu dud.

Jaraglardi navo o't, pardalardin,
G'azal yangrardi changiy larzalardin.

Ipak torin damodam titratib soz,
To'kar mahram ko'ngilga sozidin roz.

Kutar erdi shahanshoh endi mutrib,
Nechuk soz aylaru ovoz etar deb.

4780

O'sha chodirdagi gul yuzli shu payt
Ko'ngil dardini so'y lab, dedikim, ayt...

Nakiso Shirin tilidan g'azal aytgani

Nakiso ul sanamkim so'yladi roz,
G'azal shakliga soldi, aytdi hassos:

“Ayo dil, uxlama, etgay zamone,
Toparsen xushko'ngillikdin nishone.

Sabr tog'idin osh, ey subhi ummid,
Siniq ko'nglimni ravshan ayla, xurshid!

Kel, ey baxt, endi ul nozingni oz et,
Kalit top, bandu bastimdin xalos et.

4785

Boshimdin hayda, ey tole', qaroni,
Qo'lingdin kelsa, qo'lla notavonni!

Ko'tar ilkingni, ey do'st, ayla chora,
Urib g'am lashkarin, et pora-pora.

Jigar purtobu dilda dardu g'amdir,
Rahm aylar esang, dam ushbu damdir.

Senga undan-da aftoda, zaif yo'q,
Yana bechora ul, andoq harif yo'q.

Qo'lingga suv quyishga yo'qsa tobim.
Yoqib otash, pishirgaymen kabobim.

4790

Magar sharbat quyishni eplamasmen,
Vale ayron suzish kelgay qo'limdin.

Agar kashta tikishga yo'qsa quntim,
Uyimda har kuni isiriq tutatgum.

Yana kelgay qo'limdin o'zga korim,
Etak silkib, qoqarmen chang-g'uboim.

Meni sen soya bilma, manzili xok,
Yiqilganmen o'zim tuproqqa g'amnok.

Uyingda oy kabi parvin bo'lay men,
Va Zuhrodek dilu darding olay men.

4795 Buyur har xizimating, omodamen, bas,
Kanizaklik qilurmen, shohlik ermas.

So'rarsen: sshyla, orzu etganing ne?
Bilursan-ku o'zing, bu so'rganing ne?

G'aribmen, bo'ylakim g'urbatda qoldim,
Ishimdin ayrilib, mehnatda qoldim.

Chu guldek parda yirtib ishqj jondin,
Jahonni ko'rmayin kechgum jahondin.

Qaro tuproq kabi o'qqa nishonmen,
Ochilgan loladek umri xazonmen.

4800 Jahonni elga berdim bir umid-la,
Va holim bir xayoldin bo'ldi bo'yla.

Na do'stim bor, suyanmoqqa suyanchim,
Na baxtim bor. mashaqqatda tayanchim.

Masal aytmish cho'kib o'lguvchi beraxt:¹⁴³
"Jahondin murdaga joiz erur baxt"

¹⁴³ Beraxt – qashshoq, hech vaqosiz.

Yonarmen baski tanholikda mundoq,
Shu ersa istaging, qolgaymen andoq.

Murodim etmasa, har lahza yoding,
Etarmen, senga etsin deb muroding.

4805 Magar ul labga achehiqdir vujudim.
Tshqingan damda yongay misli udim.

Menga andoq yonish suri qazodir,
Ki oshiq'larga bu zavqu safodir.

Hukmroning bo'lishni istamam hech,
Ki bundan yaxshisin topsang, o'zing ech!"

Borbad Xusrav tilidan kuylagani

Navo tuzgan Nakiso chun chalib chang,
Taratdi unga Borbad sozi ohang.

Iroqiyvor kuyi ko'klarga etdi,
Iroq ohangida chun nola etdi:

4810 "Nasimi do'stni ilg'aydir dumog'im,
Xayoli ganj ko'rgaydir charog'im.

Qayu anhor ziloli shuncha dildor?
Qayu bodi saboda shuncha hid bor?

Magar yuz ochdimi tovusi xurshid,
Ki andin yashnadi gulzori Jamshid?

Magar sarv etdimi chun sarbalandlik,
Ki etdi boshimizga bu balandlik?

Magar oy darchadin ko'z soldimi sha'n,
Ki tunni ravshan etdi shu'la birlan?

4815 Esib o'tgan magar bodi bihishtdir,
Ko'ngillar ul tufayli muncha xushdir?

Magar oqlik sochib keldimi shunqor,
Qora qarg'a hamon tark etdi gulzor?

Magar obi hayotdir bizga hamdam,
Ki bizni zindadil etgay u har dam?

Magar iqbol sham'i yonmishmi yorqin,
Ki yoqmish bir yo'la g'amning qanotin?

Magar Shirin labidin tomdimi may,
Alolo qo'pdi bor olamda, hay-hay?

4820 Ayo, davlat, borib ayt ul pariga,
Muyassar aylasin mohpaykariga.

Ajab xislatlarning bordir, qiyoslik,
Degaymen rostini, mardlik bu – rostlik.

Men arpa ekdimu bug'doy ko'tardim,
Va bug'doy ko'rsatarkan, arpa berdim.

Dema, qahr ichra oldim tilga noming,
Edim shu jonu ko'ngil birla roming.

Kesishmas hindu ilkin qaqshatib zor,
Agarchi o'g'ridir, mardligi ham bor.

4825 Yarim ko'nglimdadir podsholik har on,
Va lekin dardi ishqim necha chandon.

G'amingdin oshdi g'am boshimdin andoq,
Qaro baxtim ketimga tepdi mundoq.

Dilim xun yig'lagay, chun yig'lasmusu?
Ki zolim cheksa g'am, xun yig'lasmusu?

Demam hijron menga qo'rqinch erur ul,
Magar devonadin qo'rqmasmi oqil?

Chu zulfingdin judo dilsiz edim men,
Yana zulfingni dilbandim dedim men.

4830 Labingga etsam, o'zga tashvishim yo'q,
Ki andoq jonga rohat bir ishim yo'q.

Magar joizni bersam senga jonni,
Menga gul o'rniga tutsang tikonni?

O'shal boring ila xush ayla ko'ngil,
Berish birlan magar kam bo'lmagay ul.

Ne bo'lgay, bo'yladir obi hayoting,
Ki men bechoraga bersang zakoting...

Yana Nakiso Shirin tilidan kuylagani

Chu Borbad aylagach andoq navoe,
Nakiso sozidin uchdi sadoe.

4835 Guli navro'z kabi gul-gul ochib rang,
Tarannum boshladi hofiz chalib chang.

"Ayo, shu ko'zlarim ishqing-la ravshan,
Sari ko'ying menga monandi gulshan.

Xayolingdir mening ul oshu nonim,
G'uboring to'tiyodir ko'zga, jonim.

Dimog'im sen ila xushbo', muattar,
Charog'im sen ila porloq, munavvar.

Menga ko'zgu va ko'zimning charog'i,
Yana sensan uning orasta bog'i.

4840 Yuzingdin nurlanur oyu falak ham,
Va olgay lazzatin nonu namak ham.

Jamolingdin etar yulduzga bahra,
Go'zallik tarqatursen olam ichra.

Ne ichdingkim, yuzing misli bahor ul,
Simirgil bodanikim, beg'ubor ul.

Jamoling misli yoshlik, jonga damon,
Kishi yoshlikda alqab, asragay jon.

Agar ilkingda ko'zgu ersa, basdir,
Diling ishqing ila mastu alastdir.

4845 Dema, ko'zguda ayb, ey jonga otash,
Ki unda o'zni ko'rding, o'zni yakkash.

Kishi ilkida ko'zgu tutgan asno,
Birovning aksini ko'rgaymi aslo?

Ko'zim senga musaffo ko'zgudir, bas,
Ko'rinmas unda sendin o'zga bir kas.

Hakamdirsen, butun dunyoga hokim,
Shirin umrim seningsiz zahru zaqqum.

Sening ilkingda tar'yok, menda og'u,
Senga olam yorug', menga qorong'u.

4850 Nechuk tarki nigor keldi tilingga?
Yasha, ming ofarin bo'lsin dilingga!

Men o'ylardimki, g'am-qayg'uda qolsam,
Bo'larsen dardga darmon, yoru hamdam.

Yiqildim sustligu mastlik aro men,
Tutib, qo'lu oyog'im boylading sen.

Ne ishdir yorni zor o'ldirishlik?
Javonmardlik emas yor o'ldirishlik!

Tikan sanchib dilimga necha zahm et,
Karam aylab vale bir bora rahm et.

4855 Hadisi bezabonni tilga keltir,
Belin boylabti yor, yoningga keltir.

Etibmen eshigingga dilni tortiq,
Mashaqqatdin bo'lur xalq beti qattiq.

Yo'q ersa, qayda shu qo'rg'ondin andoq,
Chiqargaydim charog'im elga mundoq?

Hukmdor erdim ul sevganda g'oyat,
Bugun hukmingdanam, etgum itoat.

To'karsen munchakim qonimni qasddin,
Nu nuqson Ka'baga bir butparasidin?

4860 Izn ber, baski jonim o'rtadi g'am,
Yiroqdin ko'z solay vaslingga bir dam.

Kechirgum yoshligimni yoding aylab,
Sanab kun, Tangriga ummadni boylab.

Na xush, bag`rimga kirsang misli oftob,
Chalib chang, tutsang unda bodayi nob.

Yarim tun chog`i zulfing qo`lga olsam,
Va sham`dek subhidam oldingda o`lsam.

Labingdin no`sh etib bo`lsam edi mast,
Yotardim to qiyomat mastu sarmast.

4865 O`polsam manziling tuprog`ini kosh,
Ki hajring tortgali yo`q menda bardosh.

Senga berdim inonu ixtiyorim.
Sening ilkingda butkul yo`qu borim.

O`lib, poyingda yotsam, ne firoqdir,
Menga sensiz yashashdin yaxshiroqdir.

Yana Borbad Xusrav tilidan kuylagani

Nakiso kuyladi chun yangratib chang,
Chu borbad sozidin yuksaldi ohang.

Hazin ohangda xonish etdi doston,
Navosi etdi to mulki Sipohon:

4870 "Sahargoh sipqorib may sarxush erdim,
Ochib eshikni nogoh boqqa kirdim.

Bahori mushkbo` ko`rdim men unda.
Yana zog` erdikim, tirnog`i qonda.

Guli sadbarg edi, bargi tikonlik,
Xazina erdi, lek qo'rg'on aro berk.

Sanam qo'rg'oni berk menga shu lahza,
Buzolganmas uning qulfini kimsa.

Bihishtpaykar edi, jondin bino ul,
Bihishtida daraxtu mevasi mo'l.

4875

Chu sarxil mevalarki, turfa, alvon,
Xumori boshni etgaydir parishon...

Parivashki ko'ngilni xona etmish,
Dilinni bo'ylakim devona etmish.

Magar bedor esam, ko'nglim aro g'am,
Xayolindin nari ketmaydi bir dam.

Yana uyquda ham shu jonni o'rtash,
Yana devona etgay ul parivash.

Parini ham dili devona izlar,
Kezib, obod emas, vayrona izlar.

4880

Sababki, sehru jodudin chekib ranj,
Yotar vayrona ichra gavhari ganj.

O'shal vayronani tark etsa, ul kun
Qadarmen toji uzra durri maknun.

Qasamyod nargisi shahlosiga ul,
Ki engmish g'amzasi joduni butkul.

Qasam zulfigakim, ul dudi sarkash,
Dud ermas, soldi shu jonimga otash.

Qasam xalxol jarangosiga har on,
Ki yuz yillik o'likka baxsh etar jon.

4885 Qasamyod ul shirin kulgusiga ham,
Kularkan. tishlari, injusiga ham.

Muattar go'shayi tojiga ham ont,
Muzayyan taxtayi ojiga ham ont.

Yana noziga hamki, beniyozdir,
Yana uzriga hamki, noz-nozdir.

YAna qoshlargakim, ul husni oro,
CHizilgandek misoli ikki tug'ro.

Yana kiprikka hamki, saf-qatordir,
Chu Horut ko'ksida ham zaxmi bordir.

4890 Yana ko'zlargakim, chun etdi ranjur,
Imo aylab degay: ketma, kutib tur!

Yana ul yuzgakim, ko'zdin yuvib yosh,
Etar o'zni to'lin oy birla sirdosh.

Yana ul sochgakim, misli kamanddir,
Ki durkun qomatin chulg'ab, balanddir,

Va yelka uzra sochi jilvasiga,
Qulog'i osti sirg'a shu'lasiga.

Va ul nargisgakim, nargisga g'olib,
Va ul sunbulga, sunbul unga mag'lub.

4895 Va o'ttiz ikki dur, durdonaga ul,
Eshikda la'li, yoqut qulfi bordir,

Kamarband ikki ul bodomiga ham,
Shakarkand ikki ul unnobiga ham.

Zanaxdon chohigakim, chashmayi moh,
Ko'ngilga suv berar ul chashmayi choh.

Va ul g'abg'abga, turgay muncha yashnab,
Quyoshda mavj urgan suvga o'xshab.

Va ikki noriga, ul nargizafruz,
Ki quchmish ikkisin norinji navro'z.

4900 Va o'n barmoqki ul olgusi ko'zni,
Ki qoqum rashkidin o'ldirgay o'zni.¹⁴⁴

Va ul oppoq bilaklar, husnida tob,
Quyoshda tovlanurlar misli siymob.

Va nozil belga hamki, muncha mavzun,
Etar har lahza shu jonimni maftun.

Kumug boldirga ham etgum qasamyod,
Tunim bedor o'tar gar aylasam yod.

Va xoki poyiga ham bo'yla ontim,
Ne xushkim keldi ko'rkam bo'yla ontim.

4905 Agarda ilkini bir bor tutarmen,
Qucharmen, jonim ichra jon etarmen.

Va qo'ldin qo'ymagum to zindadurmen,
Jahonga shohu unga bandadurmen!..

¹⁴⁴ Qoqum – oq mo'ynali hayvon.

Yana Nakiso Shirin tilidan kuylagani

Chu Borbad rudi bunyod etdi ohang,
Nakiso ilkida berdi sado chang.

Navokim avjlanib uchdi u yoqdin,
Tarona avji yuksaldi buyoqdin:

“Dilim tuproq erur, ey sarvi ko’rkam,
Kel endi, soya sol tuproqqa bir dam.

4910

Yuzingni burma mendek mosuvodin,
Toparsen men kabi shaydoni qaydin?

O’jarlik ayladim gar necha bir on,
Mana, keldim solib bo’ynimga arqon.

O’shalkim osmon xonamga sig’mas
Qo’sh olam bitta vayronamga sig’mas.

Chumoli uyi filga ne ravodir?
Simurg’ oldida pashsha benavodir.

Balanddin osmon tushgaymi chohga,
Bihisht bo’lgaymi jo bitta giyohga.

4915

Kishi gar yo’qsa posbonga munosib,
Bo’lurmu lutfi sultonga munosib?

Kecha gar men meni jonga ketirdim,
Bugun boq jongakim, senga ketirdim.

Chu xobish etgali yo’q menda ko’ngil,
Shafolat aylagil, lutfu karam qil.

Uzr aytmoqqa chun ko'pdir gunohim,
Uzr aytgum, o'zingga etsa ohim.

Uzr deb er o'parmen tunmidir, tong,
Qabul deb boshim uzra yangrasa bong.

4920 Surarmen yuzni erga jonu dildin,
Olurmen bori obro'yimni erdin.

Yonib men, yolbururmen, bas, bu yanglig',
Ki iqboling berar afvinga buyruq.

Menga anglatdi tole'nomayi shoh,
Ki sohibtole'ning payki erur moh.¹⁴⁵

Men ul paykmenki, oydek toleim bor,
Ucharmen yo'lda paykondek yashinvor.

Ko'ngil jo'sh urisa, zud ersa maromim,
O'zingga aytgudek bordir payomim.

4925 Payomimni, tilarmen, senga aytsam.
O'shal ganj birla qarzimdin qutulsam.

Magar yoshlik sababdin ayladim noz,
Solarmen ul gunohim o'rtağa boz.

Tilim otash otib, kuydirsa qavlim,¹⁴⁶
Qo'yarmen o'rtağa ul ikki la'lim.

Agar sochim o'jarlik aylamish ko'p,
Chevirdim boshga, berdim ta'zirin xo'p.

¹⁴⁵ Payk – xabarchi, xabar yetkazuvchi.

¹⁴⁶ Qavl – so'z, suxan.

Ko'zim tang etdi holim necha karra,
Javonmardlik qilib uzr aytdi so'ngra.

4930 Kamondek erdi qoshim, ul hamondir,
O'qingni joylab ot, senga kamondir.

Agar mastlikda g'amzam o'qu yoying,
Vale hushyor ekanda to'tiyoying.

Chu mash'aldek eshikdin kirgan onim,
Boshim ustida sham'dek erdi jonim.

Agar xatting-la qonimni to'karsen,
U xatdin chiqmagum bir nuqtadek men.

Agar hajringda g'amga botsa boshim,
Tutar ul domaningdin ko'zda yoshim.

4935 Aqiqing ichsa qonimni baralla,
Yaro solgum shu inju tishlarim-la.

Men ul bog'manki, meva termamish kas,
Eshigi qulf, kalit unda ko'rinmas.

Chu sendin o'zgasi qo'l cho'zsa menga,
Momosin ko'rsatib qo'ygaymen unga.

Dudog'ingdir o'shal jonimga matlab,
Bodomimga to'qinmas o'zga bir lab.¹⁴⁷

Boshimga tosh otib, funduqsimon ez,
Tutarmen senga unnobimni yolg'iz.¹⁴⁸

¹⁴⁷ Bodom – bu yerda ko'z ma'nosida.

¹⁴⁸ Unnob – lab, dudoq ma'nosida.

Magar pistamni istar o'zga oshiq,
Kularmen ustidin bir pista yanglig'.

Turunjim sori kimki etsa rag'bat,
Qadam bosgay tikonlar uzra albat.

Kishikim, unga xurmoyim havasdir,
Tikondir uzgani ul, xoru xasdir.

Qizil olmamga kimki ko'z tikar, hay,
Qizil mum birla aldarmen go'dakday.

Agar oftob zeru oy zabar ul,
Topolmas sendin o'zga men sari yo'l'.

Yana Borbad Xusrav tilidan kuylagani

Nakiso chaldi kuylab bo'ylakim soz,
Yana Borbad tarafdin uchdi ovoz.

Satoda yangratib savti go'zalni,
Keyin Rost yo'lida aytdi g'azalni.

"Meni ko'yingda, ey sho'xi dilozor,
Falak echki tuyoqdek ayladi xor.

Magar boshimni kesgil qo'y kabi sen,
Borurmen eshigingga it kabi men.

Dilim olding-ku, ol, andisha yo'qdir,
Ki ishqdin yaxshiroq bir pesha yo'qdir.

Tanim dil qayg'usiga dosh berolmas,
G'ami dilbarga dil bardosh berolmas.

Kishi xizmat etarmi, xastadir ul,
Vale xizmatdadir shu xasta ko'ngil.

Etay derman ko'ngilni sendin ayro,
Yurishmaydi ishim sen birla aslo.

Ko'ngil uzmoqqa ko'ngil toqat etmas,
G'aming chekmoqqa ham ul toqat etmas.

O'shal joningki yuz jondin fuzundir,
Seningsiz jonim ul g'arqobi xundir.

4955 Qaro ko'zingki ul ohu shikordir,
Ko'zimda ul sabab gardu g'ubordir.

Chu sendin ayrudirmen, zoru navmid,
Chunondir zarra gar tark etsa xurshid.

Chu sendin ayrudirmen xoru tanho,
Baliq andoq bo'lur tark etsa daryo.

Bulut ostida oydek bo'lmagil sir,
Mana, bosh senga, tanla, tojmi, shamshir?

Husn mulkida roying bog'u bo'ston,
Inoyat ko'rsatishga ayla farmon.

4960 Necha yillarki shu diydamda joying,
Ki o'psam erdi bir tun xoki poying.

Xayol ayla, labim purxanda etding,
Gumon yo'qkim, o'likni zinda etding.

Isit bo'lsang ila joni so'nikni,
Sochib, atring ila tiringuz o'likni.

Quvonchdir ul yuzing bir lahza ko'rsam.
Muborak ulki, ovozing eshitsam.

Nihondirsen ko'zindin munchakim, hay,
Yomon ko'zdin nihon obi hayotday.

4965 Xudoki, barchani bor aylamish Ul,
Tanu jonlarni oshkor aylamish Ul.

Umidim borki, to sendin ochib yuz,
Kechamni aylagay bir damda kunduz".

Shirin Borbad kamolin ko'rdi andoq,
Yomon erdi ishi ishq ichra mundoq.

Navo chekdi kuyib otashda joni,
Dedi changiyga: "Changda tuz navoni,

Chunonam chalki, shoh o'zni unutsin,
Magar bu mojaro oxirga etsin!"

Yana Nakiso Shirin tilidan kuylagani

4970 Nakiso, bas, tarannum ayladi boz,
Hamono shu g'azalni etdi og'oz:

"Panohim, zor etmay kelsang erdi,
Kecha o'tdi, bugun ham o'tgay endi.

Tugun och, tutma ko'ngilni qafasda,
Umrning tezligin ko'r, yurma asta.

Nazar sol, to etarsen shahriyorlik,
Biror bunyodda bormi ustuvorlik?

Bu yanglig' sust yurish ersa tamanno,
Mashaqqatlar chekishdin bormi ma'no?

4975 Yasharsen elligu oltmish ummi,
Nega joningga solmoq yuz tugunni?

Base tova, qaro kechdi tamomi,
Base sho'rvaki, bo'ldi it taomi.

Ne xushkim, no'sh etarmiz may bu oqshom,
Nasib etgaymi ichmak erta ayyom?

Umidni boylama sen ertaga ko'p.
Bo'lar ishni bugun bo'ldirganing xo'p.

Jahon makrini bilmoq senga qayda,
Jahonni ko'rmasang, jono, ne foyda?

4980 Bahoring bor bugun, gullolasin uz,
Ki har mavsumda kelmas senga navro'z.

Uzib, hidla, g'animatdir atirgul,
Xazon ayyomida bo'lgay xazon ul.

O'shal gul yaxshi, gar gullob olingay,
Gulobi tark etarsa, bori so'lgay.

O'shal hazratki, nomi zar safoldir,
Ki men mis, unga etmog'im maholdir.

Chun dengiz birla tomchi nisbatin tut,
Quyoshga teng bo'lurmu yaltiroq qurt?

4985 Ishing ravnaq, bozoring avj beshak,
Kasodmen, marhamat et menga jindak.

Kasod molin sotib ol, necha mumkin,
Yarab qolgay biror koringga bir kun.

Butun mol qiymati ul garchi bisyor,
Siniq ham bir kuni bo'lgusi darkor.

Agar zar tanga ul qimmatbaho, bas,
Ushalgan zarrasi ham kambahomas.

Chunon ishqingda yondim, boq olovga,
Shu aybim borligin sotma birovga.

4990 Etar shu umru yoshlikdin murodim,
Sening vasling ila kechsa hayotim.

Qulog'imda jaranglaydir payoming,
Tilarmen tinglasam ko'proq kaloming.

Zalilu zormen ishqingda, pastmen,
Ichib xilvatda may, mastu alastmen.

Yoningda soyadirmen ertayu kech,
Qilich boshingga kelsin, ketmagum hech.

Va sendin kechmagum umrim uzuncha,
Tanam boshimdin ul ayrilmaguncha.

4995 Xayoling birla goh suhbat qurarmen,
Jamoling sori tulporim surarmen.

O'jarlik ayladim gar necha karra,
Edim ohangi sozdek parda ichra.

Bugun ul pardani yirtmoq tilarmen,
Chaqindeke yarqirab chiqmoq tilarmen.

Charog' yongay nechuk, qandoq yoritgay,
Magar yog'doni ichra yog'i bitgay?

Seni uxlatgumu no'sh aylagum jom,
Ki men sarmast bo'lay, sen uxla orom.

5000

Etarga to'tiyo gardingni olgum,
Gahi bo'sa, gahi dardingni olgum.

Sari zulfingni bo'ynimga ilarmen,
Gahi yig'larmenu gohi kularmen.

Chekarmen munchakim mehrinni dilga,
O'zing ham bexabar qolgaysen unda.

Olarmen og'ushimga bo'yla ul dam,
Xabarsiz qolgay hatto ko'ylaging ham.

Tugatgach kechanning afsungari roz,
Men anvo pardada afsun etay boz.

5005

Ki andoq ish kelar bo'lsa qo'limdin,
Tikon ermas, chechak ungay yo'limdin.

Xudoyo, shu yo'lim menga ravon et,
Tiriklikni menga baxtu omon et!"

Chu Xusrav tingladi bu so'zni, cholok,
Tushib holatga ul etdi yaqo chok.

Dedi faryod-la: "Borbad, marhamat qil,
Tanimdin chiqmasin jonim, madad qil!"

Ko'yingda, mayliga, jon deb beray jon,
Sen ersa yashnagil, sur davru davron.

Agar men yaxshilikdin topmadim naf,
Sen iqbol top chiroying birla yashnab.

Mudom bor bo'лки, suhbat jovidonmas,
Men ul bormanmi yo yo'qmi, ziyonmas.

Mening ro'zi nasibim bo'ldi barbod,
Kuning bo'lsin sening kun-kundan obod!"

5035 Chu Borbad yangratib savtu sadoni,
Yurakdin boshladi yangi navoni.

Shirinni yoqdi ull dardi, firog'i
Yorishdi aqlu idrokning charog'i.

Chunon faryod chekdi sarvi ozod,
Ki shoh ham boshladi chun ohu faryod.

Eshitdi Xusrav ul ovozi Shirin,
Hamono bo'ldi jo'r, damsozi Shirin.

Ki qaysi pardada chaldi Shirin soz,
Shahanshoh bo'ldi unga chun hamovoz.

5040 Kishikim tog' sari uchgay nidosi,
Kelur tog'din aning aksi sadosi.

U yoqda oy tarona aytar erdi,
Bu yoqda shoh yaqosin yirtar erdi.

Uchib ul ikki oshiq ko'ksidin oh,
Hama sozu sadolar tindi nogoh.

Dedi Shopurga shohi: "Tez bo'l, jadalla,
Birovlardin saroyni xoli ayla!"

O'shal chodir sari, solmishdi chun jo'sh,
Keyin yurdi o'zi besabru behush.

5045 Vale Shopur etib unga shu mezigil,
Tktib ilkin dedi: "Shohim, sabr qil!"

Agarchi shohda erdi muztarib hol,¹⁵⁰
Madadkorin ko'rib, o'ltirdi alhol.

Dedi Shopurga: "Bu ovozi dilso'z
Nechuk ovoz edi, ayt rozidin so'z".

Shirinning chodirdan chiqib kelgani

Hikoyat boshlagandi shohga Shopur,
Jahonni nogahon g'arq ayladi nur.

Parivash chiqmadi chodirdin ongoh,
Bulutlar ostidin oy chiqdi go'yo.

5050 Quvonchdin mastu sarmast ko'rsatib mehr,
Yiqildi poyiga shohning parichehr.

Shahanshohkim uni shu chog'da ko'rdi,
Hamon o'z boshini tuproqda ko'rdi.

Ko'tardi ul sanamni boshiga dast,
Ki toj bosh uzra bo'lgay, erda ermas.

¹⁵⁰ Muztarib – betoqat, beqaror.

Parivash aylanishdi xush amalni,
Biriga o'n etib berdi badalni.

Oyoqlardin o'pib bir-birni rohat,
Dudoqlardin o'pishga etdi navbat.

5055 Magar otashlar ichra qoldi Shirin,
Vale nogoh qovog'in soldi Shirin.

Shahanshoh boqdi hayron, yori gulrang
Nechuk shodon edi, chun bo'ldi diltang?

Qulog'iga shivirlab shunda Shopur,
Dedikim, oy tutilsa ko'kda, ma'zur.

Sabab, shu kungacha pok nomu nomus
Ila doston erur elda dilafruz.

Bugun qo'rqarki, unga qo'l cho'zib shoh,
Qo'yar dog'i malomatlarga nogoh...

5060 Shahanshoh angladi shunda, nikohsiz
Etib bo'lmas paripaykarga hargiz.

Qasamlar ichdi, bas, ahd boyladi ul,
Ki gulyuzga nikohsiz cho'zmagay qo'l.

Jahon peshvolarini aylagay jam,
Ado etgay nikoh rasmini mahkam.

Vale fursat g'animat, nozli dildor
Quyib may aylasin ko'ngilni gulzor.

Bu oqshom shodu xandon o'ltiraylik,
Boqib yuzlarga olamni ko'raylik.

5065

Chu shoh ahdin eshitdi, bildi Shirin,
Chiroyin ochdi, yashnab kuldi Shirin.

Dudog`i dur to`karda bo`ldi g`avvos,
Qaro zulfi edi ko`ksida raqqos.

Jaranglab zevaru zarlar sadosi,
Jimib qolgaydi goh mutrib navosi.

Totib may ul qadahning zirvasidin,
Etib soqiyni mast bir qatrasidin.

Bo`lur shodlik, qolur o`zga ne boqiy,
Ki oy mutrib esa, xurshid soqiy?

5070

Dimog` ul turfa sharbatlar etib no`sh,
Tamom etnishdi shahvatni faromush.

Uforu atri ul ruxsori zebo
Esa, ko`ngilda toqat qayda paydo?

O`yinlar o`ynashardi sho`xu dilkash,
Ajab, otash va suv, suv birla otash.

Oshardi rag`batu joziba beshak,
Temirni tortgan ul ohangrabodak.

Agarchi suhbat erdi ko`p safoli,
Qasamga erdilar sidqu vafoli.

5075

Chu Xusrav yor ko`nglin qo`lga oldi,
Dili yayrab, qizil guldek ochildi.

Ko`zi, kipriklari shamdek ochib yuz,
Sochar erdi o`shal oy uzra yulduz.

Ko'ngildin ko'z tikib, oyga boqardi,
Magar oy majmarida o't yoqardi.

Gahi yor ko'ylagiga ko'z surar ul,
Gahi sochiga boylar erdi sunbul.

Simobdek siynasiga qo'l cho'zib goh,
Simob yanglig' gahi titrar edi shoh.

5080 Gahi yor jingalak zulfin ochardi,
O'shal oy uzra so'ng anbar sochardi.

Echib ro'molini gohida mohin,
Boshiga qo'ndirardi toj, kulohin.

Gahi sochin beliga boylar erdi,
Labini la'lidin qand aylar erdi.

Gahi harmoqlariga lab bosardi,
Tomoq ostiga ham lab etkazardi.

Gahi engin shimirgay erdi, ba'zan
O'yin o'ynar edi bozbandi birlan.¹⁵¹

5085 Echar xalxolini goho avaylab,
Taqardi bo'yniga so'ng halqa aylab.

Gahi oldiga ul sham'ni surardi,
Boqib sham' o'rnida o'zni ko'rardi.

Gahi derdi: tanimda jon o'zingsen,
Men ermas bu, o'zing, jonon, o'zingsen!

¹⁵¹ Hoiband – bilakuzuk.

Dilin band aylab ul pokiza dilband,
Kechirdi tunni Xusrav shodu xursand.

Agar vaslu visoldin erdilar mast,
Vale shahvatdin o'zni tiydilar, bas.

5090 Sadaf asrab avaylar o'zni har goh,
Ki olmos teshmagay deb durni nogoh.

Shakardek bo'salar ohangidin xush,
Sadoyi arg'anun erdi faromush.

Dovulchi dovulin gar soz etardi,
Hamon bu nolayu ul noz etardi.

Shu yanglig' bo'ldilar bir hafta damsoz.
Etib goh uzru ma'zur, gohida noz.

Kechardi ishrat ichra kunduzi ham,
Ki bekayfu safo kechmasdi bir dam.

5095 Kecha nardi qanoat o'ynashardi,
O'pib bir-birin yashnab, yayrashardi.

Etib ettinchi tun, boshdin uchib xush,
G'araz devona, shahvat erdi sarxush.

Shahanshoh berdi amrin yori jona,
Shu tunda qasriga bo'lsin ravona.

Sipoh berdi, tutingiz deb rikobin,
Xudo bilgay uning sonu hisobin.

O'tirsin yarqirab taxti ravonda,
To'lishgan oy misoli osmonda.

5100

Chunonki manziliga keldi ul moh,
Etib qasriga, ortda qoldi xirgoh.

Kumush tanga yana tosh ichra kirdi,
Jahon holi kumushsiz tang erdi.

Falak zar elkaning ko'rsatdi yoyib,
Kumushrapng kemalar ul bo'ldi g'oyib.

Shahanshoh qo'ydi bu manzilni, kechdi,
Sipohi birla dorulmulikka ko'chdi.

Shaharga qaytdi, amr aylab hamono.
Yana may bazmini etdi tamanno.

5105

Ochib xush chehrasin, nuri ayonni,
Saxovat birla to'ldirdi jahonni.

Saxovatli etar insonni davlat,
Zamin boy bo'lmasa, bergaymi sarvat?

Bulut qaydin yog'ar yo'q ersa daryo,
Bulutsiz qaydanam daryo muhayyo?

Olinmas boj kishi gar ersa yo'qsil,
Olingaymu xiroj vayronadin ul?

Buyurdi shoh, to axtarshunoslar
Bu mushkul ishni oson aylasinlar.

5110

Tun osmonida ichzlab nuri torak,
Tayin kun tanlasinlar, xush, muborak.

Etib oy mahdini orasta, gulgun,¹⁵²
Quyosh burjiga eltgaymiz o'shal kun.

Munajjimlar bu ishni etdilar hal,
Muayyan bo'ldi qutlug' kun, mukammal...

Xusrav Shirinni Madoin shahriga keltirgani

Ajab moviy, saomviy erda taxti,
Kelinchak subhidamning kuldi baxti.

Quroq to'nga jahonda qolmadi toh,
Ufuqdin yuz ochib, nur sochdi oftob.

5115 Kelinchak yoriga shoh qildi sarpo,
Quyosh ko'kda xijolat erdi hatto.

Qaroko'z mingta teva erdi alhol,
Qizil tukli, oyoqda tilla xalxol.

Yana ming ot edi, ko'rkam, yasoqli,
Egar-jabdug'i zar, olmos tuyoqli.

Yana mingta xachir, orasta, shabrang,
Yurishi yo'lda davronni etar lang.

Yana mingta kanizak, gul dudog'i,
Yuzi ul butparastlarning charog'i.

5120 Yana ming nozanin ham erdi safda,
Kulohda dur, quloqda erdi halqa.

¹⁵² Mahd – bu yerda taxtiravon ma'nosida

Yana sandiq to'la ganj necha xarvor,
Barida duru zar, lo'lo'yi shahvor.

Gilamlar nechakim zeboyu zargun,
Ki soni yuz emas, besh yuzdan afzun.

Yana chiniy match, qimmatbaholi,
Ularning shu jahonda yo'q misoli.

Yana zarrin tovuslar, o'n amorlik,¹⁵³
Har tovus qoshida bitta kaklik.

5125 Yana taxti ravonki, zar tarkib,
Berilmish xis ziynat, xos tartib.

Hududi Busutundin – Toqi Kisro,
Suvoriy erdiyu ot erdi tanho.

Zaminning holi erdi nayzadin tang,
Yana bayroqlar erdi ko'kka hamrang.

Hama oy chehrayu qoshi kamonlar,
Ularning ostida taxti ravonlar.

Shakarlab shohsanamlarga to'lib yo'l,
Liboslar ham shakargun erdi, gul-gul.

5130 Hama sohib latofat, sho'xu dilband,
Ki xollar mushkinu lablar edi qand.

Bari sarvi ravonu oy chehra,
Iroqiyvor edi boshlarda durra.

¹⁵³ Amor – kajava.

Bo'lib turna qator yo'lga ravona,
Uzun sochlarni aylab toziyona.¹⁵⁴

Qadab sochlarga necha lo'lo'yi zar,
Yana lo'luyi zarga durru gavhar.

Chunon ravnaq, chunon oyni, chunon nur,
Yomon ko'z, boqma, bu safdin yiroq tur!

5135 Quvonchlar ichra aylab ishvayu noz,
Yo'l uzra chiqdilar Shiringa peshvoz.

Shirin azm ayladi shahri Madoin,
Sochildi yo'liga durri xazoin.¹⁵⁵

Qadamki bosdi, undi navbahori,
Shahanshoh to'kdi, gavhardi nisori.

Kumush to'kdi yana erga chunonam,
Unib, o'sdi baliq sirtida dirham.

Chun munzil bo'ldi davlatgoi Jamshid,
Hamal burjida yuz ochmishdi xurshid.

5140 Buyurdi shoh: mo'badlar kelishsin,
Ulug'lar, elga rahbarlar kelishsin.

Shirindin qissa aytdi anjumanga,
Jamoat jon qulog'in tutdi unga.

Dedi: "Shirin menga ham juftu ham yor,
Necha mehr aylasam, loyiq, sazovor.

¹⁵⁴ Toziyona – qamchi.

¹⁵⁵ Xazoin – xazinalar.

U mendin poku menga mehribondir,
Yana kim menga chun oromi jondir?

Umr yo'ldoshim etsam, ul munosib,
Magar bulbulga bo'lgay gul munosib.

5145 Ne xushdir gul bilan no'sh aylasang jom,
Ki har qush jufti birlan olgay orom.

Agarda qo'sh ho'kiz yo'q ersa qo'shda,
Ne chora bo'lgay ul shudgor etishda?"

Yozib manglayda shodlikdin ajinlar,
O'qishdi shohga tahsin, ofarinlar.

Tutib Shirin qo'lin shunda shahanshoh.
Chaqirdi yoniga mo'badni ongoh.

Nikoh rasmin ado etdi xiradmand,
Kelinning mehrini aylab muayyan.

5150 Shahanshoh xos etib taxti ravonni,
Haramgohga jo'natdi mahliqoni.

Xusrav va Shirinning to'yi

Saodat o'stirib bir gulni zinhor,
Keyin istar anga mardi talabgor.

Tikib iqbol avval toji davlat,
Etar shoh boshiga so'ng zebu ziynat.

Olur dengizdin inju mardi g'avvos,
Bo'lur durdona so'ng shoh tojiga xos.

SHirin shakkardanam shirin ekan, bol,
Sado Xusravga berdi: "Shrbatim ol!

5155 Simir bu jomi shirin, aylagil no'sh,
Shirindin o'zgasin etgil faromush!"

Yana yo'llab yurakdin ul salomin,
Yubormish erdi shohga chun payomin.

Ki "Jomi boda boqiy et bu oqshom,
Meni may ayla, soqiy et bu oqshom.

Ichib may, etmagil shirinparastlik,
Ki bir ko'ngilga sig'mas ikki mastlik.

Sharobdin er bo'lur mastlik aro g'arq,
Kabob pishganmi, xommi, aylamas farq.

5160 Murodiga etarkan kimsa butkul,
Degaykim, mast edim, chun mast edi ul.

Magar yuz hokira qiz-la yotar mast,
Keyin hushyor bo'lib aytarki, menmas.

Necha mastdirki ul qulfni buzib bot,
Solur "Dod o'g'ridin!" deb so'ngra faryod".

Bu so'zlar keldi xush shohi Ajamga,
Dedi: "Jonim fido sendek sanamga!"

Vale kun – mavsumi mayxo'rlik erdi,
Shu kunda qayg'u chekmoqlik ne endi?

5165 Sadoyi Borbadu savti Nakiso
Etib Zuhroni ham oshufta, shaydo,

Gahi soqiyga derdi nag'mayi rud:
"Ketur jomingni, maydin to'ldirib tut!"

Gahi Borbadga derdi bodayi jom:
"Jaranglat, senga xush kelgay bu ayyom!"

Shahanshoh yodi Shirin birla xurram.
Labolab boda sipqordi damodam.

Ichib andoq o'zini xursand etdt,
Shu yanglig' kechadin ne fursat o'tdi.

5170 Keyin qo'zg'alldi ul osudayu shod,
Kelinchak sori yurdi shohi domod.¹⁵⁶

Chunon mast, gohi ketgaydi pinakka,
Opichlab etdilar zo'rg'a to'shakka.

Xabar topdi Shirin, shoh sarxush erdi,
Chu sarxush-la yotishlik noxush erdi.

Yashirdi shohdin ul shirin jamolin,
Anga juft ayladi bir qaddi dolin.

Zarofat ayladi Xusravga dildor,
Zarofatga erur mastlar sazovor.

5175 Anosi yoshida bor erdi kampir,
Anosi naslidin erdi biloxir.

Magar yoshlikda misli bo'ri erdi,
Qarib bo'lmishdi misli tulki endi.

¹⁵⁶ Domod – kuyov.

Chu ikki siynasi mesh erdi, suvsiz,
Tani darmonsizu titroq edi tiz.

Qadi xuddi kamon, erga qovushgan,
Tanida terisi qotgan, burishgan.

Ajindi ikki yuzi resha-resha,
Chu hanzaldek zaharli ikki shisha.¹⁵⁷

5180 Tirishgan lablari – kulfat nishoni,
Misoli go`r edi og`zi – dahoni.

Qoshi hurpaygan erdi, muncha o`sgan,
O`sib, hattoki ul og`zini to`sgan.

Burun ermas, u chodir erdi yuzda,
Tish ermas, ikki-uch zarnix og`izda.¹⁵⁸

To`kilmish kiprigi, ko`z xiyra, shilpiq,
Ajuza erdikim, unga davo yo`q.

Zaru zavar taqib, oro berib chin,
Kiritdi shohga ul kampirni SHirin.

5185 Chu bilmoq istadi, mastlik aro g`arq,
Bulutni oydan ul aylarmikan farq?

Chiqib keldi ajuza pardadin tek,
Magarki ovga shaylangan ilondek.

Garonjon erdi, lek joni yo`q erdi,
Emoqchi erdi, dandoni yo`q erdi.

¹⁵⁷ Hanzal – itqovun.

¹⁵⁸ Zarnix – margimushli gugurt.

Shahanshoh munchakim mast erdi shul on,
Ko'zi o'ngida chilvir erdi osmon.

Vale hushyorlik oni ko'rgani gul
Bahor kakligi erdi, yodida ul.

5190 Kamondek qoshlarin kerdi-da xushhol,
Semiz ohuga ul tashlandi darhol.

Yiqildi ohu, ulki arziyasdi,
Ki yuz bo'riga tulki arziyasdi.

Ko'rib zog', ko'rmadi unda humoni,
Ko'rib oy o'rnida ul ajdahoni.

Dedi dilda: bu ne ajdarparastlik,
Magar bir tushmi yo savdoyi mastlik?

Shirin ermas, bu kekxa bukri zotan,
Meni o'ldirdi mudhish turqi birlan.

5195 Vale shayton berdi bukriga zeb,
Gumon etdi uni shoh xotinim deb.

CHO'zib qo'l, jahdu javlon ayladi ul,
Ki andin jomu shisha sindi chil-chil.

Ko'tardi ul ajuza shunda ovoz:
"Bolam, rahm aylagil, hay, qiynama, bas!"

Eshitdi Shirin oh-faryodin ul dam,
Shitob etdi madad etmoqqa ildam.

Chiqib ul etti parda ortidin zud,
Jamol ko'rsatdi shunda misli xurshid.

5200

Ne derman, shakkarin erdi tamomi,
Novot ermas, novot erdi g'ulomi.

Edi sarv, soyasida aylasang no'sh,
Edi oy, ko'k aro gulgun, qasabpo'sh.

Anga oy birla oftob erdi shaydo,
Guli yuz bir bahordin erdi paydo.

Bahori toza erdi, yashnagan gul,
Sazovor erdi baxtli kimsaga ul.

Labi, dandonini ishq, siylamishdi,
Labi tishni, tishi lab ko'rmamishdi.

5205

Yuzi – bog'i latofatning nasimi,
Dahoni misli mavhum nuqta "mim"i.

Chizib oy girdida mushkin kamand ul,
Charog'idin sochib dudi sipand ul.

Karashma, nozi – Turkiston quvonchi,
Labidin bo'sa – Xuziston xiroji.

Ipakdek siynasi ul oqu yumshoq,
Yana qoqum dumidek o'nta barmoq...

Tani sut birla shakkarga qorilmish,
Yana qaymoq, taboshirga to'yinmish.

5210

Yuzi andomida har lahza shabnam,
Qaro zulfi tilar uchmoqni har dam.

Yana qoshi kamonida husndir,
Yana g'abg'ab ayonida fusundir.

Sumandek ko'ngli joy olgay ko'ngildin.
Xumor ko'zi urar karvonni yo'ldin.

Ko'ngildin boda yanglig' gard olardi,
Mufarrah aylar erdi, dard olardi.

Gulu shakkarmidi yo gulmi, shakkar?
Gulu shakkardi, bas, Allohu akbar!

5215 Malik ul jilvayi dilroyni ko'rdi,
Ko'rib dev avval, endi oyni ko'rdi.

Boqib bir lahza chun devonalikda,
Qotib so'ng uxladi hayronalikda.

Sahargoh ko'zni ochdi, bo'ldi bedor
Va ko'rdi yonida gulyuzli dildor.

Kelinchak erdi zebo, berdi jonin,
Qizigan tandir erdi, yopdi nonin.

Chu achchiq may g'ubori erdi ichdan,
Xumori tarqadi shirin o'pichdan.

5220 Simirdi damba-dam ul sog'ari mul,¹⁵⁹
Ochildi og'ushida xirmani gul.

O'ralmish bo'yniga sochi, ufori,
Tutashmish olmasiga qo'sh anori.

Bunafsha lolaga aylab munojot,
Shakar aytardi "Fi ta'xir ofot!"¹⁶⁰

¹⁵⁹ Mul – may.

¹⁶⁰ Hech ofat ko'rma.

Bulut ketdi, falakda ochdi yuz oy,
Shahanshoh sabri shunda bitdi, e voy!

Husn ko`rgach, aqlning qayda tobi,
Etar Moniyini mast chiniy sharobi.

5225 Xuziston sori keldi xoja sarmast,
Novot, qand erdi tinmay sindirib mast.

Ne xushdir tondanoq ul ko`zni ko`rmak,
Ne xushdir subhidam ersa muborak!

Shahanshoh gulni xirmon qildi avval,
O`shal gul birla yayrab kuldi avval.

Keyin ishqini ul ovoza qildi,
Ko`ngilni dard, alamdin toza qildi.

Gahi olma, sumanga ersa mashg`ul,
Gahi nargisu nor o`ynar edi ul.

5230 Uchib shoh ilkidin oq lochini goh,
Tazarv ovlar edi bog` ichra nogoh.

Kabutar goh uchib, talpingay erdi,
Vale lochin qo`liga qo`ngay erdi.

Gahi moda marol sherga muxolif,
Vale sher kelgay erdi unga g`olib.

Shitob aylab necha sur`atdin o`zdi,
Aqiq muhrini yoqut birla buzdi.

Dili mushtoqining dardin aritdi,
Guli yaprog`ining gardin aritdi.

5235

Chu ko'rdi ul kumush qo'rg'onu qulfin,
Tiriklik suvi erdi unda tutqun.

Na mazlumlar guzar etmishdi unga,
Na zolimlar qo'li etmishdi unga.

O'shal gulg'unchaga nayza tutashdi,
Uni ul la'li paykon birla teshdi.

Xizr erdiyu shoh, kecha qorong'u,
Baliq otdi tiriklik suviga u.

Chu taxti pili bo'ldi taxtayi oj,
Bo'lishi ishqqa taslim taxt ila toj.

5240

Shahanshoh o'zni og'ushga urardi,
Dabirdek birni oltmishga urardi.

Demasmen, otgan o'qi qut bo'lurdi,
Danaksiz ersa xurmo sut bo'lurdi.

Hamisha belga bel yondoshgay erdi,
Va andin jonga jon chirmashgay erdi.

To'lardi gul suviga ul kumush jom,
Shakarga qorishardi mag'zi bodom.

Sadaf marjon aro mahd boylamishdi,
Ajab, otash va suv ahd boylamishdi.

5245

Berib rang lahza-lahza otashu ob,
Shabiston pushtirang erdiyu, siymob.

Tunu kun uyquni tark aylabon ul,
Chu yoqut birla teshdi bebaho dur.

Tunu kun so'ngra uyqu ichra madhush,
Bunafsha yotdi nargis-la ham og'ush.

Tovusdek yotdi ikki jonu tan bir,
Ki alhaq uxlasa tovus go'zaldir.

Shirn uyqudin oxir ochdilar ko'z,
Xudoga aytdilar shukrona dilso'z.

5250 Tahorat etdilar. tanga safolar,
Ibodat etdilar. xayri duolar.

Kelinlikdin haramga ziynat erdi,
Kelinlik ziynati bir oycha turdi.

Humaylovu Sumanturku Humoyun
Hinodin etdilar qo'llarni gulgun.

Shahanshoh chorladi bir kun ularni
Va sochdi boshlar uzra injularni.

Kelinlardek base orasta etdi,
Zaru zevarga chun payvasta etdi.

5255 Humoyunni etib Shopurga ehson,
Asal berdi novot o'miga sulton.

Humayloni Nakiso ayladi yor,
Sumanturk bo'ldi ul Borbadga dildor.

Xo'tanxotunga aytdi hikmatu pand
Va etdi Buzrugunimid birla payvand.

Magar Shopurdin asru xursand erdi,
Hama mulki Mehinbonuni berdi.

Chunon Shopur bo'lib shohi hukmdor,
Imorat ayladi davlatda bisyor.

5260 Dizi Aqnoki, doim sahnada nur,¹⁶¹
Degaylarkim, uni Shopur quribdir.

Ki andin shohi Xusrav erdi xurram,
Berib davlat, madadkor erdi har dam.

Saodat, saltanat, yoshlik esa yor,
Kishiga bundan ortiq yaxshi nebor?

Kunu tun may ichib, tinglar edi Rud,
Jahondin bahramand, shod erdi, xushnud.

Jahonda eb-ichib, kash ayla rohat,
Jahon qayg'usini chekmoq ne hojat?

5265 O'zi eb, o'zgalarga ham berardi,
Chekib zahmatni, endi aysh surardi.

O'tib bir muncha vaqt uyg'ondi ko'ngil.
Xijolat chekdi o'z raftoridin ul.

Oqardi soch-soqoli, ketdi yoshlik,
Yetuklik etdi, ul dono qarashlik.

Azaldin to adamga qilcha ummid,
O'shal qil ham oqarsa, qayda ummid?

Qaro sochingga oq tushgan zamoni
Ko'ringaydir umidsizlik nishoni.

¹⁶¹ Dizi Aqno – Aqno qo'rg'oni.

5270

Gar etsa yosuman uyquni pasha,
Bunafsha zulfini tovlar hamisha.

Qaro tunda hukmrondir qarolik,
Ki tong birlan taralgay ro'shnolik.

Magar har necha issiq bog' havosi,
Ayar gul sabzalarni kun ziyosi.

Kumush qordin sochilsa erga kofur,
Sovuq el essa, unda bog' ma'zur.

Agarchi ohu ovlab tozidir mast,
Qarisa, ohuni quvlab etolmas.

5275

Magar turkning kamoni qolsa o'qsiz,
Chalar, chun eski sozni keksa hofiz.

Magar bug'doy uni oq ranglidir ul,
Taxir tortgay arodin kechsa bir yil.

Yuvilsa eski to'n, juldur anga nom,
Urilgay so'ngra qaychi komu nokom.

Qozonning ko'pigin bug' to'ksa nogohi,
Ko'mar oshxonani kul birla ongoh.

O'shal oshxona nomi garchi anbar,
Tegirmonda botar kofurga paykar.

5280

Kishini unda un gardi bosar, bas,
Agar qoqsa, ketar ul gardi, qolmas.

Bu dunyo gardi gar ustingga qo'nsa,
Yuvilmas, garchi yuz daryoda yuvsa.

Ne ermish yoshlik ul? Boshingda savdo,
Shu savdodin kelur orzu, tamanno.

Qarilik bo'lsa bunda hokimi haq,
Quvar hir yilda bu savdoni mutlaq.

Qaridin so'rdi yosh: "Ne chora andin,
Qarigan chog'da yorim qochsa mendin?"

5285

Javob kelmish u piri arjumanddin:
"Qariganda o'zing qochgaysen andin..."

O'shal boshkim, anga simob to'kar ko'k,
Qochar zebo sanamdin ul simobdek.

Qaro sochli yigitlar bilmagay g'am,
Qaro ko'zlarga ham hech to'lmagay g'am.

Sira qayg'u alam bilmaydi zanjiy,
Ne bilsin, yo'q esa gar dardu ranji.

Qarolik to'tiyodir ko'zga, yo'ldosh,
Ki Hindiston yo'lida bo'ldi farrosh.

5290

Qarilik keldi boshga, uxlama bot,
Eshikdin tong sipohi kirdi, hayhot!

Agarchi ikki chekkang oq, kafanpo'sh,
Quloqdin paxtani olmoqqa yo'q hush.

Bunafsha uzra Xusrav yosumanni,
Ko'rib, ul men kabi chekdi alamni.

Agarchi yaxshi ahdin pesha qildi,
Jahon bedahd edi, andisha qildi.

Gahi zar taxt uza nard o'ynar erdi,
Gahi Shabdiz minib, baxt quvlar erdi.

5295 Gahi Borbad mayidin aylagay no'sh,
Gahi Shirin ila bo'lgay hamog'ush.

Chu taxtu Borbadu Shirinu Shabdiz
Ila har lahza xursand erdi Parviz.

Vale ko'rgan tushi yodiga tushdi,
Dili o'ksib, tanu joni uvishdi!

Bilardi, har neki tuproqda. suvda,
Bugun obod, xarob ertanggi kunda.

To'lishgay gar falakda yangi har oy,
Zavol etgay anga so'ngra payopay.

5300 Turar meva daraxtda pishmaguncha,
Pisharkan, tinchimas to tushmaguncha...

Shirin ilm va ehson borasida Xusravga nasihat etgani

O'shal kun shod edi shou dilafruz,
Borardi ilmu ehson ustida so'z.

O'pib er dedi Shirin: "Ey hukmdor,
Ilm sori tavajjuh ayla takror.

Base ko'rding jahonda komronlik,
Base totding zamonda mehribonlik.

Jahonni aylading ne'mat-la obod,
Magar joizmi etsang endi bedod?

5305

Chu aval sut berib, so'ng sutni to'kkan.
Tepong'ich bir sigirga bo'lma monand.

Hazar qil, ko'kka yo'llab nolishin ul,
Duoyi bad etar xilvatnishin ul.

Boqib bir keksa kampir osmonga,
Sahargoh oh chekib, urgay nishonga.

Naf etmas unda afsus, ohu faryod
Etar qarg'ish o'shal mulkingni barbod.

Necha oyina ul shohlar guvohi,
Qoraytirmish uni mazlumlari ohi.

5310

Agar davlat o'girsas yuzni nogoh,
Ketar ish teskari, nochor qolur shoh.

Etar bo'lsa chamanga notavonlik,
SHamollardin xabar kelgay xazonlik.

Yiroqda so'nsa bir ko'ngil charog'i,
Qolur ne diydalarda dardi, dog'i.

To'karmen selni deb er uzra sharros,
Blut tog' boshida boshlaydi gurros.

Agar do'l yog'sa, kashnich eksa xokka,
Etar anqib ufori naq falakka.

5315

Daraxt payvandda gar ul egri bo'lgay,
Faqat otash, olovda to'g'ri bo'lgay.

Jahonso'zlik yomondir, javrsozlik,
Go'zaldir etsang elga dilnavozlik.

Men andin qo'rqamanki, bir masaldir,
Uni bir shahriyor aytmish, o'saldir:

Qachon ko'proq yasharmish eski davlat,
Raiyat sori etmas ersa rag'bat?

Jahonda shoh o'zini toq ko'rsa,
Jahon ichra o'zin mutloq ko'rsa.

5320 Etib kibru havo, noz aylasa ul,
Raiyatga zulm boz aylasa ul.

Ko'targay yangi iqbol qo'lni nogoh,
Etar eldin zulm ilkini ko'toh.¹⁶²

Xaloyiq sori xayrixoh bo'lur ul,
Xaloyiq uzra yaxshi shoh bo'lur ul.

Xiradmandlik va shohlik senda bordir,
Yana oqlik, qarolik senga yordir.

Najoti oxiratga choragar bo'l.
Ketarsen bu jahondin, boxabar bo'l.

5325 Kishikim simu zarni tarkib etgay,
Qiyomatda o'zin ne tartib etgay?

Qara, olanda qancha shohlar o'ldi,
O'zi birlan bisotin qancha oldi?

Agar bermas esang, mol senga ag'yor,
Gar ehson aylasang, bo'lgay madadkor.

¹⁶² Ko'toh – qisqa.

O'qi ul qissayi Doroyu Jamshid,
Ularga ne o'yinlar qildi xurshid!

Bu to'qqiz pardada chal bo'ylakim soz,
Ochilsin senga pinhon pardayi roz"

Xusravning Buzurgummid ila savol-javobi

5330 Chu Xusrav ko'rdikim, yori giromi
Tilar donish-la chiqsa shoh nomi.

Buzurgummidni chorlab ul hamono,
Yonidin joy berib, so'ng so'rdi ma'no:

"Buzurgummidligingdir senga hamdam,
Buzurgummid ayla bizni bir dam.

Avvalgi junbush¹⁶³

Xabar ber, ne o'shal avvalgi junbush,
Azizdir etsa gar donoga donish"

Javob berdiki, biz keldik bu yoqqa,
Ki ilkin pardadin tushdik yiroqqa.

5335 Keyin kelgan bu asromi ne bilgay?
CHu avvalgini ul avvalgi bilgay...

¹⁶³ Junbush – harakat.

Nechukdir bu falak

Xiradmanddin yana so'rdi jahondor,
Ki "O'ylab, aylagum andisha bisyor,

Ne ermish shu falak, holi nechukdir,
Ichida kim yashar, ortida kimdir?"

Javob aylab dedi ul nuqtapardoz:
"Bu yanglig' sen uzoqqa etma parvoz.

Shu gunbazdin narida bormi bir kas,
Xudo bilgayki, andin o'zga bilmas.

5340

Shu ko'y ichra ne ersa, o'ylagil sen,
Shuni o'yla va shundan so'ylagil sen.

Va ul suratki, ko'zga oshnomas,
U haqda so'z yuritmoqlik ravomas.

Bilimdonlarki, sir ohista aytur,
Falak asrorini sarbasta aytur.

Falakning odamiyga eshigi berk,
So'zi ham sirlidir bizga shuningdek.

Samo yulduzlari

Yana so'rdi: "Shu yulduzlarki bori,
Nechuk uchqur bedov uzra suvoriy?

5345

Eshitdim ulki, har yulduz jahondir,
Ki bir ayricha erdir, osmondir?"

Javob aytab dedi: biz ham eshitdik,
Tagiga etmadik, gar g'ayrat etdik.

Va bilmoq istadik, unda ne holdir,
Rasad ko'rsatdi, bu ma'ni maholdir...

Ibtido va intiho

Yana so'rdi: "Nechuk biz bunda maskun?¹⁶⁴
Qayon ketmoqdamiz, keldik qayondin?"

Javob berdiki, parda ichra bu roz,
Nihondir, ul sabab talqin etilmas.

5350 Yiroqdin yo'l, shu manzil ichramiz, chun
U manzilni ko'rish bizga ne mumkin?

Safar aylar esang bir kun u yoqqa,
Bilarsen, kimsanu borgung qayoqqa...

Dunyodan o'tish

Yana so'rdiki: "Ey daryoyi durbor,¹⁶⁵
Chu durdek safu daryodek ajabkor,

Yotishdi do'stu yoronlar yumib ko'z,
Va ko'rgan tushlaridin ochmayin so'z,

Dedilar barcha: "Kel, tuproqqa kirgil,
Demasdan: "Bo'yla yurdik. bo'yla yurgil?"

¹⁶⁴ Nechun biz bu yerda maskan tutib yashayapmiz?

¹⁶⁵ Durbor – durli, durdonali.

Javob berdi anga donoyi nodir,
Bu dunyodin natija ul jahondir.

Chalalmas ul navoni sendagi soz,
Muxolihsen, ko'tarsang unga ovoz.

Ufursang, o't ilashgay, yongay otash,
Magar suv ursang unga, so'ngay otash...

Jonning abadiyligi

Yana ul shohi qudratmandu qodir
Savol berdi, savoli erdi og'ir.

Ki "Jonni er jahon deb talqin etsang,
Necha uyquda etgay biz bilan jang?"

Agar jon chiqsa tandin, so'yla al-on,
Chiqib, qaylarga ketdi shunchalar jon?"

Javob berdiki, bu og'ir savoldir,
Ki jonni bejasad ko'rmoq maholdir.

Jasadsiz jondin hech narsa so'ralmas,
Jasad jonsiz esa, junbushga kelmas.

Chiqib tandin, o'giryay ko'kka yuzni,
Falak junbushiga so'ng qo'shgay o'zni...

Uyquda vujud nechuk ko'ringay

5365

Yana so'rdi: "Agar jon ersa hosil,
Vujud ersa qafas, o'lguvchi, botil,
Ko'ranniz uyquda surat, nedir ul?
Uni kim asragay, kim unga mas'ul?"

Javob berdi: kelur mundoq shahodat,
Ki marhumning xayoli bizga odat.

Agar uyquda fikringdir xaridor,
Ochar ul g'oyibing qarshingda diydor..

O'limdin so'ng tiriklik davrini yod etish

Yana so'rdi: "Kishining chiqsa joni,
Yana yod aylagaymu bu jahonni?"

Xiradmanddin javobga keldi shu so'z,
Ki, ey ravshancharog'i olamafruz.

5370

Sen ulki nur eding davri, zamonda,
SHahanshohlik etib mulki jahonda.

Chu sendin so'rsalar ne erdi deb bas,
Uning bir harfi ham yodingga kelmas.

Shu yanglig` tark etib bu melmatobod,
Uni ham etmagaysen bir nafas yod.

Kishi kunduzni chun yod etmasa xush,
Qaro tunni etar beshak faromush...

Nechukdir bu zaminu havo

Yana shoh soʻrdi: “Shu davri falak-la,
Zamin birlan havoning sharhin ayla”.

5375

Javob berdi: nasihat aylagum men,
Zamin birlan havoni soʻrmagil sen.

Havo eldir, uchib, yuzlarga urgay,
Zamin – tuproq, uni ham el sovurgay.

Jahonning avval avlodi zamiydir,¹⁶⁶
Zaminning soʻnggi nasli odamiydir...

Moʻtadil yoʻl tutib, salomatlikni asramoq

Yana shoh soʻrdi: “Aytgil, ey xiradmand,
Tabibona ishingdin aylagil pand”.

Javob berdiki, shohi komronsen,
Jahonning jonisen, jonga jahonsen.

5380

Tabiblik bir nihoniy nuqta ermish,
Xudo ul nuqtani xalqqa yubormish.

Eb-ichgil ne tilarsen, shukrin ayla,
Ema kam yoki koʻp, meʼyorni saqla.

Kamu koʻpdin kelur jismingga zillik¹⁶⁷
Rioyat ayla doim moʻtadillik.

¹⁶⁶ Zamiy – zamin.

¹⁶⁷ Zillik – ogʻirlik.

Masalkim, ikki kas sayri diyorga
Chiqib, chun etdilar bir chashmasorga.

Biri kam ichdi jonimga jafu deb,
Biri ko'p ichdi dardimga davu deb.

5385 Adolat bo'lmagach, savdosi bo'ldi,
Biri kamlik, biri ko'plikdin o'ldi...

Jon vujudni nechuk tark etgay?

Yana shoh so'rdi: "Ogoh ayla jondin,
Nechuk parvoz etar ul oshiyondin?"

Javob berdi: o'zim to bo'lmay ogoh,
Buni shoh etmagim mushkuldir, illo.

Eshitdim, to'rt mo'bad tog'liq erdi,
Ki joni bir-biriga bog'liq erdi.

Shu mushkul uzra o'zni etdilar band,
Nechuk tandin chiqar joni xiradmand?

Birinchi mo'bad tamsili

5390 Dedi ul: uyquda jising uvushgay,
Kishi go'yo azim girdobga tushgay.

Uringay ul chiqay qirg'oqqa deb, bas,
Vale jahdu jafosi foyda hermas.

Ocha ko'z uyqudin vahm ichra butkul,
Qaro bosmish deya aylar gumon ul...

Ikkinchi mo'bad tamsili

Dedi: dunyo qasrga erdi monand,
Uni gardunga cho'zdi so'ng Xudovand.

Yiqilmay deb balanddin pastga odam,
Tutar kungurani qo'rquvda mahkam.

5395 Qirilgan qo'l-oyog'i jonni o'rtar,
Yiqilsa, bo'lgay ul bundan-da battar.

Olur kuch-quvvatin har lahza og'riq,
Yopishgay kungura toshiga qattiq.

Bitar kuch-quvvati, bardoshi oxir,
Yiqilgay kungura birlan biloxir...

Uchinchi mo'bad tamsili

Uchinchi mo'bad aytdi bo'yla doston:
Suruv haydar edi yaylovda cho'pon...

Ochiqqan bo'ri bir qo'yga yopishdi,
Cho'pon aylab himoyat, jangga tushdi.

5400 Chu bo'ri tortsa gar tishlab u yoqdin,
Cho'pon tortar edi ushlab bu yoqdin.

Ki ustun keldi bo'ri, qo'yni oldi,
Cho'ponga birgina terisi qoldi...

To'rtinchi mo'bad tamsili

Dedi to'rtinchi mo'bad: bo'ylakim roz,
Ishi nochor kuyovga o'xshagay boz.

Kelinchak husn aro durdona erdi,
Vale aqli zaif, devona erdi.

Kuyov na husnidin ko'ngil uzoldi,
Na ul jinni ila turmush tuzoldi.

5405 Va oxir qochdi ul devonadin u,
Misoli narra sherdin qochgan ohu...

Shu haqda necha bir qissa to'qishdi,
Kitobni ko'rmayin harfni o'qishdi.

O'larkan dedilar: hayhot, ne taqdir!
O'yindir bu, vale shahmat emasdir...

O'zicha sharh etar har kas o'limni,
Vale o'lmay turib bilmas o'limni!

Nabiylar garchi ogoh bu alamdin,
Demaslar ahli nomahramga andin...

Hazrati Payg'ambari akram (sav) nubuvvati

5410 Suxan, so'z ketdi ma'sumlardin, illo,
Rasolat tojini so'rdi shahanshoh:

Arabda da'vatidin aylagan kim?
Dinida ne tafovut dinimizdin?"

Javob berdiki, ul harfi ilohiy,
Chu oqlikdin, qarolikdin-da xoliy.

Turar ko'k gunbazi olam uza rost,
U ko'kdin-da balanddin bergay ovoz.

Na yulduzlar, na Arshdin so'ylar ul bosh,
Ular naqsh ersa, bu shogirdi naqqosh.

5415 U to'qqiz parda uzra charx urar, hay,
Yiroq ersani, nechuk asrorin aytay?

Arablar dini-la o'ynashma, sulton,
O'yin o'ynarmi hech Haq birla inson?..

Xiradmandni eshitdi shoh hamoni,
Magarki otash ichra qoldi joni.

Va lekin kelmadi iqboli o'tru,
Saloyi Ahmadiydin qoldi ayru.

Chu Shirin ko'rdikim, ustodi porloq,
Suxan ganjini shohga sochdi andoq,

5420 Tasanno, dedi, ey piri yagona,
Ki sendek ko'rmadi ustod zamona.

Chu sochding shohga ganji davlatingni,
Nasib et bizga ham ul himmatingni.

Buguncha himmating bizga kifoyat,
"Kalila – Dimna" din etsang hikoyat...

**Buzurgummid “Kalila va Dimna”dan qirq qissani qirq
nuqtada bayon etgani**

Buzurgummid dili yashnab shu payti,
Hamon qirq nuqtada qirq qissa aytdi.

Dedi avval: “O‘zingga ehtiyot bo‘l,
Ho‘kiz bo‘lmishdi sherdin ehtiyot ul.

5425 Quruq hoyu havasga uchma zinhor,
Bo‘lurmu hech zamon maymun duradgor?

Chu hiyla birla eyman deydi tulki,
O‘zi bo‘lgay keyin dunyoga kulki.

G‘amingga istamas ersang darozlik,
Xasis zohiddek etma hirqabozlik.

Birovning uyida ahdingni buzma,
Ilonga nelar etdi qarg‘a-ezma...

O‘zingga qaytadir ul makru nayrang,
Baliqxo‘mi nechuk bo‘g‘mishdi xarchang.¹⁶⁸

5430 Riboxo‘r bo‘lma, bo‘lgay manglaying sho‘r,
Quyon ne qildi sher bo‘lgach riboxo‘r?

Qutulgaysen jahondin sen o‘lib tek,
Chu to‘rdin ul xalos bo‘lgan baliqdek.

Shag‘olu bo‘ri, qarg‘a bo‘ldilar bir,
Topildi tevani yiqmoqqa tadbir.

¹⁶⁸ Xarchang – qicqichbaqa.

Ne ermish jangda yovdin chora kutmak.
Najot kutgan kabi to'fondin o'rdak?

Tilidin necha bosh tuproqqa kirmish,
Chu o'rdak, toshbaqa bir o'mak ermish.

5435

Ko'rarsen, noahillar uchragay chun,
Ne qildi, esla, bir kaptarga maymun.

Eyilmas hiyla birlan moli mardum,
Chu tojir mol-bisotdin bo'ldi mahrum.

Tiyil, donoga otma hiyla toshing,
Ketar qurbaqadek bu yo'lda boshing.

Qachon sichqon temirni eb bitirgay?
Go'dakni ne yo'sin qirg'iy ko'targay?

Yoqib, chodirga o't urgan zamoning,
Bo'lur naqqoshi chodirso'z noming.

5440

So'z aytar bo'lsa dono, doru bo'lgay,
Shakar nodon qo'lida og'u bo'lgay.

Chu donolik ila tark ayla ayyom,
Ki qush ham yo'l topib, tark ayladi dom.

Chu sichqon teshdi to'r, zog' jim turarkan,
Ulardin sen vafodorlikni o'rgan.

Birov xirmonidin don olma aslo,
Ki sichqon don olib, bernishdi tillo.

Kamonchi bo'ridek maqtanma ortiq,
Falak ko'ksingga otgay nogahon o'q.

5445

Yo'latma hirsni, ulkim dushmani hush,
Kelishmas hech zamon zog' birla boyqush.

Kichik deb boqma yovga, hayda, quvgin,
Nechuk quvmish quyon fillarni suvdin.

O'gir yuz, hiyla, nayrangni uloqtir,
Mushuk ro'za tutib rizqin topibdir.

Mushuk rasmini solsa kimsa, beshak,
Og'iz solgay uning rasmiga ko'ppak.

Vafo qil, fitnadin tiy o'zni, tortin,
Chu qo'rqib o'g'ridin ne qildi xotin?

5450

Urishdi o'g'ri birlan dev to'kib qon,
Qutuldi ul aroda toza inson...

Yog'ochga ko'zni tikmoqlik ne darkor,
Ayoldin nelar o'rgandi duradgor?

Qutul, ko'ngilni uzgil bu tarafdin,
Qutilmish bo'yla maymun ul kashafdin.¹⁶⁹

Eshak g'ofil edi bu yo'lda ulki,
Edi bag'rini shu g'aflatda tulki.

Ko'ngilni nasyaga ko'p aylama esh,
Chu qo'ldin berdi naqd halvoni darvesh.

5455

Qabul etma u zohid uzrin hargiz,
Ki o'ldirmishdi rosuni gunohsiz.¹⁷⁰

¹⁶⁹ Kashaf' – toshbaqa.

¹⁷⁰ Rosu – xurmo sichqoni.

Bu g'ordin chiq etib bir chora, jonon,
Mushukdin o'zni chun qutqardi sichqon.

Bu gunbazni uchib, tark aylagil, hay,
Chu uchgandek balandga so'fito'rg'ay.

Qutul tig'din dag'i sidqing ila tek,
O'shal sher qahridin zohid shag'oldek.

Hamisha yaxshilik qil, shu sabab bot
Ilondin jonni asray oldi sayyod.

5460 Bozurgon o'g'limi, shoh nasli kimsa,
Olur, unga falak har neki bersa.

Etib jabru sitam tig' chekma zinhor,
Chu qoldi panjasiz ul sheri xunxor".

Dedi bu so'zni ul piri suxansanj,
Ki to'kdi bo'yla Xusrav ko'ngliga ganj.

Shahanshoh oh chekib, tark etdi bedod,
Qilib yangi adl qasrini bunyod.

Hakim Nizomiyning pandu hikmatlari

Dilo, sham'ing yoqib, otashda o'rtan,
Sen otash sevmagingni shamdin o'rgan.

5465 O't ichra o'ttirursen, chun bo'lurmu?
Ul otashxonadin keltir ko'ngilni.

Agar tuproqmanu tuproqda hechman,
Va lekin hikmat ayturda qilichmen.

Ko'ngilda so'zlarim ko'p, necha bir qat,
Netay, bir kimsada yo'q unga rag'bat.

Bilurmen, ne emish pargori olam,
Ayondir ul yana asrori olam.

Tuzib zichi falakdin necha jadval,
Shu usturlob ila men ayladin hal.

5470 Qachon, kim so'rdi asrori falakni,
Men unga tutmadim toshi mahakni?

Sarosar ne emish bu eski gulshan,
Eshitsang, aylagum men senga ravshan.

O'shal sarnuqta xatti muxtalifdir,
Ki avval keldi junbushga, alifdir.

O'shal xatga yana xat qo'shdi pargor,
Ki andir bir basit bo'ldi padidor.

Qo'shib uch xatni so'ng markaz muhitda,
Jism shakli ko'rindi ul basitda.

5475 Xat erdi, so'ng basit, so'ngra basit tom,
Keyin bor jonu jonzot topdi andom.

Bilarsen mulki olamni bag'oyat,
Shu tartib birla boshdin to nihoyat.

Aqlga shu namuna bo'lsa zohir,
Borar ul bir yo'lsha avvaldin oxir.

Xudoki, haddi hech zohirni bilmas,
Vujudi avvalu oxirni bilmas.

Xudojo'y bo'l, kelur Haqning javobi,
Ochilgay senga shu olam hijobi.

5480

O'zingni bil ma'oniy birla butkul,
Bilib o'zni, Xudoni bilganing ul.

Tiniq oyina, boq, qarshingda ermish,
Yiroq osmonni deb sen chekma tashvish.

Chu nuring olam uzra misli shamdir,
Magarki ikki olam senda jamdir.

Nizomiy, bundan ortiq aytma asror,
Hali qancha hikoyat aytmog'ing bor...

Shero'ya sifati va Xusrav ishining oxiri

Chu Xusrav o'rganarkan darsi hikmat,
Tugandi ul jahoniy ayshu ishrat.

5485

Chu Maryamdin bo'lib farzandi xomi,
G'azabnok sher edi, SHero'ya nomi.

Eshitdimki, o'shal farzandi qattol.
Hali to'qqizda yoshi, ul go'dak hol,

Kelinlikda Shirinni ko'rgani on,
Demish: "Kosh bo'lsa erdi menga jonon!"

Yurakda mehri yo'q, bor qahru kiyni,
Na parvoyi ilm, na dardi dini.

Ki andin shoh saroyi purdud erdi,
Hama ozurdayu noxushnud erdi.

5490

Buzurgummidga goh derdi hukmdor:
"Shu farzanddin ko'ngilda tashvishim bor.

Ki shumaxtardin ul ko'nglimda qayg'u,
Solur shum tolei jonimga qo'rquv.

Yomon bir fe'li borkim, shafqati kam,
Ayab-netmaydi hatto onasin ham.

Bu noxushdin ko'ngillar doimo g'ash,
Bo'lur kul oqibat farzandi otash.

So'zi har lahza noxushlikka qaytar,
Hamisha ko'ngliga kelganni aytar.

5495

Emas ul oru nomus birla hamrang,
Qochar mardonalikdin necha farsang.

Mening dil otashimdin dud uchar, kul,
Tug'ilmish mendanu mendin qochar ul.

Boshimda toji olamdir agarda,
Xalaf chun noxalaf bo'lsa, ne foyda?

Na Shiringa, na menga mehribondir,
Na singillar ila shirinzabondir.

Boqar dev ko'zi birlan ul pariga,
Eshak boqqan kabi polongariga.¹⁷¹

5500

Meni qo'y, menki ul gurzi ilonman,
Ilonman bo'ylakim, mo'hra nishonman.

¹⁷¹ Farzand shunday noqobil bo'lsa...

Na har yor senga yor, har bola farzand,
Na har gul meva bergay, har qamish qand.

Base avlodki, andin o'ldi ajdod,
Base temirki, etdi toshga bedod.

Base begonakim, mebru vafolik,
Qilur ul senga do'stu oshnolik".

Buzurgummid dedi: "Ey peshbin shoh,
Diling yaxshi-yomondin bori ogoh.

5505 Agarki shu o'g'il dardi saring ul,
Emasmi dona yoqut, gavharing ul?

Nechun naslingni chun dushman etarsen,
Ko'ngilni unga nopayvand etarsen?

Anor o'z mevasin boshida asrar,
Ki nogoh bosmagay bir go'lu xumpar.

To'kar tut mevasin erga tamoman,
Bosilgay mevasin erga davoman.

Yomon farzand kelurmi yaxshi shohdin?
Kelur yaxshi samar yaxshi bu toqdin.

5510 Berilsa zar choponga zebu oro,
Chiroyi ortadir yashnab tobora.

Asov ersa o'shal farzandi bebosh,
Zamona rom etar, sen ayla bardosh.

Yigitlik qoni gar qaynab urar jo'sh,
Yetuklik chog'i ul etgay faromush".

Xusravning otashxonada o'ltirgani

Chunon bo'ldi keyin ul royi Xusrav,
Ki otashxona bo'ldi joyi Xusrav.

Yoronlar birla etmay hamnishastlik,
Qilur mo'bad kabi otashparastlik.

5515 Chu otashxona ichra qurdi raxtin,
O'shal Shero'ya oldi toju taxtin.

Magar mayxo'rlik aylar erdi har dam,
Yiroqdin shohni poylar erdi har dam.

Va oxir bandi zindon ayladi ul,
Ato ko'nglini vayron ayladi ul.

Yo'latmay yoniga xeshu qarinni,
Qoshiga qo'ydi ul yolg'iz Shirinni.

SHirin birlan edi shoh onchunon shod,
Turib zindonda derdi o'zni ozod.

5520 Der erdi yoriga: "Hay, bo'lma dilxun,
Ki har kas boshida bor bo'yla bir kun.

Kulohni el uchirsa boshdin, ey hur,
Giyoh osudadir, lek sarv ranjur.

Magar ov durkunu semiz esa bot,
Otar avval o'qini unga sayyod.

Magar zilzila solgay toqqa larza,
Vahimdir ul balanddin kim yiqilsa.

Yirik tishli esa ov, katta kelbat,
Uning bo`ri tushar ortidin albat.

5525 Va qayda otash ersa gar zarandud,
Go`zallar soriga ko`proq borar dud.

O`zing yorsan, chu davlat garchi ketgay,
O`zing borsan, shu sarvat menga etgay`.

Shahanshohga Shirin hamxona erdi,
Anga xizmat etib, parvona etdi.

Ki davlat ichra bo`lgay bo`yla bisyor,
Gahi shodlik, gahi g`am-tashvishi bor.

Dema, sog`lom hamisha sog` bo`lgay,
Dema, bemor esa albatta o`lgay.

5530 Baso qulflarki, pinhon, nopadiddir,¹⁷²
Ko`arsen qulf emas, asli kalitdir.

Chu donolik ila sen hayda g`amni,
Chaqirgay g`amni g`am, tuproq namni.

Agar o`rningni olgan ersa badxoh,
Muqanna oy yaratgan erdi, ey shoh.

Magar g`arq etsa Naxshab chohini suv,
Temir qaydin sochardi ko`kka yog`du?

Bu bir kishvarki, ahli ikki yuzlik,
Qaroni oq degaylar, ko`rni ko`zlik.

¹⁷² Nopadid – ko`rinmas.

Kelish goh nopisand birlan topib yo'l,
Mazax etmoqqa garchi arzimas ul.

Yiroqdir bu jahon sharmu hayodin,
Yiroq tur ul yiroq, mehru vafodin.

Jahon ikki kishiningdir anisi,
Bin o'lmish, tug'ilganmas birisi.

Muqarrar tark etar olamni odam,
Ki sen ham qolmagaysen, chekmagil g'am.

Agar etsa jahonga poydorlik,
Etarmu har kishiga shahriyorlik?

Umr poyanda bo'lsa, o'yla bir rav,
Ketib Kayxusrav ul, kelgaymu Xusrav?

Bu gulzorga kishi gar bersa ko'ngil,
Kular ahyonda, ko'proq yig'lagay ul.

O'kinma gar qo'lingdin ketsa dunyo,
Tushibdir yuk magar elkangdin ongho.

Jahonda molmi yoki sen qolursen?
U ketsin, yaxshidirki, sen qolursen!

Kishi shodon emas dunyoda doim,
Qulog'ini burar bu dahri zolim.

Quyoshdek otash ur dunyosiga, bas,
Isosiz ul eshakda xayr bo'lmas.

Ilonlar shohi Zahhok deb bil oni,
Sening elkangga qo'ndirgay ilonni.

Bu shahvatrezakim, chun keldi sendin,
Uqubat senga, bepusht qolsang andin.

Bu toshga ko'p suyanma, garchi qattiq,
Chu qorning to'ysa basdir, so'rma ortiq.

U bepusht er-xotinga et havaslar,
Qorin qo'ymas ular, bel boylamaslar.

5550 Gar aqling ersa, bepayvand yurgil,
Ne ersa, boriga xursand yurgil.

Ne bordir yaxshiroq shodlikdin o'zga?
Ne atzal erku ozodlikdin o'zga?

Bor ersa nonu suv, cho'zgil oyog'ing,
Shudir ozodtab' bo'stonu bog'ing.

Ko'tar boshingni xursand, etma mastlik,
Balodir haddin ortiq sarparastlik.¹⁷³

O'shal zohidki erdi mahbusi g'or,
Qutuldi shod, ma'yus qoldi ag'yor.

5555 O'shal rohib ko'rinmas tog'da ortiq,
Qanoat birla g'andin bo'ldi forig'.

Jahon – och ajdahodir, muncha vahshiy,
Ki andin hech vaqoying yo'qsa, yaxshi.

Qo'lingdin kelmasa bir ish, samar-sud,
Birovlar qo'li birlan sen ilon tut.

¹⁷³ Sarparastlik – o'zni haddin ortiq ayash.

Asir ersang, anga bo'1 shodu mamnun,
Asirlikda bo'lur har durri maknun.

Agar choh ichra ko'rsang o'zni, turgil,
Saodatnomayi Yusufni ko'rgil.

5560 O'shal choh – joyi qadringdir, qadrla,
Yalov bil, kimki turgay boshing uzra.

Sen o'ylaysanki, kam olamda qadring,
Har ikki olam ichra yo'qmi sadring?

Sen – olam qalbi, o'zni tutmagil xor,
Jahonni qoplagudek himmating bor.

Yaratgan shu jahonni bor yaratdi,
Jahonni senga deb zinhor yaratdi.

Shu andisha ila dilshod yurgil,
Qo'yib ul toju taxt, ozod yurgil.

5565 Magar ersang toju taxtga muhtoj,
Zaminni taxt, quyoshki aylagil toj".

Shu taskin birla shohga so'z qotardi,
Shu afsun-la kuni xursand o'tardi.

Kirib tun, bo'ylakim ul sarvi ozod
Etardi shohga dildan mehru imdod.

Shero'ya Xusravni o'ldirgani

Qaro tun erdi, oysiz erdi osmon,
Falakni yo'ldin urdi devu shayton.

Zamona necha ming qo'l birla kamzo'r,
Falak yuz mingtalab ko'z birla shabko'r.

5570

Shahanshoh poyida zanjiri zarrin,
Shirinning poyiga qo'ymish oyog'in.

Kumush barmog'i-la dildora shu chog'
Tizardi zarrin ul zanjirga munchoq.

Shahanshoh poyiga mehrin separdi,
Silab, goh erkalardi, goh o'pard.

Kulardi sho'x hikoyatlarni aytib,
Shahanshoh tinchib, orom uxlasin deb.

Va har lafzin hilib mehri jahondin,
Shahanshoh tinglar erdi sidqi jondin.

5575

Chu Xusrav uxladi, uyquga ketdi,
Shirin ham uyqu-orom maylin etdi.

Magar ul yoru dildor uxlar erdi,
Falak bedoru lekin yig'lar erdi.

Jahon derdiki, keldi fitna sarmast,
Qarolik erdi xanjar birla payvast.

Chu kirdi darchadin bir devchehra,
Ko'zida mehru shafqat yo'qdi zarra.

Magar qassob edi ul, qon ichardi,
Siyohrang mo'ylovi uchqun sochardi.

5580 Misoli o'g'ri yanglig' boqdi har yon,
Boqardi qayda deb ul shohu sulton.

Va shoh boshiga keldi, ilkida tig',
Ko'tardi, urdi so'ng ko'ksiga qattiq.

Chunon urdiki, qonlar uchdi sachrab,
Bulutdin sachragan otashga o'xshab.

Ayirdi oyni oftobdin jafoli
Va chiqdi darchadin kalxat misoli.

Shahanshoh ochdi ko'z, holi ne erdi?
O'zini qip-qizil qon ichra ko'rdi.

5585 Yana atrofini tutmishdi qoni,
Kelib, halqumiga etmishdi joni.

Dedi: Shirinni uyg'otsam hamona,
Menga suv bersa, ichsam qona-qona.

Yana dediki, yo'q, bo'lmas, bu mushkul,
Qonib bir kecha orom uxlasin ul.

Chu ko'rsa bo'ylakim xun ichra yorin,
Chekar so'ng uxlamay faryodu zorin.

O'shal yaxshiki, so'z aytilmas ersa,
Men o'lsam, ul hamon uyquda bo'lsa.

5590 Shu yanglig' berdi jonin ul vafodor,
Chu etmay uyqudin Shirinni bedor...

Tamsil

Ko'arsen gul ochilmish misli xurshid,
Yashillikdin jahonga bergay ummid.

Bulut kelgay banogoh tundu sarmast,
Va etgay gul-chechaklar joniga qasd.

Chechaklar ustiga sharros yog'ar do'l,
Butoqdin barg uzilgay, qolmagay gul.

Turib bog'bon chamanni aylanur zor,
Chaman ichra na gul qolmish, na gulzor.

5595 Boqib, gulzor g'amida yig'lamasmi?
Guli hajrida jonni tig'lamasmi?

Shirinning uyqudan uyg'ongani

Sizib shohning tanidin qon shu asno,
Shirinni uyqudin uyg'otdi nogoh.

Bo'lak tunlarki baxti hamdam erdi,
Ajab savtu sadodin uyg'onardi.

Falak, ko'rgil, ne qattol kechdi bu bor,
Ki shohning qoni birla bo'ldi bedor.

Parishon qushdek erdi qayg'uga duch,
Ko'rardi tush magar uyquda qo'rqinch.

5600 Ko'tardi pardani xobgohidin bot,
Ko'rib daryoyi xun, oh chekdi, faryod.

Tun ichra izlar erdi oftobin,
Darig'o, ko'rdi ul holi xarobin.

Shahanshoh boshini betoj ko'rdi,
Charog'i ravshanin toroj ko'rdi.

Xazina ochilib, ganji talanmish,
Sipoh ketmish, sipohsolori o'lmish.

Base yig'lab, qaro tunni qoraytdi,
Keyin qo'zg'oldi, yo'l azmini tutdi.

5605 Gulobu mushk ila anbar keturdi,
Xunolud yuzni yuvdi, mushk surdi.

Base yuvdi sepib gullobu kofur,
Taraldi ul xunolud chehradin nur.

Bazmga shaylagandek shohni qattiq
Bezatdi so'ngra, bo'lmas bundan ortiq.

Shahanshohga berib oroyish andoq,
Muattar etdi bor jismini mundoq.

Kelinlardek o'ziga berdi oro,
Magar har dilga erdi chun diloro...

Sheruyaning Shiringa sovchi yuborgani

5610 Edi Shero'ya chun Shiringa dilso'z,
Va lekin kimsaga ul ochmadi so'z.

Nihoniy kas yubordi, chekmasin g'am,
Bir hafta tutsin ul shohiga motam.

O'tib bir hafta. bitgach rasmu oyin,
Ochar bog'inda gul yanglig' chiroyin.

Ko'rar mendin muruvvat ul sanam ko'p,
Etarmen e'tibor Xusravdanam ko'p.

Ko'marlar simu zarga, chun buyurgum,
Hama ganjar kalitin unga bergum...

5615 Shirin tinglab bu so'zni, rangi o'chdi,
Magar qahru g'azabdin qoni jo'shdi.

Vale tilda etib sabr ixtiyorin,
Firib bermoqqa berdi dil qarorin.

Keyin yig'di hama asbobi Xusrav,
Kiyimdin to matohki erdi har nav.

Berib muhtaju mahrumlarga butkul,
Shahanshoh joniga etdi fido ul...

Shirinning Xusrav dahmasida jon bergani

Ketib tun, olam uzra tong yorishdi,
Haloki joni Shirin ham yotishdi.

5620 Habash qaytardi kofur birla qo'lda,
Banogoh sindi kofurdoni yo'lda.

Chiqib oy, qal'adin termuldi zanjiy,
Chu kirdi qal'aga oy, kuldi zanjiy.

Buyurdi Shirin ul shoh sha'niga mos,
Yasashdi ud og'ochdin tobuti xos.

Keyin qoplashdi unga taxtayi zar,
Qadashdi qancha marvaridu gavhar.

Amal aylab tamom fors oyiniga,
Keyin yotqizdilar Xusravni unga.

5625 Olishdi elkaga so'ngra hama shoh
Yurib, eltishdi Mashhadga sahargoh.

Hukmdorlar edi yaksar piyoda,
O'shal oy hozir erdi ul aroda.

Qalam yanglig' kesib barmoqlarin ul,
Borardi Borbad ma'yusu malul.

Buzurgummid bo'lib navmid endi,
Terak yaprog'i yanglig' titrar erdi.

Zaif ovoz chekib aylardi afg'on,
Ki shohdin ayrilib biz bunda bejon.

5630 Qani sultoni jon, shohi Ajam ul?
Sipohsoloru shamshiru alam ul?

Qani ul Xusravi dunyo atalgan?
Gahi Parviz, gahi Kisro atalgan?

Kelib ketgay hama, bu bo'yla dunyo,
U Jamshiddir, u Xusrav yoki Kisro...

Borar qullar, kanizlar yig'lashib qon,
Qatorda sarvdek Shirin xiromon.

Qulog'iga taqib gavhar isirg'a,
Parishon sochlari ko'ksiga parda.

5635

Ko'ziga surma chekmishdi sanobar,
Kelindek qo'liga qo'ymish hinolar.

Sariq ro'moli boshda misli oftob,
Yana qirmiz harir egnida, siymob.

Chu tobut ortidin sarmast borardi,
Uni ko'rgan kishi esdin og'ardi.

Qadam tashlar edi maydonda burro,
Qadam tashlarda raqs aylardi go'yo.

Gumon etgaydi har kim, baski Shirin
Emasdir motami shoh ichra g'angin.

5640

Magar Shero'ya ham o'ylardi shundoq,
Edi har soniya Shiringa mushtoq.

Btun yo'l bo'yi andoq, yurdi ul moh,
Etishdi so'ngra gunbazxonayi shoh.

Yig'ildi ahli arkonu kanizlar,
Oqib ko'z yosh, yuvilmish erdi yuzlar.

Qabrga qo'ydilar tobutni shunda,
Ulug'lar tik oyoqda erdi unda.

Shirin mo'bad yonida belni boylab,
O'zini xuddi farroshlikka shaylab.

5645

Kirib gunbazga, eshik yopdi dilbar,
Qo'lida erdi olmos tig'li xanjar.

Borib Xusrav yarosin ochdi ildam,
Egildi, ul yaroni o'pdi bir dam.

Boqib qonli yaroga lahza turdi,
Keyin xanjarni ul ko'ksiga urdi.

Isitdi xuni birlan xobgohni,
Tozartdi qoni-la andomi shohni.

Keyin og'ushga oldi shohni SHirin,
Labiga lab bosib, ko'ksiga ko'ksin.

5650 Baland ovoz-la ogoh etdi rozdin,
Xabardor bo'ldilar qavm ul ovozdin.

Bo'lib jon jongayu tan tanga payvast,
Qutuldi jonu tanlar bir yo'la, bas.

Edi shoh bazmida sham'i jahontob,
Muborak bo'lsin unga bu shakarxob!¹⁷⁴

Xudodin maxfirat ul oshnoga,
Shu erda ochsalar qo'lin duoga.

Xudoyo, pok tut bu xoktonni,
Kechirgil ikki yori mehribonni.

5655 Ajab Shirinu shirin o'lgani ul,
Ajab jon bergani, jon eltgani ul!

Muhabbat ichra turmoq muncha bo'lgay,
Va jon jononga bermog muncha bo'lgay!

Xotinlarning dema hech mardi yo'qdir,
Xotindir er kishi, gar dardi yo'qdir.

¹⁷⁴ Shakarxob – shirin uyqu.

Baso ra'no ayolki, mardi maydon,
Baso deboki, kiymishdir arslon.¹⁷⁵

Shamol qo'zg'oldi aylab qahru bedod,
Bo'ronga uchradi nasrinu shamshod.

5660 Bulut qalqib o'shal daryoyi g'amdin,
Chelaklab quydi sel, chiqdi alamdin.

Yana el shiddati kirdi aroga,
Ko'tardi changu to'zonni havoga.

Ulug'lar bildilar ne erdi asror,
Dedilar bir ovozdin aylab izhor,

Ki "Ahsant, ey zaminu osmon ul,
Kelin hersang kuyovga, bo'yla bergil!

Bazmda mutribing zanjiymi, rusiy,
Ki bundan yaxshiroq bo'lmas arusiy".¹⁷⁶

5665 U ikki sohibi toj bo'ldi hamtaxt,
Yopib gunbaz eshigin ahli davlat.

Ravona bo'ldilar uylarga g'amnok,
Keyin bir lavh uza harf chekdilar pok:

"Shirindin o'zga shu olamda ortiq,
Birov-chun o'zni qurbon aylagan yo'q".

Jahonga berma ko'ngil, ulki nokas,
Rahmsizdir, vafo rasmini bilmas.

¹⁷⁵ Debo – harir, atlas.

¹⁷⁶ Arusiy – kelin to'yi.

Ne haxsh etgay esa ul safla ayyom,
Olur bir-bir, etar ishni saranjom.

5670 Berib jismingga jon yuz da'fada ul,
Olur bir da'fada joningni butkul.

Tugun poyingda, unga pechu pechsan,
Yiqilsang, loyga botsang, hech u hechsan.

Bu chanbar ichrakim jon shahribanddir,
Bo'yin bormiki bir ul bekamanddir?

Na ul chanbar sari uchmoq iloji,
Na ul chanbarda band echmoq iloji.

Bu chanbar ichra bir kimsa kushoyish,
Topolganmas, nechuk bizga kushoyish?

5675 Bu afzalki, chekib jabrini og'ir,
O'tirsak shu qaro tuproqqa oxir.

Va to'ksak o'zni deb ko'z yoshi bir bor,
Chu bizdek biz uchun kim yig'lagay zor?

Eshitgandimki, Aflotun kunu tun
Gahi ko'z yosh to'kib, yig'lar ekan xun.

So'rashdi: "Ne uchun ko'z yoshidir bu?"
Dedi: "Inson sababsiz yig'lagaymu?"

Uning-chun yig'lagaymen oh urib boz,
Tanu jonim erur bir-birga damsoz.

5680 Uzilgay bir kuni ul oshnolik,
Kelur oxirida andoq bir judolik!"

Tusharsen yo'lga, bilmim, yo'l yiroqdir,
Vale yo'l ozig'ing-la yaxshiroqdir.

Borarsen, jon ila aflokka borgil,
Bu tuproq hissasini tuproqqa bergil.

Dema, ko'k toqiga qandoq etarsen?
Etarsen, gar o'zingni tark etarsen.

Aqldin maslahat so'rgil, tafakkur
Falak tomiga chiqmog'ingni aytur.

5685

Aql fatvo berarkan, qo'y qadamni,
Kayoniy qasri uzra tik alamni.¹⁷⁷

Aql shayxulmashoyixdir senga, bas,
So'r andin har ne so'rsang, o'zgadanmas.

Ulug'lardin emassa, so'z g'ubordir,
Ulug'lar nazdida bee'tibordir.

Xirad poyu tabiat unga zanjir,
Olingan har nafas misli egovdir.

Shu zanjirdin o'zin qutqarsa inson,
Bo'lur zar qal'a ichra shodu xandon.

5690

Bu dushmanlarki, yoringdin ayirgay,
Ne yoring, koru boringdin ayirgay.

Iodek eshshagingni chetga surgil,
Eyishni necha bir bo'kizga qo'ygil.

¹⁷⁷ Alam – bu yerda bayroq ma'nosida.

Bu to'qqiz govki, ho'kiz, odamiyo'r,
Yukingni ort ularga, holini ko'r.

Kezarsen balki ko'kni misli Zuhra,
Bo'lur so'ng manziling shu ho'kiz uzra.

5695 Baso labtashnalarki, o'ldi suvsiz,
Ko'ziga suv ko'rindi dashtaro tuz.

Base hoji, ulovdin pastga indi,
Nedir achchig'u nordon, bilmas erdi.

Bu gardun qal'asi zindonsarodir,
Kamarband tebrasida ajdahodir.

Nechuk talx bo'lmasin u l kimsaga aysh,
Kelarkan har nafas ajdarga to'qnash?

Chu Bahmandek yuking tuk, yo'lga tush. hay,
Bu ajdar-la olishmoq senga tokay?

5700 Dema sudu samarsiz bu judolik,
Toparsen etti ajdardin raholik.

Ne hojat asramoq ashyoni senga,
O'lar vaqtingda qolgay dushmaningga?

Masal dunyoda bormi shu masaldak,
Isoga hurmatu eshakka kaltak!

Salomat bo'l, birovga berma ozor,
Yomonga marhamat yo'qdir, jazo bor.

Bu junbush ichra chun nashvu nabotdir,¹⁷⁸
Daratlar birla qushlarga hayotdir.

5705 Daraxt yiqqanga yo'qdir ro'shnolik,
Nasiba ovchiga og'ir gadolik.

Jahon tor ko'chadir kim, tikma bayroq,
Jilovni tortki, minga oting oqsoq.

Nafasni uz bu ingichka naydin,
Tugunni ech cho'loq, eski oyoqdin.

Makon tutmoq bu ma'voda ne mushkul,
Oyoqda zanjiru bo'yningda gar g'ul?

Shu borliqdanki kelgay yo'qliging zud,
Kerak er boru yo'qqa ersa xushnud.

5710 Bisotu yoru do'st, farzand barcha
Senga hamroh qabrga etguningcha.

Magar g'amnok borurlar, bir kishi, bas,
Senga hamroh bo'lib tuproqqa kirmas.

Agarchi do'stu yor boshingda turgay,
Keyin bir yo'la yuzlarni o'giryay.

Tiriksanni, o'lik yo mastmi, hushyor,
O'zingdiren o'zingga ulfatu yor.

Qaroqchi bu xayolga bermagil erk,
Ko'tar bayroqni, osmon toqiga tik.

¹⁷⁸ Nashvu nabot – maysa-giyohlar.

5715

Qayon borma yurib mag'lubmi. g'olib,
Bo'lur har joyda senga bir muxolif.

Nafas gardunga gar etgaydir ohang,
Vale jising aro maydonidir tang.

Gar oqilsen, ko'tar osmonga o'zni,
Ko'mishdi go'rga sendek necha yuzni.

Zaminni qonimiz ichgay bu yanglig',
Sovur ellargakim, u shunga loyiq.

Nasihat yo'lida

Ko'ngil, tur, do'stu yor azm aylamishlar,
Yukingni boylagim, yuk boylamishlar.

5720

Bu kema sahnida sen turnagil ko'p,
Yuking daryoga tezroq otganing xo'p.

Bu daryo ichra, bas, boshingdadir g'am,
Cho'kib qa'riga, olma bir nafas ham.

Ajab ko'rku jamoldir odamiyga,
Chiqar osmonga, lek qaytar zaminga.

Cho'kar er, emrilur har toshu olmos
Va bu tor go'shada bir kimsa qolmas.

Bu joy xush devu shaytonlarga yolg'iz,
Malak bo'l, bu sitamgohdin qadam uz.

5725

Javonmardlarki o'zni jangga shaylar,
Va jangda jon berishni maqsad aylar.

O'lim qayg'usini chekmaydi kimsa,
Agar ulkim o'lishdin oldin o'lsa.

Tiriklar holidin sen ibrat olgin,
O'zingni o'ldir ul o'lmasdin olin.¹⁷⁹

Base tanlarki derdi: men temirdin,
Bugun faryod chekar zeri zamindin.

Kishi er bag'rini kavlab ne ko'rdi?
Sarosar odamiy, tuproqdin endi.

5730

Qani Jamshidu Afridunu Zahhok,
Bari er ostida, xok ichradir xok!

Jigarlardin sizar qon bunda har vaqt,
Bilolmam, bu ne daryoyi halokat?

Eshit, har lahza bir bong kelmagaymu?
Ko'ching, deb bir nido yuksalgaymu?

Agar xok ichra xokiysen, sitam yo'q,
Vujudga yo'qlik ul, jonga adam yo'q.

Jahonni ko'r, ne yanglig' aylagay mast,
Falakni ko'r, ne xursand qo'l cho'zar, dast.

5735

Nizomiy, bo'ldi qil, ko'p cho'zma guflor,
Jahon ahli qulog'ida tiqm bor.

Shikoyatlarki etding, endi tinchlan,
Bekit ko'z yoshlaringni kulgu birlan.

¹⁷⁹ O'zingni o'ldir – nafsingni o'ldir ma'nosida.

Ne bermishdir zamon, ul qaytib olgay,
Ne orttirmish zaminki, senda qolgay?

Ko'rarsen bir daraxtkim toza, durkun.
Qo'porgay ildizin ofat, qaro kun.

Bahor ochgay atirgul, lolajonlar,
Banogoh el esib, sochgay xazonlar.

5740

Berib, so'ngra olurkim, or bilmas,
Berib, olmoqdin o'zga kor bilmas.

Jinoyatlarki, to'qqiz shisha etgay,
Azizdir kimki unga toshin otgay.

Keyin charx poyida ul shisha barcha
Yotar butkul shikasta, parcha-parcha.

Ayo, dunyoni qo'y, shu charxi dunni,
Solur poyingga band uzra tugunni.

O'zingdin kech, bor ersa to'rt payvand,
Echilmas senda ul etti temir band.

5745

Bu vayrona makonda ne hayotmish,
Ki unda qo'l-oyoqlar loyga botmish.

Bu toshu loy aro oqil esa bosh,
Na loyga loy qo'shar, na tosh uza tosh...

* * * * *

Olursen ibrating bu so'zni anglab,
Ne anglarsen magar afsona tinglab?

Ki shartdir bunda ko'z yoshi to'kishlik,
SHirin uzra gulobi nob sepushlik.

Hayot maydonida ko'p surmadi ot,
Chaman chog'ida guldek bo'ldi barbod.

5750

Hamon ketgan guli qipchoqim erdi,
Gumon etgumki, ul Ofoqim erdi.¹⁸⁰

Humoyunpaykaru zebo, xiradmand,
Menga bermishdi ul doroyi Darband.

Temirdek zihrlı gar ustki libosi,
Mayin ham engi tor erdi qabosi.

O'tib ne-ne kazolarning taloshin,
Mening-la qo'ydi bir yostiqa boshin.

U turkinoz edi ko'chmoqqa muhtoj,
Va iurkdek ayladi borimni toroj.

5755

Agarchi ketdi qo'ldin turk mohim,
Xudoyo, asra turkzodamni doim!

Farzandi Muhammadga nasihat aylab aytgani

Eshit, ey etti yoshli nuri diydam,
Maqoming ikki qoshim uzra har dam.

Men zstirdim, Xudo noningni bermish,
Men ersam ul, Xudo nomingni bermish.

¹⁸⁰ Shoir bu yerda umr yo'ldoshi, qipchoq go'zali Ofoqning vafotiga ishora etmoqda.

Hilollik davring ushbu, yayra shodon,
Necha kun biz-da erdik shodu xandon.

To'lishsin anjumanlarda hiloling,
Yoritsin ko'kda yulduzni jamoling.

5760 Qalam chek ungakim, harfi havoyi,
Alam chek ungakim, ilmi ilohiy.

Desinlar barcha arbobi kiromiy:
"Ajab farzona farzandi Nizomiy!"

Xusravning tushi

Suxanpardozi hikoyat etdi: bir kez
G'amu tashvishda qoldi shohi Parvez.

O'shal tun oy nuridin ravshan erdi,
Jamoli Mustafoni tushda ko'rdi.

Gijinglab ostida oti samandi,
Tushib to kiftiga sochi kamandi.

5765 Shirin so'z birla dedi: "Ey javonmard,
Kirib islomga, kufring yo'lidin qayt.

Javob aylab dedi Xusrav: "Qaytmam,
Magar boshimni hatto kessalar ham!"

Suvoriy otining boshini burdi
Va Xusrav boshiga bir qamchi urdi...

Shahanshoh uyqudin uyg'ondi dilg'ash,
Ki boshin chulg'amishdi dudu otash.

Yotib uch oyga qoʻrquv ichra hemor,
Kechirdi uxlamay, tunlarni bedor.

5770 Xumori haddiga etganda butkul,
Dedi SHiringa ul xilvatda: “Yurgil,

Koʻraylik ul javohirxonada ganj,
Aritsin boshimizdin tashvishu ranj.

Bilaylik, atru atlas, durri shahvor,
Xazina ichra ermish necha miqdor.

Va andin xayru ehson tarqataylik,
Shu yangligʻ ruhimiz ravshan etaylik”.

Xazina sori bordi ikki hamroy,
Yoʻq erdi erda gavhar qoʻygali joy.

5775 Base qop uzra qop, zanjirli, mahkam,
Ularni necha xusrav aylamish jam.

Bari qirq xona erdi ganju mol, lek
Biri gar ochiq ersa, oʻntasi berk.

Necha ganjxona ochiqdi, kirishdi,
Ne erdi ganju ashyosi, koʻrishdi.

Boʻlak ganjxonalarni koʻrmoq istab,
Kalitni soʻrdilar shu onda qistab.

Kalitni keltirib chun ochdi ganjur,¹⁸¹
Toshardi unda gavhar tobidin nur.

¹⁸¹ Ganjur – xazinachi.

5780

Ne pinhon ganj edi, shoh ko'rdi yaksar,
Qo'lida necha eshikdin kalitlar.

Kalitlar ichra bir tillo kalitcha,
Chu shamdek nur sochib, yashnardi shuncha.

O'shal ganj eshigin so'rdi shahanshoh,
Kaliti bor, eting qulfini paydo.

Anga ko'rsatdilar bir erni shu on,
Qazinglar, deb shahanshoh berdi farmon.

Chu toshlar ustidin tuproq surindi,
Ularning ostidin gunbaz ko'rindi.

5785

Tagida sirli sandiq erdi, marmar,
Va unda bir osilgan qulf edi zar.

Shahanshoh amri-la sandiq ochildi,
Ichida har ne bor ersa, olindi.

Kumush tilsim edi unda ko'rilgan
Va unda lavhi zar erdi, o'ralgan.

Kumushdan erdi ul lavh uzra ziynat,
Bitilmish endi unda necha bir xat.

Talab etgach, o'qidi bir bilimdon,
Eshitgach qoldi podsho lolu hayron.

5790

O'shal kotibki xatni tizmish erdi,
Sinoatni bu yanglig' yozmish erdi.

Ki shohi Ardasher Bobakni ko'rdik.
Bilimdon erdi hamda chustu chobuk.¹⁸²

Samo asroriga oshno edi ul,
Falak ahkomidin ogoh edi ul.

Topib ul etti yulduzdin xabar chun.
Demishdi: "Aylanib shu charxi gardun,

Chiqar olamga bir paykar nishone.
Arablar yurtidin sohibqirone.

5795 Jasuru notiqu farzona raftor,
Aminu sodiqu mardu vafodor.

Uning mo'jizasi avj osmonda,
Nabiylar xotamidir ul jahonda.

Uning dini bo'lur olamda ustun.
Etar barcha muxoliflarni ostin.

Kishikim xohish etgay shahriyorlik,
Uning shar'i-la topgay ustuvorlik.

Kishi dono esa, fahm aylagay zud,
Ki jang etsa – ziyon, sulh aylasa - sud".

5800 Shahanshoh tikdi suratga nazar ul,
Siyosat etdi joniga asar ul.

Dedi, suratki bul o'truda ko'rgan,
Suvoriy erdi ul uyquda ko'rgan.

¹⁸² Chustu chobuk – epcnil, g'ayratli.

Chunonkim jismida jo'sh urdi joni,
Kelib junbushga mag'zi ustuxoni,

Jahon kezugvchilardin so'rdikim, ayt,
Jahonda kim ko'ribdir bo'ylakim mard?

Dedilar barcha: "Bu timsoli manzur
Bag'ishlar dilga diyda, diydaga nur.

5805 Qadam qo'yganda ul Payg'ambari pok,
Muattar bo'ldi butkul Ka'bada pok.

Muhammad, ulki Allohdin umiddir,
So'zi shu qulfi olamga kalitdir.

O'shal ganjinadin shohchiqdi dilg'ash,
Guhardin boshiga tushgan kabi tosh.

Shirin ko'rdiki, shoh chun zoru hayron,
Parishon holiga boqdi parishon.

Dedi: "Dono erursen, shohi rodiy,¹⁸³
Seningdir toju taxti Kayqubodiy!

5810 Bu dunyodin nasllar o'tdilar, bas,
So'z aytgan ersalar, behuda ermas.

Ularkim necha yillar bizdin avval
Rasad boylab, muammo etdilar hal.

Chunon payg'ambari sohib viloyat,
Ki andin etdilar ushbu rivoyat,

¹⁸³ Shohi rodiy – saxovatli shoh.

Qo'lida hujjati bordir ilohiy,
Ilohiy dinining ravshan guvohi.

Yo'li, rasmi-la bo'lmas o'ynashib ul,
Uning so'zini rad etmoq-da mushkul.

5815 Uning diniga rag'bat aylasa shoh,
Yo'lida xoru xas bo'lmasdi aslo.

Xudoning e'tirozidin qutulgay
Va iqboli abadga noil o'lgay.

Qolurdi yaxshiliklar birla nomi,
Bo'lurdi shohligin umri, davomi".

Dedi Shiringa Xusrav: "Rost deyursen,
Ki ul hujjatga qil ixlos, deyursen.

Vale ul joydakim, Yazdon yaratmish,
O'zi ajdodimizni millat etmish.

5820 Nechuk kechgaymen ajdodlar dinidin,
Kecholmasmen u shohlar oyinidin.

Ko'ngil istar, vale baxtim emas yor,
Muzaffar ulki, baxt ersa madadkor".

O'shal davronki davlat romi erdi,
Tamomi g'arbu sharqda nomi erdi.

Rasul qo'lida hujjat erdi, qohir,¹⁸⁴
Nubuvvatni etib dunyoga zohir.

¹⁸⁴ Qohir – g'olib. qo'li ustun ma'nosida.

Gahi oyga etardi hirqasozlik,
Gahi oy unga aylar hirqabozlik.

5825

Gahi bir qoyatoshga roz aytar,
Gahi toshi hikoyat boz aytar.

Shukuhi tog'ni talqon aylar erdi,
So'zi tuproqni to'zon aylar erdi.

Gar ehson etsa, ganj yakson etardi,
Nasimi necha ganj ehson etardi.

Xaloyiqqa aqldin jom berardi,
Va har yurtga salon tom berardi.¹⁸⁵

Buyurdi, atru anbar shay etilsin,
Va har yurt shohiga maktub bitilsin.

5830

Xabashning xat ila ochdi jamolin,
Ajamning nuqta birlan qo'ydi xolin.

Najoshiy naqshinikim hozir etdi¹⁸⁶
Va Xusrav nomiga so'ng noma bitdi.

Xusravi Parviz nomiga Payg'ambarimiz (sav) maktubi

Bu maktub uzra nomi podshoye,
Ki bejoyu uningsiz yo'q joye.

Xudovanddirki, xalloqi vujuddir,
Vujudi to abad fayyozi juddir.¹⁸⁷

¹⁸⁵ Salon tom – baland ovozda chorlov.

¹⁸⁶ Najoshiy –Habashiston podshosi.

¹⁸⁷ Fayyozi jud – saxovat fayzi.

Qadimdir, avvalliga matla'e yo'q,
Azimdir, oxiriga maqta'e yo'q.

5835

Sifotini etolmay til, muammo,
Xirad dam ursa, kul bo'lmay hamono.

Agar zohidki ul piri rasodir,
Desa, do'zaxga bor, hukmi ravodir.

Agar osiyki ul ma'yusu malul,
Desa, jannatga bor, ermas ajab ul.

Xudovand hukmiga bois, sabab yo'q,
Berib, olmog'iga aslo ajab yo'q.

Etar bir pashshani filtanga ofat.
Chumoliga berar fazli nubuvvat.

5840

Egar tovusning ul tuproqqa boshin,
Berar parvonaga maydonda qo'shin.

Anga shukr aylakim, shukrin qilursen,
Senga basdir, Xudoyingni bilursen.

Uning yodi yo'q ersa, ochmagil lab,
U yo'q joyda senga yo'q dinu mahzab.

Ne da'vokim etarsen, chin iloh Ul,
Ne ma'nokim tilarsen, podsho Ul.

Kuchu qudratni qo'y, qudrat qazodin,
Ado etuvchi – sen, farmon – Xudodin.

Gahi oyga etardi hirqasozlik,
Gahi oy unga aylar hirqabozlik.

5825

Gahi bir qoyatoshga roz aytar,
Gahi toshi hikoyat boz aytar.

Shukuhi tog'ni talqon aylar erdi,
So'zi tuproqni to'zon aylar erdi.

Gar ehson etsa, ganj yakson etardi,
Nasimi necha ganj ehson etardi.

Xaloyiqqa aqldin jom berardi,
Va har yurtga salon tom berardi.¹⁸⁵

Buyurdi, atru anbar shay etilsin,
Va har yurt shohiga maktub bitilsin.

5830

Xabashning xat ila ochdi jamolin,
Ajamning nuqta birlan qo'ydi xolin.

Najoshiy naqshinikim hozir etdi¹⁸⁶
Va Xusrav nomiga so'ng noma bitdi.

Xusravi Parviz nomiga Payg'ambarimiz (sav) maktubi

Bu maktub uzra nomi podshoye,
Ki bejoyu uningsiz yo'q joye.

Xudovanddirki, xalloqi vujuddir,
Vujudi to abad fayyozi juddir.¹⁸⁷

¹⁸⁵ Salon tom – baland ovozdada chorlov.

¹⁸⁶ Najoshiy – Habashiston podshosi.

¹⁸⁷ Fayyozi jud – saxovat fayzi.

Qadimdir, avvalliga matla'e yo'q,
Azimdir, oxiriga maqta'e yo'q.

5835 Sifotini etolmay til, muanmmo,
Xirad dam ursa, kul bo'lmay hamono.

Agar zohidki ul piri rasodir,
Desa, do'zaxga bor, hukmi ravodir.

Agar osiyki ul ma'yusu malul,
Desa, jannatga bor, ermas ajab ul.

Xudovand hukmiga bois, sabab yo'q,
Berib, olmog'iga aslo ajab yo'q.

Etar bir pashshani filtanga ofat,
Chumoliga berar fazli nubuvvat.

5840 Egar tovusning ul tuproqqa boshin,
Berar parvonaga maydonda qo'shin.

Anga shukr aylakim, shukrin qilursen,
Senga basdir, Xudoyingni bilursen.

Uning yodi yo'q ersa, ochmagil lab,
U yo'q joyda senga yo'q dinu mahzab.

Ne da'vokim etarsen, chin iloh Ul,
Ne ma'nokim tilarsen, podsho Ul.

Kuchu qudratni qo'y, qudrat qazodini,
Ado etuvchi – sen, farmon – Xudodin.

5845

Xudo bo'lgaymi hech banda, parastor,¹⁸⁸
Xudolikka Xudo yolg'iz sazovor.

Sen, ey ojiz, magar Xusrav noming,
Yana kayxusraviysen, yuzta joming,

Ajal joningni bir kun so'rsa sendin.
Nechuk joningni qutqargaysen andin?

Kishi bilgaymu, banda, xoru mahbus
Boshida qanchalar nayrangu nomus?

O'limsiz bo'lsa erdi podsholik,
Etardi unda da'voyi xudolik.

5850

O'zingga boqma, xudbin ko'r erur, bas.
Xudobin bo'lki, xudbinlik hunarmas.

O'zingdin kech, magar ul necha miqdor,
Ki sendek kimsalar olamda bisyor.

Zamin bir zarradir olamda, yohu.
Va unda rub'i maskun, tegrasi suv.¹⁸⁹

Iroq shu rub'i maskun ichra ma'vo,
Madoin shahri shu ma'voda paydo.

Shaharda turfa inson uyquga band,
Biri sensan o'shal g'aflatga botgan.

5855

Tafakkur ko'zi birlan boq-da, bilgin.
Azaldin ne emish hadding, hududing?

¹⁸⁸ Parastor – xodim, xizmatkor.

¹⁸⁹ Rub-l maskun – Yerning odamlar yashaydigan to'rtidan bir qismi.

Ilohiy shu buyuklik oldida, boq,
Ne ermish borlig'ing ul, zarra tuproq?

Ki tarkibi uning chun poymoldir,
Xudo da'vosin etmog'i maholdir.

Guvohlik ber, Xudodir yakkayu haq,
Makonsiz erkani olamda barhaq.

Basharga etdi baxsh sarvarlik Alloh,
Va berdi menga payg'ambarlik Alloh.

5860

Kech endi o'tparastlik dinidin ul,
Bihishtni tanla, do'zaxdin xalos bo'!

Tovusdek bo'l bihishtiy bog'da sayron,
Kuyib, parvona yanglig' bo'lma so'zon.

Majusiy boshi uzra dud bo'lgay,
Kishikim o't yoqar, Namrud bo'lgay.

Qolib otashda ul ko'ngling mudom g'ash.
Musulmon bo'l, qutul, tark ayla otash".

C'hu maktub bitdi, ul maktubni bitgan
Bitirdi so'ng Muhammad nomi birlan.

5865

Rasul qosidga dedi: "Yo'lga tush tez,
Borib, maktubni ul Parvizga etkiz".

Qo'liga nomani olgan zamoni,
G'azabga keldi shoh, jo'sh urdi qoni.

Uning har so'zidin ko'ngli bo'lib xun,
Chunonchi, ul hamon ichmishdi afyun.

Bo'lib qahr o'tidin har mo'yi nayza,
Yonib jismi, tomirga tushdi larza.

O'shal unvoni olamtobni ko'rdi,¹⁹⁰
Ko'pirdi, yuz-ko'ziga qoni urdi.

5870 Yozilmish erdi maktub uzra keskin:
"Muhammaddin borib, Parvizga etsin".

Etib shohlik g'ururidin xatolik,
Dedi: "Aylar nechuk ul gustohlik?"

Pisand etmabti shohlik ehtiromim,
Yozibti bo'yla nomim uzra noming?

Qizartdi yuz-ko'zini qahri andoq,
G'azab ichra yomonlik etdi mundoq.

O'shal maktubni yirtib otdi shu dam,
Xat ernas, yirtidi ul nomini ham...

5875 Chu qosib bo'ylakim savdoni ko'rdi,
O'zini tutdi vazmin, ortga yurdi.

Nechuk chiqmishdi dud qahru alamdin,
Xabar etkazdi Payg'ambarga andin.

Eshidi, bo'ldi Payg'ambar norozi,
Hamon parvonadek uchdi duosi.

Etishdi ul Ajam tuprog'iga bot,
Yiqib Xusravni, taxtin etdi barbod.

¹⁹⁰ Unvoni olamtob – olamni yorituvchi unvon, ya'ni Rasulilloh.

Etib mo'jizi shar'i mustafolik,
Zavolga uchradi ul podsholik.

5880 Falakdin mosuvolik bo'ldi taqdir,
Uning o'z o'g'li urdi unga shamshir.

Falakdin yog'di chun sangi firoqi,
Baland ayvonining o'prildi toqi.

Temir ko'prik edi daryoda har on,
Bosib sel, etdi ul ko'prikni vayron.

Esib nogoh samumi otashangez,
Na Gulgun qoldi oxurda, na Shabdiz.

Ko'rindi bir bahodir, ilkida cho'p,
G'azab ichra uni sindirdi silkib.

5885 Dedi: "Ilkim po'latdir, yaxshilab boq,
O'shal diningni ham sindirgum andoq".

Nabiy mo'jizasi bo'lganda oshkor,
Bu yanglig' darsu ibrat keldi bisyor.

Qarang, ul toshbag'irlar chekmay afsus,
Ilohiy bukaramdin burdilar yuz.

Agarchi sham'i din ravshan guhardir,
Uni ko'z ko'rmas ersa, besainardir.

Nechuk so'z aytgusi bunda hidoyat,
Ki mahrum qoldilar chun beinoyat?

5890 Ajab payg'ambar ulkim, vahmu ummid
Xatin olgay Faridun birla Jamshid.

Ajab shohlarki, asrab taxtu tojin,
Bo'yinlarga osar tavqi xirojin.

Ajab bosh, etti iqlim erdi xayli,
Zaminu osmondir ul tufayli.

Ajab oydirki, garchi erdadir ul,
Yoyilmish nuri eru ko'kka butkul.

Ajab sultonki, andin borliq olam
Nazar olgay ko'ziga, to'tiyo ham.

5895

Ajab peshvoki, so'zi kashti asror,
Qiyomatga qadar yangroq, jarangdor.

Sahargoh mushtni besh bor erga urdi,
Etib tun, taxtini osmonda qurdi...

**Aziz Payg'ambarimiz
sallallohu alayhi vassalam me'roji**

O'shal tun tark etib ul dayri foniy,
Anga hamxona erdi Ummi Honiy.¹⁹¹

Ki Jabroil qo'yib ul bayti ma'mur,
Buroq keltirmish erdi, o'ylakim nur.

Nigorin paykar erdi, chun chaman bog',
Lijomsiz erdi boshi, sag'ri bedog'.

5900

Bulut ermas, bulutdek dur sochardi,
Shamol ermas, sabodek dil ochardi.

¹⁹¹ Ummi Honiy – Payg'ambarimiz ayollaridan biri.

Chu daryo erdi, mavji durri shahvor
Va kimsa suzmamish jur'at-la bir bor.

Baquvvat ot edi, har odimi tez,
Ko'zi o'tkir elarkan yo'lda har kez.

Oshib ul etti osmondin damodam,
Muhammad oldida shay erdi shul dam.

Madina shahridin qushdek uchib ul,
Etib manzili Aqsoga, tushib ul.

5905 O'ziga anbiyoni qibla aylab,
Tushib oldinga chun jahdu jadallab,

Bo'lib peshvo jamiki anbiyoga,
SHu yanglig' ko'rsatib yo'l kibriyoga,

Xayoldan-da shitobon uchdi otda,
Malaklar chodirin qoldirdi ortda.

O'shal girdobadin bodi bihishtdek
Kelib, etdi Qutb qirg'og'iga tek.

Falakning qalbini Aqrabda yirtdi,
Asad soriga so'ngra qo'l uzatdi.

5910 Etishdi Kahkashonga chun buroqi,
Keyin Sunbulga tushdi ishtiyoqi.

Kamonning ustuxonin ganj aylab,
Tarozuni saodatsanj aylab.

Berib so'ng Mushtariyga toj-tuzukni,
Quyosh barmog'idin oldi uzukni.

Shayotin qavmini etmoqqa abgor,
O'shal Javzo sari o'q uzdi bir bor.

Yusufdek sharbatin ko'ngilda ichdi,
Yunusdek yo'lni so'ng Hut ichra kechdi.

5915 Rikobida Surayyo erdi madhush,
Anga xizmat etib, xursand edi, xush.

Uchib ul Nasri Toir pastda, toldi,
Va Nasri Voqe' yanglig' ortda qoldi.¹⁹²

Yo'lida rangba-rang bog' erdi, rayhon,
Ularga termulib boqmasdi bir on.

Yashil vodiyni tark etgach, hamono
Jadal ot surdi ul sahroma-sahro.

Malaklar ko'rdi ul jahdu jadalni,
Uchib, sur'atda to'kdi bolu pami.

5920 O'zib ul damda Jabroildin otda,
Mikoil ham shu yanglig' qoldi ortda.

Qanoti ustiga oldi Sirofil
Va eltdi xonayi Rafrat sari ul.

Rafi tuboga so'ng tikdi alamni,
Keyin Sidra sari qo'ydi qadamni.

Biyobonlarda Raxsh aylab shitobin,
O'qirdi safha-safha ko'k kitobin.

Kechib gardunni andoq farsh uza farsh,
Ko'rindi o'ngida ul gunbazi Arsh.

¹⁹² Nasri Toir, Nasri Voqe' – yulduz turkumlari.

5925

Va sakrab oshdi oti Kulli kavnayn¹⁹³,
Etishdi to sariri Qobi qavsayn.¹⁹⁴

Niqobin ul yuzidin chekdi shul dam,
Ko'tardi koinotning pardasin ham.

Jihatlar bejihatlikka tutashdi,
Makon ustiga ham so'ng parda tushdi.

Muhammad ul makoni bemakonlik
Aro ko'rdi nishoni benishonlik.

O'shanda Haq kalomin sochdi unga,
Xudovandi jahon yuz ochdi unga.

5930

Va har uzvi o'yinga tushdi beso'z,
Va har mo'yida paydo bo'ldi bir ko'z.

Boqib, jonida hayrat hosil erdi,
Dilida ko'z, ko'zida ko'ngil erdi.

Xitob keldiki, ey maqsudi dargoh,
Ne ersa hojating, aytgil shu asno!..

Saroyi fazl aro erdi saxovat,
Muhammad so'rdi Haqdin ganji rahmat.

Gunohkor ummatin etdi duo ul,
Xudovand hojatin etdi ravo ul.

5935

Karomatdin kiyib ul xil'ati xos,
Iziga qaytdi jamlab ganji ixlos.

¹⁹³ Kulli kavnayn – ikki dunyo, dunyo va oxirat.

¹⁹⁴ Qobi qavsayn – ikki qosh orasi, juda yaqin ma'nosida.

Gul erdi, sarvdek yuksaldi Ahmad,
Hilol erdi, to'lin oy bo'ldi Ahmad.

Xaloyiqqa xabar keltirdi, shodlik,
Ki ummat topdi do'zaxdin xaloslik.

Aziz joniga, ul olamga sarvar,
Paypay bo'lsin ahsant, ofarinlar!..

Nasihah va kitob xotimasi

Nizomiy, sohibi mehru vafo bo'l,
Chunon aftoda bo'lgin, benavo bo'l.

5940 Duru gavhami ko'rgil, tushdi pastga,
O'shal aftodalikdin chiqdi boshga.

Mudom tuproqda don bo'l, unmog'ing bor,
Boshqoq bo'lma, uzib, etgaylar abgor.

Madoro ayla, xo'yi charx tunddir,
Saxovat qilki, umring necha kundir.

Havo og'ir esa, gard birla do'stlash,
Davo mushkul esa, dard birla do'stlash.

Tabibi ro'zgor afsunni bizga
Sotarkan, har daqiqa to'ni o'zga.

5945 Gahi nishtar urib der ayni davo,
Gahi nordon berib der dat'i safro.

Quloqqa tig' urib, ko'nglin etar xush,
Damulaxvinidir xuni Siyovush.¹⁹⁵

Bu malhamdin jarohat asta bitmas,
Bu dorudin kishi darddin qutulmas.

Go'dak yanglig' yotib, barmoqni so'rgil
Va o'z qoningni chun shiru shakar qil.

Saxovat, shodliging anjirdin o'rgan,
Go'dakdir. siynadir sutdir u har dam.

5950 Bu erda o'ynamak shatranj ziyondir,
O'yin ruxlar aro ketsa, yomondir.

Darig'o, band etib shatranjga o'zni,
Urarsen har zamon tuproqqa yuzni.

Bu chodir ichra poying bog'lidir, band,
Bu arqonlarni uz, otgil bo'yindan.

Oyoqdin ech kovushing tor esa gar,
Cho'loq etgay oyoqni tor poyafzal.

Qadam bos, baski yurdingmi, etarsen,
Bu yurtni sen tasavvur etmagansen.

5955 Agar aysh ersa, so'ng yuz ranju ozor,
Agar gul ersa, so'ng yuzlab tikon bor.

Kechib achchiqligu zahmatda yoshlik,
O'tar safroyu savdoda tiriklik.

¹⁹⁵ Damulaxvini – qarindoshning qoni.

Tiriklik ul o'tar dardu azobda,
Shu vahshiy bo'ri birlan bitta qopda.¹⁹⁶

O'lim etgach, ko'ngilda dog'u armon,
Bu Gurgondin borarmiz to u Kirmon.¹⁹⁷

Bu Gurgondin u Kirmon yo'li ancha,
Chu bizdin to ajal ham bori qilcha.

5960 Yarodir boshimiz, yormish uni toj,
Qo'yarmiz ul sababdin tizzaga bosh.

Magar bosh haybati jallodni ko'rgay,
Ajab yo'q, o'zni ul tizga o'girgay.

Bu yurtni ko'rki, bizga ko'chgohdir,
Na yurtdir, balki bir zindonu chohdir.

Magar yoz kelsa, o'tdek tob olurmiz,
Yonarmiz, qor suvin istab qolurmiz.

Magar uchqunlasa qor, par to'karmiz,
Va qunduz mo'ynasiga burkanarmiz.

5965 Bu poy birlan yurish ne manzil etgay?
Bu par birlan uchish qaylarga etgay?

Sitamkorlik qilurmiz gohi yuz bor,
Omon bo'lsin zaif, oddiy sitamkor!

Chumoliga etar bo'lsa ziyoni,
Ilondin olgusi kimsa jazoni.

¹⁹⁶ Vahshiy bo'ri – hirs, tamah ma'nosida.

¹⁹⁷ So'z o'yini: Gurgon – bo'rilar, Kirmon – qurtlar.

O'zim ko'rdim kechib bir kun guzargoh,
CHumoli ovladi bir qushga nogoh.

Arodi lahzayi dam o'tmaguncha,
O'zi bo'ldi bo'lak bir qushga o'lja.

5970 Yomonlik aylasang, kut endi ofot,¹⁹⁸
Tabiatdin kelur senga mukofot.

Falak adlu muruvvat ko'zgusidur,
Ki sendin kelsa har ne, ko'rsatur ul.

Munodiy bo'ldi, kim etsa yomonlik,¹⁹⁹
Etar o'z joniga ul beomonlik.

Hikoyat aylamish farroshi bul roh,
Ki qazsa har kishi, o'zigadir choh.

Bu dunyo sahnini bo'sh ko'rma zinhor,
Zaminu osmon ichra hakam bor.

5975 Va har toshkim ko'rarsen mo'tabar tut,
Nihondir balki unda durru yoqut.

Isodek kimning ersa to'tiyosi,
Bo'lur ilkida dori har giyosi.

Ko'rarda ko'zimiz ersa taboh ul,
Ne bilgaymiz ko'rib, gulmi, giyoh ul?

Tasavvur etki, attori vujudsen.
Yonarsen oqibat otashda, udsen.

¹⁹⁸ Ofot – ofatlar.

¹⁹⁹ Munodiy bo'ldi – jar solib aytili.

Agarchi Jolinus ilmidasen tek,
Ajal etsa, qolursen Jolunusdek.

5980

Chu ojizvor o'larsen oqibatda,
Ki Aflotunmisen yo kurdi sodda.

Ne xushdir bu nasihat yodin olsang,
O'limdin ilgari bir bora o'lsang.

Xaloq yo'q o'zni murda aylamasdin,
Qutuldi to'ti chun aylab qafasdin.

Bu keksa bo'ridir, bilsang, namatpo'st,
Ichib ont, unga Yusufdek esang do'st,

Bichar to'ningni ul, jon tig'lagaysen,
Kulib bir ko'zda, birda yig'lagaysen.

5985

Omonsizdir, yovuzdir, ko'rgil oni,
Omon qo'ygaymi xunu ustuxonni?

To'kib suv shishadin har lahza mundoq,
Yelarsen tobakay g'alvirda tuproq?

Bu to'qqiz go'sha ichra to'rt xona,
Bitar oxirda, qolmas jovidona.

Kelur vaqt, to kelur ul fursat oxir,
Ochilgay parda, etgay sirni zohir.

Bu davrondin ko'rinmas gard, kukun-da,
Ko'rarsen birgina jismingni unda.

5990

Bu erdin oziq ol, chunki alaf bor,
Bu erdin inju ol, chunki sadaf bor.

Va ul mushkin sadaflarda nihoniy,
Baso durlarki, ul durri maoniy.

Ko'rarsen pardalarki, turfa rangi,
Navolar yangragaydir yangi-yangi.

Ko'hankorlarki so'zga berdilar jon,²⁰⁰
So'z ermas, tizdilar ne durri marjon,

Demishlar: so'z ko'hanzolu mutarro,
Agar ul Zoli zardir, balki Anqo,

5995 Kecharkan ro'zgor, unga qo'nar gard,
Etar ul marvarid ruxsorini zard.

Demasmen, eski so'z yangicha bo'lmas,
Chu Doqyonus pulidek qadridir past.

Kechib besh yuzu etmish oltidin yil,
Go'zallarni kim etmish bo'yla tasvir?

Eshitdim, bir kelinchak har diyorda,
Mening mehrim-la yashnar lolazorda.

Magar ko'ksinni pora ayladim men,
Va she'rimga nishona boyladim men.

6000 Va har kimki ko'rar do'stini menda,
Kurur ul baski mag'zi jonim unda.

Agar men joni mahjub, shu tanimdur,
Magar Yusuf esam, bu ko'ylagimdur.

²⁰⁰ Ko'hankorlar – kechmish ustozlar ma'nosida.

Kelinchakni magar tuproq ko'mar, bas,
Ko'mar ko'zlarda, ko'ngilda ko'milmas.

Hama ul siru asror bizda zohir,
Xizr deysan, Xizr ham shunda hozir.

Nizomiy ham bu dostonda chunoniy,
O'qi, har so'zda hozirdir nihoniy.

6005 Yashirgaydir nechuk ul jilvasozin,
Ki har bayt ichra aytsa senga rozin?

Kechib yuz yil so'ralsa, qayda ul deb,
Berar baytim sado, men bundaman deb.

Ipak qurti kabi kechgay hayotim,
Ipak etmoq bargni – mashg'ulotim.

Harom bo'lsin suvim, ichsam uni xom,
Halollik ul mening komimdadir, kom.²⁰¹

Magar ganj topmasam, yo'q tunda tinchim,
Ochiqdir hammaga shu koni ganjim.

6010 Zamindek tortadurnen har zamon ranj,
Chu arpa donidek olgum deya ganj.

Esam gar avvalida bir siqim don,
Berarmen so'ng o'rim paytida xirmon.

Tasanno shu zaminga, qutli siyna,
Ki bergay bir hovuch donga xazina...

²⁰¹ Kom – bu yerda og'iz va maqsad ma'nosida.

Hasadchilarga malomat yog'dirish

Kishikim ul Nizomiyga etar rashk,
Dili oh bilmasin ham diydasi ashk!

Kelu ko'r tun aro kon qazganimni,
Na yolg'iz kon, magar jon qazganimni.

6015 Ki bir durdona topguncha chekib xat,
Chekarmen necha karra ranju zahmat.

Yoqarmen baski otashdin dimog'im,
Uzun tunlar qo'limda shabchirog'im.

Yubordim shoh ganjboniga oni,
Yuborgay toki necha arpa doni...

Xudoyo, harfgirlar ko'z tikurlar,
Devor tutgilki, harfimi ko'rmasinlar.²⁰²

Yomonir, yaxshidir ul, bori so'zdir,
Hama yaxshini istar, yaxshi ozdir.

6020 Magar ma'nodin ersa benasib ul,
Bilingkim, zoru nochordir, g'arib ul.

Agar shersan, g'aribga urma panja,
G'ariblar etar itlar shikanja.²⁰³

Baso munkirki ul qasdimga tushdi,
Menga tig' urdi, lekin sham'i o'chdi.

²⁰² Harfgirlar – ayb, nuqson izlovchilar. Harf – so'z, kalmia ma'nosida.

²⁰³ Shikanja – ranj-ozor, azob.

Baso go'yoki, so'z aytmog'idin xush,
Chu men birlan talashgach, tortdi xomush.

Isodek ikki tizda cho'ksa odam,
Olur ul to'rt oyoqli eshshak ul dam.

6025 Ne tong, dushmanlar otgan ta'na toshdin,
Sovut kiygan esam zarrin quyoshdin.

Magar mendin yoqar sham'ini yulduz,
Quyoshim izlamas bir kimsa, afsus.

Yo'limda har safar men zarra ko'rdim,
Uni erdin olib, ko'kka ko'tardim.

Magar tosh otdilar, kosamga tegdi,
Siniqlar gavharu durdonam endi.

Bulutdek suv o'g'irlab dengizimdan,
Sotarlar so'ng ko'zim oldida zimdan.

6030 Olurlar suvni chun olmoqqa bahra,
Ichardim, sepsalar gar, qatra-qatra.

Sabrni ko'r, bilib men hindu zotim,
So'rarmen har nafas turkona otim.

Gabi bepardani mavzun etarmen,
Gabi chumchuqni ham lochin etarmen.

Gahi zog' ko'zi ersa menga ravshan,
O'qirmen gohida qallobga absan.

Eshitsa bir qulog'im ta'nalarni,
Yetar ikkinchisi tabrik ularni.

6035

Boqarmen har daqiqa so'lu sog'im,
Shamolda o'chmagay nogoh charog'im.

Yonar bo'lsa charog' bir xonada gar,
Qo'yarlar to'ldirib yog'ini har gal.

Va qayda anbarin sham tarqatar nur,
Sovuq eldin socharlar unga kofur.

Shakardin so'ng tutarlar og'uli jom.
Va nozik nuqtadin so'ng ta'na, dashnom.

Chu daryodek socharmen dur agarda,
Botarmen shuncha toshdek ta'nalarga.

6040

Olib dur, suvga otgaylar kesakni,
Yana derlarki, otgaymiz, kerakmi?

Shirin etmish og'izlarni zabonim,
Taxirdir zahri qotildin dahonim.

Ho'kiz yanglig' qochib qo'rquvda yaksar,
Hama yo'llarda oziq izlagaylar.

Chaqin kulgusini bir lahza qo'ymas,
Cho'kib, suv ichra ham otashdadir, bas.

Ko'ngil, ganj ermasang, ohing xatoli,
Ilonlardin emasdir ganj xoli.

6045

Chiqar tovus bihishtdin tovlanib, hay,
Ilon posbon bo'lib eshikda turgay.

Tovusga mo'hra sochgaydir ilonlar,²⁰⁴
Tovus birlan ilonlardin g'ulomlar.

Nigori ikki irqdir naqshi damsoz,
Ato hindi, anosi turki tannoz.

Tagi mis, usti garchi kimiyodir,
Xato aytdim, chu ganju ajdahodir.

Durimni men azim daryoga otdim,
Charog'imni chalipo uzra yoqdim.²⁰⁵

6050 Ko'tar durdonani, daryoni qo'ygil,
Charog'imni chalipodin ayirgil.

Dema otashparastlik rahnamundir,
Sen ul so'zlarga boqkim, bori xundir.

Kelinni ko'rgil, unda taxt ila toj,
Tayanchi har nafas tavidu me'roj...

Tug'ral shoh hakim Nizomiyni o'z huzuriga chorlagani

Etib andisha andoq aqlu tiynat,
Berarkan lo'batimga sehru ziynat,

Ki har yoqdin muborakbodim o'ldi,
"Tariqulaqli vohid" yodim o'ldi.²⁰⁶

²⁰⁴ Mo'hra – bu yerda xof ma'nosida

²⁰⁵ Chalipo – xoch, krest.

²⁰⁶ Tariqulaqli vohid – aqlning yo'li yagonadir.

6055

Magar taxt uzra oydir, mohitob ul,
Qo'yib tur oyni, ravshan oftob ul.

Xarid aylashdi aylab dilpisandlik,
Berib boshimga osmondek halandlik.

Muyassar bo'ldi muncha mulku molim,
Hisob etmoqqa chun etmas majolim.

Base chiniy matolarkim mislsiz,
Havoda mushku anbar erdi yolg'iz.

Hamon tulporki, yo'rg'a, xusravoniy,
Egar-jabdug'i zar, tavqi kayoniy.

6060

Shirin so'zlarki yo'lda erdilar esh,
G'ulomlar o'n, kanizaklar edi besh.

Qabul payti ishim jumboqqa tushdi,
Otim munkib, yukim tuproqqa tushdi.

Qabul qilguvchi ranjib ketdi shunda,
O'rilmay qoldi bug'doyzori bunda.

Base afsus chekardim vo dorig' deb,
Nadomat nishtarini ko'ksimga sanchib.

Chopar keldi banogoh, ilkida xat,
Salom bergach dedi: "Ey sohibi baxt,

6065

Ki o'ttiz kun safar qil ot surib to,
Chu o'ttiz farsang unda mavkabi shoh.²⁰⁷

²⁰⁷ Mavkabi shoh – podsho va uning xos odamlari.

Seni ko'rmoq tilaydir necha bir kun,
Qichab otingni yo'l bos kun demay tun".

Uzatdi xat, dedi: farmoni shohdir,
Senga posbodiru ta'vizi rohdin...²⁰⁸

Qo'yib boshimga chun mehrimni sochdim,
O'pib uch karra so'ng muhrini ochdim.

O'qib farmonni tashvish ketdi boshdin,
Kalit temirdanu temir toshdin.

6070 Ko'ngilga to'ldi nur, behad sevindim,
Hamon sakrab turib, otinga mindim.

Hamon sahro sari yurdim shitobon,
Jadal yurdim oshib tog'u biyobon.

Qulonlar birla yo'llarda quvishdim,
Garov o'ynab necha qushlar-la uchdim.

Uchardim yo'lda raqs aylab desam, rost,
Magar ostimda tulpor erdi raqqos.

Yo'l uzra sajda aylardim qalamvor,
Yurib boshim-la har dam misli pargor.

6075 Va har manzilda xalq shomu sabohlar
O'qirdi davlati shohga duolar.

Ichib har chashmaning obi safosin,
Qilib shukrona, etdim shoh duosin.

²⁰⁸ Ta'vizi roh – yo'l tumori.

Sabokim tog'u daryodin esardi,
Menga shoh lutfini payg'om etardi.

Shahanshoh atru bo'yi birla yaksar,
Zamin ostimda erdi mushku anbar.

Magar sur'at-la yo'l bosdim bag'oyat,
Etib dargohga, er o'pdim nihoyat.

6080 Kirib eshikchi shohga ma'lum etdi,
Ki chashma yo'l bosib daryoga etdi...

Berib amrin javohirxonasidin,
Yonib sham' singari parvonasidin.

Dedi shoh: "Tur, Shamsiddin Muhammad,
O'shal zohidni bizga ayla da'vat".

Chiqib dargohi shohdin hojibi xos,
Necha gavharga noil bo'ldi g'avvos.

Bazmga eltdilar shoh da'vati-la,
Utorud etdi oy burjiga bo'yla.

6085 Bazmda shoh edi monandi xurshid,
Nasibi toji Kay ham taxti Jamshid.

Falak oldida er o'pmoqqa hozir,
Sipohi oyga tig' urmoqqa qodir.

Shukuhi toji erdi sha'nu fardin,
Ki Qirvon jomasi qir erdi andin.

Tarafdorlarki, Saqsin to Samarqand,
Edi dargohida xodim, kamarband.

Eshigi barcha karvonlarga ochiq,
Ki har yonda qalashgan yuk edi, liq.

6090

Azim daryoki, niliy erdi rangi,
Ichida yonma-yon duru nahangi.

Qizilshoh toj kiyib, tutmish edi taxt,
Ki tojdek boshiga qoʻnmish edi baxt.

Chu bazmi ham bihishtdin erdi balkim,
Hama havzaklar erdi mayga lim-lim.²⁰⁹

Saxovatli qoʻli baxsh aylagay to,
Gahi shahru shahar bojini goho.

Qurolli soqchilar har onda tayyor,
Qadarxonlarga ul eshik edi tor.

6095

Sadoyi argʻanun ham nolayi chang,
Etardi yuksalib Zuhroga ohang.

Ipak torlarning ul tinglab navosin,
Ipak kiyganlar ul yirtar yaqosin.

Navolar aylabon chun pardasozlik,
Etardi lahza-lahza jonnavozlik.

Nizomiy soʻzidin aytib gʻazallar,
Chalib chang, xonish aylardi goʻzallar.

Damodam may edi ul mayga payvast,
Shahanshoh may ichib, badxoh edi mast.

²⁰⁹ Havzaklar – hovuzchalar.

6100

Xabar etkazdilar: kelmish Nizomiy,
Ki shohga bo'ldi bu shodlik payomi.

Qabul etdi kulib ul xayrixohim,
Sabab ermasdi bul zohid kulohini.

Buyurdi, oldilar may birla jomin,
Menga ko'rsatdi andoq ehtiromin.

Hama soqiyga aylab xayru xo'sh ul,
Hama mutribni ozod etdi, xush ul.

Ishorat etdi bir kun sozu jomsiz,
Nizomiy-la bo'laylik bunda yolg'iz.

6105

Uning nazmi jarangdordir sadodin,
Uning aytar so'zi xushdir navodin.

Xizr kelmish, qo'yib jomu bayotni,
Topaylik Xizr ila obi hayotni...

Keyin ul hojibi xos keldi xursand,
Dedi: "Kir ichkariga, ey xiradmand!"

Kirib bordim, edi jismimda titroq,
Misoli zarrakim, oflobga mushtoq.

Egib bo'ynim, qo'yib boshimni erga,
Dedim: har ikkisi ham sadqa senga!..

6110

Va erdek poyi taxtin o'pganim on,
Banogoh o'rnidin qo'zg'oldi osmon.

Meni bag`riga bosdi shohi ochun,²¹⁰
Chumoli-la Sulaymon o`ynamish chun.

Ko`ngil shoh iltifotidin urib jo`sh.
Men ochdim ikki ul olamga og`ush.

Qiyomi xizmatiga yuzni surdim,
Kulib, o`ltir, dedi, darhol o`tirdim.

Necha so`z so`zladimki, arjmand ul,
Kamoli davlatiga dilpisand ul.

6115 Eshitsa, jannat ahli shod bo`lardi,
Jahannam soqchisi yayrab kulardi.

Nasihatlarki, ul shohlarga loyiq,
Vasiyatlarki, eshik andin ochiq.

Base poladalarkim, za`faroniy,²¹¹
Shakar kulgusiga berdim nihoniy.

Bulutdek gohi ko`z yoshi to`kib ul,
Kulardi gohida, yashnardi gul-gul.

Chunonam so`zladim, shoh ahsant aytdi,
Aql bedoru jahl uyquga ketdi.

6120 Samoyim etdi soqiylarni behush,
Mug`anniy qildi dostonni faromush.

So`zimdin shoh ko`ngilni xush etardi,
Shirin deb sharbatimni no`sh etardi.

²¹⁰ Shohi ochun – shohi olam.

²¹¹ Za`faroniy poluda – sof, sariq oltin.

Aroga ul “shirin” so‘ziki tushdi,
Hadisi Xusravu Shirin etishdi.

Qulin elkamga qo‘ydi shu zamon shoh,
Qulog‘imga o‘qib tahsin, tasanno,

Shirin so‘zlar ila aylab inoyat,
Etib Xusrav va Shirindin hikoyat,

6125 Dedikim, “Sohibi gavhar sen erding,
Bu san‘at ichra so‘z dodini berding.

Hikoyatlarki beandoza qilding,
Qadim tariximizni toza qilding.²¹²

Kelinchak erdikim Shirinsavoriy,
Niqobi ichra shirin erdi bori.

Ki bizga aylading andoq halolin,
Ne erdi qiymati ul zulfu xolin?

Ano suti kabi aylab senga farz,
Tayin etmak maoshing men uchun qarz.

6130 Og‘am erdi shahanshoi jahon ul,
Jahonga shoh edi ham pahlavon ul.

Chekib sen noma uzra necha yil ranj,
Ne berdi haqqiga, gavharmidir, ganj?

Eshitdim, chun xulosa bo‘ldi andoq,
Akam bermishdi senga ikki qishloq.

²¹² Toza qilding – yangilading ma‘nosida.

Ega bo'ldingmi sen mulkingga yo yo'q?
Dalil tegdimi ilkingga yo yo'q?"

Hamon bildimki, istar fayzi daryo,
Bozurgon istagin etsa muhayyo,

6135

Ki ul xoki xarob obod bo'lgay,
Jafokash bandidin ozod bo'lgay.

Duoyi baxtiga ilkimni ochdim,
So'zimdin dur terib, taxtiga sochdim.

Chunon aylab duoyi davlati shoh,
Uni charx hiylasidin etdim ogoh:

"Magar bu tojna men ziynat beroldim,
Bahoyi sarvat ermasdi murodim.

Menga maqsad edi aytib fasona,
Duoyi shoh etsam so'fiyona.

6140

Tilimda shohga chun shukrona bisyor,
Hadisi Shakkaru Shirin ne darkor?

Bale, shohi said aytgandin ortiq,
Menga molu mukofot etdi tortiq,

Adanga kemasin etdi ravon ul,
Na menga, barchaga etdi ziyon ul.

Vale sen borsan. ey sohibi farmoy,
Va ul shahzodalarkim, kishvaroroy.

Etishsa rag'batim mulku maoshdin,
Qizir bozorim unda qayta boshdin".

6145

Ko'rib xush ul duoyu ta'rifim shoh,
Ki ixlos birla jondin erdi ongoh,

Ko'tardi hamdu ixlos birla ko'nglim,
Etib Hamduniyon kentini mulkim.

Va shu haqda qo'linga berdi farmon,
Qizilshoh muhridir unda namoyon.

Ki "Bizdin baxsh etildi kent tamomiy,
Anga sohib erur erdi Nizomiy.

Bu mulkni berdim unga beg'aromat,
Uning mulki bo'lur toki Qiyomat.

6150

Kishikim etmagaydir bunga bovar,
U menga dushmanu haq unga dovar.²¹³

Agar ta'n aylar ersa bir xasise,
Jahonda bo'lmasin unga anise!

Va la'nat bo'lsin unga har zamona,
Bo'lib la'natga ham nasli nishona".

Chu omadsizga omad keldi nogoh,
Saxovat eshigin ochdi shahanshoh.

Solib ko'nglinga ta'yidi ilohiy,²¹⁴
Yopib elkanga xil'atlarki, shohiy,

6155

Berib tashrifga manshurimni mundoq²¹⁵,
Va toatgohda dasturimni mundoq.

²¹³ Dovar - ?

²¹⁴ Ta'yid - madad.

²¹⁵ Manshur - imtiyoznoma.

Chunon yuz ochdi menga baxti ma'sud,
Muyassar bo'ldi go'yo taxti Mahmud.

Borardi Ka'ba sori misli hajjoj,²¹⁶
Kelardi misli Ahmad, nuri me'roj.

Bilarsen, bor-ku ul hosid, faloniy,²¹⁷
Ki o'g'ri kissavur derlar nihoniy.

Yusuf surat, vale bo'riga hamzod,
Uzatdi tig' qo'shib halvoga, hayhot!

6160 Ki "Ey qadringni hech bilgaymi dunyo,
Ne hojat shunchalar shukru tasanno?"

Go'zalkim, osmon zoru adosi,
Buzuq, vayronadirmi ro'namosi?²¹⁸

Kishi qishloqmi der ul joyi tangni?
Yarim farsangcha ham kelmaydi sahni.

Hamisha xarji ortiq, foydasi oz.
Ekar yarmiga ekin ahli Abxoz".

Javob berdim: "Birovdin kelsa himmat,
Kishi aylarmi hech kufroni ne'mat?"

6165 Tun oydin pallasi, ey o'g'ri axmoq,
Nechun vayronaga tushgaysen andoq?"

²¹⁶ Hojilar.

²¹⁷ Hosid – hasadchi.

²¹⁸ Ro'namo – yangi kelinchakningyuzko'rdi marosimida unga beriladigan sovg'a, ko'rmana.

Qo'y ul Hamduniyonni, bunga boqkim,
Ki o'n qishloqdin afzal bitta baytim.

Gar ul qishloqda ko'rgaysen ziroat,
Mening baytimda yashnar bog'i jannat.

Gar unda donadin o'nlab boshloqdur,
Boshloq tortar mening so'zimda ham dur.

Gar unda fayz erur nahri Firotdin,
Mening o'e'rimda fayz obi hayotdin.

6170 Gar unda bitta o'rmon ustuvordir,
Mening she'rimda yuz udu chinordir.

Dema maqsad menga molu manol ul,
Etarmen ishnikim, vajhi halol ul.

Xarob etsa bugun ul mulku ma'vo,
Uni obod etar shu davlati shoh.

Chu yolg'iz dur sadaf xirmondin afzal,
Shirin bir kosa suv to'fondin afzal.

Shahanshoh bitta ul qishloqni berdi,
Magar o'n bersa hamki, joiz erdi.

6175 Vale ul ko'rdikim, men shodu xandon,
Viloyatdin shu joyni etdi ehson.

Chu men xursandmanu berguvchi xushnud,
So'zing behudadir, tark aylagil zud".

**Shamsiddin Muhammad
jahonpahlavon o'limiga taassuf**

Ne deb erdim, so'zim qaylarga bordi,
Qayon bordim, yukim qaylarda qoldi?

Jahoniy pahlavon bong urgan ul dam,
G'ubori fitnadin poklandi olam.

Shukuhin besh karat ko'kdin oshirdi,
Nufuzi etti iqlimni shoshirdi.

6180 Ketardi bongidin har yon sado ul,
Birov bilmasdi, bongi alvido ul.

Etardi bong sasi ne marralarga,
Ki shoh chiqmish deya so'nggi safarga.

U taxt uzra faqat bir lahza tindi,
Chaqindek chaqnadi, ko'z ochdi, yumdi.

U bahra olmadi bog'i bayotdin,
Va Iskandar kabi obi hayotdin.

Shahodat topdi dushman tig'idin bot.
Bu dunyodin unisi bo'lsin obod!

6185 Xarobiydin kechib, uchdi falakka,
Qo'yib xokiy tanin, ko'chdi malakka.

Ketib daryo, qolib durdonalar xo'p,
Ocharlar bizga eshik undanam ko'p.

Agar gavhar tarafga ul ravondir,
Shukur, gavharga vorislar omondir!

Gar unga fayzi rahmat bo'ldi soqiy,
Jahon bo'lsin uning nasliga boqiy!

U orom topdi gar tuproq makonda,
Bu baxt topguvchilar bo'lsin omonda.

6190 U tushdi yo'lga chun betaxtu betoj,
Bu shohlar boshidin hech tushmasin toj!

Xususan, ulki bor shohlarga voris,
Uning sha'nigadir xayri duomiz.

Muayid Nusratiddin, borliq olam
Uning nomidin olgay nurin har dam.

Va shohlarga panoh A'zam Atobak,
Shukuhi bo'lsin olamga muborak!

Abubakri Muhammad aylagay dod,²¹⁹
Abubakru Muhammadni etib shod.

6195 Va shohi tojbaxshu tojdorlar,
Va davlat orqatog'i shahriyorlar.

Ki donosiga yulduzlar shakarxand,
Ki mavlosiga to'qqiz ko'k kamarband.

Tutib anjum mudom taxti oyog'in,
Falak o'pgay mudom oti tuyog'in.

²¹⁹ Dod – bu yerda adolat ma'nosida.

Etib taxt uzra ul kishvarkusholik,
Necha ellarga etsin kadxudolik.

Jahonda to abad tursin shahanshoh,
Tiriklik gashtini sursin shahanshoh.

6200

Saodat yori bo'lsin, komronlik,
Hamisha boshida baxtu omonlik!

Saodat birla so'zni etdim oxir,
Etar manzilga qistab etdim oxir.

Xato gar aylagan ersam, Xudoyo,
Kechir, lutfu karam qil menga hamroh.

Hayoti shodu xurramlikda o'tsin,
Nizomiyni desa kim: rahmat etsin!..

Mundarija

So'zboshi.....	9
Debocha	16
Hazrati Boriyning tavhidi, tanholigi	17
Yaratganni bilish xususida.....	21
Munojot.....	24
Rasuli akram sallallohu alayhi vassalam vasfida.....	28
Kitob nazmi xususida.....	31
Tug'ril Arslon madhi	34
Atobeki a'zam ta'rifi.....	39
Er o'pib aytur	44
Qizil Arslon ta'rifi.....	48
Hikoyat.....	53
Kitobning asl ma'nosi	54
Ishq bayonida	59
Kitob nazmi xususida uzrxohlik	61
Doston ibtidosi	67
Buzurgummid sifati	70
Xusrav bir chamanzorda ishrat etgani.....	72
Xusrav pirlar vositasida otasidan uzr so'ragani	75
Xusrav tushida bobosi Anushervonni ko'rgani.....	77
Shopurning Shirin va Shabdizdan hikoyat aytgani.....	79
Shirin jamoli vasfi.....	81
Shabdiz sifati.....	86
Shopur Shirinni izlab Arman o'lkasiga borgani	88
Shabdiz zoti haqida	90
Shopur Xusrav suratini ilk bor ko'rsatgani	92
Shopur Xusrav suratini ikkinchi bor ko'rsatgani	95
Shopur Xusrav suratini uchinchi bor ko'rsatgani	97
Shopurning paydo bo'lgani	100
Shirinning ovga chiqib, Madoinga qochgani	112
Shirinning chashma suvida cho'milgani.....	117
Xusrav chashmasorda Shirinni ko'rgani.....	119
Shirin Madoinga, Xusrav qasriga borgani	131

Shirin uchun qasr bunyod etishgani	133
Xusrav Mehinbonu huzuriga borgani	136
Xusrav ishrat majlisi tuzgani	140
Shopur Xusravga Shirindan xabar bergani	143
Shopur yana Shirinni izlab borgani.....	147
Xusrav otasi vafotidan xabar topgani	153
Xusrav otasi o'rniga taxtga o'ltirgani	156
Shopur Shirinni Mehinbonu oldiga boshlab borgani.....	158
Xusrav Bahrom Cho'bindan qochgani.....	160
Xusrav va Shirinning shikorgohda uchrashgani	162
Mehinbonu Shiringa ont ichirgani	166
Xusravning Shirin bilan chavgon o'ynagani.....	169
Bahor sifati.....	173
Xusrav bazmgohda arslonni o'ldirgani.....	176
Xusrav va Shirin, Shopur va qizlarning afsona aytishgani	180
Shirinning kanizaklari masal aytishgani	183
Shopurning masal aytgani.....	185
Shirinning masal aytgani.....	186
Xusravning masal aytgani.....	186
Xusrav Shirindan arazlab, Runga yo'l olgani	191
Shirinning javobi.....	194
Xusravning Shiringa javobi	197
Shirinning Xusravga javobi	201
Xusravning Shiringa yalinib yolborgani	203
Tong otgani	205
Xusrav Shiringa "xayr" deb yo'lga tushgani	208
Xusrav Bahrom ustidan zafar qozongani	212
Xusravning ikkinchi bor taxtga o'ltirgani.....	217
Xusrav hajrida Shirin nola chekkani.....	223
Mehinbonu vasiyati.....	228
Shirin taxtga o'ltirgani	234
Shirinning Madoinga kelgani.....	236
Bahrom Cho'bin o'limi.....	238
Xusravning bazm aro etgani	245
Borbadning o'ttiz taronasi.....	245

Xusrav Shirinni keltirmak uchun Maryamdan izn so'ragani.....	252
Xusrav Shirinni keltir deb Shopurni yuborgani.....	255
Shirin Shopurga itob etgani.....	257
Farhod ishqining ibtidosi.....	273
Shirin Farhodni ko'rishga kelgani.....	280
Farhod Shirin ishqida nola chekkani.....	281
Xusrav Farhod ishqidan xabar topgani.....	287
Xusrav Farhod haqida maslahatlashgani.....	289
Xusrav Farhodni o'z huzuriga chaqirgani.....	290
Xusrav va Farhod munozarasi.....	291
Farhod tog' qazib, kuch-qudratini ko'rsatgani.....	296
Shirin Besutun tog'iga borgani.....	308
Shirin Farhod yoniga borganidan Xusravning xabar topgani.....	312
Xusravning Shiringa kinoyali ta'ziyanomasi.....	320
Maryamning o'limi.....	325
Shirin Xusravga kinoyali ta'ziyanomasi.....	327
Shirin maktubining Xusravga etgani.....	332
Xusrav saxovati.....	334
Xusravning taqdisiy taxtida o'ltirib, mayxo'rlik qilgani.....	335
Xusrav isfahonlik SHakarning ta'rifini eshitgani.....	340
Xusrav Shakarni istab Isfahonga borgani.....	342
Xusrav Shakarga sovchi qo'ygani.....	349
Shirin yolg'iz qolib, nola chekkani.....	355
Tong ta'rifi.....	359
Shirin Yaratganga iltijo etgani.....	360
Xusrav Shirin qasriga borgani.....	364
Xusrav Shirin bilan so'zlashgani.....	373
SHirin Xusravga javobi.....	375
Xusravning Shiringa javobi.....	381
Yana Shirin javobi.....	384
Yana Xusravning javobi.....	390
Yana Shirin javobi.....	393
Yana Xusravning javobi.....	400

Yana Shirinning javobi	405
Yana Xusravning javobi	411
Yana Shirinning javobi	416
Xusravning Shirin qasridan qaytгани.....	421
Shopurning Xusravga javobi.....	426
Shirin Xusravning ketganiga afsus chekkani.....	429
Xusravning tushi, Shopurning ta'бири.....	433
Xusrav shikorgohda bazm etгани.....	434
Nakiso SHirin tilidan g'azal aytгани.....	440
Borbad Xusrav tilidan kuylagani	442
Yana Nakiso Shirin tilidan kuylagani	444
Yana Borbad Xusrav tilidan kuylagani.....	447
Yana Nakiso Shirin tilidan kuylagani	451
Yana Borbad Xusrav tilidan kuylagani.....	454
Yana Nakiso Shirin tilidan kuylagani.....	456
Yana Borbad Xusrav tilidan kuylagani.....	460
SHirinning chodirdan chiqib kelгани.....	463
Xusrav Shirinni Madoin shahriga keltirгани.....	469
Xusrav va Shirinning to'yi.....	472
Shirin ilm va chson borasida Xusravga nasihat etгани	485
Xusravning Buzurgummid ila savol-javobi.....	488
Hazrati Payg'ambari akram (sav.) nubuvvati.....	496
Buzurgummid "Kalila va Dimna"dan qirq qissani qirq nuqtada bayon etгани	498
Hakim Nizomiyning pandu hikmatlari	501
Shero'ya sifati va Xusrav ishining oxiri	503
Xusravning otashxonada o'ltirгани	506
Shero'ya Xusravni o'ldirгани.....	511
Shirinning uyqudan uyg'ongani.....	513
Shero'yaning Shiringa sovchi yuborgani.....	514
Shirinning Xusrav dahmasida jon berganı.....	515
Nasihat yo'lida	524
Farzandi Muhammadga nasihat	527
Xusravning tushi	528
Xusravi Parviz nomiga Payg'ambarimiz (sav) maktubi	534

Payg'ambarimiz (sav) me'roji	540
Nasihah va kitob xotimasi.....	544
Hasadchilarga malomat yog'dirish	551
Tug'ralshoh Nizomiyni chorlagani	554
Shamsiddin Muhammad o'limiga taassuf.....	566

Nizomiy Ganjaviy

Xusrav va Shirin

*Originaldan O'zbekiston xalq shoiri
Jamol Kamol tarjimasi*

Bosishga ruxsat etildi 25.10.2021 y. Bichimi 60x84 ¹/₃₂
Shartli bosma tabog'i 13.9.6. Nashr tabog'i 13,4

Adadi: 200 nusxa

“NUSXA” nashriyotida nashrga tayyorlandi.